

D.I.MADAMINOVA

# JAHON SIYOSATI

• O'QUV QO'LLANMA •



0X0000039747

TOSHKENT – 2019

327  
el-14

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

D.I.MADAMINOVA

JAHON  
SIYOSATI

(5120700- Jahon siyosati bakalavriat ta'lif yo'naliishida  
tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma)



TOSHKENT - 2019

**D.I.Madaminova.** Jahon siyosati: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDShI, 2018. – 228 b.

Xalqaro munosabatarning muhim sub’yekti sanalgan davlatlarning rivojlanish va taraqqiyot yo’li turlicha bo‘lib, jahon siyosati va xalqaro munosabatlarning rivojlanish jarayonini mantiqan anglab yetish uchun uning tarkibiy shakllanishida yetarlicha jiddiy o‘rin tutuvchi ba’zi bir unsurlarini chuqur tushunib olish kerak bo‘ladi. Xalqaro munosabatlar tizimi bugungi kunda “xalqaro siyosat” atamasi bilan ifodalanadigan baracha tushunchalarni o‘z ichiga qamrab oladi. U ijtimoiy, etnik-diniy, iqtisodiy, harbiy-strategik, madaniy, geosiyosiy, ilmiy-tehnologik va boshqa jihatlar bilan tavsiflanadi. Shu boisdan, siyosiy maydonda sodir bo’layotgan voqeа-hodisa va siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyatini anglash va muammoning yechimini topishda jahon siyosatining turli jabhalarini o’rganish va tahlil etish talab etiladi. Ma’ruzalar matni namunaviy dastur va ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tuzilgan.

Tuzuvchi:  
**Madaminova Durdona Iskandarovna**

Taqrizchilar:  
**Sayfuddin Jo’rayev**  
**Durbek Sayfullayev**

Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019 yil 2 maydagi 394-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Shaxs, jamiyat, davlat – bularning bari uzviy bog’liqlikda, uzlucksiz tarzda bir-birini to’ldirib, boyitib, rivojlantirib turuvchi tushunchalaridir. Insoniyat tabiat qonuni asosida hamisha taraqqiyotga intilib keladi. Tabiiyki, davlatimizning istiqlol va mustaqillik sharoitida hayotimiz ham shu mantiqda bo’ysunadi. Demak, taraqqiyot bir-biri bilan bog’liq, birin-ketin amalga oshiriladigan islohot va yangilanishlar zanjiridan iborat.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bugungi kunda davlatimizda kechayotgan yangilanish va taraqqiyotning yorqin ifodasi sifatida “Inson davlat idoralari uchun emas, davlat idoralari inson uchun xizmat qilishlari kerak” ekanini nafaqat so’zda, balki amalda ham isbotlamoqda. Yurtimizda olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlar asrlarga tatiflik natijalarni qo’lga kiritish imkonini berayotgani hech birimiz uchun sir emas. Shunday ekan, mavjud islohotlar demokratik jarayonlarga yangicha yondashuvni talab qilishi tabiiy. Shunga ko’ra, ularga yanada ko’proq jushqinlik bag’ishlashga qodir barcha imkoniyatlar, mexanizmlar, mavjud texnologiya va nafis tegadigan tajribadan to’liq hamda oqilona foydalanish zarur.

Xalqaro siyosat – bu davlatlarning xalqaro maydonidagi faoliyati bo’lib, u xalqaro munosabatlarning o’zagi hisoblanadi. Xalqaro siyosat davlatlar va xalqlar o’rtasidagi munosabatni tartibga solib turishga qaratilgan siyosat sifatida har bir davlatning tashqi siyosati, davlat hokimiyatining shakli, siyosiy yo’li tizimining xarakteri bilan uzviy bog’liq bo’ladi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni samarali tashkil etishda siyosiy bilimlardan unumli va oqilona foydalanish zarur. Nafaqat davlatimizda, balki xalqaro munosabatlarning boshqa sub’yeqtлari kundalik hayotida ro’y berayotgan siyosiy o’zgarishlar, yangilanishlar, ularga ta’sir ko’rsatuvchi tashqi omillar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi, mavjud voqelikni ob’yektiv baholash va siyosiy qaror qilishda muhim o’rin tutadi.

Shunga ko’ra, jahon siyosati xalqaro huquq subyektlarining urush va tinchlik masalalari, yalpi xavfsizlik garovi, atrof-muhitni himoyalash, qoloqlik va qashshoqlik, ochlik va kasalliklarni yengib o’tish bilan bog’liq siyosiy faoliyatlarining majmuuni tashkil etadi. Shunday qilib, xalqaro siyosat kishilik jamiyatining omon qolishi va rivojlanishi, jahon siyosati subyektlari manfaatlarini muvofiqlashtirishning samarali me-xanizmlarini ishlab chiqish, global va mintaqaviy nizolarning oldini

olish va hal etish masalalarini hal etishga yo'naltirilgan siyosatdir

Jahon siyosatida yuz berayotgan o'zgarishlar, yangilanishlar va tub burilishlarning mazmun-mohiyati, sabab va oqibatlari hamda ularning harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi tasavvurlarga asoslangan bilimlar ni qo'llash, siyosiy o'zgarishlarni tadqiq etish, bashorat qilish bilan bir qatorda siyosiy hayotda faol ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy foydali natijaga erishish imkonini beradi. Ushbu qo'llanma yuqoridagi maqsadlarga erishishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

# **Ma’ruza №1. JAHON SIYOSATI TARIXIGA UMUMIY SHARH. FANNING PREDMETI, OB’YEKTI VA PARADIGMASI**

## **Reja:**

1. Fanning asosiy tushunchalari.
2. Fanning predmeti, ob’yekti va paradigmasi.
3. Jahon siyosati tarixiga umumiy sharh.
4. “Xalqaro munosabatlar” va “Jahon siyosati” fanlari o’rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar.

**O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:** Jahon siyosati tushunchasi va tarixini yoritish hamda fanning predmeti, ob’ekti va paradigmasi haqida ma’lumot berishdan iborat.

## **Tayanch so‘z va iboralar:**

- Jahon siyosati
- Manfaat
- Xavfsizlik darajalari
- Siyosiy jarayon

### ***Fanning asosiy tushunchalari***

Jahon siyosati va xalqaro munosabatlarning rivojlanish jarayonini mantiqan anglab yetish uchun uning tarkibiy shakllanishida yetarlicha jiddiy o‘rin tutuvchi ba’zi bir unsurlarini chuqur tushunib olish kerak bo‘ladi. Xalqaro munosabatlar tizimi bugungi kunda “xalqaro siyosat” atamasi bilan ifodalanadigan barcha tushunchalarni o‘z ichiga qamrab oladi. U ijtimoiy, etnik-diniy, iqtisodiy, harbiy-strategik, madaniy, geosiyosiy, ilmiy-texnologik va boshqa jihatlar bilan tavsiflanadi. Xalqaro munosabatlar tizimi jahon siyosatining global tizim doirasidagi qaysi jihatlariga aloqador ekani rossiyalik siyosatshunos olim E.Pozdnyakov tomonidan yoritilgan bo‘lib, unga ko‘ra, davlatlarning o‘zaro munosabatlari, ularning tashqi siyosati, tashqi siyosiy maqsadlari va ustuvoliklari, manfaatlari bilan uzviy bog‘liqidir. Aynan ana shular xalqaro muloqotning tub negizini tashqil qiladi va shu asosda, haqli ravishda, xalqaro munosabatlar tizimining asos poydevori hisoblanadi. Shu o‘rinda, barcha jamuljamlikda alohida sifatiy mohiyat kasb etadigan

unsurlar va bog'lanishlar bilan namoyon bo'ladigan o'z xususiy rivoj-lanish qonuniyatlari mazkur tizimga xos bo'lgan odatiy tushuncha ekanligini ta'kidlab o'tish joizdir.

Olimning ta'kidlashicha, "Tizim unsurlarining o'zaro bog'liqligi, uning amal qilishi va rivojlanishi, shuningdek, uning yaxlitligi, ana shu unsurlar o'rtaсидagi bog'lanishlarning barqaror, ko'p variantli va muayyan tarzda tashkillashgan usulidan iborat bo'lgan. tizimning fuzilmaviy tashkil qilinishi yotadi. Taklif etilayotgan yondahuv doira-sida davlatlararo munosabatlar tizimi tarkiban o'zining umumiyo ko'rinishida tabaqalararo o'zaro bog'langan uchta daraja – markaziy kuch munosabatlari darajasi, bugungi ziddiyatlar darajasi va tizimli-tuzilmaviy "ustqurnma" darajasi ko'rinishida taqdim etilishi mumkin. Bunday bo'linish qanchalik shartli bo'lishidan qat'i nazar, uning ijobjiy tomoni shundaki, u davlatlararo munosabatlarni hech bir oqilona tasniflanishi-ga yo'l qo'yilmaydigan hadsiz-poyonsiz boshboshoqliklar tarzida emas, balki nisbatan tizimli ko'rinishda taqdim etish imkonini beradi".<sup>1</sup>

Shunday qilib, xalqaro munosabatlar tizimi siyosiy chegaralar bilan ajratilgan mustaqil davlatlar majmuidan iboratdir. Bu – uyush-magan, allaqanday bir amorf birlashma bo'lib qolmasdan, balki bundagi har bir ishtirokchi davlatni ayrim-ayrim olib qaraydigan bo'lsak, alohida o'ziga xoslik va aynan shu davlatgagina xos bo'lgan qadriyatlar va an'analar tizimini anglatish orqali ushbu davlatlar hamjamiyatining betakror me'moriy qiyofasiga ta'sirini ko'rsatishi.

Tizim qatnashchilar, suningdek, xalqaro munosabatlar sub'ektlari sifatida ham ma'lumdirlar. Ular (mustaqil davlatlar) quyidagi qator muhim jihatlari, ya'ni – egallab turgan hududining hajmi, quruqlik, suv va koinotdag'i transport-aloqa tarmoqlariga kira olish imkoniyatlari bilan, yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmlari bilan yoki, soddaroq qilib aytganda, quvvatining darajasi bilan, shuningdek, aholi soni va uning savdoxonlik darajasi bilan, harbiy ta'minlanganlik darajasi, ilmiy-tehnikaviy, iqtisodiy salohiyati va qudrati, qurolli kuchlari (QK)ning jangovarligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Bunday ko'rsatkichlar istalgan davlatning xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni va ahamiyatini belgilab beradi. Misol uchun, Zanzibar, Birma yoki Burkina-Faso kabi davlatlarning, xalqaro muammolarni hal etishdagi roli, ularning madaniy-tamadduniy nuqtai nazardan noyobligi va o'ziga xosligini

<sup>1</sup> Поздняков Э.А. Философия политики –М., 1994, ч.1, с.181.

zarracha kamsitmagan holda aytish mumkinki, unchalik ahamiyatli emas. Ayni paytda, AQSh, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Hindiston va boshqa ba'zi bir davlatlarning roli hamda mavqeい ularning jahon miqyosidagi qudrati va nufuziga aynan tengdir. BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolik instituti qaysi tamoyilga asoslanadi? Yoki donor – mamlakatlar va tashqi yordamni oluvchi – mamlakatlarning maqomi qaysi mezonga ko‘ra belgilangan? Ana shu va boshqa ko‘plab shunga o‘xhash savollarga javobni yana o‘sha yuqorida qayd etilganlardan topish mumkin. Xalqaro munosabatlar sub'ektlari, doimiy ravishda o‘zaro ta'sirda bo‘lar ekan, bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimi yoki xalqaro tizim deb e'tirof etilgan siyosiy-ilmiy vogelikning rivojlanishi bilan bog‘liq mazmun, tarkibiy tuzilish va mexanizmlarni belgilaydi.

Mustaqil davlat – nafaqat mamlakat ichida, balki undan tashqarida, ya'nii xalqaro maydonda ham hokimiyatning namoyon bo‘lishidir. Aynan davlat xalqaro hamjamiyat sub'ekti sifatida chiqish, shartnomalar yoki bitimlarni tuzish, urush e'lon qilish yoki sulh tuzish uchun haqiqiy hokimiyat vakolatiga egadir. Xalqaro munosabatlar har qanday davlat uchun amalda o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rishi mumkin bo‘lgan muhit vazifasini bajaradi.

Davlat o‘z-o‘zicha emas, balki xalqaro munosabatlarning o‘ziga o‘xhash qatnashchilari hamjamiyatida mavjud bo‘ladi, faoliyat yuritadi va rivojlanadi, davlatni tizimdan tashqarida tasavvur etib bo‘lmaydi. Dunyo siyosiy manzarasi o‘zgaruvchan siyosiy jarayonlar fonida o‘z manfaatlari, madaniyati, siyosiy maqsad va g‘oyalariga ega bo‘lgan turli xil davlatlarning munosabatlari majmuuni tashkil etadi. Zamonaliviy dunyo o‘zidan ulkan tizim yoki makrotizimni kasb etib, unda asosiy siyosiy subyektlar sanalgan xalqlar, davlatlar, ijtimoiy harakatlar va tashkilotlar, xalqaro nohukumat tashkilotlar ziddiyatli, birlikda va o‘zaro ta’sirda faoliyat ko‘rsatadilar. Amerikalik tadqiqotchi Yudit D. Singer fikricha, “Individdan tortib, xalqaro hamjamiyatga qadar barcha subyektlar xalqaro munosabatlarning potensial ishtirokchisidir”<sup>1</sup>.

Xalqaro munosabatlar – xalqlar, davlatlar va davlatlar birlashmalaringin xalqaro maydondagi siyosiy, iqtisodiy, diplomatik, harbiy, madaniy, ilmiy-texnik va boshqa aloqalari va o‘zaro munosabatlarning

<sup>1</sup> Yuldasheva G.I. Xalqaro munosabatlarning metodologik aspektlari. Toshkent. 2009. – B. 7.

majmuasidir<sup>1</sup>.

Xalqaro munosabatlar rivojiga muhim omil hisoblangan jahon siyosati ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro siyosat – bu davlatlarning xalqaro maydondagi faoliyati bo'lib, u xalqaro munosabatlarning o`zagi hisoblanadi. Xalqaro siyosat davlatlar va xalqlar o`rtasidagi munosabatni tartibga solib turishga qaratilgan siyosat sifatida har bir davlatning tashqi siyosati, davlat hokimiyatining shakli, siyosiy yo`li tizimining xarakteri bilan uzzviy bog'liq bo`ladi. U xalqaro huquq subyektlarining urush va tinchlik masalalari, yalpi xavfsizlik garovi, atrof-muhitni himoyalash, qoloqlik va qashshoqlik, ochlik va kasalliklarni yengib o'tish bilan bog'liq siyosiy faoliyatlarining majmuini tashkil etadi. Shunday qilib, xalqaro siyosat kishilik jamiyatining omon qolishi va rivojlanishi, jahon siyosati subyektlari manfaatlarini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, global va mintaqaviy nizolarning oldini olish va hal etish masalalarini hal etishga yo'naltirilgan siyosatdir<sup>2</sup>.

Yana boshqa ta'rifga ko'ra, xalqaro siyosat – xalqaro munosabatlarda ishtirok etayotgan davlatlar, subyektlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, siyosiy va nosiyosiy tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning xalqaro me'yorlar, qadriyatlar asosida o'zaro munosabatlarini saqlab turishga qaratilgan faoliyatlaridir.

Xalqaro siyosat xalqaro munosabatlarning asosiy subyektlarini umumiy bir maqsadga yo'naltirilgan siyosiy faoliyati, BMT va jahon hamjamiyatining boshqa qonuniy va barcha tomonidan tan olingan organlari va tashkilotlarining faoliyatida o'z aksini topgan integratsiyalashgan jarayon. Xalqaro siyosat tuzilmaviy jihatdan milliy davlatlarining tashqi siyosiy faoliyati, BMT hamda davlatlar va xalqlar tomonidan vakolat berilgan xalqaro ittifoqlar, tashkilotlar va muassasalarning global faoliyatidan iborat.

### *Fanning predmeti, oby'ekti va paradigmasi*

Xalqaro siyosat sohasi davlatlar o`rtasida vujudga kelayotgan siyosiy munosabatlarning butun maydonini qamrab oladi. Dunyo siyo-

<sup>1</sup> Турагаев А.С., Хренов А.Е. Политология. Учебное пособие. Издательский дом Питер. 2005. – С. 460.

<sup>2</sup> Крайтерман В.С. Политология. Учебное пособие для ВУЗов. Москва. 2008. – С. 178.

satining asosiy unsurlari o‘zaro bog‘liq bo‘lganligi tufayli dunyo siyosiy munosabatlari, dunyodagi yagona siyosiy-davriy makon haqida so‘zlash mumkin va zarur, barcha asosiy siyosiy xatti-harakatlar uning davomida yoki tarkibiy qismlarida yuz beradi. Xalqaro siyosatning asosiy ustuvorliklari insoniyat va uning subyektlari oldida turgan umumiy muammolarni hal etish zarurati bilan bog‘liq. Xalqaro siyosat ikki yoqlamalik xususiyatiga ega: xalqaro munosabatlarning har qanday subyekti o‘z manfaatlarini himoya qilar va amalga oshirar ekan, u yoki bu darajada boshqa davlatlarning, jahon hamjamiyatining ham manfaatlarini hisobga olishi kerak. Shunga ko‘ra, xalqaro siyosat uning subyektlarining o‘z (milliy) manfaatlari hamda butun insoniyat oldida turgan dolzARB vazifalar va umumiylar maqsadlar uchun kurashning hosilasi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asosida jahon hamjamiyatida hokimiyatga va ta’sir doirasiga ega bo‘lish uchun kurash yotadi<sup>1</sup>.

Tashqi siyosat – bu davlatning xalqaro ishlardagi tutgan umumiy yo‘lidir. Davlatning tashqi siyosiy faoliyati bu uning muayyan tashqi shart-sharoitlarga moslashuvি vositasi hisoblanadi. Bu sharoitlar alohida bir davlatning ixtiyori, xohish-irodasi va maqsadlariga bog‘liq bo‘lmay, doimo ham uning manfaatlariga to‘g’ri kelavermaydi. Shuning uchun har bir davlat o‘zining tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshirishda uning ichki rivojlanishidan kelib chiquvchi ehtiyojlari, maqsad va manfaatlarini tizimdagи obyektiv sharoitlar bilan muvofiqlashtirishga to‘gri keladi. Tashqi siyosat muayyan bir davlatning hududidan tashqaridagi davlatlar bilan yoki davlatlardagi faoliyatini nazarda tutadi. Davlatning tashqi siyosati uning ichki siyosati, ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro munosabatlarda amal qilayotgan tamoyillarga bo‘lgan munosabati, maqsadi va vazifalari bilan belgilanadi.

Tomas Gobbs nazariyasiga muvofiq har bir davlatning tashqi siyosatdagi asosiy maqsadlari quyidagilardir:

- O‘z xavfsizligini ta’minlash

- Moddiy, siyosiy, harbiy va boshqa ahamiyatli imkoniyatlarini oshirishga intilish

- Xalqaro munosabatlarda o‘z nufuzini ko‘tarish<sup>2</sup>

Xalqaro munosabatlar, tizim sifatida, quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi:

<sup>1</sup> Farmonov R.F., Jo’rayev Q. Zamonaviy siyosatshunoslik. Тошкент.: 2009. – B. 182.

<sup>2</sup> Лебедева М.М. Мировая Политика. Учебник. М.: Аспект пресс. 2003. – С. 26.

- Davlatlararo munosabatlar
- Mintaqaviy davlatlararo birlashmalar o'rtasidagi munosabatlar
- Jahonning hukumatlararo va nohukumat tashkilotlari o'rtasidagi aloqalari<sup>1</sup>

Xalqaro munosabatlar obyektiv ravishda xalqaro hamkorlik daraja-sigacha ko'tarilishi lozim. Xalqaro hamkorlik darajasiga o'tish zarurati XX asrning ikkinchi yarmida insoniyat oldida paydo bo'lgan global muammolar natijasi bo'lib, ular umumiy xavf va xatarlarda aks etgan.

Xalqaro munosabatlarning darajasi sifatida, xalqaro hamkorlik asosida, tinch-totuv yashashning 5 prinsipi yotgan bo'lib (hind tilida "pancha shila"), ular ilk bor 1954-yilda Hindi-Xitoy kelishuvida e'lon qilingan:

- Hududiy yaxlitlik va suverenitetni hurmat qilish;
- Hujum qilmaslik;
- Bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik;
- Tenglik va o'zaro manfaatdorlik;
- Tinch-totuv yashash<sup>2</sup>;

Mashhur fransuz faylasufi va sotsiologi R. Aronning fikricha, "xalqaro munosabatlar – siyosiy birliklar o'rtasidagi aloqalardir". Shunday qilib, u uchun xalqaro munosabatlar – bu, birinchi navbatda, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar, yoki "diplomat" va "harbiy" o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuvdir. Amerikalik siyosatshunos Dj. Rozenau fikriga ko'ra, xalqaro munosabatlarning ramziy subyektlari sayyoh va terroristdir.

Ingliz olimi Jorj Bentamning fikricha, xalqaro munosabatlar – bu avvalo yirik milliy davlatlarning stixiyali va g'ayri hamjihatli munosabatlaridir<sup>3</sup>.

"Xalqaro munosabatlar" tushunchasiga doir yana ko'plab boshqa ta'riflar mavjud. Masalan, xalqaro munosabatlar, bu:

Davlatlar orasida hozirgi paytda mavjud bo'lgan moddiy va

<sup>1</sup> Круглова Г.А. Политология. Учебное пособие для ВУЗов. Минск. Асар. 2009. – С. 213.

<sup>2</sup> Косов Ю.В. Мировая политика и международные отношения: Учебное пособие. Москва, 2012. – С. 323.

<sup>3</sup> Хмылев В.Л. Современные международные отношения. Томск.: ТПУ, 2010. – С. 8.

ma’naviy qadriyatlar bilan almashish borasidagi aniq aloqalar<sup>1</sup>;

Davlatlar va nodavlat tashkilotlari, partiyalar, kompaniyalar va turli davlatlarning yuridik shaxsleri o’tasidagi munosabatlari;

Yana boshqa yondashuvga ko’ra, xalqaro munosabatlari bu davlat tizimlari va davlatlar o’tasidagi iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, huquqiy, diplomatik va boshqa aloqalar hamda munosabatlari, shuningdek jahon maydonida harakatlanuvchi asosiy sinflar, asosiy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy kuchlar, tashkilotlar va jamoatchilik harakatlari, umuman, keng ma’noda xalqlar o’tasidagi munosabatlari majmuidir<sup>2</sup>.

Jahon hamjamiyatida davlatlarning xalqaro munosabatlarni amalga oshirishning vositasi tashqi siyosatdir. Tashqi siyosat umume’tirof etilgan prinsiplar va davlatning milliy manfaatlari va maqsadlariga muvofiq holda muayyan davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlarini tartibga solishga mo’ljallangan vositadir. Tashqi siyosat ichki siyosat bilan chambarchas bog’liqdir. Shu jihatdan vazifa davlatning maqsad va manfaatlari erishuvi yo’lida imkon qadar qulay xalqaro shart-sharoitlarni ta’minlashdan iboratdir. “Tashqi siyosat” tushunchasi davlatning boshqa davlatlar, xalqlar va xalqaro tashkilotlar bilan o’zaro munosabatlari sohasidagi faoliyatining maqsadlari va vositalari majmuini qamrab oladi.

Tashqi siyosatda davlatning iqtisodiy, demografik, harbiy, ilmiy-teknik, madaniy potensialiga tayaniladi. Davlatning geosiyosiy holati butun insoniyat tarixi davomida davlatning sheriklarini tanlashda va raqiblarining belgilanishida yetakchi rol o’ynagan.

Tashqi siyosatni amalga oshirishning shakllari quyidagilardir:

- Davlatlar o’tasida diplomatik munosabatlarning o’rnatalishi;
- Jahon va mintaqaviy xalqaro tashkilotlarda davlatning doimiy vakolatxonasining ochilishi yoki davlatning ulardagi a’zoligi;
- Davlatga do’stona munosabatda bo’lgan xorijiy siyosiy partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik;

Shu o’rinda O’zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini shakllantirish borasida ishlab chiqilgan tamoyillari haqida to’xtalib o’tish joizdir. Bular quyidagilardir:

<sup>1</sup> Odilqoriyev X.T.: Ochilov B.E. Xalqaro ommaviy huquq. T.: Adolat, 2007. – B. 19.

<sup>2</sup> Yuldasheva G.I. Xalqaro munosabatlarning metodologik aspektlari, Toshkent. 2009. – B. 6.

- O'zaro manfaatlarning har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
- Teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- Mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- Xalqaro huquq normalarining davlat ichki huquq normalaridan ustunligi;
- Tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish<sup>1</sup>.

Jahon siyosati va xalqaro munosabatlar masalalariga doir muammolarni hal qilish ishida faollik ko'rsatish tamoyili davlatlar tashqi siyosatida muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi bosqichda davlatlar tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri tinchlik va xavfsizlik uchun kurashdan iborat.

Tashqi siyosat yuritishning quyidagi turlari mavjud:

- Tajovuzkor siyosat – bu tashqi siyosat davlat ichki muammolarini hal etish hamda o'z ta'sir doiralarini kengaytirishda tashqi siyosat vositasidan foydalanishda namoyon bo'ladi. Bu kabi yo'lni qo'llaydigan davlatlar asosan agressiv ekspansiya metodlaridan keng foydalanadilar.
- Konservativ siyosat – bu asosan jahon hamjamiyatida oldingi o'rnini yo'qtgan va uni har qanday usul hamda yo'llar orqali saqlab qolishga intilayotga sobiq buyuk davlatlar tomonidan olib boriladi.
- Faol siyosat – davlat xalqaro munosabatlarning asosiy subyekti sifatida o'z manfaatlarini himoya qilishi hamda o'z ichki va tashqi ishlarida o'zaro hamjihatlikni ta'minlashda namoyon bo'ladi.
- Zaif siyosat – bu nisbatan zaif, kam rivojlangan davlatlarga xos bo'lib, ular o'z suverenitetini saqlab qolish maqsadida xalqaro muhitga moslashishga majbur<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараккӣёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 296.

<sup>2</sup> Внешняя политика государства как отражение его национальных интересов: сущность, виды // [Elektron manba] Kirish tartibi: <http://all-politologija.ru/ru/vneshnyaya-politika-gosudarstva-kak-otobrazhenie-ego-nacionalnyx-interesov-sushhnost-vidy-nacionalnye-interesy-ukrainy>.

Tashqi siyosat – xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni ta'minlash bo'yicha davlatning faoliyat doirasi va tutgan yo'li. Shuningdek, tashqi siyosat davlatning tashqi siyosat idorasi va boshqa strukturalarining xalqaro maydonda milliy rivojlanishning maqsad va vazifalarini amalga oshirish yo'nalishidagi strategiyasi, taktikasi va aniq qadamlari sifatida ham qabul qilinadi<sup>1</sup>.

Hozirgi xalqaro siyosiy munosabatlarning xususiyatlaridan biri bu dunyoning bir butunligi va yaxlitligini tan olish, uni anglashdan iborat. Chunki, dunyoning birligi va yaxlitligi bu taraqqiyotning obyektiv qonuniyatidir. Insoniyat qanchalik ijtimoiy, milliy, siyosiy, irqiy, diniy belgilari asosida turli guruhlarga ajratilgan bo'lmasin, xalqlarning turmush tarzi va manfaatlari qanchalik bir-biridan farq qilmasin, ular bir Sayyora - Yerda istiqomat qiladilar. Yangi davrgacha siyosatdonlar buni hisobga olmasdan, kuchli davlat bo'lishi uchun eng yangi quroslaslahalarga ega bo'lishi lozimligi haqida fikr yuritganlar. Natijada, ommaviy qirg'in qurollari birinchi navbatda termoyadro quroli vujudga keltirilib, insoniyat hayot-mamoti, sivilizatsiyasi xavf ostida qoldi. Shuni e'tiborga olgan holda hozirgi xalqaro siyosiy munosabatlarda ayrim ziddiyatlar mavjud bo'lishiga qaramay, o'zaro kelishish asosida faoliyat ko'rsatish umuminsoniy manfaatlarni urchun ulkan ahamiyat kasb etishini doimo yodda tutish lozim.

Mohiyatiga ko'ra, tashqi muhitning o'zi va xalqaro muloqot davlat uchun o'ziga xos o'qlar tizimi bo'lib xizmat qiladi. Tuzilishiga ko'ra, xalqaro munosabatlarni tizimi markaz yoki o'zak-mag'iz tizimosti tuzilma va periferiyadan tashqil topgan. XM tizimining markazini buyuk davlatlar sifatida e'tirof etilgan va xalqaro siyosatga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan davlatlarning uncha katta bo'Imagan bir guruhidan iboratdir. Ularning soni cheklanganligi xalqaro muammolar yechimida hamma davlatlar ham mutlaq kuch omili sifatidagi mavqega ega emasligidan dalolat beradi. Shu sababli, siyosiy tilda ularni kuch markazlari deb, ular o'rtasidagi munosabatlarni esa kuch markazlari munosabatlari deb atash qabul qilingan.

Mashhur Versal tizimi misolida XX asr boshlaridagi urushdan keyingi davrda kuch markazlari dunyoning bundan keyingi tuzilishini hal qilishida, birinchi navbatda, o'z manfaatlari va kuch-qudratlari bilan bog'liq imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'zlarini yaqqolliklarini ko'rish

<sup>1</sup> Жўраев С. Замонавий халқаро муносабатлар. –Т.: Академия. 2007. – Б. 46.

mumkin. Millatlar Ligasining Statuti (Ustavi) o'sha tizimga xos bo'lgan kuch markazlarining munosabatlarini aks ettiruvchi shart-sharoitlarning siyosiy-huquqiy qamrov doirasi sifatida xizmat qilgan. Germaniyaning Belgiya, Lyuksemburg, Fransiya, Shveysariya, Avstriya, Chexoslovakiya, Polsha va Daniya bilan bo'lgan chegaralarining ta'rifini hamda Yevropaning siyosiy tuzilishi bilan bog'liq masalalar yechimini o'z ichiga olgan edi.

Tizimning o'zak-mag'zidan tashqarida bo'lgan davlatlar, o'z tashqi siyosatlarini xalqaro siyosatdagi u yoki bu yo'nalishiga tayangan holda olib borar ekanlar, kuch markazlari munosabatlarining qatnashchilari bilan mustahkam aloqalarni yo'lga qo'yishdan manfaatdordirlar. Bu turdag'i hech qaysi davlat kuch markazlarida hukmronlik qilayotgan etakchi kayfiyatlardan chetlashib, yakkalanib qolishiga yoki ulardan voz kechishga qodir emas. O'z navbatida, markaziy kuch markazlari munosabatlarining qatnashchilari ham tizimosti tuzilmasi va periferiya aloqalarining qatnashchilari bilan faol munosabat o'rnatadilar. U yoki bu davlatni, yoki davlatlar guruhini turli yo'llar bilan o'z tarafiga o'tishga undaydilar.

Davlatlarning o'zaro bir biriga bog'liqligi xalqaro tizimning eng yaqqol belgilardan hisoblanadi. Avval aytib o'tilganidek, bu holat ularning o'zaro muloqotga bo'lgan ehtiyojidan hamda umumiyligini va, ayni paytda, o'zaro farqlanib turuvchi turli xil manfaat va maqsadlar mavjudligidan kelib chiqadi. Mazkur maqsadlarni amalga oshira borib, davlatlar bir-birlariga muqarrar ravishda o'zaro muomalaga kirishishi asnosida, ta'sir ko'rsatmay qolmaydilar. Davlatlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri bunday aloqalarning ma'lum bir o'ziga xosligida, turli xildagi ittifoq va birlashmalar tashqil qilinishida, ya'ni aynan xalqaro munosabatlar tizimining o'zi uchun xos bo'lgan shakllar va munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonlar haqida keyinchalik, xususan, kuchlar muvozanati siyosatini, jamoaviy xavfsizlik tizimi va iqtisodiy xavfsizlik nazariyasini tahlil qilish doirasida batatsil to'xtalib o'tiladi.

Tizimosti tuzilmasi turli xil alomatlarga ko'ra belgilanadi. Bular madaniy-tamadduniy, sivilizatsiya, mintaqaviy-jug'rofiy va ijtimoiy iqtisodiy kichik tizimlardir. Jahon tarixining har xil bosqichlarida har xil kichik tizimosti tuzilmalar paydo bo'lgan, lekin ular doimo XM tizimining nisbatan avtonom muxtor qismlari bo'lgan edi. Qadimgi Gretsiya, Xan podsholigi yoki Rim imperiyasi, ehtimol, O'rtayer

dengizi, Arabiston yarimoroli, Nil vohasi, Yaqin va O‘rta Sharq hamida Markaziy Osiyoning keng maydonlarini qamrab olgan dastlabki tizimosti tuzilmalaridan biridir. Keyinchalik ularning o‘rnini Vizantiya, Chingizzon, Temuriylar, Buyuk Mo‘g‘ullarning yerlari – Sharqda, Karl V davridagi Yevropa, Boburiylar monarxiyasi, Napoleon davridagi Yevropa, Bismarkning qo‘l ostida birlashgan Germaniya va h.k.lardan iborat boshqa tizimosti tuzilmalar egalladi. Tizimosti tuzilmasi, o‘z navbatida, yana bir qator turdosh tizimlar mavjudligini ko‘zda tutadi va unda barcha tamadduniy omillar bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketishi kuzatiladi.

Vaqt mazkur jarayonga doimo o‘zgartirishlarini kiritib kelgan va bu holat har bir tizimosti tuzilmasining o‘ziga xos xususiyatida, albatta, aks etmay qolmagan.

### *Jahon siyosati tarixiga umumiy sharh*

Bugungi kundagi dunyo munosabatlari tizimining ildizlari O‘ttiz yillik urush o‘z poyoniga etgach, 1648 yilning 24 oktyabrida Myunster va Osnabryukda imzolangan va “Vestfal shartnomasi” deb nomlangan tinchlik sulhi tuzilganidan keyin aynan shu nomdagi, ya‘ni Vestfal tizimining yuzaga keiishi bilan bog‘liq natijalari tarixga kirgan O‘ttiz yillik urush davrlariga borib taqaladi. Odatda, Vestfal sulhi deganda, 1648 yilning 4-5 iyunidagi Vefelingxofen jangida Fransiya va Shvetsiyaning mag‘lub bo‘lganligi oqibatida bu davlatlar bilan kayzer Ferdinand III o‘rtasida tuzilgan kelishuvlar, nazarda tutiladi. Shuningdek, 1643-1649 yillar davomida Myunster va Osnabryukda bo‘lib o‘tgan tinchlik kongresslarida qabul qilingan shartnomasi Yevropadagi surunkali urushlarga umuman barham berishni maqsad qilib qo‘ygan. Vestfal sulhiga ko‘ra, Shtettin porti bilan butun G‘arbiy Pomeraniya, Shvetsiya tasarrufiga kirdi, Shuningdek, Sharqi Pomeraniyaning ma'lum qismi, Pomeran ko‘rfazi ham sohilbo‘yi shaharlari bilan birga uning ixtiyoriga o‘tdi. Shimoliy Germaniyadagi eng yirik daryolarning etaklari Shvetsiyaning haqiqiy nazorati ostiga olindi. Shvetsiya ma'lum muddat davomida Boltiq dengizi sohillaridagi davlat ustidan hukmronlik qiluvchi va nemis davlatlariga ta’sir o‘tkaza oluvchi buyuk Yevropa davlatiga aylanib qoldi. Fransiya Elzasni (Strasburgdan tashqari) shahrini qo‘lga kiritish bilan birga bir qator shaharlar ustidan vasiylik huquqiga ham ega bo‘ldi. Garchi o‘sha davrda uning vujudga keiishidan ba’zi bir yirik Yevropa davlatlari manfaatdor bo‘lsa-da,

Gollandiya haqli ravishda tan olingan mustaqil davlat sifatida e'tirof etildi Shuningdek, Shveysariya, Germaniya knyazliklari ham muhim o'zgarishlarga uchradi. Brandenburg (bo'lg'usi Prussiya) ham o'z makonlarini va ta'sirini sezilarli darajada kengaytirdi, Bavariya hamda Saksonyaning kuch-qudrati oshib bordi. Ayni paytda, Vestfal sulhi Germaniyaning shu tariqa parchalanganligini mustahkamladi. Endilikda diniy omilning Yevropa siyosatidagi hal qiluvchi roliga barham berildi.

Buyuk Fransuz revolyutsiyasi va undan keyingi davrda Napoleon boshchiligidagi bir qator bosqinchilik urushlari mashhur Vena kongresidan qariyb 150 yil avval dunyoda qaror topgan tartibni yakuniy nuqtalar qo'ydilar. Endilikda Vena tizimi, deb atalayotgan yangi tizimga ko'ra, Shunday deb atalmish "Yevropa pentarxiysi" tashkil qilinishi ko'zda tutilib, uning tarkibiga Napoleon armiyasi ustidan g'alaba qozongan mamlakatlar kirdi. 1814-1815 yillarda bo'lib o'tgan va Umum-evropa konferensiyasi, keyinchalik Vena Kongressi deb nom olgan, Yevropa davlatlarining Napoleon urushlaridan so'nggi chegaralarini belgilab berdi. Vena shahrida Metternix raisligi ostida bo'lib o'tgan kongressda Turkiyadan tashqari barcha Yevropa davlatlarining vakillari ishtirok etdilar. Kongress yangi Niderlandiya qirolligi tarkibiga Avstriya Niderlandiyasi hududi (hozirgi Belgiya)ning kiritilishiga ruxsat berdi, biroq Avstriyaning qolgan barcha makonlari, jumladan, Lombardiya, Venetsiya oblasti, Toskana, Parma va Tirol Gabsburg-larning nazorati ostiga qaytdi. Saksonyaning bir qismi hamda Vestfaliya va Reyn oblastining kattagina hududi Prussiyaga o'tdi. Fransiyaning sobiq ittifoqdoshi bo'lgan Daniya Shvetsiya tasarrufiga o'tkazilgan Norvegiyadan mahrum bo'ldi. Italiyada Rim papasining Vatikan va Papa oblasti ustidan hukmronligi tiklandi, Burbonlar esa ikkala Sitsiliya Qirolligini qaytarib oldilar. Shuningdek, Germaniya ittifoqi tashqil qilindi. Napoleon tomonidan barpo etilgan davlatning bir qismi Polyak Podsholigi nomi bilan Rossiya imperiyasi tarkibiga kirdi, Rossiya imperatori esa polyak qiroli ham bo'lib hisoblanar edi.

Kongress Napoleon urushlari oxiriga kelib mavjud bo'lgan Yevropada qaror topgan yangicha kuchlar taqsimotini belgilab berdi va shu asnoda g'olib mamlakatlar – Rossiya, Avstriya va Buyuk Britaniyaning xalqaro munosabatlar borasidagi yetakchi rolini uzoq muddatga saqlab qoldi.

Avstriya-Vengriya, Angliya, Fransiya, Germaniya va Rossiya yan-gi kuch markazlariga aylandi. Rossianing Yevropadagi "pentarxiya"

bo'yicha ittifoqdoshlari kayfiyatida kuzatilayotgan o'zgarishlar hamda ularning endilikda Ottoman Turkiyasi tarafiga o'tish sabablari Rossiya mavqeining kuchayishi va uning Qrim urushida (1853-1856 yy.) Turkiya ustidan g'alaba qozonish ehtimolining yuqoriligi bilan izohlanadi. Rossianing avvalgi ittifoqdoshlari uning kuchayib ketishidan, Qora dengiz, Boltiq dengizi va Kaspiy dengizi ustidan bevosita nazorat olib borish imkoniyatini qo'lga kiritishdan xavfsirab qolgan edilar.

Jiddiy saboq olgan Rossiya o'zining yevropalik hamkorlari bo'lishi Fransiya, Angliya va Germaniyaga nisbatan qo'lidan boy bergen o'z mavqeini chekinishlar va yon berishlar yo'li bilan tiklab olishga harakat qildi. Diplomatik fitnalar va murakkab hiyla-nayranglar natijasida o'sha davrdagi Yevropa mamlakatlari o'rtaida ikkita yirik ittifoq paydo bo'ldi: Antanta (Rossiya, Angliya, Fransiya) va Uchlar ittifoqi (Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya). Bu xatti-harakatlar ko'zlangan asl maqsad esa – dunyoda hukmronlik qilish uchun o'z mavqeini kuchaytirishi va ta'sir doirasini qayta taqsimlashdan iborat edi.

Bundan keyingi bo'lib o'tgan voqealar barchaga yaxshi ma'lum – Saraevoda "Yosh Bosniya" guruhining ekstremistlari tomonidan Ersgertsog Frans Ferdinand o'ldirildi va bu Birinchi jahon urushining boshlanib ketishi uchun rasmiy sabab bo'lib xizmat qildi. Urush davomida Uchlar ittifoqi mag'lubiyatga uchrab, Avstro-Vengriya, Germaniya va Ottoman imperiyalari parchalanib ketdi. Chor Rossiyasi tugatildi va ularning o'rnida g'olib mamlakatlar tomonidan qo'ilab-quvvatlangan yangi davlatlar paydo bo'ldi. Mazkur keskin o'zgarishlar natijasida dunyoda kuchlar taqsimotining yangicha tartibi qaror topdi. Bunda xalqaro siyosatning noevropa qatnashchilari va, birinchi taybatda, AQSh ilk bora dunyo siyosat maydonida nazarga tushdilar. G'arbiy yarim shardagi davlat Amerikalararo muammolar yechimi bilan cheklanib qoigan bo'lganligi Amerika o'sha vaqtgacha Yevropa-pada sodir bo'lgan dunyo ishlarida qatnashish tajribasiga ega emas edi.

Antanta mamlakatlari va Germaniya o'rtaisdagi aynan shunday nom bilan atalgan shartnomaga ko'ra, Versal sulhi 1919 yil 28 iyunda – Saraevodagi qotillikning besh yilligi kunida imzolangan edi. Taqdir taqozosi bilan, ushbu voqealik kelib-kelib, "temir kansler" Otto, Katta Versal saroyining Oynali mehmonxonasida Fransiya ustidan g'alaba qozonilgan 1871 yilning aynan o'sha kunida, Bismark tomonidan Germaniya imperiyasi tashqil etilganligining e'lon qilinishi bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. Shu kundan boshlab, Qo'shma Shtatlarning buyuk

mamlakat sifatida maqomi barcha tomonidan e'tirof qilindi. AQSh o'zining jahon rahnamosi roliga da'vogarligini Vudro Vilsonning "14 band" dasturiga muhrlang bo'lib, bu amalda Yevropani hamda uning manfaatlari doirasini amerikanchasiga qayta taqsimlashga urinishni anglatar edi. Ushbu dastur Vudro Vilsonning 1918 yil 8yanvardagi Kongressga yuborgan xatida bayon qilingan<sup>1</sup>.

Murakkab diplomatik hiyla va fitnalar vositasida Vudro Vilson ma'muriyati Versal tizimi doirasida dunyoni urushdan keyingi qayta qurish to'g'risidagi rejasining qabul qilinishiga erishdi. Bunda, Germaniya bosh ittifoqdosh va birlashgan mamlakatlar (kuch markazlari) Belgiyaning betarafligini belgilab bergan 1839 yildagi shartnomalarni o'zgartirish maqsadida Belgiya yoki Niderlandiya hukumatlari bilan tuzishi mumkin bo'lgan barcha bitimlarni tan olish va ularni bajarish majburiyatini olgan edi. O'sha shartlarga ko'ra, Germaniya Eypen va Malmedi okruglarining, shuningdek, Morens hududining shunday deb atalishi neytral hamda Prussiyaga tegishli qismlarining Belgiyaga o'tishini tan olishga majbur edi. Lyuksemburg Germaniya bojxona ittifoqi tarkibidan chiqib, Germaniya undan to'liq mustaqil bo'lib oldi. U, mag'lub davlat sifatida, 1919 yil Sen-Jermen sulhida bilan ko'zda tutilgan chegaralarda Avstriyaning mustaqilligini hurmat qilishi, Chexoslovakjaning mustaqilligini, Polshaning to'liq mustaqilligini tan olishi va yuqori Sileziyaning bir qismidan, Shuningdek, Millatlar Ligasining muhofazasi ostidagi erkin shahri (okrugi bilan)ga bo'lgan huquqlaridan Polsha foydasiga voz kechishi lozimligi belgilab qo'yildi. Germaniya va Daniya o'rtaasida yangi chegara o'rnatildi. 1871 yildagi Frankfurt sulhining shartlariga ko'ra Germaniya tasarrufiga e'tgan Elzas va Lotaringiya esa, mustaqil Fransiyaga qaytarib berildi. Fransiya Shimolidagi vayron bo'lgan ko'mir konlari uchun to'lanadigantovon sifatida kuch markazlaridan birining vakili bo'lishi Jorj Klemansonning talabiga ko'ra, Saar havzasidagi ko'mir konlari 15 yillik mahlatga Millatlar Ligasi komissiyasining boshqaruviga o'tib, Germaniya, Shuningdek, Reyn hududini quolsizlantirish majburiyatini ham o'z zimmasiga oldi. Kuch markazlari Germaniya va Turkiya mustamlakalari taqdirini ham xuddi Shunday osonlikecha hal qilib qo'ya qoldilar. Bu mustamlakalar g'oliblar o'rtaasida Millatlar Ligasining mandatlar tizimi

<sup>1</sup> Системная история международных отношений в четырех томах. 1918.–2000. Том 2. – М., 2000. – С. 27.

asosida taqsimlanib, unga ko'ra mandatariy – davlatlar (kuch markazlari) hududlar ustidan vasiylik o'rnatishadi. Buyuk Britaniya G'arbiy Togo, Kamerunning bir qismi va Germaniyaga tegishli Sharqiy Afrikaning katta bir qismi Tanganikani boshqarish mandatini oldi; Janubi-G'arbiy Afrikadagi Germaniyaga qarshi bo'igan hududlar Janubiy Afrika Ittifoqi ixtiyoriga o'tdi. Fransiya Siriya va Livanni boshqarish mandatidan tashqari, Shuningdek, Sharqiy Togo va Kamerunning bir qismiga mandat oldi; Belgiya – Ruanda-Urundiga; Yaponiya – Finch okeanining ekvatoridan Shimolda joylashgan orollariga, ya'ni – Marshall Karolina va Marian orollariga; Avstraliya – Nauru oroliga (Buyuk Britaniya va Yangi Zelandiya bilan birgalikda), sobiq Germaniyaga tegishli Yangi Gvineyaga hamda ekvatordan janubda joylashgan Finch okeani orollariga; Yangi Zelandiya – G'arbiy Samoa orollariga mandat oldi. Kuch markazlarining xohishiga ko'ra u avvalgi German-Xitoy shartnomalaridan kelib chiqadigan Xitoydagi bir qator imtiyoz va afzalliklardan mahrum bo'ldi. Shu tariqa, Germaniya Kanton (Guan-chjou)da Britaniya konsessiyasining hududidagi o'ziga tegishli bo'lgan mulkini Buyuk Britaniyaga boy berdi. Szyaochjou hududida esa – barcha huquq va imtiyozlaridan esa – Yaponiya foydasiga voz kechdi.

Versal tizimi dunyoning urushdan keyingi tuzilishini Germaniya bilan ma'lum shartnomaga bilan birga Antanta mamlakatlarning Avstriya, Bolgariya, Vengriya va Turkiya bilan imzolagan bir qator bitim hamda shartnomalarni o'z ichiga olgan edi (1920 yil 10 avgustdagagi Sen-Jermen shartnomasi, 1919 yil 27 noyabrdagi Neyi tinchlik sulhi, 1920 yil 4 iyundagi Trianon 1920 yil 10 avgustdagagi Sevr tinchlik sulhi hamda ikkita tarixiy hujjat – akt bilan imzolangan – 1923 yil 30 yanvar va 24 iyuldagagi Lozanna tinchlik sulhi). Versal tizimi g'arb davlatlarining o'sha davrda ommalashib ketgan kommunistik kayfiyatlardan o'zlarini himoya qilishga, mustamlakachilikka qarshi kurash va ozodlikka erishish yo'lidagi harakatlarni to'xtatish, mag'lub mamlakatlarni yanada qaram holatga keltirishga bo'lgan intilishlarini aks ettirgan edi. U Birinchi jahon urushining boshlanishiga sabab bo'lgan asosiy qarama-qarshiliklarni biroz bo'lsa-da, bo'shashtirishga yoki yumshatishga olib kelmadi. Nafsilamirini aytganda, o'sha davrda mavjud bo'lgan Versal tizimi doirasida urushda yengilgan mamlakatlar zimmasiga yuklangan adolatsiz va og'ir shartlar Ikkinci jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Versal tizimi tarkibidagi barcha shartnomalar matni aynan o'sha kuch markazlarining manfaatlariga xizmat qiladigan xalqaro tashkilot –

Millatlar Ligasining nizomidan boshlanar edi. Dunyoning qayta bo‘linishini niqoblash maqsadida, Versal tizimining ijodkorlari “mandat ostidagi” hududlar va protektoratlar tizimini kiritadilar, ya’ni mandatariy – davlat sobiq mustamlakani rasman Millatlar Ligasining topshirig‘iga binoan boshqarar edi. O’sha olis voqealarning mungli sadosi hanuzgacha Yaqin Sharqda, Shimoliy va Sharqi Afrikadagi hududiy, etnik-ijtimoiy hamda boshqa muammolar ko‘rinishida bizgacha etib kelmoqda.

Yangi xalqaro tizim nihoyatda beqaror bolib, juda qisqa fursat oralig‘ida parokandalikka yuz tutdi. Birinchi jahon urushiga olib kelgan g‘olib-mamlakatlar o‘rtasida asosiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etmasdan, ushbu tizim g‘oliblar va mag‘lub o‘rtasida, Shuningdek, g‘olib mamlakatlar o‘rtasida ham, bir qator yangi ziddiyatlarni tug‘dirdi va bu holat jiddiy nizolar kelib chiqish xavfi mavjud bo‘lgan yangi harbiy-siyosiy bloklarning topishini tezlashtirib yubordi.

Versal sulhi vaqt sinovidan o‘ta olmadi va Ikkinchiji jahon uru-shining boshlanishi arafasida undagi qoidalarining aksariyati buzilib bo‘lgan edi. Versal shartnomasi qoidalari uchun ilk mash‘um og‘ir sinov bo‘ldi. Germaniya qo‘shinlarining 1936 yil mart oyida Reyn qurolsizlantirilgan hududiga kirib keiishi – 1838 yil martida Germaniya tomonidan Avstriyaning ochiqdan ochiq qo‘shib olinishini anglatgan Anshlyus esa, bu yo‘nalishdagi navbatdagi qadam bo‘ldi. O’sha yili sentyabr oyining oxirida Germaniya Buyuk Britaniya va Fransiyaning roziligi bilan (“Myunxen bitimi”) Chexoslovakianing Sudet oblastini egallab oldi, 1939 yilning martida esa butun Chexoslovakiya zabt etildi. Mazkur aksiyadan keyin bir hafta o‘tgach, Germaniya Litvaga qarashli bo‘lgan Memel (Klaypeda)ni bosib oldi, 1939 yilning 1 sentyabrida esa Polshaga hujum qilishi bilan Ikkinchiji jahon urushini boshlab yubordi. Lebensraum – “hayotiy makon”ni kengaytirish va “adolatli Chegaralar”ni ta’mirlash ketidan quvish siyosiy vaziyatni mantiqan o‘zining muqarrar yakuniga olib keldi va shu tariqa, Versal tizimiga so‘nggi nuqta qo‘ygan Ikkinchiji jahon urushi boshlanib ketdi.

Ikkinchiji jahon urushidan so‘nggi Yalta-Potsdam tizimi dunyoda siyosiy kuchlarning yangicha taqsimotiga asos soldi. Potsdamdan keyingi dunyo tizimi ikki qutbli tizimga aylandi. Mazkur tizimning asosini Sovet Ittifoqi va Qo‘shma Shtatlar tomonidan tuzilgan harbiy-siyosiy bloklar – Varshava Shartnomasi hamda NATO, shuningdek, bir qator tizimosti iqtisodiy birlashmalar va harakatlarning kuch-qudrati tashqil qildi. Dunyo siyosatining mahobatli ikkita “gigant”i orasidagi

murakkab qarama-qarshiliklar davri barchaga ma'lum bo'lgan fojiali keskich o'zgarishlarga nihoyatda boy. Shunga qaramasdan, dunyo ikki qutbli tizim davrida "status-kvo"ning qat'iy qoidalari doirasida rivojlanib keldi.

Ikki qutbli tizimning "yaxshi" ekanligiga yetarli dalil topish va "yomon"ligini ham o'shancha dalil asosida isbotlash mumkin. Lekin adolat yuzasidan shuni qayd etish joizki, kuchlarning ikki qutbli muvozanati tizimi Ikkinchiji jahon urushidan keyin qaror topgan mutlaqo muayyan shart-sharoitlar taqozosi bilan yuzaga keldi. Mazkur tizim Sovet Ittifoqining zaiflashuvi va keyinchalik parchalanib ketishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ob'ektiv shart-sharoitlarga ko'ra o'z faoliyatini tugatdi. Bugungi kunda qator siyosiy tahlilchilar dunyodagi hozirgi mavjud tizimni yoki "bir qutbli", yoki (ko'p hollarda) "ko'p qutbli" tizim sifatida ta'riflashga urinadilar. Birinchi ta'rif shunga asoslanganki, dunyoda yagona buyuk mamlakat – AQSh qolgan bo'lib, u harbiy va iqtisodiy kuch-qudratning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha qolgan barcha davlatlardan ustundir. Ikkinchiji ta'rifga ko'ra, ikki qutblilik tizimning buzilishi natijasida avval ikkinchi darajali hisoblangan davlatlar deyarli teng siyosiy mavqeni qo'lga kiritdilar.

Birinchi ta'rifga kelsak, "bir qutbli" dunyo jismoniy dunyoda ham, siyosiy dunyoda ham mavjud bo'la olmaydi. "Qutb" va "qutblilik" tushunchalarining o'ziyoq, bir-biriga zid ta'sirdagi ob'ektlar yoki sub'ektlar mavjudligini taqozo qildi. Ikkinchiji ta'rif davlatlarning teng huquqliligi to'g'risidagi rasmiy nizomga hamda davlatlar o'rtasidagi munosabatlar umuminsoniy qadriyatlar va manfaatlarga tayanishi kerak, degan huddi shunday rasmiy qoidaga asoslanadi.

Fikrimizcha, bu borada yapon tahlilchilarining izlanishlari haqiqatga yaqin keladi. Unga ko'ra, hozirda na bir qutbli, na ko'p qutbli xalqaro unosabatlar tizimi mavjud emas. O'zlarining tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshira borib, ikki tomonlama mintaqaviy, Shuningdek, global uch bosqichli munosabatlarga kirishayotgan milliy davlatlarning ma'lum bir majmui bor, xolos<sup>1</sup>.

Umuman esa, ikki qutblilik parchalanib ketganidan so'nggi zamonaviy munosabatlar tizimi "bir qutbli" ham, "ko'p qutbli" ham emas. U hozircha shakllanish bosqichida bo'lib, hali u yoki bu darajada jiddiy

<sup>1</sup> Актуальные проблемы Северо-Восточной Азии. Информ. бюллетень, 2013. –№ 10. – С.15-16.

takoniilga erishganicha yo‘q va, shuning uchun ham, unga nisbatan biron-bir qat’iy baho yoki yorliqni qo‘llash mantiqan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bugun dunyoda haqiqatan ham faqat bittagina buyuk davlat mavjud, lekin bu holat mazkur davlat bir vaqtning o‘zida umuman xalqaro munosabatlar rivojiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi, degan emas.

#### **Seminar savollari:**

1. Tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari haqida ma’lumot bering.
2. Tashqi siyosatning strategiyasini belgilovchi asosiy omillar nimalardan iborat?
3. Jahon siyosati tarixiga umumiylar sharh bering
4. Tashqi siyosatida milliy davlat mansaatlari haqida ma’lumot bering.
5. Jahon siyosatining shakllanishiga xizmat qiluvchi omillar nimalardan iborat?

#### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Xalqaro munosabatlarning usul va muammolar doirasini o‘rganib chiqqan holda, ularni jadval shaklida ifodalang hamda slayd holiga keltiring.
2. Xalqaro munosabatlarning boshqa siyosiy fanlar tizimida tutgan o‘rnini mavzuidagi materiallarni tahlil qilgan holda, ilmiy maqola tayyorlang.
3. Jahon siyosati tarixiga umumiylar sharh
4. “Xalqaro munosabatlar” va “Jahon siyosati” fanlari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar

## **Ma’ruza №2. JAHON SIYOSATI SUB'EKLARI. JAHON SIYOSIY TIZIMINING TUZILMASI. JAHON RIVOJLANISHINING UMUMIY TENDENSIYALARI**

### **Reja:**

1. Jahon siyosati sub'ektlari
2. Jahon siyosiy tizimining tuzilmasi
3. Jahon rivojlanishining umumiy tendensiyalari
4. Jahon siyosati sub'ektlarining xilma-xilligi. 20-21 asr jahon siyosati.

**O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:** Jahon siyosati sub'ektlari, jahon siyosiy tizimining tuzilmasi va jahon rivojlanishining umumiy tendensiyalari haqida ma'lumot berishdan iborat.

### **Tayanch so‘z va iboralar:**

- Davlat
- Mintaqa
- Hudud
- Siyosiy munosabatlар

#### ***Jahon siyosati sub'ektlari.***

Tashqi muhitda shakllanib kelayotgan vaziyatga bog‘liq ravishda va ma‘lum iqtisodiy hamda harbiy-texnikaviy imkoniyatlardan foydalanib, davlatlar asosan, tashqi siyosatning quyidagi instrumentlarini qo‘llaydilar:

- tashqi siyosiy targ‘ibot (xalqaro jamoatchilik tasavvurida mamlakatning ijobjiy mavqeini mustahkamlash maqsadini ko‘zda tutadi);
- diplomatiya (odatda uchta darajada amalga oshiriladi – rasmiy uchrashuvlar, de-fakto va de-yure tan olish, elchilarni ayirboshlash);
- tashqi savdo munosabatlari (savdo aloqalarini o‘rnatish, o‘zaro savdo bitimlarini tuzish, tariflar va kvotalar tizimi orqali tashqi savdoda cheklowlarni qo‘llash ko‘rinishida bo‘ladi);
- tashqi yordam mamlakatlar tomonidan ularning tashqi siyosatida ikki xil ko‘rinishda – iqtisodiy (moliyaviy yoki tovar sifatida), shuningdek, harbiy (qurol-aslaha yetkazib berish, harbiy maslahatchilarni hamda harbiy qo‘sishlar va kontingentlarni yuborish);
- ittifoqlar (ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama turlari achrayıdi

va odatda, ikki turda bo‘ladi – iqtisodiy yoki harbiy, tegishli manfaatlarni himoya qilish uchun;

•xalqaro tashkilotlar (uchta darajaga bo‘lingan – global yoki mintaqaviy, davlatlararo va nohukumat);

•boykotlar va sanksiyalar (bir yoki bir guruh davlatlar tomonidan u yoki bu davlatga bosim o‘tkazib, u yoki bu xalqaro muammo borasida uning siyosatini o‘zgartirish maqsadida qo‘llanadi);

•harbiy kuch (har xil ko‘rinishlarda bo‘ladi – turli xil shtab, komanda va qo‘shma o‘quv tayyorgarliklarni o‘tkazish, qo‘shma o‘quv tayyorgarliklarni o‘tkazish, eng zamonaviy harbiy texnologiyalar sohasidagi yutuqlarni ishlab chiqish hamda namoyish qilish, shuningdek, mustaqillikni himoya qilishning so‘nggi chorasi sifatida urushni e‘lon qilish.

Davlatning ichki vaziyatining qudrati bilan uning davlatlar tizimidagi roli o‘rtasidagi o‘zaro aloqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lib, o‘zaro bog‘liqlikning o‘sishiga ham, davlatlar siyosatida umumiyl manfaatlarning paydo bo‘lishi yoki ko‘payishiga ham qaramasdan, hech qancha o‘zgarmagan. Aksincha, dunyodagi siyosiy munosabatlarning jipslashuvi, o‘zaro bog‘langanlikning ortib borishi bilan birga, davlat ichidan zaif bo‘lgani holda nisbatan kuchli davlatning bosim ko‘rsatishiga qarshi turish va boshqa, nisbatan qudratli davlatlarga bog‘lanib qolmaslik tobora qiyinlashadi. Bu borada mashhur nemis tarixchisi va mutafakkiri Leopold fon Rankening quyidagi so‘zlarini yodga olish joizdir: “Dunyo bo‘lindi. Unda bir-nimaga erishish uchun, o‘z kuchingizga tayanib, qad rostlashingiz, to‘liq mustaqillikka erishishingiz lozim. Sizning dunyodagi huquqlaringizni sizga hech kim o‘z ixtiyori bilan berib qo‘ymaydi. Ular uchun kurasha bilmox kerak”<sup>1</sup>.

Sovuq urush» davri tugaganidan so‘ng mamlakatlar oldida, bir tomonidan, xavfsizlik muammosi dolzarbligining ortganligi, ikkinchi tomonidan esa, xalqaro munosabatlar, millat, davlat, Shu jumladan «xavfsizlik» tushunchasi ham, borasidagi tushuncha va qarashlarni qayta ko‘rib chiqish zarurati sezildi.

Har bir davlat o‘z xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan faoliyat olib borar ekan, birinchi navbatda davr talabidan kelib chiquvchi, davr xususiyatlarini inobatga oluvchi «katta strategiya»ni ishlab chiqishga kirishadi.

<sup>1</sup> Ranke Leopold von. The Theory and Practice of History. – N.Y., 2003. – P. 118.

Qadimda, «strategiya» – urush haqidagi ta'llimot, Shu jumladan sarkardalik fani, deb ta'riflangan va u urushni ikki mezon asosida tadqiq etadi<sup>1</sup>:

1. Kishilik jamiyati hayotining ko'rinishi sifatida.
2. Alohidha harbiy nuqtai–nazardan, ya'ni dushman ustidan g'alaba qozonish maqsadida kuchdan foydalanish.

Kishilik jamiyati hayoti hodisasi sifatida urushni tadqiq etish dinamik sotsiologiyaning bir bo'limini tashqil etadi. Harbiy maqsadlarda kuchni qo'llash masalasini tadqiq qilish esa harbiy san'at nazarivasi predmetini tashqil etadi. Avvalgi va hozirgi davr harbiy hodisalarini o'rganish orqali strategiya keng miqyosda, harbiy hodisalar mohiyatini tuShuntirib berish va hatto ularni bashorat qilish maqsadida ehtimoliy umumlashtirishga harakat qiladi. Aytish joizki har doim ham to'liq bashorat qilish mumkin emas, biroq bugungi kunda strategiya Yuqori bosqichga ko'tarilib yangi davrga – ilmiy jihatdan tasniflash-tirish, xususiy umumlashtirish davrga qadam qo'yemoqda.

Harbiy san'atning umumiy tamoyillari qadimgi davrlardan tan olinib kelingan. Harbiy hodisalarning mohiyatini aniqlash, ularni umumlashtirish borasidagi ilk urinishlar Gerodot, Fukidid, Ksenofont asarlarida uchratish mumkin.

Strategiya masalalari qadim – qadimdan insonlarni o'ylantirib kel-gan. Avvalgi davrlarda “strategiya” tushunchasi ostida harbiy boshqaruvi masalalari turganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu ta'llimot haqidagi qarashlarni Gerodot, Fukidid, Ksenofont, Poliviy kabi mutafakkirlar asarlarida bayon qilingan. Albatta, mazkur asarlar aynan strategiya masalalariga bag'ishlanmagan, strategiya bilan bog'liq masalalarni miloddan keyingi davrlarda Frontin, Polien, Vegetsiy (IV asr oxiri), Onosandr (V asr, “Strategologiya yoki zafar qozonish fani”), shuningdek, Mavrikiy (“Strategicum”) va Lev VI faylasuf (IX asr, “Harbiy tashkilotlar haqida”) imperatorlarning asarlarida kuzatishimiz mumkin.

Harbiy san'atni tarixiy jihatdan tadqiq etish natijasida quyidagi muhim holatlarini qayd etish mumkin:

1. Urush maqsadlariga erishish vositasi sifatida yaxshi armiyaga ega bo'lish.
2. Unumli siyosat yuritish orqali unga nisbatan qulay muhitni yaratish.

<sup>1</sup> Энциклопедический словарь (Брокгауз–Ефрон). – Т. XXXI. – К. 62. – СПб.:Издательское дело, 1991. – С.73.

3. Imkoniyat darajasida ikkinchi darajadagi urush teatrlarida mag'lubiyatga uchrashdan qo'rmagan holda ehtimoldagi urush teatrida yetarlicha kuchni jamlash.

4. Mудоfaada bo'lishdan hujumga o'tish afzalroqdir.

5. Qo'shinni imkon qadar tarqatmasdan bir joyda jam qilish.

6. Dushmanning ma'naviy va moddiy kuchi nihoyasiga etgunga qadar qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatni qatiyat bilan davom ettirish.

7. Qo'shining tetikligi va ruhini ko'tarish uchun barcha chora va tadbirlarni qo'llash.

8. Urushni imkon qadar katta g'ayrat va qizg'inlik bilan olib borish.

Davlatning siyosiy holati va u ko'zlagan maqsadini o'rgangan holda qaysi sharoitlarda urush yuzaga kelishi mumkinligini aniqlash oson kechadi. Raqiblarni aniqlagandan so'ng urushning asosiy maqsadi va operatsiyalar yo'nalishini qo'yish mumkin. Urushga tayyorgarlik quyidagilardan iborat bo'ladi:

Davlat siyosiy holati va u ko'zlayotgan maqsadini o'rgangan holda qaysi hollarda urush yuzaga keiishini aniqlash mumkin. Dushmanlarni aniqlash natijasida urushning maqsadi va operatsiyalar yo'nalishi ishlab chiqiladi. Urushga tayyorgarlik quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Armiyani tashqil etish va uning soni.

2. Urushni olib borish vositalarini (harbiy va moliyaviy) tayyorlash.

3. Injenerlik nuqtai-nazaridan harbiy harakatlar teatrini va mamlakatni tayyorlash (temir yo'l tarmoqlari, mudofaa va muhim inshootlarning qurilishi).

4. Armiyaning harbiy hatti-harakatlar boshlanishidan oldin chegara oldida to'planadigan chiziqdha omborxonalar tuzish.

5. Armiyaning strategik jihatdan kuchaytirish, ya'nii chegara oldida safabarlikni tayyorlash va qo'shinni to'planish joyiga tashish.

"AQSh harbiy terminlari lug'ati"da "strategiya" tinchlik va harbiy davrda ko'zlangan natijalar va ehtimollarni oshirish, shuningdek, mag'lubiyatga uchramaslilikni ta'minlash maqsadida siyosiy, iqtisodiy, psixiologik va harbiy kuchlarni taraqqiy ettirish va foydalanish haqidagi san'at va ta'limotdir.

Vebsterning uchinchi xalqaro lug'atida "strategiya" millat yoki bir necha millatning tinchlik yoki harbiy davrda tanlangan siyosatni yuqori

darajada qo'llab-quvvatlash maqsadida olib boriladigan siyosiy, iqtisodiy, psixologik va harbiy kuchlarni qo'llash haqidagi san'at va ta'lifotdir.

Rossiyalik olim A.Dugin o'zining "Geosiyosat asoslari" asarida "Geostrategiya – geosiyosiy tahlilning harbiy jabbalari", deb tarif beradi<sup>1</sup>.

Strategiya san'ati muhim operatsiyalarini ikkilamchil operatsiyalar dan farqlash, ular orasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlash bilan belgilanadi. Shu bois, har bir davlat ichki va tashqi siyosat borasida keng qamrovli, chuqur ilmiy asoslarga tayangan holda tadqiqotlar olib borishi dolzarb masaladir. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda "Davlat"ga ma'lum bir xalqning ma'lum bir hudud (makon) ustidan nazorat o'rnatish mexanizmi sifatida qarash mumkin. Shu bilan birgahar bir davlat taraqqiyoti avvalo uning joylashgan mintaqasi, unda istiqomat qiluvchi aholisi va ichki va tashqi siyosatni yurituvchi institutlar xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu esa o'z navbatida har bir davlatning ma'lum bir makon turlaridan kelib chiqqan holda ma'lum bir nazorat turlarini qo'llashni talab etadi. Siyosiy munosabatlarda azal-azaldan hududiy masala muhim o'rinni egallaganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, har bir davlat o'z hududiy birligini saqlab qolish, uni imkon qadar kengaytirishga intilishini ko'rishimiz mumkin. Mazkur holat bugungi kunda ham o'z kuchini yo'qotmagan, ya'ni ma'lum bir kuch davlat mexanizmlari nazdida ma'lum bir hudud ustidan nazorat o'rnatish, uni mustahkamlash va saqlab qolishga qaratilgan faoliyat olib boradi. Ma'lumki, har bir davlat o'z hududiy birligini saqlab qo'lishga qaratilgan siyosat yuritadi. Shu sababli jug'rofiy siyosat xavfsizlik masalalari bilan ham bog'liq.

### *Jahon siyosiy tizimining tuzilmasi.*

Har bir davlat ma'lum hudud ustidan ma'lum mezonlarga tayangan holda o'z nazoratini o'rnatadi. Mazkur jarayon hukumatning muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda faoliyat olib borishni talab etadi. Zero, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti ishtirokchilarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqe'likka munosabatlarini tadqiq qilish bugungi kunda muhim masalalar sirasidan o'rin olmoqda. Har bir shaxsnинг, individning ijtimoiy-siyosiy masalalarni psixologik jihatdan qabul etishi masalasi yuritilayotgan siyosat masalasi bilan bevosita bog'liq.

Davlatning asosiy vazifalaridan biri ma'lum bir hudud ustidan o'z

<sup>1</sup> Дугин А. Основы geopolитики. – Москва: Арктофей, 1997. – С. 256.

nazoratini (qonun, kuch yoki jinoiy yo'l orqali) o'rnatish bo'lib, asosan milliy-madaniy, diniy va boshqa asoslarga tayanadi. Shuningdek, davlat ma'lum bir hududdagi ma'lum bir qatlam yoki qatlamlar (diniy, milliy, etnik, madaniy jihatdan) manfaatlarini xalqaro maydonda ifoda etib, ularni himoya qiladi<sup>1</sup>.

Geosiyosiy tadtiqotning asosini hududlar tashkil etar ekan, uning turlari, hududlar ustidan qay yo'sinda nazorat o'rnatish masalasi oldinga chiqadi. Zero, har bir davlat siyosatining ustivor vazifalar sirasiga hududlar turlaridan kelib chiqqan holda ular ustidan nazorat o'rnatish kiradi.

Z.Bjezinskiy "Buyuk shahmat taxtasi" nomli asarda davlatlarga nisbatan "geosiyosiy markazlar" va "geostrategik ishtirokchilar" iboralarini kiritadi. Ushbu asarda mazkur atamalar quyidagicha ta'riflanadi:

"Geosiyosiy markazlar" - bu shunday davlatlarki, ularning ahamiyati ularning salohiyati yoki mazmunidan emas, balki ularning joylashishlari va tabiiy jihatdan yuzaga keladigan potensial zaiflik oqibatida geostrategik ishtirokchilarga imkoniyat tug'dirib beradigan omillar bilan belgilanadi. Ko'pincha geosiyosiy markazlar o'zlarining geografik holatlariga bog'liq bo'lib, muhim mintaqalarga eltuvchi yo'l ustidan nazorat o'rnatish, yoinki geostrategik ishtirokchilarga resurslariga ega bo'lishlarida to'sqinlik qilish imkoniyati bilan belgilanadi. O'zga hollarda esa geosiyosiy markazlar geosiyosiy doirada muhim ahamiyat kasb etuvchi mintaqqa yoki davlat uchun "qalqon" (bufer) bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ba'zi hollarda esa geosiyosiy markazlar mavjudligining o'zi ham atrofdagi faol geostrategik ishtirokchilarga siyosiy va madaniy jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, geostrategik ishtirokchilarning aksariyat qismi qudratli davlatlar hisoblanadilar. Biroq qudratli davlatlarning hammasi ham geostrategik ishtirokchilar qatoridan o'rin ololmaydi.

"Faol geostrategik ishtirokchilar" - o'z chegaralaridan tashqarida hukmronlik qiluvechi yoki mavjud geosiyosiy holatni o'zgartira olish yo'lida qobiliyat va milliy irodaga ega bo'lgan davlatlar kiradi. Ular salohiyat va/yoki geosiyosiy jihatdan beqarorlikka moyilliklari bilan ajralib turadilar. Ya'ni milliy buyuklik, mafkuraviy tatbiqlik, dinini yoyishi yoinki iqtisodiy buyuklik orqali mintaqada yetakchi kuchga

<sup>1</sup> Luttwak E.N. The Logic of War and Peace. – London: The Belknap Press of Harvard Univ, 2012. – P. 241.

aylanishi yoki dunyo miqyosida o‘z mavqeini yanada oshirishga intiladilar. Bu yo‘l bilan har bir davlat o‘zga davlat salohiyatiga tanqidiy yondashish orqali o‘z manfaatlarining, shu davlat manfaatlari bilan qay mezonlarda mos keiishi yoki kelmasligini e’tiborga elgan holda ishlab chiqadi.

Geosiyosiy hududlar. Ma'lum bir makon ustidan nazorat o‘rnatishda, avvalo, Shu makon xususiyatlaridan kelib chiquvchi turlariga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Chunki har bir makon o‘ziga xos bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy salohiyatlarining o‘sishi va taraqqiyoti bilan bevosita bog’liq.

Qalqon hudud (asosan davlat) - yirik davlatlar ta’sir doiralari yoki hududlari o‘rtasida joylashgan, odatda hududi kichik, siyosiy va harbiy jihatdan esa kuchsiz mamlakat<sup>1</sup>.

Amerikalik olim qalqon davlatlarga quyidagicha ta’rif beradi: “Davlatlarning o‘zi qalqon (bufer) bo‘lish yoki bo‘lmaslikni tanlamaydilar. Ularning bu holati o‘zlari nazorat eta olmaydigan dushmanonra atrof-muhitdan kelib chiqadi. Qalqon davlatlar - ancha qudratliroq, ambitsioz va asosan agressiv tashkilotlar (davlatlar) o‘rtasida joylashgan ojiz o‘yinchilardir. Qalqon davlatlarning vazifalari mazkur tashqi raqiblar tarafidan belgilab beriladi. Ular mohiyatan katta raqobatning qurbanlik elementlaridir. Qalqon davlatlar xalqaro huquqning emas, balki kuchlar mutanosibligi tizimining qismi hisoblanadilar. Biroq, ma'lum sharoitlarda, ya’ni mintaqaviy munosabatlar modeli keskin o‘zgargan chog’da, qalqon davlatlar yirik davlatlar o‘rtasida vaqtinchalik muvozanatni saqlaganliklari uchun birinchi qurbonga aylanadilar”<sup>2</sup>.

Endemik hudud (gr. endemos - mahalliy) - bu hududda biror-bit xalq azal-azaldan istiqomat qilgan bo‘lib, shu hudud ularning nazorati ostida bo‘lganligi, shuningdek, o‘zga xalqlar ham bu hudud aynan shu xalqning hududi deb tan olingen makonga aytildi.

Chegaradosh hudud - bu hudud biror-bir davlatga tegishli, lekin unda iqtisodiy tomondan aloqa tizimining tiklanmaganligi va boshqa shu kabi sabablar orqali mustahkam o‘rnashib ololmagan bo‘lishi, qolaversa bu hududda istiqomat qiluvchi kam sonli millatlar o‘z

<sup>1</sup> Словарь иностранных слов. –Москва: Гос.изд-во иностранных и национальных словарей, 2011. – С. 112.

<sup>2</sup> Ziring L. Buffer States on the Rim of Asia: Pakistan, Afghanistan, Iran and the Super-powers. - Hafeez Malik (ed.)

da'volarini ko'tarib chiqishlari mumkin bo'lgan makon. Chet davlatlarning bu hududga hech qanday da'volari bo'lmaydi. Lekin chegaradosh hududda nazoratning sustligi chet davlatlarning unga bo'lgan qiziqishini oshirishi va bu hudud ustidan qay yo'sinda bo'lmasin nazorat o'rnatishga intilishlarini keltirib chiqaradi.

Kesishgan manfaatlar hududi - bunday hududga ikki yoki undan ortiq davlatlar da'vo qiladilar. Bu hudud ham yaxshi o'zlashtirilmaganligi sababli endemik tushunchasiga yaqin, shunga qaramay chegaradosh hududdan: birinchidan, ushbu davlatga yaqin emasligi, balki o'zga davlatning endemik qismida, ya'ni o'zga davlat hududida joylashgan bo'lishi, va, ikkinchidan, ikki va undan ortiq davlatlar tarixiy, milliy, diniy jihatlariga asoslangan holda shu hududga da'vogarlik qilishlari bilan farqlanadi.

Tasarrufiy hudud - biror-bir davlat yoki millat tomonidan to'liq nazorat qilinadigan va shu davlat yoki millat tasarrufidagi bir-biriga tutash bo'lgan hududga deyiladi. Tasarrufiy hududni faqat barcha aloqa yo'llarini egallash orqali to'liq nazorat qilish mumkin.

Agar shu davlat yoki millat tomonidan nazorat qilinadigan hudud tasarrufiy hududdan chetda joylashgan bo'lsa va aloqa yo'llari yoki tizimlari o'zga davlatlar tomonidan nazorat qilib turilsa bunday hudud geosiyosiy tayanch nuqtasi deyiladi. Bu hudud nazorati tasarrufiy hududga nisbatan biroz sust, ya'ni erkin bo'ladi. Geosiyosiy tayanch nuqtasi davlatlar tomonidan asosan raqibiga qarshi ta'sir qilish maqsadida foydalilanadi. Asosiy qarama-qarshi turish esa tasarrufiy hududlar tutashgan erda kuzatiladi.

XX asr so'ngida geosiyosatda yangi hududiy tushuncha – metapole (gr. meta... - shakl o'zgartirish) tushunchasi paydo bo'ldi. Metapole, ya'ni markazlashgan hudud bo'lib, bir necha davlatlarning birlashishi, yoki siyosiy, iqtisodiy, harbiy jihatdan keiishilgan holda yagona hududni nazorat qilishlari tushuniladi.

Hududiy nazorat shakllari. Hududlar ustidan nazorat o'rnatish mazkur hududni qo'lda saqlab qolish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui nazarda tutiladi. Bunda quyidagi nazorat shakllari mavjud:

Siyosiy nazorat - bunda asosan siyosiy infrastrukturaga, ya'ni partiya, davlat, shartnomaviy yoki hukumat vakillari boshqaruviga asoslanadi. Hududlarni nazorat etishda asosiy o'rinni egallaydi.

Harbiy nazorat - ma'lum bir hududni qurollи kuchlar yordamida

nazorat qilib turish.

Iqtisodiy nazorat - bu nazorat turining umumiy emasligi va shu hududning barcha qismiga bir xilda yoymasligi mumkin. Shunga qaramay, ushbu nazorat turi davlatlararo munosabatlarining tobora rivojlanishi va iqtisodiyotning davlat tizimlariga ta'siri kuchayishi ta'sirida keng quloch yoymoqda. Hozirda bu nazorat turining davlat siyosatidan ustua qo'yilishi natijasida yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Biroq, mazkur jarayon murakkab bo'lib, davlatlararo munosabatlarda shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Madaniy nazorat - bu nazorat turi ham o'ziga xos bo'lib, keng qamrovga ega. Unda biron-bir madaniyat o'ziga tutash madaniyatiarni (turish-turmushidan tortib to dunyoqarashgacha bo'lgan an'analarni) nazorat qilib turishi mumkin. Bu esa o'z navbatida to'g'ridan-to'g'ri shu hududni nazorat qilishga va Shu hududga o'z ta'sirini o'tkazishga bo'lgan urinishlarni keltirib chiqaradi. Madaniy nazorat har bir davrda eng asosiy va muhim vosita bo'lib, bugungi kunda ham o'z mohiyatini yo'qotmagan.

G'oyaviy nazorat - madaniy nazoratning bir bo'lagi bo'lib, davlat hududining kengaytirilishiga olib keladi. G'oyalar kurashi sirtdan jo'n ko'rinsada, aslida o'z hududini kengaytirishi, yoki bo'limasa shu hududni saqlab qolish asosiy maqsad qilib olinadi. G'oyalar qanchalik kuchli va tajavuzkor bo'lsa, shunchalik uning unumlligi ortadi.

Bu borada "Mafkura" va "Hudud" o'rtasida o'zaro qanday aloqa bor, mafkura hima, uning asosiy vazifasi nimalardan iborat, degan savol tug'iladi.

"Hudud", eng avvalo, bozordir, bozor esa o'z o'rnila iqtisodiyot bilan bog'liq. Iqtisodiyot esa manfaatlar bilan ifodalanadi. Manfaatlar siyosatni harakatga keltiruvchi kuch, mafkura (g'oya) esa uning libosidir, ya'ni odamlar, jamiyat ongini "to'g'ri yo'iga" solib turadi.

Milliy mafkura - har bir jamiyatning manfaatlarini siyosiy darajada ifodalovchi, jamiyatni shu manfaatlar uchun kurashga yo'naltiruvchi, uyuşhtiruvchi g'oyalar tizimidir. Jamiyat manfaatlari turli darajalarda va shakllarda namoyon bo'ladi. Jamiyatning asosiy siyosiy manfaatlari jumlasiga shu jamiyatni tashqil etuvchi davlatning mustaqilligi, uning iqtisodiy jihatdan ta'minlanganligi va istiqbolga egaligi, davlatning harbiy, iqtisodiy, g'oyaviy, ekologik, informatsion jihatdan himoyalanganligi, jamiyatning ichida esa fuqaroaro, millatlararo barqarortikning ta'minlanganligi va boshqalar kiradi. Bularning barchasi shu jamiyatni

tashqil etgan insonlarga, ularning ongi, aql-idroki va ijodkorligiga bog'liq<sup>1</sup>.

Amerikalik siyosatshunos olim S.Rozenbergning ta'biricha, "Mafkura" tushunchasi ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida, ya'ni mahsulot va borliq, ijodiy faoliyat orqali sub'ektni taniyotgan shaxsning siyosiy tafakkuri faoliyatining ortib borishi jarayoni bilan belgilanadi.

Uning fikricha, tafakkur faoliyatining ortib borishi shaxsning siyosiy voqe'likni qabul qilish tizimi Tushunchasiga bevosita ta'sir etadi. Bu esa o'z navbatida shaxsning u yoki bu siyosiy voqe'likda o'zini qanday tutishini belgilab beradi ... Siyosiy tafakkur shaxsni uning atrofidagi siyosiy muhit bilan bog'lovchi muhim "ko'prik" vazifasini bajaradi<sup>2</sup>.

Yana bir amerikalik olim M.X.Xant, AQShning tashqi siyosiy faoliyatini o'rgangan holda mafkura va tashqi siyosatning o'zaro ta'siri va o'zaro hamkorligini qayd etib o'tgan holda, AQSh olimlari milliy xavfsizlik manfaatlarning keng ma'nodagi yo'nalishlarini ishlab chiqqanliklari va bu borada qator ishlar olib borganliklarini bayon etib o'tadi.

Demak, jamiyatda yuz berayotgan voqe'a-hodisalar, amalga oshrilayotgan siyosatga ijtimoiy-siyosiy nuqtai-nazardan baho berish orqali munosabat bildirish, unga yondoshish, manfaatlarning falsafiy-ma'naviy ifodasi va amaliy joriy etilish jarayoni mafkura bilan belgilanadi. Mafkura doirno markazga intiluvchi kuchlarni o'zida ifoda etib, ularni ta'minlab berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikatsion nazorat - biror-bir hudud ustidan nazorat turlarining majmuiga aytildi.

Demografik nazorat - davlat hududi aholisining kam yoki ko'p sonli ekanligi har bir davlat siyosatida katta ahamiyatga ega. Masalaning yana bir mohiyati shundaki, demografik nazorat madaniy nazorat bilan bog'liq va agar bir millatga mansub bo'lgan xalqlar madaniy jihatdan uzoq bo'lsalar demografik nazorat o'z-o'zidan kuchini yo'qotadi.

Ommaviy axborot vositalari yordamidagi nazorat - bu yangi nazorat turlaridan biri bo'lib, ommaviy axborot vositalarining taraqqiyoti, tele- va radio aloqalarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan. Ayrimlar bu nazorat turini takomillashgan kommunikatsion

<sup>1</sup> Тўраев Б. Миллий мафкура ва Миллий ғоянинг концептуал асослари// Миллий тикланиш. 2001 йил 24 август.

<sup>2</sup> Rosenberg S.W. Reason, ideology and politics. – Cambridge.: Polity press, 2014. – P. 145.

nazorat turi deb baholaydilar. Kommunikatsion nazorat tushunchasi keng ma'noda qo'llaniladi. Ommaviy axborot vositalari nazorati esa, ma'lum bir o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va bu nazorat turi siyosat yurgazishning asosiy manbaiga aylanib bormoqda.

Hududiy nazorat turlari.

Qit'aviy nazorat - quruqlik ustidan nazorat qilish. Bu nazorat turi an'anaviy bo'lib, hozirgi kunda ham o'z mavqeini yo'qotmagan. Yerning quruqlik qismi ustidan faol va uzviy nazorat qilish boshqa nazorat turlari bilan chambarchas bog'liq.

Okean-dengiz nazorat - bu nazorat turining shakllanishi natijasida dunyo xalqlarini yanada yaqinlashtirdi. Hozirgi davrda ham bu nazorat turi harbiy, iqtisodiy yoki madaniy o'lchamlarda kuchayib bormoqda. Hozirda okean va dengiz tubidagi xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash masalasi okean - dengiz nazorat turiga katta mas'uliyat yuklaydi. Harbiy nuqtai-nazardan suv osti yadro kemalari okean - dengiz nazorat turining kuchayishiga olib keladi.

Havo nazorati turi - XX asrda geosiyosiyosat nazariyasiga katta o'zgarishlar kiritdi. Havo nazorati turlaridan biri raketalar bo'lib, xoh yadro raketasi, xoh yadrosiz raketalar bo'lsin, yerning turli nuqtasini nazorat qilinishini kuchaytirib berdi. Harbiy nuqtai-nazardan esa, aviatsiya jang natijasi yoki ma'lum bir harbiy dasturlarni amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutilmogda.

Koinot jihatdan nazoratga - bugungi kunda asosan harbiy nuqtai-nazardan yondashilib, yer ustidan to'liq nazorat qilishga qaratilgandir. Misol tariqasida AQShning sobiq prezidenti R.Reygan tarafidan ilgari surilgan SOI dasturini, yoki, AQSh prezidenti J.Bush tarafidan Raketalarga qarshi Milliy mudofaa tizimining amalga oshirishga kirishilgанини ко'rishimiz mumkin. Biroq bu kabi dasturlar bir tarafdan iqtisodiy, boshqa tomonidan esa texnologiyalar taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, amalga oshirish murakkab masalalar sirasidandir.

Mintaqaviy rivojlanish borasidagi mavjud bo'lgan g'arbcha fikrlar MDH davlatlarida iqtisodiy rerasmiyarni amalga oshirishda, mintaqahlararo hamkorlik tizimini tartibga solishda qo'llanilishi mumkin.

### Seminar savollari:

1. Tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari?
2. Tashqi siyosat strategiyasini belgilovchi asosiy omillar nimalardan iborat?

3. Tashqi siyosatida milliy davlat manfaatlari haqida ma'lumot bering.
4. Tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari haqida aytib bering.
5. Tashqi siyosatda milliy davlat manfaatlari haqida ma'lumot bering.

#### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Xalqaro munosabatlarning usul va muammolar doirasini o'r ganib chiqqan holda, ularni jadval shaklida ifodalang hamda slayd holiga keltiring.
2. "Xalqaro munosabatlarning boshqa siyosiy fanlar tizimida tutgan o'rni" mavzuidagi materiallarni tahlil qilgan holda, ilmiy maqola tayyorlang.
3. Milliy manfaatlар va tashqi siyosatning o'zaro uyg'unligi.

### **Ma'ruza №3. GLOBALLASHUV ZAMONAVIY JAHON SIYOSIY RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI SIFATIDA**

#### **Reja:**

1. «Globallashuv» va «global siyosiy rivojlanish» tushunchalari.
2. Globallashuvning asosiy xarakteristikasi.
3. Globallashuvning ijobjiy va salbiy jihatlari.
4. Globallashuvdan kelib chiqadigan jahon siyosatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari.

**O'quv mashg'ulotning maqsadi:** Globallashuvni zamonaviy jahon siyosiy rivojlanishining asosiy omili sifatida talqin qilish va talabalar diqqatiga yetkazishdan iborat.

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

- Globallashuv
- Modernizatsiya
- Global jamiyat
- Kommunikatsiya
- Mintaqashunoslik

**“Globallashuv” va “global siyosiy rivojlanish” tushunchalari.**  
Bugungi globallashuv jarayoni jadal kechayotgan XXI asrda yer

yuzida vaziyat tez suratlarda o‘zgarib borayotganligini xalqaro may-dondagi tub o‘zgarishlarning ro‘y berayotgani misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan, BMT ma’lumotiga ko‘ra, II-jahon urushi arafasida dunyoda 71ta mustaqil davlat bo‘lgan bo‘lsa, 2012-yilga kelib esa 230taga etishi ham globallashuv jarayoni natijasi ekanligidan yaqqol darak beradi<sup>1</sup>.

Globallashuv jarayonining kelib chiqishi “Globalizatsiya” - “gloub” (ingliz. “globe”, ya’ni er shari), “global” (“global”, ya’ni butun dunyoga tegishli) va “globallashuv” (“globalize”, ya’ni butun dunyoga tarqalish) so‘zidan olingan. Collins lug‘atida (1998) ta’rif berilishicha, globallashuv moliyaviy va sarmoya kirituvchi bozorlarga daylatlar va millatlarning o‘zaro bog‘lanmaganliklaridan foydalangan holda rivojlangan va tartibga solingen aloqalar orqali boshqarish imkoniyatini beradi deb ta‘kidlangan. Globallashuv jarayoni omillari 1990-yillarda o‘rtalarida asrning buyuk kashfiyoti internet paydo bo‘lgach, yanada murakkab jarayonga ega bo‘ldi. Moskvaning globallashuv muammlarni o‘rganish instituti chop etgan “Globallashuv amaliyoti. Yangi asr o‘yin qoidalari” to‘plamida (2000-yil. 16-bet) globallashuv jarayoni axborot inqilobi, ayniqsa, internetning rivojlanishi hamda moliyaviy bozorlarning integratsiyalashuvi bilan uzviy bog‘liq ekani yoziladi.

Shuningdek, globallashuv etimologik jihatdan esa “global” atamasi “globallashuv” atamasi kabi, er kurrsasi bo‘lib “Globallashuv” termini 1980- yillar arafasida yuzaga keldi va 1990-yildan boshlab fanda rasman qo‘llanila boshlandi<sup>2</sup>. Globallashuv jarayonini olimlar “internatsionallashuv yoki baynalminalashuv”, “liberallashtirish yoki erkinlashtirish”, yohud “universallashtirish” hamda “g‘arblashtirish”, deb ham talqin qilishadi<sup>3</sup>. Bu jihatlarning mohiyatiga to‘htalganda asosan quyidagilarni bildirish mumkin:

**Birinchidan**, “Internatsionalallashtirish” - mamlakatlararo munosabatlar, xalqaro savdoning o‘sishi, demokratiya va inson huquqlari kabi g‘oyalarni o‘zaro almashinuvi tushuniladi.

<sup>1</sup> БМТ асосий омиллари. – Т.: 2001. – Б. 334; БМТ маълумоти: 1947 йилда 81ta mustaqil давлат бўлган бўлса, 1959 йилда 92ta, 1990 йилда 171ta, 1995 йилда 180ta, 1998 йилда 190ta, 2006 йилда 229ta, 2010 йилда 230ta, 2012 йилда эса 230тадан ошиди. <http://www.un.org>,

<sup>2</sup> Мирсаидов М. Халкаро иктисодий муносабатлар. – Тошкент, 2006. – Б. 13.

<sup>3</sup> Хорин И.С. Глобализация общественной жизни: история и современность. – Москва, 2015.– С. 118.

**Ikkinchidan**, “Liberallashtirish” - mamlakatlararo ochiq savdoni chegaralashning man etilishi va jahon iqtisodiyotini erkinlashtirish.

**Uchinchidan**, “Universallashtirish” - bu turli qarash va tajribalar ning er yuzidagi barcha insonlar orasida ommaviy tarzda tarqalishidir. Iqtisodiy va madaniy aloqlarning o’sishi milliy madaniyat va qadriyat-larning uyg'unlashuviga olib keladi<sup>1</sup> deb e’tirof berilgan.

Shu jumladan, globallashuv jarayoni xususiyatlari bo'yicha fanda nazariy konseptual qarash mavjud bo'lib, bu asosan jahon hamjamiyati integratsiyalashuvini o'zida ifodalovchi globalizm va globalizatsiya atamalari bilan o'zaro bog'liq. Bu ikki xil xususiyatni bildiruvchi alohida atamalar hisoblanishi bilan ham ahamiyatlidir:

**Birinchidan**, globalizm - xalqaro hamjamiyat do'stligini, yaqinligini, bir-biriga bog'liqligini hamda butunjahon tinchligi yo'lida yagona maqsadlar atrofiga birlashishni ifodalasa;

**Ikkinchidan**, globalizatsiya esa asosan moddiy foyda ko'rish maqsadida yirik transmilliy korporatsiyalarning butun dunyoni iqtisodiy egallashi, yagona tizim va qonunlar asosida yagona bozorni yaratishi va bu bilan ma'naviy-ijtimoiy hayotga jiddiy ta'sir ko'rsatishi tushuniladi. Bu erda globallashuv deganda aynan shu globalizatsiya nazarda tutilmoqda.

**Uchinchidan**, esa globallashuv jarayonida ichida globalistika termini ham mavjud bo'lib, u jahon rivojlanishining eng yangi tendensiylarini anglashdagi sa'y-harakatlar, globallashuv jarayonlarining muhiyati va sabablarini ular ta'sirida yuzaga kelayotgan global muammolarni aniqlash va bu jarayonlarning oqibatlarini anglab etishga qaratilgan fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasi bu globalistika hisoblanadi. Kengroq ma'noda esa “globalistika” atamasi globallashuvning turli jihatlari va global muammolarga oid ilmiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, jumladan ularning natijalarini, shuningdek ularni ayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda joriy etish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Nazariy konseptual xususiyatga ega globalistika tadqiqotlar va bilishning shunday bir jabhasiki, u globallashuvning turli jihatlarini tahlil qilib, global muammolarni bir-biridan alohida va yaxlit tizim

<sup>1</sup> Глобаллашув ва ислоҳотлар жараёни // Инт.: [http://uzhurriyat.uz/xalqaro\\_yoqealar/axborot\\_globallashuvi.mgr](http://uzhurriyat.uz/xalqaro_yoqealar/axborot_globallashuvi.mgr)

sifatida o'rganib, ularning munosib echimlarini taklif qiladi. Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyat sohasi sifatida 1960-yillarning oxirlarida shakllana boshladi, ammo uning paydo bo'lishi uchun ob'ektiv asoslar ancha oldin yuzaga kelgan edi<sup>1</sup>. Taraqqiyot inson hayotiga ko'p farovonlik, qulaylik olib keldi. Globallashuv jarayoni sababli keng jahon kichik bir makonga aylandi. Iqtisodiy manfaatlar dunyoning siyosiy to'siqlaridan o'tib, jahonni bir xil qonunlar asosida ishlaydigan yagona bozorga tobora birlashtirmoqda. Lekin taraqqiyot, ilm-fan qanchalik rivojlanayotgan bo'lsa, shu bilan birga qarama - qarshi salbiy tomon ham o'sib bormoqda. Fan, zamonaviy kompyuter texnologiyalari, mass-mediya, sun'iy yo'ldosh imkoniyatlari, internet kabilar vositasi orqali insoniyat taraqqiyotini yanada jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy rivojlanishning jadallahshuvi avvalo, ekologiya, atrof-muhitning tanazzuliga olib kelmoqda<sup>2</sup>.

Globallashuv jarayonlarining tezlashuvi natijasida, so'nggi o'n yilda fan-texnika yutuqlari o'sishi natijasida jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida oldingi yuz yilliklarga nisbatan ko'proq o'zgarishlar ro'y berdi. Bunday o'zgarishlar jarayonining o'sib borish tezligi rivojlandi va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda yanada chuqurroq va jiddiyroq o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib kelmoqda. Masalan, verbal (og'zaki) muloqtdan yozuvning yaratilishiga qadar insoniyat taxminan 3 mln yilga, yozuvdan kitob bosmasi ixtiro qilingunga qadar taxminan 5 ming yilga, kitob bosmasidan telefon, radio, televidenie kabi audiovizual vositalalar yaratilgunga qadar taxminan 500 yilga teng yo'lni bosib o'tgan bo'lsa, odatdagи audiovizual vositalardan zamonaviy kompyuterlarga o'tish uchun 50 yildan kamroq vaqt talab etilgani globallashuv jarayoning jadal suratlarda kechayotganligini o'zida namoyon etadi<sup>3</sup>.

Shuningdek, so'nggi 10-15 yil ichida odamlar misli ko'rilmagan sur'atlarda Internet va uyali aloqa yordamida muloqot qilish uchun cheksiz imkoniyatlarni qo'lga kiritdi. Yangi ixtiolar yaratilganidan ular amalga joriy etilgunga qadar o'tadigan vaqt ham yanada qisqardi.

<sup>1</sup> Медведева И.Я, Шишова Т.Л. Логика глобализма // Наш современник. 2001. – № 11. – С. 34-36.

<sup>2</sup> Clarke R. Information technology and data veillance Communications of the ACM, 1988. – P. 512.

<sup>3</sup> Robbins R. Global problems and the culture of capitalism (3rd ed.). – Boston, 2005. – P. 23.

Bugungi zamonaviy globallashuv natijasida XXI-asrning eng so'nggi kashfiyotlaridan biri bo'lgan yangi nanotexnologiyalar (mitti texnologiyalar)-ning yaratilishi insoniyatning barcha sohadagi imkoniyatlarni yanada kengaytirdi. Ikki-uch yuz yil oldin turli millatlar asosan alohida-alohida yashagan va ular o'rtaisdagi o'zaro aloqalar yaxshi yo'lgan qo'yilmagan bo'lsa, endilikda nafaqat Erda inson oyog'i etmagan joylar qolmadi, balki tabiiy holatiga inson bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatmagan sof hududlar, suv va koinot bo'shlqlari ham deyarli egallanib bormoqda. Bularning barchasi endi er sayyorasini "umumiy uy", deb barcha odamlar uchun umumiy bo'lgan muammolarni esa - olamshumul, umumbashariy, global muammolar deb nomlash uchun asos bo'lmoqda

### *Globalashuvning asosiy xarakteristikasi.*

Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihat shunda namoyon bo'ladi, u bugungi sharoitda mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib ulgurdi va har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Iqtisodiy va siyosiy darajada globallashuv ayrim yirik transmilliy va multinatsional korporatsiyalar manfaatigagina xizmat qiluvchi tizim sanalmoqda. Masalan, rivojlanayotgan va qashshoq davlatlarga beg'araz yordam berish, biror davlat yoki xalq farovonligi uchun xizmat qilish kabi maqsadlar bo'lmaydi. Bugun dunyodagi gegemon davlatlarning xalqaro mayonda "xalqlar ozodligi" uchun olib borayotgan urushlari aslida bir necha moliya guruhlari va transnatsional korporatsiyalar buyurtmasi bilan olib borilayotgan ishlar ham globallashuv jarayonining bir omilidir<sup>1</sup>.

Globallashuv jarayonlarining xususiyatlari haqida fransuz tadqiqotchisi B.Bandi quyidagicha ta'rif beradi:

*Birinchidan*, globallashuv - mutassil davom etadigan tarixiy jarayon va doimiy davom etuvchi xususiyatdir;

*Ikkinchidan*, globallashuv - jahonning gomogenlashuv va unversallashuv jarayoni negizi hisoblanadi;

*Uchinchidan*, globallashuv - milliy chegaralarning "yuvilib ketish" jarayoni deb ta'rif beradi<sup>2</sup>.

Globallashuv jarayoni murakkab hodisa bo'lib, uni nazariy va

<sup>1</sup> Stiglitz J. Globalization and its Discontents. – London, 2002. - P. 75.

<sup>2</sup> Харви Д. Краткая история неолиберализма. Актуальное прочтение. – Москва, 2007. – С. 46-51.

konseptual jihatidan bugun turli mamlakatlarning siyosati va iqtisodiyoti va ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatmoqda, shuning uchun jahonda bir-biriga qarshi quyidagi ikki guruhlar mavjud:

**Birinchi guruh**, globalistlar – globallashuv tarafдорлари. Улар орасида asosan davlat va xukumat arboblari, siyosatchilar, sanoatchi va biznesmenlar ko'pchilikni tashkil etadi.

**Ikkinci guruh**, aksilglobalistlar – bu jarayonlarga qarshi guruh. Uning ichida so'l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotlarining vakillari mavjud. Masalan, Rossiya Federatsiyasida aksilglobalistlar faol harakat qilishi kuzatiladi<sup>1</sup>.

Bugungi globallashuvning serqirraligi madaniyat, xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq sohasida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yasash bilan bir qatorda milliy, qadriyatlarga munosabatlarda ham namoyon bo'lmoxda. Jahan hamjamiyati yangi ming yillik chegarasidan o'tib, o'z tarixiy rivojlanishining butunlay yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqich jahon ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy aloqalarining tarqoqligi va parokandaligidan ularning global umumiylilikka o'tishi bilan tavsiflanadi.

Jahonda yuz berayotgan bugungi o'zgarishlarning ba'zi bir global tafovutlari olimlar tomonidan quyidagicha e'tirof etilgan. Masalan, ijtimoiy rivojlanishga turli sivilizatsiyalarning ketma-ket almashishi sifatida qaragan ingliz tarixchisi A.Toynbi (1889-1975) kompyuter inqilobidan ancha oldin "XX asrda umumjahon tarixi boshlandi" degan xulosaga kelgan edi. SHu tariqa tub o'zgarishlar nafaqat jamiyat qurilishi negizlarida, balki dunyo miqyosida yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarning asosiy tendensiyalarida ham aks etgani ta'kidlandi<sup>2</sup>.

Hozirgi zamon atoqli nemis namoyondasi Karl Yapers (1883-1969) bu xususda yanada aniqroq fikr bildiradi. U 1948-yilda e'lon qilgan "Tarix kurtaklari va uning maqsadi" asarida, "Ilk bor olamshumul ahamiyat kasb etgan bizning tarixan yangi sharoitimiz, Yerda odamlarning real birligidan iboratdir. Zamonaviy aloqa vositalarining texnik imkoniyatlari sharofati bilan sayyoramiz insonga to'la ochiq bo'lgan yagona yaxlitlikka aylandi" deb yozgan edi. U 1968-yil Rimda hozirgi davorning eng muhim umumbashariy muammolari bo'yicha

<sup>1</sup> Харви Д. Краткая история неолиберализма. Актуальное прочтение. — Москва, 2007. — С. 46-51.

<sup>2</sup> Barney D. The network society. — Cambridge, UK.: Polity, 2002. — P.55.

ma'ruzalar tayyorladi va 1972-yilda e'lon qilgan "O'sish chegaralari" deb nomlangan birinchi ma'ruzasi jahonda katta shov-shuvga sabab bo'ldi, chunki insoniyat o'zi anglamagan holda "poroxli bochka ustida o'tirib, olov o'yinayotganligi"ni ko'rsatib berdi.

Rim klubining asoschisi va birinchi Prezidenti Aurelli Pechchei mazkur tadqiqot bo'yicha shunday deb qayd etgan edi: "Endilikda ona - Erimiz har qanday o'sish sur'atlariga dosh berishga, insonning har qanday xarakatlarini ko'tarishga qodir ekanligiga sog'lom fikrlaydigan odamlarning birortasi ham ishonmaydi. O'sish chegaralari borligi ravshan, lekin ularning qandayligi va qaerdaligini hali aniqlash lozim". Mazkur globallashuv omili ma'ruzasidan olingan natijalarning muxtasar mazmuni quyidagilardan iboratdir:

1. Yer sayyorasi chegaralari inson imkoniyatining chegaralari hamdir;
2. Moddiy o'sish cheksiz darajada davom etishi mumkin emas;
3. Ijtimoiy rivojlanishning haqiqiy chegaralari moddiy omillar bilan emas, balki ekologik, biologik va hatto madaniy omillar bilan ham belgilanadi.

Bugun globallashuv jarayoni natijasida fan-texnika taraqqiyoti yuqori darajaga etgan bo'lsada, biroq insoniyat hamon yangi muammolar qurshovida qolib ketmoqda<sup>1</sup>. Ular asosan global iqlim o'zgarishi, ekologiya va atrof muhit, kasalliklar, ochlik va qashshoqlik, ommaviy qirg'in qurollarining tarqalishi, terrorizm va diniy ekstrimizm, uyushgan jinoyatchilik, norkobiznes, tabiiy ofatlar ko'laming kengayib borayotgani, Orol dengizi, Iordan daryosi va Chad ko'llari kabilarning tobora qurib borayotganligi, cho'llanish va sahrolarning kengayib borayotganligi kabi dolzarb global muammolar bugun butun insoniyatni qamrab olgan. Masalan, ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyoning ikki qudratli davlatlari AQSh va SSSR o'rtasidagi 1945 – 1991-yillar mobaynida davom etgan siyosiy va mafkuraviy ziddiyatlar, o'zaro qarama-qarshilik misli ko'rilmagan qurollanish poygasiga olib keldi, natijada ommaviy qirg'in qurollarining yangi turlari yaratilishga sabab bo'lganligi buning dalilidir. Bugungi globallashuv jarayonida jahon geosiyosatida muvozanatning o'zgarishi natijasida ko'p qutblি markazlarning yuzaga kelishi, ular o'rtasidagi raqobat va ayrim

<sup>1</sup> Федотова В. Г. Меняющийся мир и глобализация (продолжение) // Знание. Понимание. Умение. – Москва, 2005. – № 1. – С. 55.

davlatlarning dunyo hukmronligi uchun ochiqdan – ochiq etakchilikka nisbatan faol xarakatlari yangi mustaqil davlatlarda jamiyatni erkinlashtirish va huquqiy demokratik davlat qurish jarayoniga, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ushbu geosiyosiy raqobat oqibatida xalqaro xavfsizlikning yangi noan'anaviy tahdidlari sanalgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va fundamentalizm, narkobiznes, noqonuniy qurol savdosi, separatizm kabilarning vujudga kelishi kuzatilmoqda. Mazkur tahdidlar esa zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi globallashuv va integratsiyalashuv natijasida kundan-kunga milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka xavf solib tez tarqalib bormoqda. So'nggi davrda xalqaro vaziyatning o'zgarishi natijasida ilgari kuzatilmagan yangi tahdidlar ayrim g'arb davlatlari tomonidan o'z milliy manfaatlarini kengaytirishda "demokratiya eksporti" "axborot huruji" kabilar asosiy vositaga aylanib ulgurdil<sup>1</sup>.

Bugungi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida globallashuv jarayonlari asosan quyidagi sohalarda tobora namoyon bo'lib bormoqda.

*Jahon siyosati va xalqaro munosabatlarda:* etakchi davlatlarning xalqaro maydonda va mintaqalarda roli va ta'sirini ortib borishida ko'rish mumkin. Davlatda barqarorlik, tinchlikni saqlash, ziddiyatlarni bartaraf etish, etnik va millatlararo nizolarni oldini olish borasidagi yalpi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv jarayonida biron bir xudduda yoki mintaqada kechayotgan qarama qarshiliklarning juda tez va qisqa muddat ichida boshqalarning xabardor bo'layotganligi va bu jarayon turli manfaatlarga xizmat qiluvchi mintaqalarga ham ko'chishi kabi omillar paydo bo'limoqda.

Shuningdek, bugungi XXI asr jahon siyosatining globallashuvi natijasida xalqaro munosabatlar tizimida to'rtta asosiy yo'nalish ham paydo bo'ldi. Mazkur yo'nalishlar quyidagilardir.

- Turli ijtimoiy tuzumdagи davlatlar o'rtasidagi munosabatlar ularning tinch yashash jarayoni;
- Bir xil ijtimoiy tuzumdagи davlatlar o'rtasidagi munosabatlar va ularning hamkorligi;
- Mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan yangi davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlar;

<sup>1</sup> Хорина Г. П. Глобализация как идеология // Знание. Понимание. Умение. – Москва, 2005. – № 1. – С. 71.

•Musulmon monarxiya davlatlarining o‘zaro xalqaro munosabatlari shular jumlasiga kiradi<sup>1</sup>.

*Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiyotda:* rivojlangan va jadal rivojlanayotgan davlatlarning yalpi ichki mahsuloti, sanoat taraqqiyoti, ishlab chiqarish va yirik moliya korporatsiyalar TMK (transmilliy kompaniyalar) faoliyatida o‘z ifodasini topmoqda. Masalan, 2004-yilda dunyo ho‘jaligida 600tadan ortiq TMKlar faoliyat olib borgan va ularning 300tasi dunyo yalpi mahsulotining  $\frac{3}{4}$  qismini ishlab chiqargan, globallashuv va integratsiyalashuv jadal kechayotgan xalqaro munosabatlarda katta o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keladigan yana bir asosiy omillardandir.

Bugungi kunda eng yirik TMKlar AQSh, G‘arbiy Yevropa va Yaponiya xissasiga to‘g‘ri keladi xatto ularning jahon iqtisodiyotidagi ulushi bir nechta davlatlarning ulushidan ham oshib bormoqda<sup>2</sup>. Shuningdek, tabiiy rusurslarga eng boy xududlar misolida ko‘rish mumkin. Masalan, Yaqin Sharq mintaqasi jahon neft zahirasining 61.7 foiziga va tabiiy gazning 40 foiz<sup>3</sup>ga egaligi bilan ham mintaqaning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Bundan tashqari mintaqada dunyo aholisini 6 foizi yashaydi va jahon nizolarining 35 foizi aynan shu xududga to‘g‘ri keladi. Yaqin Sharq mintaqasi quyidagi jihatdan ham muhimdir;

*Birinchidan,* geosiyosiy va geoijtisodiy jihatdan qulay geografik joylashuvi, uning har tomonlama dengizlar bilan tutashganligi bilan ahamiyati oshayotgan bo‘lsa;

*Ikkinchidan,* diniy omil, dunyo aholisining yarimi e’tiqod qiladigan xristianlik (2.1mlrd), islam (1.5mlrd) va yahudiylilik (10mln), dirlarining vujudga kelgan yagona markazi hisoblanadi.

*Uchinchidan,* hozirda Yaqin Sharq mintaqasi ikki yirik davlat Rossiya va AQSh uchun yirik harbiy bozor, jahon davlatlariga katta ta’sir o‘tkazish uchun esa qulay geostrategik va energiya resurlariga boy xudud hisoblanib, amalda u Atlantika va Hind okeanini o‘zaro bog‘laydigan eng arzon dengiz yo‘li, uch mintaqqa Afrika, Osiyo,

<sup>1</sup> Albrow M. The Global Age. – Stanford, CA.: Stanford University, 1996. – P. 25.

<sup>2</sup> Г.П.Анилионис, Н.А.Зотова. Глобальный мир и международные отношения. – М.: 2005. – С.435.

<sup>3</sup> Георгий Мирский. Большой Ближний Восток – самый конфликтный регион мира. Клуб мировой политической экономики -М.2002. [www.wpec.ru/text/200704171449.html](http://www.wpec.ru/text/200704171449.html).

**Evropani tutashtiruvchi ko‘prik bo‘lganligidir<sup>1</sup>.**

Jahon ijtimoiy va ommaviy madaniyat sohasida: dunyo demografik xolatining jadal suratlarda o‘sib borayotganligi, ayrim davlatlarda axolining keksayib borishi (Evropa davlatlari, Yaponiyada), tibbiy xizmatga bo‘lgan talab, kasalliklar, aholi turmush xolati, savodxonlik darajasi, qashshoqlashish va shu kabilar bo‘lsa, globallashuv jarayoni natijasida global madaniyatlar ikki qutbli dunyosi vujudga keldi. Bu globallashuv jarayonida sharq va g‘arb xalqlari madaniyati to‘qna-shuvidir. Bugungi kunda bu ikki qutb omilining o‘z maqsadlariga erishishdagi faoliyatining siyosiylashuvi oqibatida bir qator umuminsoniy muammolarni xatto nizolarni keltirib chiqishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Shu jumladan, Bugungi xalqaro munosabatlar tizimida globalashuv jarayonida Ommaviy axborot vositalari (OAV)ning etakchi davlatlar siyosatida rolining juda oshib borishi natijasida jahon siyosatida “Axborot o‘yni” sifatida namoyon bo‘ladi. Bunga asosiy sabablar sifatida:

*Birinchidan*, axborot agentliklarining bir masalani yoritishdagi turlicha yondashuvi va o‘z manfaati va mafkuralari doirasida yoritishi;

*Ikkinchidan*, global normalarni chetlab o‘tib madaniy va yod mafkuraviy targ‘ibotlar olib borish jarayoni;

*Uchinchidan*, o‘z siyosati va qarashlarini amalga oshirish, talqin qilish kabi xolatlar bugun juda ommalashib bormoqda<sup>2</sup>. Bu sohada hozirgi paytda keng faoliyat olib borayotgan BBS<sup>3</sup> (Buyuk Britaniya), EBS (AQSh), Amerika Ovozi, New York times<sup>4</sup>, ITAR TASS, ORT, Kreml tasarrufidagi LEVADA eshittirish markazi (Rossiya Federat-

<sup>1</sup> Nezemroaya M. Plans for Redrawing the Middle East // global research, November 18.2016.

<sup>2</sup> Joseph Nye. Soft Power and Leadership. – Compass: A Journal of Leadership, 2004. – P.98

<sup>3</sup> 1922-йилда Буюк Британия ташки сиёсат котиби Антони Эден томонидан маданийни кенг тарғиб этувчи, ташки сиёсатни ёритувчи Британия радио эшиттириш агентлиги (ББС) ташкил этилди ва у бир нечта европа тилларида ва араб тилида олиб бориладиган бўлди. ББСни бугунги кунда 150 млн киши эшитади.

<sup>4</sup> Америка Овози радио эшиттиришини бугунги кунда жаҳоннинг 53 тилида 91 млн киши тинглайди. 2000 йилдаги маълумотларга кўра Араб олами билан алоқаларнинг ёмонлашиши натижасида академик ва маданий алмашинув узилиб, бир қанча маданият марказлари ва кутубхоналар ёпилишига сабаб бўлган. Арабларнинг факат 2 фоизи Америка овозини эшитади. 2001 йил 9 ноябрдан Америка давлат бошқарув дипломатияси томонидан 1 млрдан ортиқ маблаг айнан ахборот хизматлари, алоқа эшиттиришларга сарфланган.

siyasi)<sup>1</sup>, Sinxua (Xitoy)<sup>2</sup>, SNN, Evronews, (YeI), Aljazira (Misr) boshqa shu kabilar faoliyatini ko'rish mumkin.

*Jahon ekologik muhitni saqlash sohasida:* global iqlim o'zgarishi, ozon qatlamining emirilishi, suv va ichimlik suvi muammosi, qirg'oqchilik, saxrolanish, cho'llanish muammosi Orol dengizi, lordan daryosi va Chad ko'lini qurib borayotgani va ularni oldini olish kabilarni kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida iqtisodiy manfaatlar dunyoning siyosiy to'siqlaridan o'tib, jahonni bir xil qonunlar asosida ishlaydigan yagona bozorga tobora birlashtirib, taraqqiyot, ilm-fan qanchalik rivojlanayotgan bo'sada, shu bilan birga qarama - qarshi salbiy tomon ham o'sib bormoqda. Fan, zamonaviy kompyuter texnologiyalari, mass-mediya, sun'iy yo'ldosh imkoniyatlari, internet kabilar vositasi orqali insoniyat taraqqiyotini yanada jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy rivojlanishning jadallahuvi avvalo, ekologiya, atrof-muhitning tanazzuliga olib kelmoqda. Globallashuv jarayonlari ning jadal kechishi oqibatida so'nggi o'n yilda fan-texnika yutuqlari o'sishi natijasida jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida oldingi yuz yilliklarga nisbatan ko'proq o'zgarishlar ro'y berdi. Bunday o'zgarishlar jarayonining o'sib borish tezligi rivojlandi va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda yanada chuqurroq va jiddiyoq o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib kelmoqda. Masalan, verbal (og'zaki) \muloqotdan yozuvning yaratilishiga qadar insoniyat taxminan 3 mln yilga, yozuvdan kitob bosmasi ixtiro qilingunga qadar taxminan 5 ming yilga, kitob bosmasidan telefon, radio, televidenie kabi audiovizual vositalar yaratilgunga qadar taxminan 500 yilga teng yo'lni bosib o'tgan bo'lsa, odatdagi audiovizual vositalardan zamonaviy kompyuterlarga o'tish uchun 50 yildan kamroq vaqt talab etilgani globallashuv jarayoning

<sup>1</sup> Россиянинг халқаро радио эшилтириш хизмати 60 тилда узатилиб, 171 млн одам радио ва телевидения ва интернет тармоғи оркали боҳабар бўлиб боради. Агентликнинг 2008 йилдаги маблағи 682.1 млн АҚШ долларни ташкил этган. Россиянинг Левада ахборот маркази 2003 йилда очилган бўлиб, асосан халқ билан тўғридан- тўғри алоқа алмашиб вазифасини амалга оширади. Газпром 2007 йилда тахминан 350,000 АҚШ доллари ОАВ хизматларига маблаг ажратган.

<sup>2</sup> Хитойда эса радио ва ахборот воситаларига 6.6 млрд АҚШ доллар сарфлайди. Хитой халқаро радиоси, хитой марказий телевиденияси ва расмий Цинхуа ахборот агентлиги мисолида буни кўриш мумкин.

jadal suratlarda kechayotganligini o‘zida namoyon etadi. bugungi globallashuv jarayonining taxliliy nazariy va konseptual jihatlari shuni ko‘rsatadiki, jahon siyosatida turli ko‘rinishdagi xalqaro va mintaqaviy nizolar va umumbashariy muammolar, ziddiyatlar va manfaatlar to‘qnashuvining yuzaga kelayotganligi tez suratlarda o‘zgarib borayotgan dunyo globalizatsiya omilining doimiy ta’siri va keng qamrovli xususiyatlaridandir.

### *Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari.*

Bugungi globallashuv jarayoni jahon siyosatining ishtirokchilari bo‘lgan barcha davlatlar tashqi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, madaniy faoliyatida o‘z ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Globallashuv jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni, transport va kommunikatsiya aloqalarini rivojlantrishni, uyushgan jinoyatchilik, narkotik moddalar va qurol-yarog‘ kontrabandasi, ommaviy qirg‘in qurollari tarqalishining oldini olishda hamkorlik qilish kabi faoliyatlarni yanada rivojlantrishni talab qilmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida intelektual salohiyat, aql idrok bilim va ilg‘or texnologiyalar tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb etib bormoqda. Globallashuv jarayoni obe’ktiv va tabiiy jarayon bo‘lib, u o‘ziga xos bir qancha nazariy va amaliy xususiyatlarga ega. Bu jarayonlar birinchi navbatda davlatlarga xalqaro maydonga erkin chiqishiga, boshqalar bilan yaqindan hamkorlik aloqalarini olib borishga hamda o‘z milliy manfaatlarini turli xil xalqaro va nodavlat tashkilotlar doirasida ta’minalashga keng imkoniyatlar ochib beradi<sup>1</sup>. Ammo ayni paytda buning o‘ziga xos bir qator salbiy jihatlari ham tobora namoyon bo‘lmoqda. Bugun globallashuv jarayoni natijasida bir mintaqadagi voqeа – hodisalar dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalib, ularga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Buning oqibatida, mintaqaga xavfsizligi va barqarorligiga turli ko‘rinishli jiddiy tahdidlar vujudga kelmoqda. Vaziyatning keskinlashuvi, tashqi tahidlarning ichki tahdidlar bilan qo‘silishi, nizolar orasidagi masofaning yaqinlashuvi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘sishi kuzatilmoxda<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Хорина Г. Глобализация как идеология // Знание. Понимание. Умение. – Москва, 2005. – № 1. – С. 78.

<sup>2</sup> Royal Pingdom Internet 2009 in numbers [online] Available from: <http://royal.pingdom.com/2010/01/22/internet-2009-in-numbers/> [Accessed: 20 May 2010].

Shuningdek, yirik davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, globallashuv jarayoni birinchi navbatda sanoati rivojlangan davlatlar mavqeini mustahkamlaydi va ularga qo'shimcha ustunliklar beradi hamda rivojlanishdan orqada qolgan davlatlarga esa sivilizatsiya yutuqlari kirib kelishi uchun dastlabki shart - sharoitlarni yaratadi.

Shu jumladan, jahon siyosatida globalizatsiya jarayoni demografik, ekologik va hududiy jihatdan o'zining salbiy oqibatlariga olib kelishi ham mumkin. Uning natijasida davlatlar, xalqlar, mintaqalarda integratsiyalashuv jarayoni vujudga kelib, insonlar mehnatinini engillashtiruvchi zamonaviy texnologiyalar, fan - texnika taraqqiyoti, uning salbiy oqibatlari sifatida tabiiy qayta ishlovchi resurslar o'rmonlarning qisqarishi, cho'llanish, ichimlik suvi muammosi, turli kasalliklarning ortishi, ayrim mintaqalarda demografik pasayish va xalqning keksayishi kabilarda namoyon bo'immoqda. Shu sababli ham umumbashariy sanal-gan globallashuv jarayonlarni ijobiy va salbiy jihatlarga ega xalqaro xolat deb hisoblash mumkindir<sup>1</sup>.

Zamonaviy globalizatsiya jarayonida o'zaro hududiy uzoq davlatlar va mintaqalarni bir - biriga turli sohalar orqali kirib borishi va kuchli ta'sir o'tkazish jarayonlarni kuzatish mumkin. Bugungi kunda jahon siyosatida globallashuv reytingini tuzishda to'rtta asosiy ko'rsatgich mavjud.

*Birinchidan*, iqtisodiy integratsiya - xalqaro savdo investitsiyalar va to'lovlardan hajmi bo'yicha;

*Ikkinchidan*, shaxsiy aloqalar - xalqaro turizm va safarlar, xalqaro pul o'tkazmalari;

*Uchinchidan*, xalqaro aloqalarni ta'minlovchi texnologiya, interneted foydalanuvchilar va internet serverlari hajmi;

*To'rtinchidan*, davlatni xalqaro maydondag'i siyosiy faoliyati – xalqaro tashkilotlarga a'zoligi, xorijiy elchixonalari va vakolatxonalari soni kabilar tashkil etadi. Bu omillar bugungi zamonaviy globallashuvni yanada kengayishida xizmat qilmoqda. Globallashuv jarayonini olimlar "internatsionallashtirish", "liberallashtirish", "universallashtirish" hamda "g'arblashtirish", deb talqin qilishadi<sup>2</sup>. Ammo inglez olimi Voterga ko'ra, "g'arblashtirish" jarayonini "zamonaviy lashtirish"

<sup>1</sup> Мирсаидов М. Халқаро иқтисодий муносабатлар. – Т.: 2006. – Б. 15.

<sup>2</sup> Глобаллашув ва ислохотлар жараёни//Инт.: [http://uzhurriyat.uz/xalqaro\\_yoqealar/axborot\\_globalashuv/mgr](http://uzhurriyat.uz/xalqaro_yoqealar/axborot_globalashuv/mgr)

jarayoni deb ham aytish mumkin. Biroq “zamonaviylashuvning ijtimoiy tuzilishi” bo‘lgan kapitalizm, mustamlakachilik, sanoatlashuv, byurokratizm, imperializm kabilar globallashuv jarayonining asosiy negizini tashkil qiladi. Ya’ni “g‘arblashtirish” g‘arbiy kapitalizmnинг jahon miqyosida ustun turishi nazarda tutiladi deydi<sup>1</sup>. Masalan, 2000 yil ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda internetdan foydalanuvchilar soni 304 millionni tashkil etgan. 1999 yil oxirlarida internetdan foydalanuvchilarning 88 foizi rivojlangan davlatlar xissasiga to‘g‘ri keladi, bu esa dunyo aholisining 15 foizini tashkil qiladi. AQSh va Kanadada er yuzi aholisining 5 foizi istiqomat qiladi va shu 5 foiz aholi internetdan foydalanuvchilarning 50 foizini tashkil etadi.

Hozirgi kunda dunyo, globallashuvining yangi davri “axborot asri” yoki “elektron yuz yillik”ga o‘tildi. Sun‘iy yo‘ldoshlar va internet orqali telekommunikatsiyalarning faoliyat yuritish diterritoriallashish (ya’ni er sharining xohlagan chekkasiga borish va joylashish) imkoniyatini yaratdi. 2001 yil 11 sentyabr voqealaridan keyin jahon siyosati mazmun-mohiyat jihatidan mutlaqo yangi va murakkab bosqichga o‘tdi, xalqaro siyosatdagi manfaatlar kuch va qutblarning markazlarida ham jiddiy tuzilmaviy o‘zgarishlar yuz berdi va yanada kuchaytirildi.

Globallashuv jarayoni bevosita axborot bilan bog‘liq bo‘lib bormoqda va mutaxassislarning fikriga ko‘ra, hozirda axborot iqtisodiyotning eng serdaromad manbaiga aylanib bormoqda. AQSh Strategik tadqiqotlar institutining ma’lumotlariga ko‘ra, axborot mahsulotiga sarflangan har bir dollar, yoqilg‘i-energetika sohasiga sarmoya qilingan 1 dollardan ko‘ra bir necha barobar ko‘p foyda beradi. Bu faqat uning iqtisodiy jihat, uning siyosiy jihat esa o‘z shaxsiy manfaatlariga o‘ta arzon, o‘ta qulay yo‘llar bilan erishish sifatida qaralmoqda<sup>2</sup>.

Shu nuqtai nazardan bugungi kunda globallashuv jarayoni omillaridan biri bo‘lgan axborot omili ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan yirik kuchlar davlatlar manfaatiga aylandi. Shuning uchun ham yangi mustaqil davlatlarning milliy xavfsizligini ta‘minlashda siyosiy, iqtisodiy, harbiy omillar bilan bir qatorda axborot omili borgan sari dolzarplashib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezident

<sup>1</sup> Гринин Л. Е. Глобализация и национальный суверенитет // История и современность. –Москва, 2005. – № 1. – С. 26-31.

<sup>2</sup> Royal Pingdom *Internet 2009 in numbers* [online] Available from: <http://royal.pingdom.com/2010/01/22/internet-2009-in-numbers/> [Accessed: 20 May 2010].

denti I.A.Karimov aytganidek, “Axborot omili yadroviy poligonlardan ham dahshatlil omilga aylanib bormoqda. Agar mazkur omilga alohida e’tibor berilmas ekan, u borgan sari kuchayib boradi. Natijada, ayrim kuchlar qo‘lida asosiy “qurol” ga aylanadi. Bu omil mintaqalar va davlatlarda keskin ziddiyatlari vaziyatlarni vujudga kelishiga olib keladi. SHuningdek, xalqaro miqyosda ham xamon o‘z ta’sirini ko’rsatib kelmoqda”<sup>1</sup>. Bugungi jahonda bo‘layotgan jadal o‘zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fandagi yangi ixtiolar barchasi ommaviy axborot vositalari orqali dunyo xalqlariga ma’lum bo‘lmoqda.

### **Globallashuvdan kelib chiqadigan jahon siyosatining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari.**

Hozirgi davrda, xalqaro munosabatlar tizimi yangi axborot texnologiyalari asosida shakllanayotgani sababli, axborotni himoyalash va kompyuter tizimlari xavfsizligini ta’minlash jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Misol uchun Amerika Qo‘shma Shtatlarida “axborot quroli”ga qarshi maxsus davlat dasturini amalga oshirish uchun har yiliga 137 mln. dollar sarflanadi.

Shuningdek, bugungi kunda demokratiya tamoyillarini yoyish, inson huquqlarini himoya qilish, globallashuv jarayonini tezlashtirish, dirlarni takomillashtirish, nodavlat tashkilotlar faoliyatini dunyo bo‘ylab yoyish, rivojlantirish va mustahkamlash uchun “Gegemonlik” g‘oyasini singdirishga intilayotgan ba’zi davlatlar ommaviy axborot vositalaridan o‘z mafkurasini singdirishda foydalanmoqdalar. Aslida terrorizm, diniy aqidaparastlik, mutaassiblik, giyohvandlik va narkobiznesga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, radio va televidenieya asosiy tashviqot quroli hisoblanadi. Ammo g‘arblik siyosatshunoslarning fikricha, televideniya va radio terrorchilarning odamlar bilan muloqot qiladigan oddiy vositaga aylanib qoldi<sup>2</sup>. Bu jarayon Yevropadagi axborot vositalarida ko‘proq sezildi. Bunga misol keltirilganda, 1972 yil 5 sentyabrda Germaniyaning Myunxen shahrida XX olimpiada o‘yinlari bo‘layotgan bir vaqtida Arabistonadagi “qora sentyabr” ekstremistik tashkiloti isoillik sportchilarni avval garovga olib, so‘ngra otib tashlagan edi. Dunyo hamjamiyatining

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўксак маънавият - енгилмас куч. – Тошкент:Ўзбекистон, 2008. – Б.186.

<sup>2</sup> Жумаев Р., Убайдуллаев У., Хўжанов Б. Конфликтология асослари. – Т:Академия, 2000. – Б.17.

diqqatini Arab - Isroil mojarosiga qaratish asosiy maqsad hisoblanib, ommaviy axborot vositalari targ'ibot manbaiga aylangandi.

AQShning Mudofaa Vazirligi 1991yil 14 yanvarda "Ommaviy axborot vositalari uchun asosiy qoida va ko'rsatmalar"ni qabul qilib, odamlarning hayotiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan axborotni tarqatishni ta'qiqlab qo'ydi. RF Prezidenti 1996-yilning 7-martida "Terrorizm bilan kurashni kuchaytirish haqida" Farmon qabul qildi. Shu jumladan, davlatimizda OAV to'g'risidagi qonunlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, mudofaa to'g'risidagi qonunlarda buzung'unchilik, qo'poruvchilik va parokandalikka qarshi kurash alohida qayd etilgan. Bugungi kunda, – degan edi, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov, – insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar Yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga etadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzuksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi". Kurashning bu turida eng samarali qurol – axborot. Shu bois, axborotni o'z maqsadlariga xizmat qildirishga intilish keskin tus olmoqda. Dunyoda kim axborot bozorini egallasa, o'sha hukmronlik tizginini tutmoqda. Chunki ayni paytda dunyoni inson emas, aynan axborot boshqarmoqda. Bugungi kunda SNN bilan BBSning ovozi etmayotgan joyda "Al-jazira"ning mahsulotlari sotilayotgan ekan, bu axborot bozorida yangicha qarashning paydo bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Shu o'rinda rossiyalik olim A. Zinovevning "Globallashuv yangi jahon urushi. U yangi tipdag'i jahon urushi" degan ta'kidi kishini ancha sergak torttiradi. Yana bir olim A.Parshev esa "Aslida globallashuvning asosiy mazmuni mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo'shimcha qiymatini va dunyodagi asosiy zahiralarni o'zlashtirishdan iboratdir" deydi. Ayrim gegemonlikka intilayotgan davlatlarning globallashuv geosiyosati negizida "Demokratiyani faol ilgari surish prinsipi" yotibdi. Bu jarayon "Universal va barchaga ta'lluqli" demokratiyani jahonga yoyishga urinishlar jadallahish ketayotganidan namoyon bo'ladi.

Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyat-dagi o'rni yanada oshib bormoqda. Hatto, davrimiz ham globallashayotgan "Axborot asri" – deb atalishi ham bejiz emas. Shu o'rinda jamiyat hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirish, elektron kom-

munikatsiyalar, elektron ko‘rinishdagi ma’lumotlar bazasi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ijobji natijalar bilan bir qatorda, axborot tizimlari orqali ta’sir o’tkazuvchi yangi “axborot quroli”larining ta’siri kuchayishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida bir qator davlatlar Suriya, Misr, Liviya (2010-2011 yillar), Afrika mamlakatlari 2011 yilda Sudanning ikkiga bo‘linishi, Chad va Keniya, Osiyo mamlakatlari Ukraina, Gruziya kabi davlatlarda ichki nizolar va ziddiyatlar xatto davlat to‘ntarishlari yuz berayotganligi tashqi kuchlarning axborot va boshqa kanallar orqali olib borgan faoliyatidan dalolat beradi. Jadal suratlarda globallashuv jarayonlarining avj olishi millatlar “chegaralarini” yo‘q qilib yubormoqda, ommaviy ma’naviyatni shakllantirishga olib kelmoqda. Natijada har bir millatga xos bo‘lgan urf-odat, an’ana, qadriyatlar o‘z ahamiyatini “yo‘qota boshlash” xavfi yuzaga kelmoqda. Bu millatning ma’naviy qashshoqlashuvi sedir bo‘lishga, ularning o‘zligini anglamaydigan shaxslarga olib keluvchi tahdidlarni yuzaga keltirib chiqarayotganligini ko‘rish mumkin. Masalan, hozirgi globallashuv davrida nazoratga olinmagan internet tarmoqlarining ta’siri:

*Birinchidan*, yot, buzg‘unchi diniy ekstremizm, millatchilik, irqchilik, kabilar g‘oyalarning kirib kelishi;

*Ikkinchidan*, g‘arb yashash tarziga xos, lekin millat milliy mentalitetiga zid g‘oya, qarashlarning yoshlarga ta’siri (kiyinish, chekish, yurish turish, ma’naviy buzilishlar);

*Uchinchidan*, tekshirilmagan axborotlar (ya’ni bo‘hronlar va bo‘xtonlar), pornografik axborotlar jamiyatda o‘sib kelayotgan qatlam yoshlar tarbiyasiga ta’siri kabilar tashkil etadi.

Hozirgi zamon globallashuv jarayonini xalqaro munosabatlar tizimiga ta’siri asosan ishlab chiqarish va boshqarish, mudofaa va aloqa, transport va energetika, moliya va fan, ta’lim, OAV – barchasi axborot almashuvni jadalligiga, haqqoniyligiga, to‘liqligi va tezligiga bog‘liq. Shuning uchun jamiyatning axborot infrastrukturasi -- axborot qurolining nishonidir<sup>1</sup>.

Bugungi zamonaviy globallashayotgan xalqaro maydonda rangli inqiloblar davrida axborot hurujlari omili quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘fadi.

<sup>1</sup> Wallerstein, I. World-systems analysis: An introduction. -- Durham, NC.: Duke University, 2004. – P. 5.

*Birinchidan*, rangli inqilob – qonuniy hukumatlarni noqonuniy yo'llar bilan ag'darib tashlash demakdir (Serbiya, Gruziya, Ukraina).

*Ikkinchidan*, rangli inqiloblar G'arbning kuchli axborot bosimi asosida amalga oshiriladi.

*Uchinchidan*, rangli inqiloblarni amalga oshirishda zamonaviy va qimmat elektron axborot vositalaridan keng foydalaniadi.

Bugungi zamonaviy globallashuv jarayonida Axborot hurujlari turlari va ularga qarshi turish yo'llari va usullari quydagichadir:

*Axborot hurujlarining turlari:*

1. Yolg'on axborot tarqatish va xalqning tarixiy xotirasini buzish va o'zgartirish;

2. Ijtimoiy ongni manipulyasiya qilish;

3. Milliy-ma'naviy qadriyatlarni emirish va yot ma'naviy qadriyatlarni singdirish;

*Huruja qarshi turish yo'llari va usullari:*

1. Loqayd bo'lmaslik va o'z qat'iy pozitsiyasiga ega bo'lish;

2. O'z pozitsiyasini asoslay bilish;

3. Hozirjavoblik ya'ni har bir hurujga vaqtida javob qaytarish.

*Global axborot hurujning asosiy qismlari:*

1. Psixologik operatsiyalar – axborotdan kishilarga ta'sir etishda foydalanish;

2. Elektron huruj – aniq ma'lumotlarni olish imkonini bermaydigan vosita;

3. Dezinformatsiya – dushmanga soxta axborot berish;

4. Fizik buzilish – axborot hurujining qismi sifatida axborot tizim elementlariga ta'sir etish<sup>1</sup>;

5. Ochiq axborot hurujlar – axborotni ko'zga ko'rinxmaydigan o'zgartirishlarsiz buzish. Axborot hurujlarining maqsadi - o'z axborot funksiyalari va resurslarini himoyalagan holda mintaqqa va global axborot muhitini nazoratga olishdan iboratdir<sup>2</sup>.

Globallashuv jarayoni davrida etakchi davlatlar hisoblangan Rossiya va AQSHning xalqaro maydondag'i faoliyati hamda bugungi jahon siyosiy tartibotidagi ta'siri:

<sup>1</sup> Nederveen Pieterse J. Globalization and culture: Global melange. – Lanham, 2004. – P. 95.

<sup>2</sup> Munkler H. The New wars. – Cambridge, UK.: Polity, 2005. – P.50.

*Birinchidan*, AQSh qurolli xarakat yordamida Rossiya va uning kuchli hamkorlarini ittifoqdoshlaridan ajratish va vayron qilish;

*Ikkinchidan*, global axborot va mafkuraviy urush olib borish usuli yordamida ularni parchalashdir. AQShning mazkur mafkuraviy urushish usuli uzoq o'tmishga ega bo'lib, uni Amerikalik harbiy strateg Liddel Hart ikkinchi jahon urushida qo'llagan edi. Amerika va Buyuk Britaniya qo'shinlari urush davrida Germaniyaga qarshi mafkuraviy urush yo'llini tutib uni nemis xalqiga o'rgatdi. Bu asosan inson munosabatlari bo'yicha "Tavistok" Britaniya instituti modellari hisoblanadi.

Shuningdek, 1982 yilda AQShda Reygan xukumati quyidagi 3 ta eng asosiy maqsadni o'z ichiga oladi. Ular jumladan:

1. Mafkuraviy urush olib borish;
2. Xalqni mintalitetini vayron qilish;

3. Xalqni o'zligini yo'qotish va madaniyatini vayron etish, o'z ichidan buzish strategiyalarida o'z ifodasini topgan.

Bunugi zamonaviy globallashuv davrida AQSHning tashqi siyosiy maqsadlariga erishishida quyidagi uch omil juda muhim hisoblanadi:

1. Yaqin va strategik ittifoqchilarни shakllantira olganligi;
2. Juhon hanjamiyatidagi turli davlatlarga nisbatan ajratadigan iqtisodiy va harbiy yordamlari hamda bir qator xalqaro tashkilotlarning eng yirik donor davlati hisoblanishi<sup>1</sup>.

Shu jumladan, AQSh tashqi siyosatining muhim qismi sifatida turli davlatiarga harbiy va no-harbiy yordam berib borishidir. Harbiy yordam – asosan davlat byudjetida "chet el harbiy moliyasi" va "kolumbiya plani" sifatida tuzilgan qism tomonidan amalga oshirilsa. Noharbiy yordam – AQShning "chet el yordami davlat departamenti"ning jahon xalqaro vaziyatlariga sarflaydigan mablag'i hisobidan amalga oshiriladi<sup>2</sup>.

Bugungi globallashuv jarayoni mintaqalar miqyosida ham jadal suratlarda kechmoqda va uning ahamiyati ortib bormoqda.

*Globallashuv jarayoni - Yel davlatlari siyosatida*: 1993 yilda Maastrix shartnomasi asosida yangi nom olgan 40 tilda so'zlashuvchi

<sup>1</sup> Foreign Aid: Introductory Overview US Programs and Policy // Инт.: <http://fpc.state.gov/documents/organization.31987.pdf>

<sup>2</sup> Хозирги кунда АҚШнинг чет элда 115 та элчихонаси ва 120 та консуллик муассасалари фаолият юритмоқда.

385 mln aholiga ega Yevropa Ittifoqi (YeI) a'zo davlatlarida globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari bosqichma-bosqich keng sohalarda amalga oshirilib borilmoqda. YeI davlatlari asosan iqtisodiy potensiali yuqori davlatlar bo'lishi bilan birga barqaror iqtisodiyot, mutadil mehnat bozori va imigrantlar (Osiyodan turklar Germaniyaga, Afrika mamlakatlari Jazoir, Tunis, kabilardan Fransiyaga va boshqa davlatlarga kirib kelayotgan muxojirlar...) masalalari bugungi YeI globallashuv jarayoning dolzarb muammoli siyosatidan biriga aylanib bormoqda.

*Globallashuv jarayoni - ASEAN davlatlari siyosatida:* globallashuv natijasida 1969-yilda Janubiy Sharqiy Osiyoning 9ta Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tayland, Laos, Kombodja, Birma, Bruney qirolligi, Filippin davlatlari hamkorligida Bangkok shartnomasi asosida tuzilgan Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (ASEAN) bugun jahon iqtisodiyotda katta kuchga ega bo'lib borayotgan mintaqaviy iqtisodiy integratsion tashkilot hisoblanadi. ASEAN mamlakatlaridagi taraqqiyot darajasi 2008-yilda 1.5 mrld aholi bilan 50 foizni tashkil etgan bo'lsa, YeIda esa bu ko'rsatgich 360 mln aholi bilan 62 foizni tashkil etishi ASEANning taraqqiyoti jadal o'sib borayotganligidan dalolat beradi. Bu esa globallashuv jarayoniga nisbatan mintaqqa davlatlarining o'ziga xos ichki va tashqi siyosatda tutgan pozitsiyasi, hamfikrli, teng mintaqaviy hamkorlik samarasi sifatida qaraladi<sup>1</sup>.

*Globallashuv jarayoni - tez rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlari siyosatida:* bugungi kunda Osiyoda globallashuv jarayoni quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda.

*Birinchidan,* iqtisodiy, siyosiy va harbiy potensiali, demografik, hamda xududiylar ulkan davlatlar (Xitoy, Hindiston);

*Ikkinchidan,* iqtisodiy potensiali ulkan davlatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya, Saudiya Arabiston, Turkiya, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari);

*Uchinchidan,* harbiy potensiali yuqori davlatlar (Eron, Pokiston, Shimoliy Koreya);

*To'rtinchidan,* tabiiy resurslarga eng boy davlatlar Fors ko'rfazi davlatlari va Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston;

*Beshinchidan,* ko'p nizoli va kambag'al davlatlar, Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston kabilarni ko'rish mumkin.

<sup>1</sup>Kaldor M. New & old wars: organized violence in a global era. – Stanford, CA.: Stanford University, 2011. – P. 36

Shu o'rinda globallashuv javrida Osiyoning markazida joylashgan Markaziy Osiyo davlatlarining integratsion taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillar: siyosiy omillar jumlasidan, mintaqal qulay geosiyosiy nuqta bo'lib, yirik davlatlarni g'arb bilan bog'lovchi koridorda joylashganligi va mintaqada davlatlarini bir-biri bilan bog'lab turuvchi yagona trasport strukturasining mavjudligi bo'lsa, iqtisodiy omillar - mintaqada tabiiy boylik va mehnat resurslarining ko'pligi;

*Shu jumladan mintaqadagi noqulay jihatlar.* Siyosiy omil - mintaqal davlatlarining taraqqiyot modellarining tubdan farq etishi va turli xilligi, davlatlar manfaatlari uyg'unligini qaror topmag'anligi, umumiyl mintaqaviy siyosat asosida armiya, chegara va ichki qo'shinchlarni bosqichma-bosqich va izchil isloh etgan holda, professional tayyorgarlikka ega qurolli kuchlarni tashkil etish, iqtisodiy omil - davlatlar taraqqiyotining notekisligi, ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va aloqalarni mustahkamlash kabi xolatlardir.

Xulosa qilib aytganda, globalashuv jarayoni xalqaro munosabatlar tizimining barcha ishtirokchilari sanalgan davlatlarning ichki va tashqi siyosatida u yoki bu ko'rinishda o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Mazkur jarayon bir tarafdan sanoati rivojlangan davlatlar mavqeini mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan rivojlanayotgan davlatlarga sivilizatsiya yutuqlaridan foydalanish uchun shart-sharoit yaratadi. Globalizatsiya natijasida davlatlar, xalqlar, mintaqalarda integratsiyalashuv jarayonining vujudga kelishini ta'minlab, kishilar mehnatini engillashtiruvchi zamonaviy texnologiyalar, fan - texnika taraqqiyoti rivojiga xizmat qiladi. Ammo, yuqoridagi ijobjiy jihatlar bilan bir qatorda, tabiiy qayta ishlovchi resurslar, o'rmonlarning qisqarishi, cho'llanish, ichimlik suvi muammosi, turli kasalliliklarning ortishi, ayrim mintaqalarda demografik portlash, inqiroz va demografik qarishning kuchayishi kabilarda namoyon bo'immoqda. Shu sababli ham umumbashariy sanalgan globallashuv jarayonlarni ijobjiy va salbiy jihatlarga ega xalqaro xolat deb hisoblash mumkin. Tabiiyki bu jarayonga moslashish va undan to'g'ri foydalana olish davlatning ham ichki ham tashqi siyosati uchun samarali pozitsiya bo'lib xizmat qiladi.

#### **Seminar savollari:**

1. «Globalashuv» va «global siyosiy rivojlanish» tushunchalarni aniqlang.
2. Globallashuvning asosiy xarakteristikasi nimalarda o'z ifodasini topgan.

3. Globallashuvning ijobjiy va salbiy jihatlari sanab o'ting.
4. Globallashuvdan kelib chiqadigan jahon siyosatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari haqida ma'lumot bering.
5. Har bir konsepsiyaning kuchli va zaif tomonlarini aiting.

### **Mustaqil ishlar topshiriqlari:**

1. Xalqaro rejim tushunchasi va jahon siyosiy tarkibining o'zgarishi dinamikasini tasvirlang.
2. Jahon tartibotini yaratishning asosiy muammolari.
3. Xalqaro xavfsizlikka tahdid solayotgan global muammolarga bag'ishlangan taqdimot tayyorlang.
4. Globalistlar va antiglobalistlarning o'zaro qiyosiy tahliliga bag'ishlangan ma'ruzatayyorlang.

## **Ma'ruza № 4. JAHON SIYOSATIDA SHAXS ROLI**

### **Reja:**

1. "Siyosiy elita" tushunchasi, uning xususiyatlari va funksiyalari
2. Siyosiy boshqaruv va siyosiy elita
3. Siyosiy elitalar haqidagi dastlabki klassik ta'limotlar
4. Siyosiy liderning siyosiy institutlar va jarayonlarda tutgan o'mni

**O'quv mashg'ulotning maqsadi:** Juhon siyosatida shaxsning tutgan o'mni va roli haqida axborot berishdan iborat.

### **Tayanch so'z va iboralar:**

- |                    |                      |
|--------------------|----------------------|
| •Siyosiy jamiyat   | •Ijtimoiy tengsizlik |
| •Manipulyatsiya    | •Marginal elita      |
| •Ijtimoiy guruhlar | •Qadriyatlar         |

### **"Siyosiy elita" tushunchasi, uning xususiyatlari va funksiyalari**

"Siyosiy elita" tushunchasi, xususiyat va funksiyalari. Har bir siyosiy jamiyat muayyan qatlamlarga ajratilishi azal-azaldan ma'lum. Ma'lumki, real siyosiy hokimiyat jamiyat rivoji maqsadlarini belgilab beruvchi va muhim siyosiy qarorlar qabul qiluvchi elita deb atalmish kamchilikning qo'lida mujassam bo'ladi. Bugungi kunda boshqaruvchi

ozchilik va bo'yshuvchi ko'pchilik toifalarga ajratishning qonuniyligini asoslashga urinuvchi turli xil konsepsiylar mavjud.

Shaxs siyosatning bevosita sub'ekti hisoblanadi. Chunki, u mazkur jarayonlarda bevosita ishtirok etadi, ularga nisbatan o'z munosabatini bildiradi va sharhlashga, baho berishga urinadi hamda boshqa shaxslar bilan bu borada hamkorlik qiladi.

Turli ijtimoiy guruqlar siyosiy munosabatlarning sub'ektlari hisoblanadi. "Siyosat sub'ekti" deganda siyosatni kim yaratishi, unda kim faol, ongli va maqsadli qatnashishini, o'z harakatlari bilan ma'lum natijalarga erishishini va bu orqali jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi o'zgarishlarga ta'sir qilishini anglatadi.

Shaxs siyosatning o'ziga xos sub'ekti ekanligini talabalar doimo yodda tutishlari zarur. Zero, siyosiy jarayonlarning borishida inson muhim o'rinda turadi. Shaxs ma'lum guruqlar, jamoalar uchun ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy xususiyatlarning ifodachisi bo'lib, o'z hayotiy faoliyatida va ongida o'z guruhi, tabaqasi, millatining ehtiyoj va manfaatlari ifodachisi sifatida ijtimoiy sub'ekt hisoblanadi. Shur bilan birga, ayrim manbalarda insonning ehtiyoj va manfaatlari haqida hech narsa aytilmagan. Ma'lumki, aynan ehtiyoj va manfaatlari siyosatning har bir sub'ektni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirokchi sifatida qatnashishida asosiy sabab bo'lib xizmat qiladi. "Ehtiyoj" deganda shaxsnинг yashashi uchun zaruriy bo'lgan birlamchi vositalar tuShurniladi. "Manfaat" esa "aqlan tan olingen ehtiyojlar"ga aytiladi.

Elita so'zi fransuz tilidan "yaxshi", "saralangan", "tanlangan" ma'nolarini anglatadi.

Elita deganda siyosiy-boshqaruvi sifatlari va funksiyalari yorqin namoyon bo'ladigan, siyosatning inson hayotidagi o'rni va roli hamda ularni jamiyatda ifoda etuvchi shaxslar nazarda tutiladi. «Elita» iborasi qadimdan paydo bo'lgan bo'lishiga qaramasdan, mazkur atama siyosiy fanlarda birinchi marotaba XX asr boshlarida Sorel va Pareto asarlarida ilgari surilgan. Inson jamoalari paydo bo'lgan davrdan boshlaboq jamiyatni "Yuqorilar" va "quyilar", "oliy nasablilar" va "avomlar"ga ajratish yuzaga kela boshlagan. Bunday fikrlarni biz Konfusiy, Platon, Makiavelli, Karleyl, Nisshe asarlarida kuzatishimiz mumkin. Biroq, ularning fikrlari o'sha davrlarda ilmiy ahamiyat kasb etmagan. Elita haqidagi dastlabki jiddiy nazariyalar XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Gaetano Moska, Vilfredo Pareto va Robert Mixels asarlarida paydo bo'lganligini kuzatish mumkin.

Rossiyalik Siyosatshunoslar V.P.Pugachev va A.I.Solovev o'zlarining "Vvedeniye v politologiyu" nomli darsliklarda "Siyosiy elita" - jamiyatdagi ozchilikni tashqil qiluvchi, ichki jihatdan tabaqalashtirilgan, umumiy bo'limgan, biroq ijtimoiy institatlarda rahbarlik lavozimlarini egallagan yoki jamiyatda hukmron qarorlarni qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsata oladigan, rahbarlik funksiyalarini bajarish uchun tayyorgarlikdan o'tgan hamda ozmi - ko'pni liderlik sifatlariga ega kishilar guruhi yoinki guruhlarning nisbatan integratsiyalashganligini tushurnish mumkin, degan ta'rifni keltiradilar<sup>1</sup>.

Ularning mavjudligi quyidagi shart-sharoitlar bilan belgilanadi: 1) kishilardagi psixologik va ijtimoiy tengsizlik, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish qobiliyati, imkoniyatlari va xohishlarining notengligi; 2) samaralilik garovi bo'lgan boshqaruva amaliyoti bilan professional tarzda shurg'ullanishni talab qiluvchi mehnat taqsimoti qonuni; 3) boshqaruva amaliyotining yuqori darajadagi ijtimoiy ahamiyati va unda mavjud bo'lgan rag'batlantiruvchi omillar; 4) ijtimoiy imtiyozlar olish maqsadida boshqaruva faoliyatining keng imkoniyatlaridan foydalanish (siyosiy-ma'muriy mehnat qadriyatlar taqsimoti bilan bevosita bog'liq); 5) siyosiy rahbarlar ustidan keng qamrovli nazorat o'rnatish imkoniyatining cheklanganligi; 6) manfaatlari siyosatdan tashqarida bo'lgan keng aholi ommasining siyosiy faol emasligi.

Ta'sir ko'rsatish manbaalaridan kelib chiqqan holda elitalar quyidagi turlarga ajratiladi: me'rosiy (aristokratiya), qadriyatlardan kelib chiquvchi (nufuzli va ijtimoiy ahamiyatli davlat mansablarini egallagan shaxslar), hukmron (hokimiyat bevosita qo'lida bo'lgan shaxslar), funksional (rahbarlik lavozimlarini egallash malakasiga ega boshqaruvchilar). Bular orasidan bevosita davlat hokimiyatiga ega hukmron va kontroelita bo'lgan oppozisiya; jamiyat ichidan yetishib chiquvchi ochiq va o'z muhitidan yetishib chiquvchi yopiq elitalarga ajratish mumkin.

Elitaning o'zi yuqori va o'rta elitaga ajratiladi. Yuqori elita davlat ahamiyatiga molik qarorlarning qabul qilinishida bevosita ishtirok etadi. O'rta elita esa 3 belgi bilan ifodalanadi: daromadi, malakaviy maqomi va ma'lumoti. Agar ushbu belgilardan birortasi bo'lmasa, u holda bunday shaxslar marginal elita deb ataladi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. -- М.: АСПЕКТ ПРЕСС, 2000. -- С.123.

<sup>2</sup> Шаран П. Сравнительная политология /Пер. с англ. Ч.2. М.: 1992. -- С. 92.

Elitalarning ham turlari mavjud. Davlat hokimiyatiga ega elita hukmron elita deb ataladi. Ularga qarshi bo‘lgan elita esa oppozisiyaviy yoki kontroelita deb ataladi. Shuningdek, elitalar ochiq va yopiq turlarga ajratiladi. Ochiq elitalar aholining turli qatlamlari tomonidan to‘ldirilib turiladi. Yopiq elitalar sirasiga ijtimoiy guruhlarning boshqa vakillari kirish imkoniyati cheklangan bo‘ladi.

G‘arb tadqiqotchisi P.Sharan elitalarni an'anaviy va zamonaviy ko‘rinishlarga ajratadi. An'anaviy elitalar sirasiga diniy arboblar, aristokratiya, harbiy rahbariyat va boshqalar kiradi. Zamonaviy elitalarni esa u to‘rt guruhga: A) oliv elita (mamlakatning eng yuqori rahbariyati, ular hayotiy muhim siyosiy qarorlarni qabul qiladilar); B) o‘rta elita (ular 3 narsaga – yuqori daromad, professional mahorat va ma’lumotga ega bo‘lishlari shart); C) marginal elita (ular o‘rta elita sifatlaridan biror bittasidan mahrum bo‘ladilar); D) ma’muriy elita (ijroiya organ funksiyalarini bajaradilar).

Umumlashtirilgan holda aytadigan bo‘lsak, siyosiy elita – bu jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi qarorlarni qabul qilishda bevosita ishtirok etuvchi hokimiyat idoralarida rahbarlik lavozimlariga ega shaxs va guruhlar.

### *Siyosiy boshqaruv va siyosiy elita*

Siyosiy boshqaruv va siyosiy elita. 1992 yil O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Muxbir a’zosi, professor A.A. A’zamxo‘jaev rahbarligida tayyorlangan «Politologiya asoslari» kitobida, «hayot voqeligidan kelib chiqqan holda siyosiy hatti-harakat»ning quyidagi 3 turi aytildi: faollik, indiferentlik<sup>1</sup>, sustkashlik<sup>2</sup>. 2006 yilda chop etilgan «Siyosatshunoslik asoslari» o‘quv qo‘llanmasida esa «siyosiy xulq-atvor va shaxsning siyosatda ishtirok etishi»ning quyidagi tiplari keltiriladi: 1) siyosiy faolligi yuqori bo‘lgan, siyosiy hayotda doimiy ravishda ishtirok etuvchi shaxs; 2) siyosatda (saylovda, ayrim siyosiy tadbirlarda vaqtiga vaqtiga bilan ishtirok etuvchi shaxs; 3) iqtidorlilik darajasi turlicha bo‘lgan, kuzatuvchi, siyosatga qiziquvchi, ammo o‘zi amalda siyosatda ishtirok etmaydiganshaxs; 4) siyosatga nisbatan betaraf yoki salbiy munosabatda bo‘lgan sust shaxs; 5) siyosiy loqayd va chetlashgan, o‘zining siyosatdagagi ishtirokiga salbiy

<sup>1</sup> Индиферент (лот.) – бепарво, бефарк, локайд, кизикмайдиган

<sup>2</sup> Политология асослари. Ўкув кўлланма. Т.: Университет, 1992. – Б. 141

qaraydigan shaxs<sup>1</sup>. Talabalar seminar mashg'ulotlarida mazkur turdag'i shaxslarni o'zaro muhokama etishlari va ular orasidagi farqlarni ajratib olishlari maqsadga muvofiq.

Siyosiy boshqarishning funksiyalari boshqarish ishlarni to'g'ri tashqil qilish va jamiyat siyosiy hayotidagi murakkab muammolarni hal qilishni ko'zda tutadi. S.Jo'raev muharrirligi ostida yozilgan «Politologiya» o'quv qo'llanmasida siyosiy boshqarishning quyidagi funksiyalari mavjudligi qayd qilinadi:

1. Qonunlar, qarorlar, dasturlar, nizomlar ishlab chiqish.
2. Ishni tashqil etish.
3. Ishni tartibga solish.
4. Nazorat qilish.

Talabalar boshqaruvning mazkur jihatlarini o'zaro muhokama etishlari hamda konspekt qilib olishlari shart.

### *Siyosiy elitalar haqidagi dastlabki klassik ta'limotlar*

Siyosiy elitalar haqidagi dastlabki klassik ta'limotlar. Moskaning elita nazariyasi. Italiyalik sotsiolog va Siyosatshunos Moska (1858-1941) har bir jamiyatning ijtimoiy jihatdan teng bo'lmanan ikki qismga ajralishini isbotlashga harakat qilgan. 1896 yilda chop etirgan «Siyosiy fanlar asoslari» haqidagi risolasida u: «O'rtacha rivojlangan yoki rivojlanish ibtidosida bo'lgandan tortib to ma'rifiy va quadratli darajaga erishgan har bir jamiyatda ikki sinfdagi shaxslar-boshqaruvchilar va boshqariluvchilar sinfi mavjud bo'ladi», degan fikrni ilgari suradi. O'z fikrini davom ettar ekan, u “son jihatdan doimo kam bo'lgan birinchisi hokimiyatni monopollashtiradi va unga tegishli bo'lgan imkoniyatlardan foydalanadi; ko'p sonlik bo'lgan ikkinchisi esa birinchilari tomonidan boshqariladi va yo'naltiriladi ... hamda siyosiy organizmni faoliyatiga zaruriy bo'lgan moddiy vositalarni yetkazib beradi”, deya ta'kidlaydi.

Siyosiy jarayonlarning eng muhim masalasi boshqaruv hisoblanadi. Bu mushkul va murakkab jarayon hisoblanib, unda inson omili alohida o'r'in tutadi. 1997 yilda I.Ramazonov va E.Mominov tomonidan yozilgan «Politologiya» darsligida: «Siyosiy boshqarish – bu ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarini o'z vaqtida aniqlay bilish va duch kelingan muammolarni hal etish hamda jamiyatning afzalliklaridan,

<sup>1</sup> Фафуров С.М., Хайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: Ўкув кўлланмаси. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонасиning нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. – Б. 185

uning real imkoniyatlaridan foydalana bilish» deb ta’rif berilgan<sup>1</sup>.

Moska siyosiy elitaning shakllanishi va unga tegishli bo‘lgan xususiyatlarning shakllanishini tahlil qilgan. Uning fikricha, boshqa insonlar ustidan boshqara olish, ya’ni tashkilotchilik qobiliyati, hamda elitani boshqa qatlamdan ajratib turuvchi moddiy, ma’naviy va aqliy ustunligi mazkur qatlamga kirishning eng asosiy sharti bo‘lib xizmat qiladi.

Boshqaruvchilar guruhining jipslashganligi va uning jamiyatdagi hukmron maqomini ta’kidlagan holda Moska ularni siyosiy sinf deb ta’riflaydi. Mazkur sinf asta sekinlik bilan o‘zgarib turadi. Ularning rivojida ikki tendensiya mavjud: aristokratik va demokratik. Ularning birinchisi siyosiy sinf vorisyligini yo yuridik, yoinki amaliy bo‘lishiga intilishida kuzatish mumkin. Aristokratik tendensiya ustunligi sinfning “yopiqligi va kristallahsuvi”ga, o‘zgarishiga va tabiiyi ijtimoiy turg‘unlikka olib keladi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda hukmron maqomlarni egallash uchun yangi ijtimoiy guruhlar kurashining faollandishuviga olib keladi.

Ikkinci, demokratik tendensiya boshqarishga layoqatli va faolroq bo‘lgan quyi qatlam hisobiga siyosiy sinfning yangilanishida namoyon bo‘ladi. Bunday yangilanish elitalar aynishining oldini olib, jamiyatni samarali boshqarish salohiyatini oshiradi. Aristokratik va demokratik tendensiylar orasidagi muvozanat jamiyat uchun eng maqbul hisoblanadi, zero u bir tomonidan mamlakat boshqaruvi vorisyligi va barqarorligini, boshqa tomonidan sifat jihatdan yangilanishini ta’minlaydi.

Moskaning siyosiy sinf konsepsiysi elitar nazariyalarning kelgusi rivojiga hissa qo‘sishi bilan birga, jamiyatning ijtimoiy tabaqalashishida iqtisodiyotning o‘rniga siyosiy omilning (boshqaruv qatlamiga tegishlilik nazarda tutilmoqda. Qaysidir ma’noda mutlaqlashtirganligi sababli tanqidga uchradi. Siyosiy sinf nazariyasi kutilmagan ravishda totalitar davlatlarda o‘z ifodasini topganligini kuzatish mumkin.

Pareto va Mixels konsepsiyalari.

Moskadan bexabar holda taxminan shu davrda Pareto (1848-1923) ham siyosiy elita nazariyasini ishlab chiqqan. U ham Moska singari alohida – psixologik (tug‘ma va ijtimoiy (tarbiya va ta’lim tufayli qo‘lga kiritilgan) sifatlarga ega saralangan ozchilik – elita doimo boshqargan va boshqarishi lozim. “Umumiy sotsiologiya bo‘yicha traktat” asarida u: “ayrim nazariyotchilarga yoqadimi yoki yo‘qmi,

<sup>1</sup> Рамазонов И., Мўминов Э. Политология. Т.: Адолат, 1997. – Б. 162-173.

ammo kishilar jamiyatni turli-tuman bo‘lib, shaxslar bir-birlaridan jismonan, ma’nani va aqlan farqlanib turadilar”, degan fikrni ilgari suradi. U yoki bu sohada faoliyat jixatidan samaradorlik, yuqori natija bilan ajralib turuvchi kishilar majmui elitani tashqil etadi.

Elita boshqaruvda samarali ravishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etuvchi va nohukmron – kontrelita – elitaga xos sifatlarga ega, ammo o‘zlarining ijtimoiy maqomlariga hamda jamiyatda quyi qatlamlar uchun mavjud turli to‘siqlar tufayli boshqaruv jarayonida ishtirok qila olmaydigan kishilarga ajratiladi<sup>1</sup>.

Hukmron elita ichkaridan jipslashgan bo‘lib, o‘z hukmronligini saqlash maqsadida kurash olib boradi. Elitalarning ikki muhim turlari – “tulkilar” (rahbarlikning “yumshoq” metodlari – muzokaralar, yon bosishlar, tilyog“lamalik, ishontirish va shu kabilardan foydalanuvchi uddaburonlar) va “sherlar”ning (asosan kuchga tayanuvchi keskin va qat’iy shaxslar) sirkulyatsiyasi, ya’ni muntazam almashinib turishi orqali jamiyat rivojlanishi boradi.

Jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar asta sekinlik bilan elita-larning mazkur turlaridan biri hukmronligiga barham beradi. Masalan, tarixning nisbatan sokin davrlarida “tulkilar”ning hukmronligi keskin harakat va kuch ishlatalish zarur bo‘lgan tarixiy davrlarda yaramay qoladi. Bu esa jamiyatda noroziliklarning oshishiga va bu orqali xalqni safarbar qilish natijasida hukmron elitani ag‘darib, o‘z hokimiyatini o‘rnatuvchi kontrelita – “sherlar”ning kuchayishiga olib keladi.

Siyosiy elitalar nazariyasi rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan yana bir olim R.Mixelsdir (1876-1936). U jamiyat elitarligini yuzaga keltiruvchi ijtimoiy mexanizmlarni tadqiq etgan. Elitarlik sabablarini talqin etishda Moska bilan hamfikr bo‘lgan Mixels elitarliknikuchaytirib beruvchi va hukmron qatlamni yanada Yuqori ko‘taruvchi tashkilotchilik qobiliyati, hamda jamiyatning tashqiliy tuzilmasini alohida ajratib ko‘rsatadi. U jamiyat tuzilishi elitarlikni talab qiladi va uni qonuniy ravishda yaratadi deb xulosa qiladi. Jamiyatda «oligarxik tendensiyalarning temir qonuni» amal qiladi. Uning mohiyati yirik tashkilotlarning ijtimoiy taraqqiyot jarayonidan ajralmaganligi jamiyatni boshqarishda oligarxizatsiyalashishga va elitalarning shakllanishiga olib keladi. Zero, bunday uyushmalar ustidan rahbarlikni ularning

<sup>1</sup> Политология. Ўқув қўйлланма / Масъул муҳаррир: с.ф.д., проф. С.Жўраев.  
– Т.: ТДҶИ, 2006. – Б. 57

barcha a'zolari tarafidan amalga oshirib bo'lmaydi. Ular faoliyatining samaradorligi funksional ixtisoslik va samaradorlilik, rahbariy yadro va apparatni ajratib olishni talab etadi. Ular esa o'z navbatida oddiy a'zolar nazoratidan asta-sekinlik bilan chiqib, ulardan uzilgan holda siyosatni o'z manfaatlariga bo'yendirishga, o'zlarining imtiyozli mavqelarini saqlab qolishga intiladilar. Tashkilotning oddiy a'zolari esa yetarli darajada vakolatsiz bo'lib, kundalik siyosiy faoliyatda sust va loqayd bo'ladilar. Natijada, har qanday, hattoki demokratik uyushmani ham amalda oligarxik, elitar guruh boshqaradi. O'zlarining imtiyozli holatlarini saqlab qolishdan manfaatdor, ta'siri kuchli bunday guruhlar omma manfaatlarini unutgan holda o'zaro turli xildagi aloqlarni o'mnatadilar.

«Oligarxik tendensiya qonuni»dan kelib chiqqan holda Mixels umuman demokratiya imkoniyatlari va xususan sotsial-demokratik partiyalar demokratizmiga nisbatan pessimistik xulosalar beradi. Demokratiyani u ommaning boshqaruvda bevosita ishtiroki bilangina izohlaydi.

Moska, Pareto va Mixels asarlariда siyosiy elita tushunchasi aniq sifatlarga ega bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Uning asosiy zamонавиylар elitar nazariyalarni chegaralash va baholashda ko'mak beruvchi xususiyatlari, o'lchamlari belgilab qo'yildi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) elita vakillariga tegishli o'ziga xos xususiyatlar; 2) elitar qatlam ichida mavjud bo'lgan hamda uning jipsliligi, integratsiyalashurvi darajasini belgilab beruvchi o'zaro aloqlar; 3) elitaning noelita va omma bilan munosabatlari; 4) elitaning «to'ldirilishi», ya'ni uning qanday va kim tomonidan shakllanishi; 5) elitaning jamiyatdagi (konstruktiv yoki destruktiv roli, uning funksiyalari va ta'siri).

Moska, Pareto va Mixelsarning elitalar konsepsiyalari nazariy, ikkinchi jahon urushidan so'ng esa davlatni boshqaruvchi yoki shunga intiluvchi guruhlarni empirik jihatdan taddiq etishga turtki bo'ldi. Zamонавиylар elitalar nazariyalari xilma-xil. Zamонавиylар ahamiyatini yo'qotmagan nazariyalarning tarixiy birinchi guruhi makiavellistik maktabi (Moska, Pareto, Mixels va boshqalar) konsepsiyalarining qayta ko'rib chiqilganligi guvoh bo'lishimiz mumkin. Ularni quyidagi g'oyalar birlashtirib turadi:

1. Tabiiy iqtidor va tarbiya hamda ularning boshqarishga qobiliyati yoki hokimiyat uchun kurashda namoyon bo'luvchi elitaning o'ziga xos sifatlari.

2. Elita guruhining jipslashganligi. Mazkur holat guruhning nafaqat malakaviy maqomi, ijtimoiy huquqi va manfaatlarining

umumiyligi bilan, balki jamiyatni boshqarishda o'zlarini alohida qatlam sifatida qabul qilinuvchi elitar ong bilan belgilanadi.

3. Har bir jamiyat elitarligining tan olinishi, ya'ni uning ijodiy ozchilikning imtiyozli hukmronligi va sust ijodkor ko'pchilikka muqarrar ajratilishi. Bunday ajratilish inson va jamiyat tabiatidan kelib chiqadi.

4. Hokimiyat uchun kurashda elitalarning shakllanishi va almasinishi. Yuksak psixologik va ijtimoiy sifatlarga ega qator insonlar imtiyozli hukmron holatni egallahsga harakat qiladilar. Biroq, hech kim o'z lavozimi va holatini o'z hohishicha berishni istamaydi. Shur bois qulay imkoniyat va lavozimlarni egallah uchun doimiy asosda ochiq yoki yashirin raqobat bo'lishi tabiiy.

5. Umuman elitaning jamiyatdagi konstruktiv, rahbar va yetakchilik roli. U ijtimoiy tizim uchun muhim bo'lgan (ba'zi hollarda esa samarasiz bo'lishi mumkin) boshqaru funksiyasini bajaradi. O'zining imtiyozli maqomini saqlab qolish va uni nasldan naslga qoldirishga intilish natijasida elita o'zining ijobiy jihatlarini yo'qotishi va salbiy tomonga o'zgarishi mumkin.

Sh.L.Monteskening fikriga ko'ra, „Barcha saylashga yaroqli bo'lsa-da, hamma saylanishga yaramaydi“. Shu munosabat bilan V.Pareto, G.Moska va boshqa olimlar har bir siyosiy rejimda hokimiyat strukturalarida, ayniqsa yuqori qatlamlarda yetakchi mavqelarni elita vakillari egallaydi.

Elitalarning Makiavellistik nazariyasi psixologik omillarning bo'rttirib ko'rsatilishi, antidemokratizm hamda ommanning qobiliyati va faolligiga yetarli darajada baho berilmasligi, jamiyat rivoji va davlatlar zamonaviy voqeliklari inobatga olinmasligi, hokimiyat uchun kurashga baho berishda bepisandlik oqibatidakeskin tanqidga uchrab kelmoqda.

### ***Siyosiy liderning siyosiy institutlar va jarayonlarda tutgan o'rni***

Siyosiy liderning siyosiy institutlar va jarayonlarda tutgan o'rni. Liderlik hokimiysi va tashkilot mavjud barcha joylarda bo'ladi. "Lider" so'zi ingliz tilidagi "lead" so'zidan, ya'ni "yetaklamoq", "ergashtirmoq" ma'nolarini anglatadi.

Liderlik fenomeni kollektiv faoliyat va tashkilot mavjud bo'lgan joyda, jamiyat tabaqlanishining har bir bosqichida kuzatiladi. Har bir ijtimoiy faoliyat A. individlar faoliyatini tartibga solishdan, V. umumiyligi maqsadlarni ishlab chiqishdan, S. ularga erishishning yo'l va uslublarini belgilab olishdan iborat.

Siyosiy liderlik – siyosiy faoliyat turi bo'lib, u ikki tomonning

o'zaro aloqalarini anglatadi: birinchi tomon – yetakchilar o'z izdoshlarining manfaat va ehtiyojlarini biladilar va bayon etadilar; boshqa tomon esa Shur manfaatlarni ifodalash va amalga oshirishlari uchun o'z vakolatlarining bir qismini ularga ixtiyoriy ravishda topshiradilar.

Siyosiy liderlikni tadqiq etishda Makiavelli sezilarli hissa qo'shgan. Uning fikricha, lider-bu butun jamiyatni jipslashtiruvchi va namoyon etuvchi hamda bu yo'lda o'z hukmronligi va ijtimoiy tartibotni ushlab turish maqsadida barcha vositalardan foydalanuvchi hukmdordir.

Mashhur shaxslarning mahsuli sifatida tarixni talqin etuvchi mutafakkirlar sirasiga Tomas Karleyl (1795-1881) va Ralf Uoldo Emersonlarni (1803-1882) kiritish mumkin. Tomas Karleyl aholining asosiy qismini liderlarning yo'l ko'rsatishisiz to'g'ri yashay olmaydigan «barcha munosabatlarda qashshoq omma» sifatida baholagan. Emerson esa liderlarga ta'rif berar ekan, “barcha yutuq va yaxshiliklar buyuk shaxslar hissasidan” deb ta'kidlaydi.

Liderlik yo'nalishida tadqiqot olib borgan yana bir mutafakkir Fridrix Nisshe (1844-1900) hisoblanadi. U oliy biologik tur – lider-insonni shakllantirish zaruriyatini ilgari surgan. Nisshening fikricha “Insoniyatning maqsadi uning oliy vakillarida mujassam etilgan ... Insoniyat buyuk insonlarni yuzaga keltirish ustida doimo faoliyat olib borishi zarur”<sup>1</sup>.

Liderlik haqidagi nazariyalar quyidagilardan iborat:

1. Fatalizm (lot. Taqdırğa oid nazariyasi).
2. Hukmdorlik nazariyasi.
3. Valyuntaristik (lot. erk, iroda nazariyasi).
4. Paradigmatik (yunon. namuna. nazariyasi).
5. Ijtimoiylashuv nazariyasi (taqlid qilish).

Liderlik xususiyatlarini tadqiq etishda yagona yondoshurv mavjud bo'Imaganligi bois, uni sharhlashda turlicha qarashlar yuzaga kelganligini kuzatishimiz mumkin:

1. Liderlik – hokimiyatning bir ko'rinishi bo'lib, bir tomondan u yuqorida quyiga qarab harakat qilsa, boshqa tomondan unda omma emas, balki bir kishi yoki guruh asosiy hisoblanadi. Fransuz siyosatshunosi Jan Blondel: “Siyosiy liderlik – bu millatni ma'lum maqsad-larga yo'naltirishga undovchi bir yoki bir necha shaxslar tomonidan

<sup>1</sup> Ницше Ф. Так говорил Заратустра. М.: 1990. – С. 286.

amalga oshiriladigan hokimiyat”, sifatida ta’riflaydi<sup>1</sup>.

2. Liderlik – boshqaruvchanlik huquqi, siyosiy qaror qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy maqom, rahbariy lavozim. Mazkur tizimda boshqaruv funksiyalarini bajarish bilan bog‘liq faoliyat kishiga lider maqomini beradi. Amerikalik siyosatshunoslar Daunton va Rebellar: “Liderlik – bu egallab turgan mansabdan kelib chiqqan holda jamiyatning ayrim yoki barcha a’zolari fe’l-atvorlarini yo’naltirish va tashkillashtirish”, deya ta’kidlaydilar<sup>2</sup>.

3. Liderlik – bu boshqa kishilarga ta’sir ko’rsatish. Biroq, mazkur ta’sirga ega bo‘lish uchun, g‘arb olimlari V. Kas va L. Edingerlarning fikricha, 4 xususiyatga ega bo‘lish lozim: birinchidan, ta’sir ko’rsatish doimiy bo‘lishi lozim. Siyosiy jarayonlarga yoki mamlakat tarixiga bir marotaba ko’rsatgan shaxslar bu toifaga kira olmaydi. Ikkinchidan, liderning rahbarona ta’siri barcha guruhlarga (tashkilot, jamiyat) tatbiq etilgan bo‘lishi kerak. Uchinchidan, ta’sir ko’rsatishda ustivor ahamiyat kasb etishi siyosiy liderni boshqalardan ajratib turadi. Lider va boshqariluvchilar orasidagi munosabat asimmetrikligi, ya’ni tengsizligi bilan xususiyatlansadi. To’rtinchidan, liderning ta’siri kuchga emas, balki avtoritet yoki rahbarlikka qonuniyligining tan olinishiga tayanadi.

4. Siyosiy liderlik – bu o‘ziga xos “bozor”da olib boriladigan tadbirkorlik bo‘lib, undagi raqobatli kurashda ijtimoiy masalalarni hal etish borasida o‘z dasturlarini hamda rahbariy lavozimlarda ularni amalga oshirish usullari haqida siyosiy tadbirkorlar o‘zaro fikr almashadilar.

5. Lider – bu umumiylit ramzi va guruh siyosiy qoidalari namunasi. U stixiyali ravishda quyidan ilgari suriladi va izdoshlari tarafidan qabul qilinadi. Rossiyalik olimlar M.V. Ilin va B.I. Kovallar “Siyosiy rahbarlik siyosiy liderlikdan hukmronlik-tobelik munosabatlarni tizimining sezilarli darajada keskinligi va rasmiyligi bilan ajralib turadi”, deya izohlaydilar<sup>3</sup>.

Shunday qilib, siyosiy liderlik hukmron mavqeni egallab turgan shaxs yoki guruhnинг butun jamiyat, tashkilot yoki guruhgа nisbatan doimiy ustivor va qonuniy ta’sirini namoyon etadi. Liderlik xususiyatlarida asosiy 3 komponent ajratib ko’rsatiladi: A) liderning shaxsiy

<sup>1</sup> Блондель Ж. Политическое лидерство. М.: 1992. – С.10.

<sup>2</sup> Downton J. Leadership: Commitment and Charisma in the Revolutionary Process. –New York, 2003. – Р. 15.

<sup>3</sup> Ильин М. В., Коваль Б. И. Личность в политике: «Кто играет короля?»// Полис. 1991. –№6. – С. 138-144.

fe'l-atvori; B) uning tasarrufidagi resurslar yoki instrumentlar; C) u faoliyat ko'rsatuvchi va unga ta'sir ko'rsatuvchi vaziyat. Ushbu uchchala komponent liderning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hukmronlik-tobelik munosabatlardan kelib chiqqan holda liderlarni avtoritar va demokratik shakllarga ajratish mumkin. Avtoritar liderlikda sanksiyalar, kuch ishlatalish asosida yakkahokimlik tizimi joriy etiladi. Demokratik liderlik esa guruh yoki tashkilot a'zolarining manfaat va qarashlari inobatga olinishi va boshqaruvga jalb qilinishida namoyon bo'ladi.

M.Veber "Siyosat – ham mayl, ham kasb sifatida" nomli maqolasida legitimlikning 3 turiga asoslanishini bayon etadi:

1. An'anaviy yetakchilik.
2. Rasional-legal yetakchilik.
3. Xarizmatik yetakchilik.

Hokimiyatning legitimligidan (qonuniyligi) kelib chiqqan holda liderlarni urf-odat va an'analarga asoslanuvchi an'anaviy (qabila boshliqlari, monarxlar va b.) liderlar; demokratik yo'l bilan hokimiyatga kelgan rasional-legal liderlar; omma fikriga ko'ra rahbarlikka alohida layoqatli, mislsiz sifatlar, o'ziga xos qobiliyatga ega xarizmatik liderlar. Bularning birinchisi asosida odatlar, ikkinchisida aql, uchinchisida ishonch va his tuyg'u yotadi.

Shurningdek, siyosiy liderga kuchli iroda, yoqimlilik, qat'iylik qobiliyati, intuisiya zarur bo'ladi. Yetakchi va yo'l boshchiliktabiatini tuShurntirib berishda quyidagi xilma-xil nazariyalar mavjud:

1. Xarakter nazariyasi.
2. Omillik-tahliliy ta'limot nazariyasi.
3. Vaziyatlar ta'limoti.
4. Tarafdarlar tushunchasi ta'limoti.
5. Psixologik ta'limot.

Liderlik murakkab va ko'pjirralik holat hisoblanadi. Liderlik odatda hokimiyat ko'rinishlaridan biri bo'lib, qarorlar qabul qilish jarayonidagi boshqaruvchanlik maqomi sifatida qaraladi.

Liderlikning asosiy shakllari va ko'rinishlari bilan talabalar V.P.Pugachev va A.I.Solovevlarning "Vvedeniye v politologiyu" o'quv darsligida tanishib chiqishlari hamda bu boradagi nazariyalar, liderlik tabiatini ularning turlari va funksiyalari bilan tanishishlari kerak bo'ladi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> В.П.Пугачев. Введение в политологию. – М.: Аспект Пресс, 2015. – С. 132.

### **Seminar savollari:**

1. SSSR rahbarlari V.I.Lenin, I.Stalinlarning jahon siyosatida roli qanday bo`lgan?
3. AQSh Prezidentlari V.Vilson, F.Ruzvelt, J.Kennedilarning jahon siyosatida roli qanday?
4. Sh.de Gollning jahon siyosatida roli qanday?

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. “Sharqning mashhur davlat rahbarlari Arafat, Xuseyn, Xomeyni, M.Gandi, Den Syao Pinlarning jahon siyosatida tutgan o’rnii” mavzuida ilmiy maqola tayyorlang.
2. “AQSh Prezidentlari R.Reygan, J.Bushlarning jahon siyosatida roli” mavzusida taqdimot tayyorlang.

## **Ma’ruza № 5. JAHON HAMJAMIYATI VA JAHON SIYOSATI**

### **Reja:**

1. “Jahon hamjamiyati” va “jahon hamjamiyati fikri” tushunchalari.
2. Jahon hamjamiyati to‘g‘risidagi realistik tasavvurlar.
3. Jahon hamjamiyati to‘g‘risidagi idealistik tasavvurlar

**O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:** Jahon hamjamiyati va jahon siyosati tushunchalarining o’zaro o’xshash va farqli jihatlari xususida ma’lumot berishdan iborat.

### **Tayanch so‘z va iboralar:**

- |                       |                       |
|-----------------------|-----------------------|
| •Jahon tartiboti      | •Global muammolar     |
| •Jahon hamjamiyati    | •Siyosiy kompaniyalar |
| •Jamoat tashkilotlari |                       |

### **“Jahon hamjamiyati” va “jahon hamjamiyati fikri” tushunchalari**

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari jahon xalqlarining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotida tobora jadallashib bormoqda. Buning isboti sifatida xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuv,

transmilliy korporatsiya va dunyo moliyaviy markazlarining yaratilishi hamda ularning xalqaro munosabatlardagi o‘rni oshib borayotganligi, davlatlararo siyosiy va harbiy ittifoqlar, nodavlat hamda jamaot tashkilotlarining faollashuvi, eng so‘ngi telekommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi va dunyo bo‘ylab tarqalishi va boshqa misollarda ko‘rishimiz mumkin.

Globallashuv bugungi zamon fanida ilmiy bahslarning eng dolzarb mavzusi bo‘lib qoldi. Ko‘plab ilmiy munozaralar oqibatida mazkur tushunchaga nisbatan nazariy-metodologik qarashlar shakllanib, globallashuv jarayonlari insoniyat oldiga qo‘yayotgan umumjahon muammo va masalalar o‘rganilmoxda. Ular qatorida ijtimoiy aloqalarning planetar xususiyat kasb etishi, global ijtimoiy fikrlarning vujudga kelayotganligi, global iqtisodiy inqirozlar, harbiy-siyosiy, etnik-diniy va boshqa turdagи nizolarning globallashuvi, xalqaro jinoyatchilik xavfining ortib borayotganligi kabi muammolarni ko‘rish mumkin. Bunday muammolarni yechimimni topish maqsadida fanda alohida bir yo‘nalish – globalistika vujudga keldi. Globalistikaning ob‘ekti esa umumjahon jarayonlar, ularning vujudga keiish sabablari va namoyon bo‘lish turlari hamda global muammolarni hal qilish yo‘llarini ilmiy tadqiq etish bilan belgilanmoqda.

Shubhasiz, bugun insoniyat mutloq yangi davrni boshidan kechirmoqdaki, uni tushunish, davr xususiyatlarini anglash, undagi jarayon va tendensiyalarni tahlil etish fanning muhim bir yo‘nalishiga aylanmoqda. Globallashuv nima ekanligini tushuntirishga bo‘lgan ehtiyoj natijasida zamonaviy fanda unga turlicha tavsiflar berilmoda. Bunday turli-tumanlik – “eski dunyo”ning millat-davlat, demokratiya, etnik mojaro kabi tushunchalari bilan haligacha aniq bir tushunchaga ega bo‘lmagan globallashuv o‘rtasidagi aloqalardan ham vujudga kelganligini aytib o‘tish mumkin. Biroq, yagona xulosaviy izoh shakllanganicha yo‘q.

Bugungi zamonaviy fanning har bir sohasida globallashuv jarayonlarining ta’sirini va ularni o‘rganilayotganligini kuzatish mumkin. Har bir yondashuvda mazkur tushunchaga tegishli ta’rif beriladi. Bizning ham mazkur masalada o‘z qarashlarimiz mavjud bo‘lib, unga ko‘ra globallashuv – bu xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan turli omillarning (moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy aloqalar, madaniy va informatsion almashinuv va h.k.) alohida davlat va jamiyat ijtimoiy holatiga ta’sir etish jarayonlaridir. Globallashuv jarayonlari barcha sohalarda bo‘lgani kabi

siyosiy sohada ham rivojlanmoqda. Siyosiy globallashuv xalqaro siyosiy tizimlarning institutlashuv jarayonlarida namoyon bo‘lmoqda.

Insoniyat faoliyatining barcha sohalarida globallashuv jarayonlari kechar ekan, mazkur jarayonlar insoniyatning kelajagiga ta'sir etmay qolmaydi. “Globallashuv jarayonlarining yana bir o‘ziga xos jihatni shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuriaviy ta'sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariiga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar”<sup>1</sup>. So‘nggi o‘n yillikda ko‘pchilik siyosatshunos olimlar kelajak to‘g‘risida pessimistik bashoratlar keltirgan holda, globallashuv jarayonlari turli xil mojaro va ziddiyatlarga, xususan etnik yoki etnik-diniy mojarolarga sabab bo‘lishi mumkin degan xulosalar bermoqdalar. Bunday mojarolar nafaqat ko‘payishi, balki ular shavfqatsiz va vayronakor bo‘lishini ta'kidlaydilar. Zero ular jamiyatning fundamental tuzilmalari va insonlarning qaysi millatga tegishlilik tuyg‘usiga asoslanadi. Milliy va jamoaviy tegishlilik tuyg‘ulari iqtisodiy va g‘oyaviy birlikdan kuchliroq xususiyat kasb etsa, xalqlar va davlatlar o‘rtasidagi keiishuv va o‘zaro teng munosabatlarni o‘rnatish sezilarli ravishda og‘ir kechadi. Ushbu holatda globallashuv jarayoni bilan birga dunyoning turli nuqtalarida antiderokratik va antiliberal harakatlar faollashuvi mumkin degan ilmiy faraz berish mumkin. Zero, hozirgi paytning o‘zidayoq bunday jarayonlarning faollashuvini kuzatish mumkin.

Bugungi kunda dunyoda ahamiyati va ko‘lamli jihatidan o‘ziga xos bo‘lgan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ular mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda vujudga kelgan qarashlar va ularning sabablarini ko‘p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. Shu sababli “sovuv urush” davrida xalqaro munosabatlarga asos bo‘lgan ko‘p qoidalar, tamoyil va g‘oyalarni tubdan qayta ko‘rib chiqish talab qilinmoqda. Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog‘liq tizim bo‘lib bormoqda. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirganda, xalqaro tuzilmalar bilan o‘zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtirok etganda mutlaqo yangicha yondoshuvlarni ishlab chiqish zaruriyatini oldinga olib chiqmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Brinchi Prezidenti I. Karimov

<sup>1</sup> Глобализация и этнические конфликты: .[http://humtran.narod.ru/articlesdata//globalizatsiya\\_i\\_etnicheskie\\_konflikti/](http://humtran.narod.ru/articlesdata//globalizatsiya_i_etnicheskie_konflikti/)

ta'kidlab o'tganidek, "XXI asr xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr ekanligini kuzatishimiz mumkin. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda mustaqil davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko'lamida ham, shuningdek, umuman -- butun sayyoramiz ko'lamida ham xavfsizlik va barqarorlikning asosiy omili deb hisoblash zarur"<sup>1</sup>.

Shuningdek, hozirgi davrning o'ziga xos xususiyatlardan biri global jarayonlar va xalqaro siyosiy munosabatlarning rivojlanib borishidan iborat. Bu munosabatlar dunyo taraqqiyotining mohiyatini belgilab, xalqlar va davlatlar o'rtasidagi aloqalarning mazmunini tashkil etmoqda, davlatlararo hamkorlikning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo xalqlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning rivojlanishi bir tomondan ularning taraqqiyoti uchun zamin yaratса, ikkinchi tomondan o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda va bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shu sababli global muammolar, jumladan, dunyo davlatlari xavfsizligini ta'minlash kunning eng keskin va jiddiy muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Ular turli kurinishlarga ega bo'lib, o'zining kelib chiqish sabablari va oqibatlariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi.

Bu muammolar o'zining salbiy oqibatlari va jamiyatga keltiradigan zarari bilan boshqa har qanday muammolardan keskin farq qiladi. Ular o'zining ko'lami va miqyoslariga ko'ra dunyoning juda katta qismiga yoyilgan bo'lib, ko'pchilik mamlakatlar va xalqlar hayotiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

**Global muammolar** – umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq hozirgi zamon muammolari bo'lib, ular jumlasiga jahon termoyadro urushining oldini olish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurash va barcha xalqlar uchun tinchlikni ta'minlash; rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi tafovutni bartaraf etish, ochlik, qashshoqlik va savod-sizlikni tugatish, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez sur'atlar bilan ko'payayotganligini tartibga solish, atrof-muhitning haloqatli tarzda ifloslanib borayotganligini oldini olish; insoniyatni kerakli resurslar – oziq-ovqat, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari bilan ta'minlash, fan va texnika taraqqiyoti salbiy oqibatlarga olib kelishiga

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас кунч. – Тошкент, 2009. – Б. 113

yo‘l qo‘ymaslik kabilar kiradi. Bu muammolar avvalo jahonda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, harbiy, ilmiy-texnologik, ilmiy-madaniy jarayonlarning umumbashariy ahamiyat kasb etishi natijasida yuzaga kelgan. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, global muammolarni keltirib chiqarayotgan tarixiy sharoitlar, bu muammolarning keskinlashishiga olib keladigan sabablar turlicha bo‘lganligi boisdan ularning o‘ziga xos xususiyatlarini farqlash zarur. Bu muammolarning oqibatlari qanchalik haloqatli bo‘lishiga qaramasdan ular o‘zining ko‘pgina xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan tubdan farq qiladi<sup>1</sup>.

Ularni o‘z mohiyatiga ko‘ra quyidagi 4 guruhga ajratish mumkin:

Birinchi, xalqaro siyosiy munosabatlarda vujudga kelgan global muammolar, ya’ni, jahonda rivojlangan, rivojlanib kelayotgan va qoloq mamlakatlarning mavjudligi. Bundan tashqari hozirgi kunda jahon siyosiy tartibotini belgilashda asosan dunyodagi 7 ta rivojlangan davlatning mavqeい yuqori ekanligi va bu mamlakatlar bilan qoloq mamlakatlar o‘rtasidagi tafovutning g‘oyat kuchliligi. Shuningdek, taraqqiy qilgan mamlakatlarda demokratik qadriyatlar rivojlangan bo‘lsa, qoloq mamlakatlarda avtoritarizm, demokratiyaga zid bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarning avj olishi, xalqaro xavfsizlikka qarshi tahdidlarning paydo bo‘lishi shular jumlasidandir. Buni terrorchilik, ekstremizm kurinishlarining vujudga kelganligi tasdiqlaydi;

Ikkinci, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda paydo bo‘lgan global muammolar, ya’ni, jahon xo‘jalik tizimining vujudga kelishi va unda asosan rivojlangan mamlakatlar ustunligining qaror topishi. Shu bilan birga iqtisodiyoti haddan tashqari rivojlangan mamlakatlar, transnational korporatsiyalar jahon iqtisodiyotini boshqarayotgan bir paytda, ikkinchi tomonda ularga qaram, iqtisodiyoti kuchsiz mamlakatlarning mavjudligi. Bundan tashqari jahonda iqtisodiyot va fan-texnika sohasidagi taraqqiyot yutuqlariga qaramasdan boy va kambag‘al mamlakatlar o‘rtasidagi farqning o‘sib borishi. Jumladan, XX asr oxirida rivojlangan mamlakatlar jahon yalpi milliy mahsulotining 86%ini ishlab chiqargan bo‘lsa, kambag‘al davlatlar hammasi bo‘lib 1%ini ishlab chiqargan. Ayrim mamlakatlarning rivojlangan mamlakatlardan juda katta miqdorda qarz olishi ularning siyosiy jihatdan mustaqil bo‘isa-da, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga qaram bo‘lishiga olib keldi. Shu bilan birga global iqtisodiy jarayonlar jahon miqyosida

<sup>1</sup> Комаров М.П. Инфраструктура регионов мира: -СПб., 2014. – С 58.

harakat qiluvchi jinoyat guruhlarini vujudga keltirdi;

Uchinchi, ijtimoiy sohada vujudga kelgan global muammolar, ya'ni, jahon aholisi muttasil ko'payib borishi natijasida Osiyo va Afrika mamlakatlarda oziq-ovqat, ichimlik suvi tanqisligi kuchayib, bu hol boshqa mamlakatlarda ham ko'zatilayotgani, jahon aholisining muayyan qismi ocharchilikni boshdan kechirayotgani, savodsiz ekanligi axborot-teknologiya va umuman fan-tehnika inqilobi samaralaridan bahramand emasligi, butun insoniyatga xavf tug'diruvchi kasalliklarning (mas., OITS) tez tarqalayotganligi shunday muammolar sirasiga kiradi;

To'rtinchi, inson va tabiat o'rtaсидagi munosabatlarning buzilishi natijasida vujudga kelgan global muammolar, ya'ni, ular qatoriga dengiz va suv havzalarining ifloslanishi, o'rmon maydonlarining tobora qisqarishi, atmosfera azon qatlaming yo'qolib borishi, xatarli kim-yoviy moddalarning haddan tashqari ko'p ishlatalishi natijasida qishloq xo'jaligida ekin eqiladigan yerlarning katta qismi yaroqsiz holatga kelish xavfining kuchayishi kabilar kirad

### *Jahon hamjamiyati to'g'risidagi realistik tasavvurlar*

Dunyo davlatlari xavfsizligini ta'minlash muammosi ularning eng asosiyalaridan biri hisoblanadi. Xalqlar va davlatlar tarixida bu doim mulim ahamiyat kasb etib kelgan. Ammo bu muammo insoniyat tarixining hech bir davrida XX asr oxiri va XXI asr boshidagi singari ma'no va ahamiyat kasb etmagan. XX asrda yuz bergen ikkita jahon urushi, o'nlab mahalliy urushlar og'ir oqibatlarni keltirib chiqardi. Shuningdek, insoniyat hayotining so'nggi 6 ming yili davomida 14513 ta turli darajadagi urushlar sodir bo'lib, bunda 3 mlrd. 640 mln. kishi halok bo'ldi11. YuNISYEF ma'lumotlariga qaraganda 1945-1992 yillarda 149 marta turli darajadagi urushlar bo'lib o'tgan va bu urushlarda 23 mln. dan ko'p kishi halok bo'lgan. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, halok bo'lganlar soni XIX asrdagiga qaraganda 2 marta, XVIII asrdagiga qaraganda 7 marta ko'p ekan. Shunga qaramasdan ularning oldini olish va bartaraf etish globallashuv jarayonlari rivojlanib bora-yotgan bugungi kunda ham davlatlar oldidagi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish davlatning xavfsizligi va barqarorligi ta'minlanishini talab etadi. Shu bilan birga hozirgi vaqtida davlat xavfsizligi faqat harbiy va siyosiy sohada emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ham faol islohotlar

o'tkazilishiga ko'p jihatdan bog'liq. Boshqa so'z bilan aytganda xavfsizlikni ta'minlash siyosati faqat tashqi xavflarni emas, balki ichki xavflarni ham bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Bugungi kunda dunyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalari rivojlanib, ularning o'zaro bir-biriga bog'liqligi ortib bormoqda. Shu sababli davlat xavfsizligini faqat ularning birgalikdagi chora tadbiralarini amalga oshirish orqali kafolatlash mumkin. Buning asosiy sababi hozirgi vaqtida xavfsizlik haqidagi tasavvurlarning o'zgarishiga elib keluvchi yangi omillar yuzaga keldi. Bu omillar sifatida davlatlar o'rtasidagi chegaralar ahamiyatining kamayib borishi, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, demografik, oziq-ovqat, ekologiya, xom ashyo va shu kabi ko'plab yo'nalishlarda ular o'rtasidagi o'zaro bir-biriga bog'liqliknинг ortib borishi va boshqalarni e'tirof etish mumkin. Bu esa dunyoning biror mintaqasida yuz bergen tabiiy yoki texnogen haloqatlar, atrof-muhitning ifloslanishi, moliyaviy inqirozlar qisqa vaqt ichida boshqa mintaqalar xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda yangi ko'rinishdagi tahdidlarning yuzaga kelishi unga nisbatan yangicha yondoshuvlarni, xavfsizlikni ta'minlash uchun noan'anaviy usullarni ishlab chiqishni talab etmoqda. Bu borada mahalliy olimlardan U.Xasanov ta'kidlaganidek, so'ngi vaqtarda mamlakat xavfsizligiga nisbatan boshqa davlatlar tomonidan bo'sladigan an'anaviy tahdidlar kamayib, o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Uning o'rniga terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosi, millatlararo ziddiyatlar va boshqa shu kabi noan'anaviy tahdidlar yuzaga kelmoqda.

AQSh, Rossiya va boshqa shu kabi davatlarda sodir etilgan terrorchilik harakatlari noan'anaviy tahdidiar chegara bilmasligi, ular barcha mamlakatlar barqarorligiga xavf solishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu bir tomondan "Sovuq urush"ning tugashi, ya'ni xalqaro munosabatlar tizimida kuchlar muvozanati ta'minlanadigan ikki qutbli dunyodagi xalqaro xavfsizlik tizimining izdan chiqishi bilan bog'liqidir. Bu tizim xavfsizlik muammosini bir qadar soddalashtirgan. Shu bilan birga xalqaro maydonda harakatlanadigan kuchlar sonini chegaralagan va global ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni boshqarish, ularni bartaraf etishni yengillashtirgan.

Bugungi kunda ikki qutbli dunyo o'rnida nazorat qilish mumkin bo'limgan, o'z manfaat va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyat olib boruvchi kuch markazlaridan iborat bo'lgan ko'p qutbli

dunyo shakilanganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, ko‘p hollarda ichki siyosiy munosabatlar tizimida yuzaga kelayotganidek, xalqaro munosabatlar tizimida ham ekstremistik va boshqa shu kabi kuchlar faoliyatni dunyo davlatlari xavfsizligiga tahdid solmoqda.

Shu bilan birga globallashuv jarayoni odamlar, g‘oyalar, mahsulotlar, xizmatlar, axborot va moliyaviy mablag‘larning milliy va mintaqaviy chegaralardan boshqa hududlarga faol ko‘chishi, tarqalishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Boshqa ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda bo‘lgani kabi globallashuv jarayoni ham o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Bu jarayonning ijobiy tomonlardan biri, u investitsiyalar oqiminining ko‘payishi sababli mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Lekin MDH davlatlarining ko‘p qismi, jumladan, Markaziy Osiyodagi ayrim davlatlar ham bu tomondan globallashuv jarayoniga yetarli darajada qo‘silmagan. Globallashuv jarayonining salbiy tomonlardan biri, u uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosi, terrorchilik va boshqa shu kabi hodisalarning tarqalishiga keng imkoniyatlar yaratganligi sababli milliy xavfsizlikni ta’minalash muammolarini bartaraf etish yanada murakkablashadi. Hozirgi vaqtida esa Markaziy Osiyo davlatlarida globalizatsiyaning salbiy ta’sirini ko‘proq kuzatish mumkin. Boshqa so‘z bilan aytganda, iqtisodiyoti kuchsiz, ichki siyosiy va ijtimoiy barqarorligi ta’minalmagan davlatlarga bu jarayonning salbiy tomonlari ko‘proq ta’sir etadi.

Markaziy Osiyodagi yosh mustaqil davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosidan olinadigan iqtisodiy va moliyaviy mablag‘lar asosan mamlakat iqtisodiyoti va boshqaruva tizimi, jamiyat barqarorligini izdan chiqarish kabi maqsadlarda foydalaniлади. Shuningdek, uyushgan jinoyatchilik darajasidagi yuqori bo‘lgan davlatlarga xalqaro munosabatlarda o‘zar shartnomalarni imzolash vaqtida ishonchsizlik bilan munosabatda bo‘lishadi. Bu esa o‘z navbatida davlatlarning milliy rivojlanishi va xaqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga integratsiyalashish jarayonida ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi.

Ma’lumki, siyosiy va iqtisodiy sohaning erkinlashtirilishi uyushgan jinoiy guruqlar faoliyatni uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Xavfsizlik sohasidagi asosiy tahdidlardan biri bu guruqlarning mamlakat hukumati va parlamentiga ta’sir etish va u bilan bog‘liq holda davlat organlarida korrupsiyani yuzaga keltirish imkoniyatiga ega

ekanligidan iborat. Bu esa nafaqat demokratiya va bozor islohotlarini amalga oshirishni murakkablashtiradi, balki jinoiy guruhlarning davlat siyosiy institutlari tarkibiga kirish xavfini ham yuzaga keltiradi. Bu xavflardan sobiq ittifoq tarkibidagi davlatlar, jumladan Markaziy Osiyo davlatlari ham yetarli darajada himoyalanmagan.

So'nggi yillarda sobiq Sovet Ittifoqining parchalanganligi sababli xalqaro munosabatlar tizimi bir tomondan rivojlanayotgan davlatlarning dunyo iqtisodiyotidagi o'zgarishlarga muvaffaqiyatlari moslashish jarayoni bilan izohlansa, ikkinchi tomondan xalqaro terrorizm xavfining kuchayib borayotganligini kuzatish mumkin. Uni bartaraf etish nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ko'plab chora tad-birlar amalga oshirilishini talab qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtida xalqaro terrorizm transport va aloqa vositalarining zamonaviy imkoniyatlaridan keng foydalanmoqda. Shuningdek, xalqaro terrorizmning zamonaviy qurollar, qo'poruvchilik vositalari va global moliyalashtirish manbalariga ega ekanligi hisobga olinsa, unga qarshi kurashish qanchalik murakkab ekanligini tasavvur qilish mumkin.

Umuman olganda, hozirgi globallashuv jarayonlari rivojlanib bora-yotgan bir vaqtida davlatlar xavfsizligini ta'minlash sohasidagi vaziyat Yevroosiyoda mintaqasida, jumladan, Markaziy Osiyoda ham o'zining murakkab va beqarorligini saqlab qolmoqda. Sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi bu hududda murakkab zamonaviy siyosiy va iqtisodiy muammolarni mustaqil bartaraf etish tajribasiga ega bo'lmagan davlatlarni yuzaga keltirdi. Shu bilan birga mazkur mintaqaga xavfsizlik sohasida ko'plab noan'anaviy muammolarning markazlaridan biriga aylandi.

Hozirgi davrda insoniyat oldida turgan muammolar, hech shubhasiz, uning yashab qolishi, shuningdek, barcha xalqlarning taqdiri bilan bog'liq muammolardir. Bunday muammolarni **global muammolar** deb atash odat tusiga kirgan. Tahlil qilish uchun qulaylik yaratish maqsadida ularni bir necha asosiy guruhlarga birlashtirish mumkin:

Insoniyatning global masalalarini hal etishga oid faoliyati milliy manfaatlarni butun jahon hamjamiyati manfaatlari bilan bog'lashga to'g'ri kelgan davrda dunyo siyosatining barcha subyektlari o'rtasidagi kurash va o'zaro hamkorlikning murakkab sharoitlarida amalga oshirilyapti. Shu sababli, global xususiyatga ega bo'lgan turli muammolarni hal etishda turlicha darajadagi natijalarga erishildi. Eng katta yutuqlar jahon urushi xavfini kamaytirish muammosi bo'yicha qo'iga kiritildi, chunki bu o'rinda barcha davlatlarning asosiy milliy manfaatlari hech

bir istisnosiz mos tushadi. O‘z navbatida, sayyoramiz global muammolarni hal etishga ko‘maklashadi.

XX asr 90-yillarning boshidan boshlab, ikki tizimning harbiy-siyosiy paritetiga asoslangan konfrontatsiya muvozanatidan yangi, ko‘p qutbli dunyo tartibiga o‘tish yuz bermoqda. Dunyo tuzilishining bunday modeli jahon hamjamiyatining global manfaatlariiga eng ko‘p darajada javob bera olishini bugun hayotning o‘zi tobora ko‘proq tasdiqlamoqda.

Umuman olganda, uchinchi ming yillikning boshida xalqaro siyosat subyektlarining birlashgan sa‘y-harakatlari tufayli ko‘pchilik davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan ma‘qullanayotgan *yangi, demokratik dunyo tartibi konsepsiysi* shakllandi. Uning o‘ziga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir.

### **Yangi dunyo tartibi quyidagilarni ko‘zda tutadi:**

- xalqaro munosabatlarni qurolsizlantirish;
- barcha mamlakatlar manfaatlarining muvozanati asosida mintaqaviy va global xavfsizlik tizimlarini yaratish;
- u yoki bu mamlakatlardagi larzalar va o‘zgarishlar natijasida siyosiy vaziyat keskinlashgan hollarda xalqaro barqarorlikning ta‘minlanishi;
  - davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni ularning har birini ijtimoiy-siyosiy tanlash erkinligiga, suvereniteti va mustaqilligiga kafolat beruvchi huquqiy baza asosiga qurish;
  - xalqaro munosabatlarni mafkuradan holi qilish;
  - mamlakatlar va xalqlarning butun sayyorada inson huquqlarining to‘liq ta‘minlanishi va himoya qilinishidagi o‘zaro hamkorligi;
  - Birlashgan Millatlar Tashkilotining va Xalqaro tinchlikni saqlab turuvchi mexanizmlarning rolini mustahkamlash.

Demokratik dunyo tartibining shakllanishi va mustahkamlanishi - faqat xalqaro siyosat subyektlarining ayrim xatti-harakatlarini muvofiq lashtirishni emas, balki muammolarning barcha kengayib borayotgan doirasi bo‘yicha ularning manfaatlari va kuchlarining doimiy muvozanatiga erishishni va undan butun dunyo hamjamiyati manfaatlari yo‘lida foydalanishni talab qiladigan o‘ta murakkab vazifa.

Hozirgi rivojlanish tajribasi shuni ko‘rsatadi, umumsivilizatsiya qadriyatlariga, siyosatning insoniy mezonlariga, xalqaro huquq tamoyillariga rioya qilish barcha mamlakatlar bilan amalda haqiqiy tinchlik, o‘zaro manfaatli munosabatlар o‘rnatishga, har bir xalqning o‘z

rivojlanish yo'lini tanlab olish huquqini amalga oshirishga imkon beradi.

**Globallashuv** sharoitida xalqaro munosabatlarning xarakterli xususiyati iqtisodiyotning internatsionallashuvi, axborot va madaniy almashuvning mintaqaviy va davlatlararo tendensiyalarga moslashuvi, shuningdek, xavfsizlik ko'lamining kengayishi bilan belgilanadi. Jumladan, xalqaro munosabatlar tizimini shakllantirishda o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Globallashuv va internatsionallashuv sharoitida, davlatlar hamkorligidagi shakllarning tarkib topishi paytida siyosiy tizimda keskin o'zgarishlar jarayoni kechadi.

Globallashuv haqidagi adabiyotlarda davomiylik va aloqaning yetishmasligi ba'zi nyuanslar bilan topildi. Turli xil qarashlar egasi bo'lmish ko'pgina mualliflar bozorlar kengayishini kapitalizmning salbiy xususiyati deb qabo'l qiladi. Bu yangi qarashga ko'ra globallashuv eski va tarixiy, hattoki davom etmaydigan jarayondir (Hisrt va Tompson. 1996. 1999).

Bu yerda jahon tizimlari nazariyasi eng mantiqiy nazariy qarash deyish mumkin (Amin. 1970; Wallerstein. 1974. 1984; Harvey, 1982; Shannon. 1989; Arri. 1994. 1999). Bu qarashga ko'ra jahon tizimining vujudga kelishi Yevropa iqtisodi jahonda yetakchiga aylangan davr – XVI asrga borib taqaladi. Jahon tizimi va nazariy asosga bog'liq holda jahon shkalasida muhim va muhim bo'limgan qism yagona jahon tizimi ichida assimetrik va teng bo'limgan aloqalar mavjudligi bilan belgilanadi. Asosiy jahon iqtisodiy regionlarining foydasiga to'plangan (kapital, bilim va odamlar) miqdori markaz va aglomeratsiya hududlari o'rtaida noteng rivojlanishlar mavjudligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, markaz va aglomeratsiyalarning rivojlanganlik darajalarini noteng munosabatlar deb xarakterlab bo'lmaydi (Wallerstein. 1974).

Ba'zi mualliflar shuni ta'kidlashadiki, tarixiy nuqtai nazardan globallashuvning birinchi oqimi XIX asr oxirida (1880-1913), Amerika "gegemonlik davri" esa oldinroq Britaniya hukmron bo'lgan sanoat gegemonligiga yetishishni boshlaganda sodir bo'ldi (Arrai. 1994; Taylor. 2000). Ular global darajada savdo va umumiyl mahalliy mahsulotlar (YaIM) o'rtaida nisbat orqali o'lchangan savdoning aloqador muhimligi 1970-yillar oxirigacha uning 1913-yilgi mashhurligini qayta ololmaganligi faktini keltirishadi. Tashqi to'g'ridan-to'gri sarmoya (FDI) uchun jahon faqatgina 1990-yillardagina o'zining 1913-yilgi darajasiga yetgan (Krugman. 1997; Chase-Dunn. 1999; Jahon Banki. 2009). Bir xil ko'rinish migratsiya oqimlari haqida aytilishi

mumkin va qarashning texnologik nuqtasidan ko'pgina mualliflar texnologik o'zgarish va globallashuvning asosiy dasturi (Castelle, 1996)ga e'tibor qaratuvchi axborot va aloqa texnologiyalari haqiqatan XIX asr oxirida yuz bergen yangi aloqa texnologiyalaridan kattaroq revolutsiyaga sabab bo'lgan yo bo'lмаганлиги bahsli bo'lmoqda (Harvey.). Bu uzoq muddatli muayyan yo'lda globallashuv tabiatda yangi narsa emas, ammo faqat u vujudga keltiruvchi jahon oqimining misli ko'rilmagan o'sishiga asoslangan jadallikda yangidir.

Qarama-qarshi holatda ko'pgina ijtimoiy olimlar uchun globallashuv tabiatda yangi hodisa sifatida ko'rildi va bu internatsionalizmdan farqlanadi (Sklair, 1999). Bu yo'lga ko'ra jahon tizimlari nazariyasi oddiy tarzda internatsionalizmni nazarda tutadi, chunki milliy davlatlar hali ham jahon iqtisodiga kirishning asosiy nuqtasi hisoblanadi. Globallashuv tabiatidagi asosiy farq dastur va globallashuv qarashi sifatida milliy davlatning pasayishidir va shuning uchun bu jahon o'zgarishini tushunishga eng zo'r yo'lni ko'rsatib beradi. Bu asosda asosiy zamonaviy ijtimoiy jarayonlar global darajada sodir bo'ladi, ya'ni, milliy davlatlarning o'rtacha darajasiz: transmilliy korporatsiyalar qudratining o'sishi, yangi kommunikatsion texnologiyalar orqali qilingan madaniy almashinuvlar, muayyan joylarda kamroq o'rnatilgan ijtimoiy jahon elitasining ko'rinishi va turli xil darajalarda siyosiy qatnashuvlar. Ta'kidlanishicha, bu barchasi keng tarzda "tanaffus vaqt" kamaytirilgan milliy davlatlarni kuchsizlantiradi (Sassen, 1996). Firmalar va global moliyaviy aktorlar shuning uchun globallashuv jarayonlarida asosiy rolni o'ynamoqdalar. Asosiy firmalar global ishlab chiqarish tarmoqlarining integratsiyasi orqali global masshtabda harakat qiladi (Gereffi va Korzeniviz, 1994; Hopkins va Wallerstin, 1986; Coe et al. 2004, 2008). Bu shuni anglatadiki, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish integratsiyalangan baholar zanjirlarida funksiyalar joylashuvi uchun global strategiyalar bor bo'lgan asosiy iqtisodiy aktorlar orqali boshqariladi. Dunyo bo'y lab resultant investitsiyalar asosiy firmalarda Tovarlar, odamlar va bilimning o'sayotgan oqimiga o'sish berdi. Qisqasini aytganda, dunyo bo'y lab o'sayotgan oqimlar nafaqat turli xil resurslar bilan berilgan iqtisodlar o'rtasida o'sayotgan ayriboshlashlarda natija beradi, shuningdek asosan ular o'rtasida chuqr aloqa bog'langan asosiy iqtisodiy aktorlar orqali boshqarilgan va egalik qilingan global qiymat zanjirlarida o'rnatilgan. Bu odatda oldingi g'oyalar bilan muhim sifatlari imkoniyat ko'rildi (Robinson, 2011).

### *Jahon hamjamiyati to‘g‘risidagi idealistik tasavvurlar*

Ko‘pgina turli soha makteblari bu qarashni ko‘rilayotgandek qabul qilinsa, global shaharlar va tarmoq aloqasi farqlanuvchi sifatida ko‘riladi, chunki bu shuni olg‘a suradiki, Taylorning empirik “jahon shahar tarmog‘i” aloqasi Wallersteinning jahon tizimlari analizidan keladi” nazariyasiga qaramasdan globallashuvning asosiy kuchi shaharlar bo‘ladi. Taylor va uning izlanuvchilari asosan kapitalizm geografik jihatdan global rivojlangan servis iqtisod tashkiloti orqali strukturlangan yo‘lni bilishda muvofiq analitik shkala sifatida shaharlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Eng muhim narsa shuki, analiz qanday qilib rivojlangan ishlab chiqaruvchi xizmatlar tarmog‘ining ishlayotgan amaliyotlari ishlashini ko‘rsatuvchi Sassenning “global shahar” konsepsiyasida quriladi. Sassenning fikriga ko‘ra, biz globallashuv bilan bog‘laydigan metropolitan, milliy va global darajalarda iqtisodiy jarayonlarning koinotga doir tarqalish bo‘lgan ular trendlar top darajali boshqaruva va boshqaruva operatsiyalari hududiy markazlashuvining yangi shakllari uchun talabga hissa qo‘shadi Taylorning analitik uslubi haqida qiziqish nuqtasi bu yerda shuki, tarmog‘ paradigmasi oqimlar bo‘shlig‘ining yangi tarmoq paradigmasi bilan hududlar va milliy davlatlarning eski paradigmalarini o‘rnini egalovchi yangi linzalari orqali jahon rivojlanishini kuzatishimizga imkon beradi (Castells. 19%). Bu qarashga ko‘ra, (global) shaharlar faqatgina tarmoq ichidagi birlashgan joylar emas, balki ular turli holatga doir shkalalarda iqtisodiy jarayonning to‘ldiruvchi markazlashuvi va markazlashuvdan qochishining global jarayonining bir qismidir. Bu konsepsiya asosiy joylar bo‘lgan global shaharlar ostida globallashuvning aloqador jarayonini tushunishimizga yordam beradi.

Taylor taklif qilganidek (2000), kapitalizmni anglash uchun Braudel nazariyasi (1995)ga qaytish lozim. Braudel nazariyasi biz kapitalizm va sohalarda ularning ta’sirlarida mavjud g‘oyalarni nazarda tutuvchi ikkala nazariy aloqalarning murosaga kelishishiga imkon beradi. Braudelning qarasharida, kapitalizm bundan buyon bozor ishlamaydigan iqtisod zonasidir (iqtisodning tor qatlami). Arrigi (1994 8-b) buni quyidagicha talqin qilgan:

Iqtisodning yuqori qatlami “katta daromadlar” bor yerda joylashgan. Bu yerda daromadlar kattaligiga faqat kapitalistlar biznesning eng daromadli sektorlarini monopollashtirgani sabab bo‘lgani yo‘q; kapitalistlar qatlami o‘z sarmoyalarini kam natija beruvchi biznesga

kititishi borgan sari kamaytirayotgani ahamiyatiroq. Bunday vaziyatda transmilliy xususiy munosabatlar axborot olish va moliyaviy aylanmalarini boshqarishda bozorlardan ko'ra ko'proq ahamiyatga ega<sup>1</sup>

XXI asr boshida xalqaro munosabatlar tizimi yoki G'arb adabiyyotlarida ishlatilganidek, *xalqaro tizim* (International System) yangi sifat bosqichiga o'tmoqda. Xalqaro tizim "sovuv urush" davrida yoki 1945-1990 yillar davomida kechgan Yalta-Potsdam tizimi davrida kasodga uchradi. Yalta-Potsdam tiziminining o'rniغا yangi xalqaro munosabatlar tizimini yangilash va modernizatsiya qilish davri boshlandi. 1980-1990 yillar davomida butun jahon tarixida ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar ro'y berdi va, oqibatda, Sharq va G'arb o'rtaida ziddiyat kelib chiqdi. Natijada, SSSR quladi va Yevroosiyo materigida yangi mustaqil davlatiar paydo bo'ldi. Bir necha yil ichida xalqaro tizimda rol o'ynovchi siyosiy aktyorlar va ularning modeli keskin o'zgarishlarga uchradi. Oqibatda, dunyo tartiblikka nisbatan tartibsizlikka, uni strategik yo'naltirishdan ko'ra konfliktga yuz tutdi.

Milliy davlatlar hamon bosh siyosiy omil sifatida maydonga chiqmoqda, hatto davlatlararo, mintaqaviy, mintaqalararo va global tashkilotlar o'rtaсидаги aloqalarda ham bu hol ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Muayyan davlatlar o'z milliy manfaatlarining hamon gegemon bo'lishini istaydi. Ayni paytda, global muammolarni hal qilish imkoniyatlari kamayib bormoqda. Yevropa va Osiyodagi "real sotsializm" nazariyasi va amaliyotining inqirozga yuz tutishi davlatchilikda manmanlik g'oyasining qalqib chiqishiga sharoit yaratdi. Milliy g'oya va milliy qurilish tushunchalari o'nlab yillar davomida totalitarizm sharoitida yashab kelganlarning yangi zamonga moslashishi uchun asos bo'lmoqda. Bunda milliylik konstruktiv rol o'ynamoqda.

Xalqaro tashkilotlar sonining ko'payib borayotganligi masalan, hukumatlararo va nohukumat tashkilotlarining shakllanayotganligi xalqaro tizimni boshqarishda o'ziga xos shakllarni yuzaga keltira boshladi.

Xalqaro tizimda globallashuv jarayoni bilan bir qatorda nomar-kazlashish, mintaqalashish va ko'p qutblilik yuzaga keldi. Yaponiya, Germaniya, Xitoy va Braziliyada ko'p qutblilik shakllana boshladi. Mintaqaviy tashkilotlar (YeI, NAFTA, Islom konferensiyasi tashkiloti, ASEAN va boshqalar) xalqaro munosabatlarda muhim rol o'ynay

<sup>1</sup> Petty Pain and Gilles Van Hamme. Changing urban and regional relations in a globalizing world. --Edvard Elgar. 2014. – P. 12.

boshladi. Rivojlanayotgan davlatlar soni 77 tadan 120 taga o'sdi. Ular orasida OPEKga kiruvchi yirik neft qazib oluvchi davlatlar bor.

Kuch-qudratning mumtoz belgilari (hudud hajmi va aholi soni, davlatning geosiyosi holati, qurolli kuchlari soni va boshqalar) va davlatning hududiy mustaqilligi ko'p hollarda o'z ahamiyatini yo'qotdi. G'arbdagi siyosiy qarashlar ilm-fanga "ta'sir ko'rsatuvchi kuchlar" va "zaif kuchlar" atamalarini kiritdi.

"Ta'sir ko'rsatuvchi kuch" deganda har tomonlama ta'sir ko'rsatish holati, "zaif kuch" deganda esa, o'z manfaatini himoya qila olmaslik holati tushuniladi. Bugungi kunda davlatning ilmiy-texnik, sanoat va moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy imkoniyatlarini hamda uning milliy xavfsizligini ta'minlash doirasidagi kuch-qudratining ko'rsatichlari jadal o'zgarib bormoqda.

Jahon tizimi ayni vaqtida tarixiy davr va ijtimoiy makon singari uzoqni ko'zlovchi fundamental tushunchalarga duch kelmoqda. Hozirgi dunyo "o'tish davri"da bir tomondan, nomarkazlashish va mintaqaviy davlatlararo nizolarni hal etish, ikkinchi tomondan — davlatlararo harbiy mustahkamlanish jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Ayniqsa, NATO rolining yana oshishi ko'p hollarda xalqaro tizimda muayyan ikkilanishlarni keltirib chiqara boshladi. Shunday qilib, hozirgi xalqaro tizim o'ziga xos o'tish davrini boshidan kechirmoqda.

Qudratli davlatlarning eng umumiy xarakteristikasi – bu yalpi ichki mahsulot (YaIM), aholi, hudud va qurolli kuchlarning hajmidan iborat. XX asrning 80-yillarda turli etnik, diniy nizolarda qurolli to'qna-shuvalar kelib chiqishi moliyaviy-iqtisodiy va savdo-iqtisodiy muammlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shu sababli, bugungi kunda terrorizm, diniy ekstremizm, ommaviy qurol tarqatish avj oldi va yadro quroliga ega bo'lish harakati qayta avj ola boshlandi. Hudud muammosi ham yuzaga qalqib chiqqa boshladi. Chunki keng hudud davlatning harbiy xavfsizligini ta'minlaydi, qishloq xo'jaligi rivojiga imkoniyat yaratadi, davlat transport haridoriga yangi qulayliklar tug'diradi, atrof-muhitni himoya qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi va h.k.

Dunyoda strategik noaniqlikning paydo bo'lishi davlatlararo tenglik tamoyilining buzilishiga olib kelmoqda. Chunki an'anaviy markazlashgan kuchlar dunyoda o'z ta'sirini saqlab qolishga o'rinoqda.

*Integratsiyalashuv jarayoni* bo'yicha nazariyalar ham aniq ta'riflarni bermayapti. Chunki ushbu asosiy masala kun tartibida turibdi: mintaqaviy integratsiyalashuv global erkin savdoning

shakllanishiga olib keladimi? Jahon iqtisodiyotining globallashuviga mintaqalashuv va globallashuvga teng imkoniyat yaratib beradi.

Dunyo miqyosidagi daromadlar tufayli jahon miqyosida nizolar kelib chiqa boshladi. Keyingi 16 yil ichida kambag' al mamlakatlarning 100 tasida aholi jon boshiga taqsimlanadigan daromad keskin pasayib, 60 mamlakatda esa — talab darajasidan ham tushib ketdi. “Mulkni adotatli taqsimlash” muammosi jahon iqtisodiyotining globallashuviga muhim masala hisoblanadi. Afsuski, bunday muammolar oz emas.

Globallashuv tendensiyasining o'sib borishi sharoitida *mustaqil tenglik tamoyili* yangi ma'no kasb etib, dolzarb bo'lib bormoqda. Tengsizlik hamon mavjud ekan, unga yuridik baho berilishi kerak. Bu nafaqat muayyan milliy iqtisodning kuchli davlatlar qarshisidagi zaifligi bilan, balki ularning ilmiy-texnologik, harbiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy, tabiiy-iqlimiylar turli taraqqiyot yo'naliishlari bo'yicha ham imkoniyatlari cheklanganligi bilan ham izohlanadi. Bunday sharoitda davlatlarning teng huquqligini ta'minlash uchun xalqaro huquq rolini va davlatlarning faolligini oshirish lozim bo'ladi<sup>1</sup>.

Mustaqil tenglik tamoyili xalqaro huquqning xalqaro munosabatlarni tartibga solishida asos bo'lib xizmat qilishi uchun kerak. Mustaqillik tengsizliksiz bo'lmaydi va, aksincha. Tengsizlik davlatning xalqaro munosabatlariga putur yetkazadi va unga ishonch yo'qoladi. Oxir-oqibatda u gegemonizmga va muayyan davlatning xalqaro munosabatlarda liderlik qilishiga olib keladi. Bu nomaqbul yo'ldir.

Tengsizlik ko'pgina davlatlarning taraqqiyotini bo'g'ib qo'yadi. Aslida, bir davlatning mustaqilligi boshqa davlatning mustaqilligini chekiash hisobiga bo'ladi. Shu sababli, BMTning Xalqaro sudi “Mustaqillik va tenglik xalqaro huquq bilan tartibga solinuvchi barcha ishlardagi erkinlikni bildiradi”, - deb ta'rif berdi.

“Kuch ishlatmaslik yoki kuch ishlatish tahdidi” tamoyili XX asrda paydo bo'ldi. Bugun bu tushuncha yangi ma'no kasb etmoqda, chunki xavfsizlikka tahdid va xavf-xatarlarning xarakteri o'zgardi. Darhaqiqat, xalqaro huquqda kuch ishlatmaslik va kuch ishlatish bilan tahdid solmaslik qoidalari BMT Nizomining 45 va 51-moddalarida o'z aksini topgan. 42-moddaga ko'ra, BMT Xavfsizlik kengashi (XK) xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun havo, dengiz yoki quruqlik

<sup>1</sup> Гладкий Ю.Н., Чистобаев А.И. Регионоведение. – М.:Гайдарики, 2013. – С.54.

kuchlarini ishlatish vakolatiga ega. Bunday qaror doimiy besh a'zo yakdillik bilan ovoz bergenida qabo'l qilinadi. Shuningdek, 51-moddaga binoan, davlatlar individual va kollektiv mudofaaalanish uchun qurolli hujum bo'lganda kuch ishlatadi (ya'ni, bir davlat ikkinchisiga hujum qilganida). Shu ma'noda o'zini mudofaa qilish keng ma'noda talqin qilinmasligi lozim. Bu qurolli hujumdan foydalaniib darhol zarba berishni bildirmaydi. Shuningdek, 51-moddaga ko'ra, davlatlardan o'zini mudofaa qilish zarurati tug'ilganida BMT Xavfsizlik kengashini ogohlantirish va XKning vakolatlariga daxl qilmaslik talab qilinadi.

BMTning kuch ishlatishi ham muayyan tartibga ega. Kuch ishlatish dunyo xavfsizligiga jiddiy xavf-xatar bo'lsagina amalga oshiriladi. Bu harakat XKning qat'iy nazoratida bo'ladi. Kuch ishlatish va kuch ishlatish tahdidining uzviy qismi urushni taqiqlash targ'iboti hisoblanadi.

O'zbekiston bu borada xalqaro huquq me'yorlariga asosan xatti-harakat olib borish pozitsiyasida turibdi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi 2000 yil 15 dekabr kuni "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. Unda qonuniylikni, shaxsning huquqlari, erkinligi va manfaatlarni himoya qilish belgilab qo'yilgan.

Albatta, terrorchilarни moliyaviy qo'lllab-quvvatlash (yopiq shaklda bo'lsa ham) maxsus xizmat, jamoatchilik va tashkilotlar tomonidan kuch ishlatishni taqozo etadi. Bugungi terrorchilik xatti-harakatlari qo'shinlar hujumini, harbiy tajovuzni va ommaviy qirg'inni eslatadi. Shu sababli, bunday holatga qonuniy baho berish lozim. O'zbekiston Respublikasi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunining 2-moddasiga ko'ra, terrorizm "kuch ishlatish, tahdid solish va turli salbiy ta'sir ko'rsatish bilan shaxs hayoti, sog'ligiga xavf solish va davlat va jamiyatning manfaatlariiga tahdid solish"dir. U siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarda amalga oshiritadi. Shu sababli, bunday sharoitda davlatning kuch ishlatishdan tiyilishi mushkul<sup>1</sup>.

Milliy manfaatlarni globallashtirish - globallashuvning ilk va asosiy kamchiligi hisoblanadi. Chunki bu xatti-harakat siyosiy gegemonlikka yo'l ochishi mumkin.

Kuchlarni muvozanatga keltirish zarurki, u muayyan tajribalardan kelib chiqishi kerak. Shu ma'noda, xalqaro munosabatlar tizimi davlatlar tashqi siyosatining eng samarali shakl va usullariga asoslanadi.

<sup>1</sup> Международные нормативные документы //Международное право. 2002. №1. С.68.

Bunda kuchlar muvozanati milliy, mintaqaviy va global xavfsizlik uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

*Kuchlar muvozanatini saqlash xalqaro munosabatlarning rivojiga ijobjiy turki beradi va xavfsizlikni ta'minlashda asosiy shart-sharoit hisoblanadi* Kuch hajmlari, iqtisodiy imkoniyatlar, harbiy salohiyat kabilar muntazam o'zgarib, yangilanib boradi. Fizik qonuniyatlarga ko'ra, esqilik o'rnni yangilik egallab boradi. Shu ma'noda, kuchlar muvozanati dinamik rivojlanib borish xususiyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, xalqaro munosabatlarda har qanday kuch muvozanati o'zgaruvchan bo'ladi. Bunda izchillikka erishish uchun hamisha milliy manfaatlarni ustuvor deb bilish lozim. Bu jarayonda umumiy siyosiy qadriyatlarni mintaqaviy va global darajada oqilona boshqarish zarur. Demak, kuchlar muvozanatini saqlashda mintaqaviy yondashuvni ishlab chiqish samarali usul hisoblanadi, va shu asnoda, global kuchlarning tahdidli aralashuv kuchi zaiflashtiriladi.

Xalqaro munosabatlar haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun bu masalaga falsafiy, ijtimoiy, psixologik, tarixiy, siyosiy jihatlardan tahliliy yondashish lozim bo'ladi. Bu hol tadqiqotchilarning siyosiy jarayonlarga, voqelik va hodisalarga mustaqil, tajribaviy yondashishini taqozo qiladi. Shu sababli, xalqaro munosabatlarning dolzarb muammolarini tahlil qilishda xalqaro siyosat nazariyasi qoidalariga va taraqqiyotning hozirgi bosqichida O'zbekiston Respublikasi uchun ahamiyatli bo'lgan munosabatlarga urg'u beriladi.

*Xalqaro munosabatlarning asosiy tamoyillari* quyidagilardir:

- Kuch ishlatmaslik va kuch bilan qo'rqiitmaslik;
- Chegaralar daxlsizligi;
- Davlatlarning hududiy yaxlitligini hurmat qilish;
- Mojrolarni tinch yo'l bilan bartaraf etish;
- Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- Insonning asosiy huquq va erkinliklarini hurmat qilish;
- Teng huquqlilik va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini hurmat qilish;
- Xalqaro huquq me'yorlariga qat'iy rioya qilish;
- O'zaro foydali hamkorlik;
- Jahon hamjamiyatini qurosliszlantrish.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Комаров М.П. Инфраструктура регионов мира. – СПб .: Михайлова В.А., 2000. – С.32.

Hozirgi zamon xalqaro munosabatlarining asosiy vazifalaridan biri davlatlar o'rtasida bo'layotgan nizolarni hal etish yo'llarini izlash bo'lib qolmoqda, chunki bu hol milliy manfaatlarning to'qnashuvi asosida yuzaga keladi.

Xalqaro huquq va diplomatiya asosida noharbiy tamoyillar turishi kerak. Nizolarni harbiy vositalar bilan hal etish subyektiv va obyektiv omillarni keltirib chiqaradi. Chunki harbiy vositalardan foydalanish dunyoda ijtimoiy va siyosiy, iqtisodiy va madaniy nizolarni kuchaytiradi hamda voqealarning o'zgacha tus olishiga sabab bo'ladi. Bunday vaziyat muammoni hal etishni yanada chigallashtiradi. Muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishning yagona yo'li xalqaro huquq tamoyillari va me'yorlariga asosan munosabatlar olib borishdadir. Bu borada muammolarni hal etish, qarorlar qabul qilish va davlatlararo munosabatlarda muhim strategiyaga ega bo'lish lozim.

Zamona viy xalqaro munosabatlar kesishayotgan va mos kelmayotgan tashqi siyosiy va iqtisodiy manfaatlari, mafkuralarni ifoda etayotgan xalqaro munosabatlar subyektlarining raqobatli kurash maydonini namoyon qilmoqda. Ushbu kurash iqtisodiyotning, siyosiy munosabatlarning, axborot makonining hamda ijtimoiy va madaniy aloqalarning globallashuvi sharoitida ro'y bermoqda.

Ko'rinib turibdiki, *bir qutbli dunyo* qurish rejasini amalga oshirish tahdidi - istiqbol emas, balki yuzaga kelayotgan haqiqatdir. AQSh bugungi kunda xalqaro hamjamiatning fikriga e'tibor qilmasdan, o'z milliy manfaatlariiga foydali bo'lgan tashqi siyosiy faoliyatni olib bormoqda.

Biroq bir qutbli dunyo tartiboti bilan birga *ko'p qutbli dunyo tartiboti* nazariyasi ham rivojlanib bormoqda. Istiqbolda ko'p qutblilikning kengayishiga o'z hissalarini qo'shishi mumkin bo'lgan Rossiya, Xitoy, Hindiston, Braziliya kabi tez rivojlanib borayotgan davlatlarni e'tiborga olmaslik mumkin emas. AQShning bir qutbli dunyo barpo etish rejasini amalga oshirishdagi faolligi shunday ko'p qutblilik tizimi tashkil qilinishiga hamda bu holat, o'z navbatida, mintaqalararo integratsiyaga va dunyo tartibotining bipolyar tizimi shakllanishiga yo'l ochishi mumkin. Ma'lum bir sharoitlarda ushbu tendensiya BMTning mintaqalararo tuzilma sifatida transformatsiyalashuviga, yoki BMT bazasida AQShning roli asosiy bo'Imagan yangi universal tashkilotning tuzilishiga olib kelishi mumkin.

### **Seminar savollari:**

1. “Jahon hamjamiyati” va “jahon hamjamiyati fikri” tushunchalarini izohlang.
2. Jahon hamjamiyati to’g’risidagi realistik tasavvurlarning o’rnini qanday?
3. Jahon hamjamiyati to’g’risidagi idealistik tasavvurlar o’rnini qanday?
4. Jahon hamjamiyati subyektlari nimalardan iborat?

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. “Jahon hamjamiyatida xalqaro tashkilotlarning o’rnini” mavzusida taqdimot tayyorlang.
2. “Jahon hamjamiyatida derjava davlatlarning roli” mavzusida referat tayyorlang.
3. “Jahon hamjamiyatida nodavlat aktorlarning roli” mavzuidagi davra suxbatiga tayyorgarlik ko’ring.

## **Ma’ruza №6. JAHON SIYOSATIDA HOKIMIYAT UCHUN KURASH**

### **Reja:**

1. Jahon siyosatida «hokimiyat» tushunchasi
2. Hokimiyat uchun kurashning shakllari, maqsadlari va uslublari
3. Millat va davlat qudrati tushunchalari.
4. Qudratli davlatlar siyosati

**O’quv mashg’ulotning maqsadi:** Jahon siyosatida hokimiyat uchun kurash tushunchasi, usul va vositalari haqida ma’lumot berishidan iborat.

### **Tayanch so‘z va iboralar:**

- |  |  |
|--|--|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>•Jamoatchilikchilik</li> <li>•Public relation (PR)</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>•To‘rtinchi hokimiyat</li> <li>•Strategiya</li> </ul> |
|--|--|

### ***Jahon siyosatida “hokimiyat” tushunchasi***

Bu savolni ko’rib chiqish jarayonida hokimiyat - ko‘p qirrali, ko‘p tomonli, ko‘p yo‘nalishli hodisa bo‘lib, uning umumiyligi, xususiy va alohida ta’rif-tavsiflari mavjud ekanligini hokimiyatning siyosiy

hokimiyat shakli jamiyat siyosiy tizimida va siyosiy jarayonlarini boshqarishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etishini tahlil qilib berish lozim.

Ma’lumki, siyosiy hokimiyatning shakllanishi jamiyat hayotidagi muhim siyosiy hodisadir. Uni vujudga kelishi bilan jamiyat hayotida yangi tartiblar o‘rnataladi, boshqaruvning va rahbarlikning yangi usullari va vositalaridan foydalanila boriladi. Uni amalga oshirish mexanizmlari, faoliyat ko‘rsatish darajasi nihoyatda rang-barang bo‘lishi bilan birga, unda hokimiyatning boshqa turlari ham o‘z ifodasini topadi va ularning har biri o‘zining aniq maqsad va vazifalariga ega bo‘ladi.

Hokimiyat tushunchasi oddiy tilda va ilmiy adabiyotlarda juda ko‘p qo‘llaniladi. Har bir aniq holatda va sharoitda bu tushuncha o‘ziga xos ma’no va mazmunga ega bo‘ladi. Masalan: “oila hokimiyati”, “ota-onalar hokimiyati”, “yoshlar hokimiyati”, “xo‘jalik hokimiyati”, “davlat hokimiyati”, “sud hokimiyati” va boshqa shular singari tushunchalarda “hokimiyat” so‘zi turli xil ma’nolarni anglatadi va turli maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlarda o‘rin olgan fikrlarga asosan, “hokimiyat” tushunchasini uning siyosiy mohiyati nuqtai nazaridan quyidagicha ta’riflash mumkin: Hokimiyat - bu kishilar, ijtimoiy guruhlar hamda sinflarning faoliyatiga, xulq-atvoriga, harakatlariga, iqtisodiy-siyosiy, g‘oyaviy, ijtimoiy mexanizmlar, shuningdek kuch ishlatish, zo‘rlik qilish, ishontirish, qobiliyatları bilan ta’sir etuvchi faoliyatning alohida shaklidir.

Siyosiy hokimiyat keng ma’noli va ko‘p qirrali tushunchadir. U quyidagi holatlar bilan belgilanadi.

Hokimiyat – bu jamiyatga xos bo‘lgan kishilar o‘rtasidagi irodaga asoslangan munosabatlardir. Hokimiyat – bu kishilar o‘rtasidagi siyosiy hukmronlikdir. Hokimiyat – bu davlat tashkiloti tizimidir. Hokimiyat – bu ma’muriy vakolatlarga ega bo‘lgan muassasa va idoradir.

O‘z iroda hukmini boshqalarga o‘tkaza olish qobiliyati hokimiyatning hukmronlik qilish, rahbarlik qilish, boshqarish, tashkil etish-uyushtirish, nazarat qilish kabi faoliyat sohalarida namoyon bo‘ladi. Hukmronlik qilish nisbiy yoki mutlaq darajada bo‘ysundirilishi (masalan, podsho, zo‘ravon diktator), yalpi (totalitar), erkin-ixtiyoriy (demokratik), ilohiy-ixtiyoriy (xarizmatik) ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Hukmronlik qilish bir odamning boshqa bir odamga kuchli irodasi bilan ta’sir o‘tkazish orqali o‘ziga bo‘ysundirilishi vositasida amalga oshiriladi.

Hokimiyatning mohiyatini rahbarlik, hukmronlik va bo‘ysundirish munosabatlari tashkil etadi. Hokimiyatning umumiy mohiyatga ega bo‘lgan ta’rifiga asoslangan holda uning alohida turi bo‘lgan siyosiy hokimiyatni quyidagicha ta’riflash mumkin: “Siyosiy hokimiyat – bu siyosiy sub’ektlarning siyosatda ifodalangan irodasini turli yo‘llar, usullar va vositalar yordamida amalga oshirish faoliyatining o‘ziga xos alohida shaklidir”<sup>1</sup>.

1. Hokimiyatning keng tarqalgan ta’riflaridan biri – **pozitiv-sotsiologik talqindir** (nemis sotsiologi M.Veber). Bu talqinda hokimiyat biror individning muayyan ijtimoiy sharoitda boshqa individga o‘z irodasini o‘tkazish qobiliyati sifatida tushuniladi. Hokimiyat munosabatlarining asosini o‘zaro ta’sir doirasiga kiritish munosabatlari tashkil etadi. Bunday munosabatlar hokimiyat sub’ekti va ob’ekti o‘rtasida qaror topadi.

2. **Hokimiyatning teleologik talqini** (B. Rassel). Bunda hokimiyat ko‘zlangan maqsadlarni ro‘yobga chiqarishdan iborat. Bu atrof-muhit, tabiat bilan qamrab olinadi.

3. Bixevoiristik (ingl. inson ongini emas, balki xulqini o‘rganish) talqin (XX asrda Amerikalik olim psixolog G. Lassuel taklif etgan). Hokimiyatni tushunishni real shaxslarning o‘zaro harakatidan iboratligi yotadi. Insonning hokimiyat orqali boylik, obro‘ orttirishidir, hokimiyat – bu uni egallash bilan huzurlanishga imkon beradigan maqsad hamdir, deyiladi.

4. **Hokimiyatning psixologik talqini** (3. Freyd, K. Gustav YUNG, K. Xorni). Bunda hokimiyatni real individlarning xulq-atvori sifatida bixevoiristik tushunishdan kelib chiqadi. Hokimiyat idoralarining “Ixtiyoriy qo‘shilishga” tayyorgarligi sifatida vujudga keladi.

5. **Hokimiyatning tizimli talqini**. Bu talqin hokimiyatning bixevoiristik va psixologik ta’riflaridan farq kiladi. Bunda hokimiyatning individual munosabatlardan emas, balki sotsial tizimdan hosil bo‘lishini bayon etadi.

6. **Hokimiyatning tuzilmaviy-funksional talqini** (amerikalik sotsiolog T.Parsons). Bu talqin hokimiyatni teng bo‘lmagan sub’ektlarning munosabati, sotsial tashkilotning xususiyati sifatida, insonlar birligining o‘zini-o‘zi tashkil etish, uyuştirish, safarbar qilish uslublari sifatida olib qaraydi. Hokimiyat - bu resurslarni, ta’sir ko‘rsatish vositalarini safarbar qilishga imkon beruvchi sotsial makondir, rollarning xususiyatidan

<sup>1</sup> Политология. Ўкув кўлланма. ТДЮИ, 2006, 66-67-бетлар

iboratdir. Boshqacha aytganda, hokimiyat – rahbarlik lavozimlarini egallash va muayyan funksiyalarini bajarish bilan bog'liq faoliyatdir.

7. **Relyatsion (fran. munosabat) ta'rifi.** Bu ta'rif hokimiyatni ikki sherik o'rtasidagi munosabat sifatida olib qaraydi. Bunda ulardan biri ikkinchisiga belgilovchi ta'sir ko'rsatadi. Bu holda hokimiyat uning sub'ekti va ob'ektining o'zaro harakati sifatida namoyon bo'ladi. sub'ekt muayyan vositalar yordamida ob'ektni nazorat qiladi.

Talaba, yuqorida bayon etilgan turli-tuman ta'riflardan kelib chiqqan holda, hokimiyatning murakkabligiga, ko'p yo'nalishligiga e'tibor berishi lozim, hamda har bir tushuncha odatda hokimiyatning u yoki bu tomoniga yoki namoyon bo'lishiga e'tibor jamlashini va uning tahliliga ma'lum bir yondashuv bog'liqligini bilishi lozim.

Siyosiy hokimiyat davlat miqyosida kuchdan foydalanishning ochiqligi (legalligi)ni; ikkinchidan, boshqa barcha hokimiyatlar uchun uning qarorlarini oliv darajadali, majburiyligi, har qanday ijtimoiy jarayonlarga kira olish qobiliyati bilan tafsiflanishini; uchinchidan, ommaviylik, ya'ni umumiylilik va shaxssizlikligini; to'rtinchidan, monotsentrizm, qarorlar qabul qiluvchi yagona markaz mavjudligini; beshinchidan, imkoniyatlarning turli-tumanligiga qaratishingiz kerak. Siyosiy hokimiyat va ayniqsa, davlat, faqat majburlash emas, baiki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-axborot hokimiyatlaridan ham foydalanishini bilishingiz lozim.

## **2. Hokimiyat uchun kurashning shakllari, maqsadlari va uslublari**

Ushbu savol hokimiyatning bir ko'rinishda bo'lmasligi hamda o'ziga hos xususiyatlarga ega ekanligini anglab olishga yordam beruvchi savoldir. Siyosiy hokimiyat o'zining tuzilishiga ko'ra turli shakllarda bo'ladi. Uning har xil shakllarda namoyon bo'lishining asosiy sababi jamiyat hayotida ko'plab hokimiyatlarning harakatda bo'lishi bilan belgilanadi. Bunday hokimiyatlar o'zlarining jamiyat hayotida tutgan o'rni va roliga, maqsad va vazifalariga ko'ra bir-birlaridan farq qiladi. Xurmatli talaba, Siz siyosiy hokimiyat asosiy shakllarini aniqlashingiz va o'zlashtirib olishingiz kerak. Buning uchun tavsiya etilgan adabiyot ro'yxatida keltilgan darslik va o'quv qo'llanmalarining ko'rsatilgan mavzulari yoki boblari bilan bat afsil tanishib chiqishingiz va diqqat e'tiboringizni siyosiy hokimiyatning asosiy shakllarini o'ziga xosligiga qaratishingiz lozim. Siyosiy hokimiyatning asosiy shakllaridan biri-davlat hokimiyatidir. Davlat

siyosiy tashkilot bo‘lganligi uchun ham uning faoliyatini siyosiy mohiyat kasb etadi. U jamiyatning faqat iqtisodiy, madaniy, sotsial va harbiy sohalarida faoliyat ko‘rsatib qolmay, shu bilan birga jamiyatning siyosiy hayotida ham faol ishtirok etuvchi asosiy siyosiy kuchlardan biri hisoblanadi. Davlat hokimiyatining siyosiy mohiyati, avvalo, uning siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlarda faol ishtirok etishi bilan belgilanadi. Chunki davlat mamlakatning siyosiy hayotida ro‘y beradigan muammolarni hal qilishda siyosiy kuchlardan biri sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Davlat hokimiyati tomonidan mamlakatning ichki va tashqi siyosati ishlab chiqiladi, dunyoning turli mamlakatlari bilan siyosiy aloqalar va o‘zaro hamkorlik munosabatlari tashkil qilinadi va amalga oshiriladi, davlat bilan siyosatning boshqa sub’ektlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlар olib boriladi.

Siyosiy hokimiyatning biron-bir shakli davlat hokimiyati singari imkoniyatlarga ega emas. Davlat hokimiyati aholining barcha qatlamlari uchun majburiy hisoblangan qonunlarni ishlab chiqish va amalga oshirish ishida etakchi rol o‘ynaydi. Siyosiy hokimiyatning boshqa shakllari esa o‘z irodasini dasturlar, nizomlar, qarorlar singari majburiy harakterga ega bo‘lmagan hujjatlar asosida amalga oshiradi. Davlat hokimiyati ixtiyorida armiya, militsiya, prokuratura, sud singari kuch ishlatish apparatlari to‘plangan bo‘lib, ular davlatning kuchi bilan o‘zining hokimiyatini amalga oshiradi.

Davlat hokimiyati quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- davlat hokimiyati tushunchasi siyosiy hokimiyat tushunchasiga ko‘ra tor ma’noga ega;
- davlat hokimiyati siyosiy hokimiyatdan o‘zining ish uslubiga ko‘ra farq qiladi (masalan, davlat hokimiyatida majbur qilish usullari mavjud, siyosiy hokimiyatda bunday imkoniyat yo‘q);
- davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga ega;
- siyosiy hokimiyat ham davlat hokimiyati ham siyosiy hodisadir;
- har ikkalasida ham siyosiy hukmronlik aks etadi;
- har ikkisining ham asosini xalq tashkil etadi;
- har ikkisi ham jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarga u yoki bu darajada ta’sir etadi;

Siyosiy hokimiyatning asosiy shakllaridan biri siyosiy partiya-larning hokimiyatidir. Bu hokimiyat o‘zining tuzilishi, maqsad va vazifalari, jamiyat hayotida tutgan mavqeい jihatidan davlat hokimiyati

yoki siyosiy hokimiyatning boshqa shakllaridan farq qiladi. Siyosiy partiylar hokimiyatining jamiyat hayotidagi imkoniyatlari davlat hokimiyatiniki singari emas. Lekin shunga qaramay, siyosiy hokimiyatning bu shakli jamiyat hayotida o'z o'rni va mavqeiga egadir.

Siyosiy hokimiyat ilohiy yoki diniy hokimiyat shakliida ham namoyon bo'ladi. Hokimiyatning bu shakli uning boshqa shakllariga qaraganda ancha ilgari shakllangan. Ibtidoiy munosabatlardan qulchilik munosabatlariiga o'tish davrida hokimiyatning bu shakli paydo bo'la boshlagan.

Bu hokimiyat siyosiy masalalar bilan bevosita shug'ullanmasada, davlatlar yoki siyosiy partiylar hokimiyatlari tomonidan amalga oshirilayotgan siyosiy yo'lga o'zining munosabatini bildirib turadi.

Ijtimoiy va ommaviy jamoat tashkilotlarining hokimiyatlari ham siyosiy hokimiyatning o'ziga xos shaklidir. Siyosiy hokimiyatning bu shakli uning boshqa shakllaridan o'zining tuzilishi, maqsad va vazifalari, jamiyat hayotida tutgan o'rni va roliga ko'ra farq qiladi. Bu hokimiyatning siyosiy mohiyatga ega ekanligi, bir tomonidan, ularning tashkilot sifatidagi tuzilishi bilan belgilansa, ikkinchi tomonidan, ularning siyosiy masalalarni hal etishda ishtirok etishlari bilan belgilanadi.

Siyosiy hokimiyatning bu shakli quyidagi turlarga bo'linadi: kasaba uyushmalarining hokimiyati, yoshlar hokimiyati, xotin-qizlar hokimiyati, faxriylar hokimiyati, mahalla hokimiyati va boshqalar. Bu hokimiyatlarning faoliyat doirasi va ta'sir kuchi davlat hokimiyati singari imkoniyatlarga ega emas.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, siyosiy hokimiyatning namoyon bo'lishi bir qancha shakllarda bo'ladi. Siyosiy hokimiyatning amalga oshirilishida avtoritar, totalitar hamda demokratik shakllar keng tarqalgan shakllardan hisoblanadi. Avtoritar yakka shaxs, obro'talab shaxsning, podsho yoki imperatorning alohida hokimiyati hisoblanadi. Bunga misol tariqasida Yaponiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Niderlandiya, Shvetsiya va boshqa shu kabi mamlakatlarni ko'rish mumkin. Totalitar hokimiyat shakli esa ko'proq ma'muriy buyruqbozlikka, zo'ravonlikka asoslangan hokimiyat hisoblanadi. Sobiq Ittifoq davridagi siyosiy tuzum hokimiyatining ana shu shakliga asoslangan edi. Hokimiyatning demokratik shakli esa ko'proq xalqning o'z-o'zini boshqarishiga, qonunchilikning jamiyatdagi hamma sohalarida baravar amal qilishiga asoslanadi. Hokimiyatni amalga oshirishning demokratik shakli Respublika ko'rinishida ham mavjud bo'lib, bunda parlament

Respublikasi, Prezidentlik boshqaruviga asoslangan Respublika kabi shakllari ham mavjud bo'ladi. Parlament Respublikasida ko'proq parlamentning ustunligi namoyon bo'ladi. Siyosiy hokimiyatning namoyon bo'lishida mamlakatdagi umumiy boshqaruv shakli ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda federativ, konfederativ va unitar davlat tuzilmalari haqida aytib o'tish lozimdir. Federativ davlat shakli teng huquqli respublikalar, viloyatlar, guberniyalar uyushmasidan tashkil topadi. (Olmoniya, Amerika, Rossiya va boshqalar). Unitar hokimiyat shakli boshqarishning oddiy ko'rinishdagi shakli bo'lib, unda turli tumanlar, viloyatlar shu hokimiyat shaklida vujudga keladi.

### *Millat va davlat qudrati tushunchalari.*

Hokimiyat – yaxlit va bir butun ijtimoiy hodisadir. Bu esa uning muayyan tarkibiy kismlardan tashkil topganligini inkor etmaydi. Hokimiyat – bir qator tuzilmalardan iborat bo'lgan ijtimoiy hodisadir.

Sub'ekt – hokimiyatning faol, yo'naltiruvchi qismidir. U alohida inson, ijtimoiy guruh, kishilar birligi, masalan, xalq yoki dunyo hamjamiyati, davlat institutlari, siyosiy partiyalar bo'lishi mumkin. Biroq har qanday inson hokimiyatning sub'skti bo'lavermaydi. Hokimiyatning sub'ektlari xilma-xil. Uning boshlan'ich omillari individlar va ijtimoiy guruhlar, ikkinchilari – siyosiy tashkilotlar, eng yuqori darajadagi sub'ektlari – siyosiy elitalar, etakchilardir. Hokimiyat sub'ekti ob'ekt bilan o'zaro munosabatlarda birinchi darajali rol o'ynaydi.

Ob'ekt – hokimiyatning ikkinchi muhim elementidir. U hokimiyat sub'ekti qarorlarining bevosita bajaruvchisidir. Ob'ekt ham xuddi sub'ekt singari hokimiyatning ajralmas tarkibiy kismidir. Bu elementsiz hokimiyatni tasavvur etib bo'lmaydi. Hokimiyatning ob'ektini quyidagilar tashkil etadi: individ, ijtimoiy guruh, sind, jamiyat. Hokimiyat ob'ektining sifati, faolligi jamiyatning siyosiy madaniyati bilan belgilanadi.

Resurslar – hokimiyatning asosini tashkil etadi. Resurslar kishilarni ra'batlantirish, jazolash yoki ishontirishda qo'llanilishi mumkin. Hokimiyat resurslari xilma-xil. Ilmiy adabiyotlarda bir necha turlarga bo'linadi: utilitar, majburlovchi, me'yoriy va boshqalar.

Utilitar resurslar – bu kishilarning kundalik ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan moddiy va boshqa ijtimoiy vositalardir. Bu vositalardan kishilarni rag'batlantirish uchun ham, jazolash uchun xam foydalilanadi.

Majburlovchi resurslar – bu ma'muriy jazolash bilan bog'liq bo'lgan vositalardir. Undan utilitar resurslar ish bermay qolsa,

foydalaniladi. Bunga iqtisodiy sanksiyalardan hayiqmaydiganlarga suđ orqali ta'sir qilishni ko'rsatish mumkin.

Me'yoriy resurslarga – insonning ichki dunyosi, qadriyatlar va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar kiradi.

Hokimiyatning resurslarini inson va jamiyat faoliyatining muhim sohalari: siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-axborot, kuch ishlatuvchi sohalarga binoan turkumlashtirish ham keng tarqalgan.

Siyosiy-huquqiy resurslar – bu ijtimoiy tartibni, xavfsizlikni, barqarorlikni, fuqarolar tinchligini, jamiyatning yaxlitligi va butunligini ta'minlovchi vositalardir. Bu vositalarga dasturiy hujjatlar, Konstitutsiya, qonunlar va ularni ishlab chiqish, qabul qilish hamda amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar kiradi.

Iqtisodiy resurslar–bunga ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarish hamda iste'mol qilish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar, pullar, texnika, unumdar erlar, erosti qazilma boyliklari va hokazolar kiradi.

Sotsial resurslar – sotsial stratifikatsiyadagi ijtimoiy maqom yoki rang, o'rinning amalga oshirilishi yoki pasayish qobiliyatidir.

Madaniy-axborot resurslari-bilim, axborot hamda ularni olish va tarqatish vositalari: fan va ta'lim muassasaları, ommaviy axborot vositalari va boshqalardir.

Kuch ishlatuvchi resurslar-bu qurol-yarog', jismoniy majburlovchi muassasalar va buning uchun maxsus tayyorlangan kishilardir. Ular o'zagini armiya, miliitsiya, xavfsizlik xizmati tashkil etadi.

Demografik resurslar-hokimiyatning maxsus resurslaridir. Bu boshqa resurslarni ishlab chiqaruvchi universal, ko'p funksiyali resursdir. Inson-moddiy boyliklarning yaratuvchisi, askar va partiya a'zosi, bilim va axborotning egasi, tarqatuvchisidir.

Demak, siyosiy hokimiyat jamiyat hayotidagi murakkab xodisalardan biri. Uni amalga oshirish mexanizmlari, faoliyat ko'rsatish darajasi nihoyatda rang-barang bo'lishi bilan birga, unda hokimiyatning boshqa turlari ham o'z ifodasini topadi, ularning har biri o'zining aniq maqsad va vazifalariga ega.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharoitida hokimiyatni tashkil etish taqsimlash tamoyilliga asoslangan. Hokimiyatlar taqsimlanish tamoyili deganda nimani tushunish kerak?

Hokimiyatlar taqsimlanishi tamoyili–davlat boshqaruvini demokratik asosda tashkil etishning asosiy tamoyili bo'lib, kishilarning erkin ravnaq topishi va qonun ustuvorligini ta'minlashning nihoyatda muhim shartidir.

Hokimiyatlarning taqsimlanishi demokratik huquqiy davlatga xos xususiyat hisoblanadi. Boshqacha aytganda, hokimiyatlarni taqsimlash huquqiy davlatni barpo etish, qonun ustuvorligi va hukmronligini amalga oshirish vositasidir. Mazkur tamoyilning qo'llanishi hokimiyatni suiste'mol qilishiga jiddiy to'siq qo'yadi, fuqaroni mansabdon shaxslarning g'ayriqonuniy hatti-harakatlaridan, tazyiqidan hamda o'zboshimchaliklaridan himoya qiladi, davlat idoralari faoliyatining samarali bo'lishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek, O'zbekistonda qonunchiik O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisi, joylarda esa hokimiyat organlari, xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda ijro hokimiyati Prezident va Vazirlar Mahkamasi tomonidan, joylarda esa tuman, shahar, viloyat hokimlari tomonidan amalga oshiriladi. Konstitutsiyaning XXII bobida sud hokimiyati tuzilishi bayon etilgan, xususan, 106-moddada «O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi»<sup>1</sup> degan ma'yor belgilab qo'yilgan.

Hokimiyatni bo'linishi tamoyili ham, qonunlarning ustunligi tamoyili ham huquqiy demokratik davlatning eng muhim shartlaridan biri bo'lgan shaxs manfaatlarining hamma narsadan ustunligini ta'minlashga qaratilgan.

#### **Seminar savollari:**

1. Jahon siyosatida «hokimiyat» tushunchasini izohlang.
2. Hokimiyat uchun kurashning qanday shakllari mavjud?
3. Hokimiyat uchun kurashning qanday maqsadlari mavjud?
4. Hokimiyat uchun kurashning qanday uslublar bor?

#### **Mustaqil ishlari topshiriqlari:**

1. Millat va davlat qudrati tushunchalarini izohlang.
2. Qudratli davlatlar siyosati jahon siyosatidagi roli qanday?
3. Jahon siyosatida hokimiyat uchun kurashning tarixiy shakllanishini gaprib bering.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018, XXII боб.

## **Ma’ruza №7. JAHON SIYOSATIDA KO’P TOMONLAMA FORMATLAR**

### **Reja:**

1. Birlashgan millatlar tashkiloti , Yevropa Ittifoqi
- 2.Alyanslar, bloklar, ittifoqlar, sherikliklar, koalitsiyalar

**O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:** Jahon siyosatida ko’p tomonlama formatlar haqida ma’lumot olishdan iborat.

### **Tayanch so‘z va iboralar:**

- |                          |                         |
|--------------------------|-------------------------|
| •Siyosat                 | •Xalqaro siyosiy mintqa |
| •Mintaqaviy tashkilotlar | •Mintaqa                |
| •Ittifoqlar              | •Hudud                  |

### ***Birlashgan millatlar tashkiloti , Yevropa Ittifoqi***

Siyosatshunoslarning xulosalariga ko‘ra, siyosiy nuqtai nazardan umumbashariy muammolarni hal qilish - davlatlar, siyosiy partiyalar, xalqaro tashkilotlar, jamoat tashkilotlari olib borayotgan nazariy va amaliy harakatlarining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ma’lumki, 1945 yili BMT tashkil topdi. Uning Nizomida yangi davrda mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xalqaro huquqning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi. Xalqaro siyosiy munosabatlarda vujudga kelgan mojaroli muammolarni xalqaro huquq, qonun-qoidalari negizida tinch yo‘l bilan hal qilish maqsadida Xalqaro Sud faoliyat ko‘rsatadi

Xalqaro siyosiy munosabatlarda amal qilinadigan tamoyillar esa, BMT Ustavi va boshqa hujjatlarda belgilangan qoidalarga asosan quyidagi tamoyillarga tayangan holda muhokama qilishi kerak:

- 1) davlatlarning suveren tengligini hurmat qilish, ularning ichki ishlariga aralashmaslik;
- 2) tinch-totuv yashash siyosatiga og‘ishmay amal qilish;
- 3) xalqaro kelishmovchiliklarni siyosiy yo‘l bilan hal qilish;
- 4) davlatlar chegaralarining daxlsizligi va hududining bir butunligini tan olish;
- 5) inson huquqlarini hurmat qilish;
- 6) millatlar va elatlarning o‘z huquqlarini o‘zlarini belgilashi;
- 7) xalqaro majburiyatlarga vijdonan amal qilish.

Alohiida ta'kidlash zarurki, BMTning 1970 yilda qabul qilingan Deklaratsiyasiga asosan suveren tenglik tushunchasi quyidagi talablarni ifodalaydi:

- A. davlatlarning yuridik jihatdan tengligi;
- B. bir davlat boshqasini hamkorlikning sub'ekti sifatida hurmat qilishi;
- C. har bir mamlakatning siyosiy mustaqilligini, hududining yaxlitligini tan olish;
- D. har bir davlat o'zining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojini o'zi belgilashi;
- E. har bir davlat o'zining xalqaro majburiyatlarini so'zsiz bajarishi va boshqalar.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zolari - mustaqil davlatlardir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti butunjahon hukumati emas va u qonunlar qabul qilmaydi. Biroq xalqaro mojarolarni bartaraf etishga va bizning barchamizga daxldor bo'lgan masalalarni hal etish siyosatini ishlab chiqishga yordam bera oladigan mablag'larga ega bo'лади. BMTga barcha katta-kichik, boy va kambag'al, turli siyosiy qarashlar va ijtimoiy tizimdagи davlatlar a'zo bo'lib, ovoz berish va ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega.

Birlashgan Millatlar Tashkilotida oltita bosh organ mavjud. Ulardan beshtasi - Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Vasiylik Kengashi va Kotibiyat - Birlashgan Millatlar Tashkilotining New-Yorkdagi Markaziy qarorgohida, oltinchi organ - Xalqaro Sud esa Niderlandiyaning Gaaga shahrida faoliyat ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga muvofiq xalqaro tinchlik va xavfsizlikni barqaror etish borasida Xavfsizlik Kengashi bosh javobgarlikni zimmasiga oladi va u tinchlik xavf ostida qolgan kecha yoki kunduzning har qanday daqiqasida chaqirilishi mumkin.

Kengash 15 a'zodan tashkil topgan. Ularning beshtasi - Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Birlashgan Qirollik, Amerika Qo'shma Shtatlari va Fransiya - doimiy a'zolar hisoblanadi. Kengashning qolgan o'n a'zosi Bosh Assambleya tomonidan ikki yil muddatga saylanadilar. Keyingi yillarda Birlashgan Millatlar Tashkilotida Kengashning a'zolar tarkibini o'zgartirish, bu tadbir zamonaviy va iqtisodiy voqelikni

<sup>1</sup> Basic facts about the United Nations. United nations. – New York, 2013. – P.137.

yanada yorqinroq aks ettirishi masalasi muhokama qilinayapti. Kengashning qarorlari, uning uchun to'qqiz a'zo ovoz bergan taqdirdagina qabul qilingan hisoblanadi. Kun tartibidagi masalaga Kengashning doimiy a'zolaridan birortasi qarshi ovoz bersa, shuningdek, veto huquqidан foydalansa qaror qabul qilinmaydi. Xalqaro tinchlikka xavf solinganligi haqida kengashga xabar berilganda bu mojaro avvalo tinchlik yo'li bilan bartaraf etish nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Kengash, balki bartaraf etish tamoyillarini ishlab chiqadi yoki hakam vazifasini o'taydi. Harbiy harakatlar boshlanib ketgan taqdirda Kengash o't ochishni to'xtatish choralarini ko'radi. Shuningdek, u tomonlarni yarashtirish yoki bir-birlari bilan janjallashayotganlarni ajratishga yordam beradigan, tinchlikni barqaror etuvchi missiya yuborishi mumkin<sup>1</sup>.

Kengash o'zi qabul qilgan qarorlarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha tadbirlar qabul qilishi mumkin. U iqtisodiy jazo choralar qo'llashi yoki qurollarni yetkazib berishga embargo qo'yishi mumkin. Juda kamdan-kam hollarda Kengash o'zi qabul qilgan qarorni bajarish uchun a'zo-mamlakatga birgalikdagi harbiy harakatlarga qadar bo'lган "barcha zarur vositalarni" qo'llashga vakolat beradi. Shuningdek, Kengash Bosh kotib lavozimiga muayyan nomzodni va Birlashgan Millatlar Tashkilotiga yangi a'zolarni tavsiya etadi.

Bosh Assambleya - o'ziga xos butunjahon parlamentining insoniyatning eng dolzarb muammolari ko'rib chiqilayotgan majlislarida Birlashgan Millatlar Tashkiloti a'zosi bo'lган barcha mamlakatlar vakillari qatnashadi. Har bir a'zo-mamlakat bir ovozga ega. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni muayyan darajada saqlab qolish tavsiyalari yangi a'zolarni qabul qilish yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti byudjetini tasdiqlash, shu jumladan, tinchlikni saqlash operatsiyalariga mablag' ajratish singari muhim masalalar ko'pchilik, aniqrog'i, uchdan ikki qism ovoz bilan qabul etiladi.

Boshqa masalalar bo'yicha qarorlar, odatdagidek, ko'pchilik ovoz bilan qabul etilaveradi. Keyingi yillarda Assambleya qarorlari rasmiy ovoz berish yo'li bilan emas, balki, konsesus asosida qabul etilishi uchun maxsus sa'y-harakatlar olib borilmoqda. 1999/2000 yilgi sessiyalarda yadroviy qurolsizlanish, taraqqiyot, atrof muhitni muhofaza etish va yangicha demokratiyani mustahkamlash singari kun tartibidagi turli-tuman 173 masala ko'rib chiqildi. O'z qarorlari g'oyat muhim

<sup>1</sup> Basic facts about the United Nations. United nations, New York, 2013. – P.137.

ahamiyatga ega bo'lsa ham, ular jahon jamoatchiligi fikrlarini ifodalasa va xalqaro jamoatchilikning axloqiy talabi hisoblansa ham Assambleya o'z qarorlarini majburan qabul qildirmaydi.

Assambleyaning har yilgi navbatdagi sessiyasi sentabrdan dekabrغا qadar bo'lgan muddat davomida o'tkaziladi. Assambleya zarat tug'ilganda o'z ishini qayta chaqirilgan sessiyada davom ettirishi yoki jiddiy tashvish tug'dirgan masalalar bo'yicha maxsus yoki favqulodda sessiyalar o'tkazishi mumkin. Assambleyalar orasidagi muddat davomida uning ishlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining oltita bosh qo'mitalarida, boshqa organlarida va Kotibiyatda davom etadi<sup>1</sup>.

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash Bosh Assambleyaning umumiy rahbarligi ostida harakat qilib Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning tizimidagi muassasalar faoliyatini ijtimoiy va iqtisodiy sohada muvo-siqlashtirib turadi. Xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni muhokama etish va shu sohadagi siyosat borasida tavsiyalar ishlab chiqish uchun bosh anjuman hisoblangan Kengash taraqqiyot maqsadlarida xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Kengash ish faoliyatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Fuqarolar jamiyatini o'rtaсидаги о'sha muhim hayotiy muloqotni qo'llab-quvvatlagan holda tegishli nohukumat tashkilotlari bilan maslahatlashadi.

Kengash tarkibiga Bosh Assambleya tomonidan uch yilga saylanadigan 54 nafar a'zo kiradi. Kengash har yili - New-York va Jenevada, navbatma-navbat o'zining bir oy muddatga cho'ziladigan sessiyasini o'tkazadi. Sessiya davomida muhim iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni muhokama etish uchun ministrlar darajasida majlis, 1998 yildan esa sessiya doirasida insonparvarlik masalalarini ko'rib chiqish bosqichi o'tkazilmoqda.

Kengashning ishlari yil mobaynida o'z yig'ilishlarini muntazam o'tkazib turadigan va Kengashga hisobot beradigan yordamchi tashkilotlar tomonidan olib boriladi. Masalan, inson huquqlari komissiyasi dunyoning barcha mamlakatlarida inson huquqlariga qanday rioya etilayotganligini nazorat qiladi. Boshqa tashkilotlar ijtimoiy taraqqiyot, xotin-qizlaraing ahvoli, jinoyatchilikdan ogoh etish, giyohvandlikka qarshi kurash va atrof muhitni muhofaza etish masalalari bilan shug'ullanadilar. Beshta hududiy komissiya iqtisodiy taraqqiyot va o'z hududlarida iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

<sup>1</sup> Жўраев С., Ахмедов О., Раҳимова М. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. – Т.: Фулом, 2008. –Б. 40-41.

Vasiylik Kengashi 7 a'zo-mamlakat qo'l ostidagi 11 vasiylik hudojida xalqaro nazoratni ta'minlash, shuningdek, ularning hukumatlari bu hududlarda o'z-o'zini boshqarish yoki mustaqillikning zarur chora-tadbirlarini ko'rishlari uchun xalqaro nazoratni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. 1994 yilga kelib vasiylik hududlarining barchasi o'zlarini boshqara boshladilar yoki alohida davlatga aylanib mustaqillikka erishdilar, yohud mustaqil qo'shni davlatlar bilan qo'shildilar<sup>1</sup>.

Hozirgi paytda, tarkibiga Xavfsizlik Kengashining besh doimiy a'zosi kirgani sababli Vasiylik Kengashi ishlari, asosan, tugallandi. uning ish tartibi qoidalariga tegishli o'zgartirishlar kiritildi, ya'ni u o'zining yig'ilishlarini faqat shart-sharoit taqozo etgan hollardagina o'tkazadigan bo'ldi.

Xalqaro Sud - Butunjahon sudi sifatida ma'lum bo'lib, u Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh sud organidir. Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan saylangan 15 sudyadan tashkil topgan Xalqaro Sud davlatlar o'rtaсидаги mojarolarni bartaraf etish bilan shug'ullanadi. Davlatlarning- sud muhokamasida qatnashishlari ixtiyoriyidir, biroq davlatlar shunga rozi bo'lsalar, ular Sud qaroriga bo'yuniishlari shart. Shuningdek, Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi iltimoslari bilan Sud konsultativ xulosalar chiqarish ishlari bilan ham shug'ullanadi.

Kotibiyat Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi, Xavfsizlik Kengashi va boshqa tashkilotlari ko'rsatmalariga muvofiq tezkor va ma'muriy ishlarni amalga oshiradi. Uni umumiy ma'muriy rahbarlikni olib boradigan Bosh kotib boshqaradi. Hozirgi vaqtida Kotibiyat qariyb dunyoning 160 mamlakatidan bo'lgan 8900 kishi ishlaydigan etti departament va turli boshqarmalardan tashkil topgan. Bundan tashqari New-York, Jeneva, Vena va Nayrobida Birlashgan Millatlar Tashkilotining bo'limlari mavjud.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining eng bosh vazifalaridan biri - butun dunyoda tinchlikni barqaror etishdir. Nizomga binoan a'zo-mamlakatlar o'zlarining xalqaro kelishmovchiliklarini tinch yo'l bilan hal etadi, qurolli kuchlarni boshqa davatlarga nisbatan qo'llamaydilar, ularga tahdid solmaydilar.

Ko'p yillar mobaynida xalqaro krizislarni bartaraf etish va paydo bo'lgan mojarolarni hal qilishga yordam berishda Birlashgan Millatlar

<sup>1</sup> Ўзбекистон юридик энциклопедияси. -Т.: Адолат, 2010. -- Б. 533.

Tashkiloti muhim rol o'ynadi. U tinchlikni o'rnatish, tinchlikni saqlash va insonparvarlik yordami ko'rsatish borasida ko'plab operatsiyalar turkumini amalga oshirdi. Shuningdek u birmuncha jiddiy tus olgan mojarolarni ham bartaraf etishga muvaffaq bo'ldi. Mojolar kelib chiqqan hollarda u zo'ravonlikning tub ildizlarini qirqish va mustahkam tinchlik uchun asoslar yaratishga yo'naltirilgan va koordinatsiyalash-tirilgan yanada qat'iy chora-tadlibirlar qabul qiladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bu borada diqqatga sazovor natijalarni qo'lga kiritdi. Masalan, 1962 yilgi Kariyb krizisini, 1973 yilgi Yaqin Sharq mojarosidagi keskinlikni bartaraf etishga muvaffaq bo'ldi. 1988 yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinch yo'l bilan hal etish borasidagi sa'y-harakatlari Eron-Iraq urushini bartaraf etish imkonini berdi, undan keyingi yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan o'tkazilgan muzokaralar tufayli sovet qo'shinlari Afg'onistondan olib chiqildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 90-yillarda Quvayt mustaqilligini tiklashga yordam berdi, Kambodja, Salvador, Gvatemala va Mozambikda fuqarolar urushini to'xtatishda, Gaiti va Serra-Leonda demokratiya asosida saylangan hukumatni tiklashda katta rol o'ynadi, shuningdek, qator boshqa mamlakatlardagi kelishmovchiliklarni bartaraf etdi va hal qildi<sup>1</sup>.

Qurol-yarog'lar tarqalishiga chek qo'yish, shuningdek, yalpi qirg'in qurollarining qisqartirilishi, pirovardida, ularning barcha zahiralari yo'q qilishga erishish eng muhim vazifalardan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti qurolsizlanish bo'yicha muzokaralar o'tkazish, shu sohada tavsiyalar ishlab chiqish va tadqiqotlar tashabbuskori bo'lish uchun doimiy forum vazifasini o'taydi. U qurolsizlanish bo'yicha Konferensiya va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida olib boriladigan ko'pqirrali muzokaralarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu muzokaralar natijasida Yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi keng qamrovli shartnomasi (1996 yil) va yadro qurolidan xoli zona to'g'risidagi shartnomasi kabi xalqaro kelishuvlar ro'yobga chiqdi. Shuningdek, bundan boshqa kimyoviy (1992 yil) va bakteriologik (1972) qurollarning zahiralarini tayyorlash, ishlab chiqish va toplashni ta'qilovchi, dengiz va okeanlar tubiga (1971 yil) va kosmik fazoga (1967 yil) yadro qurolini joylashtirishni ta'qilovchi shartnomalar, shu singari yana boshqa turdag'i qurollarni ta'qilovchi yoki chegaralovchi shartnomalar tuzilgan edi.

<sup>1</sup> Basic facts about the United Nations. United nations. — New York, 2013. — P.137.

1977 yilda Yer usti minalaridan foydalanishni ta'qiqlovchi konvensiyaga 100 dan ortiq davlat imzo chekdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti mana shu konvensiyaga va vayron qiluvchi turdag'i qurollardan foydalanishni ta'qiqlovchi boshqa xalqaro shartnomalarga barcha davlatlarni qo'shilishga chaqirdi. BMT shuningdek, o'qtar va yengil qurollar ustidan nazoratni kuchaytirishning ham tarafidordir.

Venada joylashgan atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik, kafolatlar borasidagi bitimlar tizimi asosida faoliyat ko'rsatib, tinchlik maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan atom ashyolarini va jihozlaridan harbiy maqsadlarda foydalanilmasligini ta'minlashga javob beradi. Gaagada joylashgan kimyoviy qurollarni ta'qiqlash bo'yicha tashkilot jahonning barcha mamlakatlari kimyoviy obyektlari haqidagi ma'lumot yig'ish bilan shug'ullanadi va kimyoviy qurollar bo'yicha Konvensiyaga amal qilish uchun nazoratni ta'minlash maqsadida doimiy kuzatuv olib boradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'zining tinchlik o'rnatish faoliyati doirasida diplomatik mexanizmlardan foydalangan holda qarama-qarshi bo'lib qolgan tomonlarning yarashishlariga yordam beradi. Xavfsizlik Kengashi xalqaro tinchlik va xavfsizlik borasidagi o'z sa'y-harakatlari doirasida mojaroni bartaraf etish va tinchlik o'rnatish yoki uni, masalan, muzokaralar yohud Xalqaro Sud yordamida barqaror etish yo'llarini tavsiya qilishi mumkin.

Umumjahon tinchligini va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash muammosi hozirgi zamon xalqaro munosabatlarda markaziy o'rnlardan birini egallaydi. Uning asoslari BMT Nizomida o'z ifodasini topgan hamda 1970 yil 16 dekabrda xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash to'g'risidagi Deklaratsiyada, BMT Bosh Assambleyasining 1986 yil 5 dekabr va 1987 yil 7 dekabrdagi "Xalqaro tinchlik va xavfsizlikning yalpi tizimini yaratish to'g'risida"gi qarorlarida belgilab berilgan yalpi xalqaro xavfsizlik konsepsiyasida, shuningdek, "Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni BMT Nizomiga muvofiq mustahkamlashga yalpi yondashuv" to'g'risidagi 1988 yil 7 dekabr qarorida rivojlantirilgan.

BMT kuch-g'ayratlari yer yuzida barqaror, xavfsizlik va zo'ravonlik ishlatalmaydigan tinchlik o'rnatilishiga imkon beradigan xalqaro munosabatlarni tashkil etishni taminlashga yo'naltirilgan. Huquq tushunchchasiga muvofiq, xalqaro xavfsizlik va davlatlararo munosabatlar sohalarida asos bo'lib xizmat qiluvchi voqeliklarga quyidagilar kiradi:

- mafkuraviy va sinfiy kurash jahon davlatlararo munosabatlari asosini tashkil etolmaydi. Bu shuni bildiradiki, bloklar bo'yicha qarama-qarshi turish va "tashqi" dushmanlarni izlash o'rniga xalqaro munosabatlarni mafkuradan xoli qilish, sherikchilik, umuminsoniy qadriyatlarni va ularning tor milliy manfaatlardan ustun ekanligini tan olish vaqtি keldi;

- yadro urushi siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy va boshqa maqsadlar ga erishish vositasi bo'lolmaydi. Shubhasiz, yadro urushi – Yer sivilizatsiyasi uchun o'z joniga qasd qilishdir, unda g'oliblar bo'lishi mumkin emas; ayni vaqtida kelajakda yadro quroli istalgan bosqinchi uchun tiyilib turish rolini o'ynaydi.

Ayni vaqtida, bozor iqtisodiyoti va erkin raqobatni keng tatif etish yo'li bilan xatto tabiiy resurslarining eng kam miqdori (yoki hatto ular umuman bo'limgan taqdirda ham) bilan ham sanoat rivoji va aholi farovonligining yuksak darajasini, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

BMT Ustavi (VIII bob) mintaqqa miqyosida xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun mintaqaviy kollektiv xavfsizlik xalqaro tashkilotlari tuzishga ruxsat beradi. Bunda quyidagi shartlar albatta bajarilishi lozim:

- mintaqaviy asosdagи harakatlar BMT maqsadlari va prinsiplariga mos kelishi, faqat mahalliy nizolarga taalluqli bo'lishi va mazkur hudud doirasidan tashqariga chiqmasligi kerak;

- Xavfsizlik Kengashidan vakolat olmay turib hech qanday majburlov choralar ko'riliishi mumkin emas;

- biron-bir mintaqqa davlatlari o'rtasida yuzaga keluvchi har qanday mahalliy nizojar faqat tinch yo'li bilan hal qilinishi lozim;

- Xavfsizlik Kengashi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun mintaqaviy bitumlar doirasida amalga oshirilgan yoki amalga oshirish mo'ljallanayotgan harakatlar haqida hamisha xabardor qilinib turilishi kerak;

- mintaqaviy asosdagи biron-bir harakat BMT xalqaro xavfsizlik universal tizimi doirasidagi harakatlarga zid kelishi mumkin emas.

Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) - yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashqil etilgan xalqaro tashkilot. 1945 yilda tuzilgan. BMTni barpo etish haqidagi qaror SSSR, AQSH, Angliya va Xitoy tashqi ishlар vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943 yilda, Ustavi esa San Fransisko konferensiyasida 1945 yilda qabul kilindi. BMT Ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2000 yilda esa

ular soni 189 ga yetdi. BMTning doimiy ish o'rni (shtab kvartirasi) – New York. BMT Ustavida ko'rsatilganidek, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huquqdi bo'lishi va o'z takdirini o'zi belgilashi qoidasiga amal qilib, millatlar o'rtasida do'stlilik munosabatlarini rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muammlarni hal etishda xalqlar o'rtasida hamkorlik bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutib, shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatini uyg'unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi.

2000 yil 6-8 sentabrda BMTning 55-sessiyasi doirasida "Ming yillik sammiti" bo'lib o'tdi. Unda 155 dan ortiq mamlakatning davlat va hukumat boshliqlari ishtirok etdi. Mazkur anjumanda umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiyiktisodiy, ekologiya va xavfsizlikka doyr muammolar muhokama qilinib, yangi yuz yillikning dastlabki yillarda amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan tadbirlar belgilandi. Sammit ishtirokchilari yakdillik bilan kabul qilgan deklaratsiyada 2015 yilgacha 'minlashda, Bosh Assambleya va BMT boshqa organlari qarorlari amalda bajarilishida yordam beradi. Kotibiyat quydagi departamentlar va boshqarmalarga bo'linadi: Siyosiy masalalar va Xavfsizlik Kengashi ishlari departamenti, Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti, Vasiylik va o'z-o'zini boshqarmaydigan hududlar departamenti, Nazorat boshqarmasi, Xodimlar boshqarmasi, Bosh kotibning ma'muriy idorasi, Ijtimoiy axborot boshqarmasi, Konferensiyalarga xizmat qilish boshqarmasi, Umumiy xizmat boshqarmasi, BMTning Jeneva bo'limi. BMT sessiyasi yidda bir marta chaqiriladi. Xavfsizlik Kengashining yoki BMT a'zolari ko'pchiligining talabi bilan har qanday masala yuzasidan maxsus sessiyalar chaqirilishi mumkin. BMTning rasmiy tillari - ingliz, fransuz, rus, ispan va xitoy tillari bo'lib, ingliz, fransuz, ispan tillarida ish yuritiladi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilganidan keyin ko'p o'tmay - 1992 yil 2 martda BMTga a'zo bo'ddi. Shun kuni BMT Bosh Assambleyasini binosi oldida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ko'tarildi. BMTning Toshkentdag'i vakolatxonasi ochildi (1993.24.8). BMTda O'zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ish boshladidi. O'zbekiston Respublikasi BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bijan shug'ullanuvchi tashkiloti - YUNESKOga ham a'zo bo'ldi.

O'zbekiston o'z ovozi va mavqeiga ega bo'lgan a'zo sifatida BMT oldiga muhim va dolzarb masalalarni qo'yyapti. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh

Assambleyasi 48-sessiyasida (1993 yil sentabr), BMT tashqil etilganining 50 yilligiga bag‘ishlangan sessiyada (1995 yil okt.), BMT Bosh Assambleyasining “Ming yillik sammiti” (2000 yil sentabr) da so‘zlagan nutqlari dunyo jamoatchiligidagi katta qiziqish uyg‘otdi. Xususan, ushbu xalqaro tashkilotning 20-asr so‘nggidagi eng yirik anjumanida O‘zbekiston rahbari xalqaro terrorizm va narkobiznes bilan bog‘liq muammolarni hal etish; mintaqaviy xavfsizlik, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash; jahon xavfsizligi tizimini takomillashtirish, BMT faoliyatini va tarkibiy tizimini isloh qilishga taalluqli takliflar bilan chiqdidi.

O‘zbekiston Respublikasi BMTning teng huquqli a‘zosi sifatida bu eng nufuzli xalqaro tashkilotning maqsad va qoidalariga qat’iy amal qilmoqda.

Yevropa Ittifoqining institusional shakllanishi salkam yarim asrlik tarix bilan bog‘langan. Biroq, integratsiyaning mafkuraviy asoslari bir muncha chuqurroq tarixiy ildizlarga ega.

Yevropa integratsiya jarayonining o‘ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, tarixda ko‘zatilgan Yevropa davlatlari orasidagi tuzilgan harbiy ittifoqlardan farqli ravishda, ushbu jarayon natijasida dastlab iqtisodiy, hozirda esa siyosiy davlatlar ittifoqi vujudga kelgan.

Bevosita XX asrning 2-yarmida Yevropa integratsiyasi natijasida vujudga kelgan va hozirgi davrda dunyo siyosiy va iqtisodiy hayotida o‘ziga xos o‘rin tutayotgan Yel ning paydo bo‘lish tarixi va sabablariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Yevropa davlatlarining iqtisodiy, siyosiy va harbiy birlashuviga haqidagi dastlabki fikrlar XIII-XIV asrlarda vujudga kelgan. Yevropa davlatlari orasida ittifoq tuzish haqidagi dastlabki fikrlar fransuz prokurori Piyer de Buy va chex qiroli Ioann Podebradlarga tegishli bo‘lsa, fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo, ingлиз olimlari William Penni, Jon Beller va nemis faylasufi Immanuil Kantlar bu fikrning rivojlanishida o‘ziga xos xissalarini qo‘shishgan. Ammo, qaysidir maonoda ularning fikrlari bir birinikidan ajralib turgan. Ushbu olimlarning baozilari Yevropa integratsiyasi jarayonidan o‘z davlat manfaatlarini ko‘zlasa, baozilari umuminsoniy qadriyatlardan bo‘lmish tinchlik va faravonlikni maqsad qilishgan.

Birinchi jahon urushidan so‘ng Yevropani tinch yo‘l bilan birlashtirish – pan-Yevropa g‘oyasi ilgari surildi. A.Brian, G.Strezman, L.Veys, U.Cherchill, D.Rujmont kabi davlat va jamoat arboblari mazkur mafkura asoschilar bo‘lib maydonga chiqdilar.

Bunday sa'yi-harakatlar natijasi o'laroq, urushning oxirlariga kelib birinchi davlatlararo ittifoq uyushmalari vujudga kela boshladi. Chunonchi, 1944 yil Benilyuks (Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg) o'rtaida moliyaviy va iqtisodiy ittifoq tuzish to'g'risidagi shartnoma Londonda imzolandi.

1951 yil 18 aprelda Fransiya, Germaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya va Belgiya ushbu Yevropada ko'mir va po'lat quyish birlashmasi (YeKPB) ittifoqini tashkil qilish borasida kelishuvni imzolaydilar. Bu Yevropa integratsiyasiga qo'yilgan dastlabki tamal toshi edi.

1955 yil iyun oyida Italiyaning Messina shahrida bo'lib o'tgan uchrashevda YeKPBga a'zo davlatlar tashqi ishlар vazirlari "Birlashgan Yevropani yaratish" taklifi bilan chiqishdi. Messinada bo'lib o'tgan konferensiyada YeKPB ga a'zo davlatlar orasida iqtisodiy integratsiyaga qadam qo'yishga kelishib olindi. Belgiya tashqi ishlар vaziri Pol Anri Spaak boshchiligidagi Yevropa Atom Energiyasi bo'yicha Hamjamiyati va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini tuzish bo'yicha qo'mita tuzildi. Olib borilgan muzokaralar natijasida ushbu qo'mita 1956 yil o'z faoliyatini yakunlab, 1957 yil mart oyida YeKPBga a'zo 6 ta davlat tomonidan imzolangan va 1958 yil 1 yanvarda kuchga kirgan Yevropa Atom Energiyasi bo'yicha Hamjamiyati va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini tuzishga asos bo'lgan shartnomani ishlab chiqishga yerishdi. Yevratomning tashkil etilishi unga a'zo davlatlar orasida tinch maqsadlarda foydalanish uchun yadroviy energetika sohasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini tashkil qilish Yevropa davlatlarining iqtisodiy jihatdan birlashishini anglatar edi. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini tashkil etishdan asosiy maqsad kelgusida Yevropa davlatlarining siyosiy integratsiyasiga zamin yaratish edi. Yevratomning tashkil etilishi esa bu boradagi dastlabki ishonchli qadam edi, bular:

- a'zo davlatlar orasida bojhona, soliq, kvota va chegirmalarni bekor qilgan holda erkin savdo hududini yaratish; bu holatda har bir a'zo davlat boshqa bir ikkinchi davlatga nisbatan bojxona va savdo sohasida o'z milliy siyosatini saqlab qoladi;

- a'zo davlatlar orasida mavjud iqtisodiy holatni hisobga olgan holda ikkinchi bir davlatga nisbatan yagona bojxona va savdo siyosatini yaratish;

- a'zo davlatlar hududida xom-ashyo, xizmat, kapital va ishchi

kuchini erkin harakatini taominlash uchun yagona ichki bozorni yaratishdan iborat.

Yevropa iqtisodiy integratsiya jarayonining bir maromda va ko‘zlangan tarzda kechishi uchun ayrim tashkilotlar tashkil etildi. YelHga a‘zo davlatlar orasida tuzilgan Yevropa Kengashi shular jumlasidandir. Ushbu Kengash a‘zo davlatlarning hukumat boshliqlari dan tashkil topgan edi. Ikkinchi yirik tashkilot bu Yevropa Komissiyasi bo‘lib, ushbu tashkilot a‘zo davlat rahbarlaridan iborat edi. Ushbu Yevropa Komissiyasi barcha YelHga a‘zo davlatlar ustidan Yevropa integratsiyasi miqiyosida o‘z nazoratini o‘rnatgan edi. Shuningdek, YelHni tashkil qilish to‘g‘risidagi kelishuvda Yevropa Parlamenti va Yevropa sudini tashkil qilish to‘g‘risida kelishib olingan edi. XX asrning 60 yillarining boshlarida iqtisodiy yutuqlardan taosirlangan YelHga a‘zo davlat rahbarlari endi darhol Yevropa integratsiyasiga siyosiy tus berishga o‘rindilar.

1965 yilda YeKPB, YeIH, Yevratomning yagona birlashmaga birlashishi haqida YelHga a‘zo 6 ta davlat kelishib olishdi. Endi yangi Yevropa integratsiyasi bosqichi Yevropa Hamjamiyati deb atala boshladi. Aynan ushbu voqeadan so‘ng YeH ga a‘zo davlatlar Yevropa sudi va Yevropa Parlamentini amalda tashkil qilish haqida kelishib olindi. Yevropa sudi a‘zo davlatlarning Yevropa Hamjamiyati miqiyosida o‘z majburiyatlarini ijrosini o‘z nazorati ostiga oldi. Yevropa Parlamenti esa YeH hududida majburiy bo‘lgan quyidagi 3 xil huquqiy-normativ hujjatlar chiqarish vakolatiga ega bo‘ldi. Bo‘lar qaror, direktiva va reglamentlardir.

1984 yil 14 fevralda Yevropa parlamenti tomonidan Yel ni yaratish bo‘yicha Alchido Spinelli boshchiligidagi Komitet tuzildi. Ushbu ittifoqni yaratishdan asosiy maqsad YeH ga a‘zo davlatlarning iqtisodiyot, pul siyosati, sog‘liqni saqlash va tashqi siyosat sohalarining uyg‘unlash-tirish maqsadida ushbu vakolatlarni yangi Yel ixtiyoriga o‘tkazish edi.

Yagona pul birligi yevroning 2002 yil 1 yanvardan naqd muomallaqa kiritilishi va 12 a‘zo davlatni (Britaniya, Daniya, Shvetsiyadan tashqari) qamrab olgan yevro hududni barpo etilishi, shubhasiz, integrasion taraqqiyotdagi yangi bosqichdir.

Biroq, yevroning Yevropa Ittifoqi integratsiyasidagi o‘rnii uning iqtisodiy ahamiyati bilangina cheklanmaydi. Eng muhim

siyosiy oqibatlardan biri – davlatlarning pul zarb qilish va milliy pul siyosatini o‘tkazish vakolati tashkilot zimmasiga o‘tishi barobarida

davlatlar o'z suverenitetlarining yana bir atributidan mahrum bo'ldilar.

Shu munosabat bilan Yevropa Ittifoqidagi integratsiya jarayonlari mobaynida to'llangan tajriba muhim ahamiyatga ega ekanini taokidlash o'rinnlidir. Mazkur ittifoqning 50 yillik taraqqiyoti davrida to'rtta asosiy bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin. Bo'lar integratsiya jarayonining samaradorligi va tashkiliy shakllari jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Birinchi bosqich - 1950 yillarning boshlarida Yel tashkil topgan vaqtidan buyon to 1970 yillarning boshigacha bo'lган davrni qamrab oladi. Ana shu davr mobaynida Yel qatnashchilari bojxona ittifoqini yaratishga muvaffaq bo'ldilar (ana shu davr mobaynida o'zaro savdodagi soliqlar bekor qilindi, tarif bobidagi cheklashlarning miqdoriy turi va boshqa bir qancha turlari bekor qilindi). Uninchi davlatlarga nisbatan yagona qishloq xo'jaligi va savdo siyosati qaror topishiga sarmoya va ishechi kuchi harakatining erkinlashtirilishiga asos solindi.

YeIga a'zo bo'lган mamlakatlarda 1964 yilda qabo'l qilingan yagona qishloq xo'jaligi siyosati katta samara berdi. Mazkur siyosat ushbu mamlakatlarning ichki ishlab chiqarishini ko'tarishga imkon berdi. Ular mahsulotning eng muhim turlari bilan o'z aholisini taominlay boshladi va shu tufayli uchinchi mamlakatlardan import kamaydi.

1970 yillarning boshida Yevropa Ittifoqida tamoman yangi vaziyat tarkib topdi. Bu integratsiyaning ikkinchi bosqichi boshlanganidan dalolat berar edi.

Ikkinci bosqich 1970 yillarning boshida sodir bo'lган valyuta - moliya va yonilg'i xom ashyo tangliklari Yevropa Ittifoqida integratsiyani chuqurlashtirish jarayonini amalga oshirishni mushqo'llashtirdi. Baozi yo'nalishlarda, masalan, sarmoyalar harakatini erkinlashtirish bobida orqaga chekinish ham sodir bo'ldi. YeIga a'zo bo'lган mamlakat o'rtasida budjet moliya masalalari xususidagi ixtiloflar kuchaydi. Yevropa Ittifoqiga endigina a'zo bo'lган mamlakatlar, ayniqsa, Buyuk Britaniya, muammolarni birgalikda bartaraf etish bobida Yelda tarkib topgan ayrim tamoyillarni o'zgartirishga zo'r berib harakat qildilar.

Kurslarni tartibga solishdagi bu tizimda EKYu (Yevropa valyuta birligi) markaziy mavqeni egalladi, EKYu YeIga a'zo bo'lган mamlakatlar valyutalari rasmiy kurslari hisob-kitobi uchun hamda ana shu valyutalar bozor kurslarining harakatini nazorat qilib turish uchun negiz bo'ldi. Shu taxlit boshqarish, shuningdek, valyuta bozorlaridagi Markaziy banklarning anonaviy intervensiysi yo'li bilan ham ayrim valyutalar kursini bevosita EKYuga nisbatan boshqarish ham amalga

oshirildi. EKYU hisob-kitob, to'lov va zaxira vazifalarini juda cheklangan miqyosda va valyuta munosabatlarining ancha tor sohalarda bajardi. Bu esa ilm-fan yutuqlari keng ko'lamda qo'llaniladigan tarmoqlar taraqqiyotidagi qoloqlikni yana ham chuqurlashtirdi, Umuman xo'jalik ravnaqining sekinlashuviga olib keldi. Yevropa Ittifoqining mustaqil kuch sifatida qaror topishini mushqo'llashtirdi.

Uchinchi bosqich. 1980 yillarning o'rtasiga kelib Yevropa Ittifoqi o'z ravnaqining qaltis dovoniga yetib keldi. Jahondagi iqtisodiy va siyosiy vaziyat tez o'zgarib borayetgan bir sharoitda Hamjamiyat oldida bir qancha murakkab muammolar ko'ndalang bo'ldi. Bo'lar /arbiy Yevropa sanoatining raqobatbardoshligini ko'tarish zarurati bilan hamda AQSh va Yaponiyadan texnologik jihatdan orqada qolishini bataraf etish bilan bog'langan edi. Yevropa Ittifoqini turg'unlikdan chiqarish maqsadida qatoiy chora-tadbirlar ko'rish uchun Yelga a'zo bo'lган mamlakatlarning hukumatlararo koferensiyasi chaqirildi. Konferensiyada yagona Yevropa hujjati (YaEH) imzolandi, Bu yangi hujjat o'z ahamiyati jihatidan Yevropa Hamjamiyatini ta'sis etish to'g'-risidagi muhim hujjatlarga tenglashtirdi. YaEH mazkur Hamjamiyatga a'zo bo'lган 12 mamlakatning milliy parlamentlari tomonidan ratifikatsiya qilindi va 1987 yilning 1 iyulidan boshlab amal qila boshladi.

YEHning imzolanishi Garbiy Yevropada integratsiyaning ravnaq topishida yangi bosqich bo'ldi. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: yagona ichki bozorni shakllantirishni yakunlash, integratsiya doirasini kengaytirish (uni fan va texnikaga joriy etish, valyuta munosabatlari, atrof-muhitni muhofaza etish) hamda Yevropa Ittifoqining millatlar doirasidan chiqib ketishini kuchaytirish. Integratsiya jarayoniga tashqi siyesat masalalarining ham qo'shilishi mazkur bosqichning sifat jihatdan yangi unsuri bo'ldi. Bu esa Yevropa Ittifoqini mustaqil "siyosiy birlikka" aylantirish tendensiyasini kuchaytirdi.

Yel taraqqiyotining to'rtinchı bosqichida valyuta integratsiyasi jarayoniga jo'shqinlik baxsh etishga yana bir karra urinish bo'ldi, 1990 yilning dekabr oyida Rim shahrida bo'lib o'tgan Yelga a'zo bo'lган mamlakatlarning xukumatlararo konferensiyasida iqtisodiy va valyuta ittifoqi to'g'-risidagi Bitimni tayyorlashga qaror qilindi. Ana shu hujjatning qabo'l qilinishi Yelga a'zo bo'lган mamlakatlar iqtisodiyotini yanada mustahkam muvofiqlashtirib turishga, barcha valyutalarining Yevropa valyuta ittifoqiga to'la-to'kis qo'shilishiga, hamjamiyat Markaziy banklari boshqaruvchilari qo'mitasi huquqlarining kengay-

shiga imkon berdi. Ana shu bitim asosida Markaziy banklarning Yevropa tizimi (MBET) tuzildi. Bu tizim biror-bir mamlakat boshqaruvi milliy idoralarida batamom mustaqildir va Yevropa Ittifoqi valyuta va bank sohalarini tartibga solib turadi. Bundan tashqari, ushbu bitimga ko'ra qatoiyat bilan belgilab qo'yilgan valyuta kurslariga o'tish, Yevropa Ittifoqining yagona valyutasi yevroga o'tish (bu voqeа 1999 yilda sodir bo'ldi) hamda YeIga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlarning oltin-valyuta rezervlarini Yevropa Markaziy banki (Mayndagi Frankfurt shahri, Germaniya) nazoratiga berish nazarda tutilgan edi.

YeIning hozirgi kunda 28 ta a'zosi bo'lib, iqtisodiy integratsiyadan siyosiy integratsiyaga qarab intilayotgan tashkilot hisoblanadi. Ushbu tashkilotga a'zo davlatlar aholisi soni 450 milliondan ko'p bo'lib, uning asosiy maqsadlari demokratik tomojillarga asoslangan adolatli va ozod hududda farovon va yuqori sifatli hayot tarzini yaratish maqsadida Yevropa birligini tashkil qilishdir. Ushbu maqsadni yuzaga chiqarish uchun a'zo davlatlar dastlab iqtisodiy, so'ngra esa siyosiy ittifoqqa birlashishni niyat qilganlar. YeI faoliyatining ichki va tashqi siyosatda amalga oshirish uchun Yevropa Parlamenti, Yevropa Kengashi, Yevropa sudi, Yevropa Markaziy Banki, Yevropol va Evrosud kabi tashkilotlar yaratilgan bo'lib, ushbu tashkilot hayotidagi eng muhim masalalar Yevropa aholisi orasida referendum o'tkazish yo'li bilan o'z yechimini topadi. Shuningdek, 1992 Yil Maastricht shartnomalariga ko'ra YeI hududi bo'y lab Yevropa fuqaroligi va yagona Yevropa pul birligi yevro joriy qilingan. YeI o'z ramzlari bayrog'i va madhiyasiga ega bo'lib, ular 1986 yil Lyuksemburgda bo'lib o'tgan Yevropa Kengashida qabo'l qilingan.

YeIning vujudga kelishi borasida yuqorida keltirilgan fikrlardan qo'yidagi xulosaga kelish mumkin.

Yel hozirda ham, kelajakda ham o'ziga xos muammolarga duch keladi. P.A.Sigankovning fikriga ko'ra davlatlar o'rtasidagi hamkorlik o'rnatilishi ular orasidagi qarama - qarshiliklarni butunlay yo'qolishiga olib kelmaydi, faqatgina qarama- qarshilikning eng yomon holatlarini oldini oladi holos. Demak, har bir ittifoqdosh davlat turli maqsadlarni ko'zlar ekan, Ittifoqning qachon bo'lmasin inqirozga yuz tutishi muqarrar. Ushbu rus olimining fikrini davom ettirgan holda, YeI o'zi ko'zlagan maqsadlariga erishishi uchun avvalambor o'z aholisini yagona maqsad atrofida birlashtira olishi lozim degan fikrga kelamiz. Mening fikrimcha, unga a'zo davlatlar orasida milliy, etnik, iqtisodiy,

siyosiy farq mavjud ekan, ushbu tashkilot tomonidan olib borilayotgan islohotlar kutilgan natijani bermaydi. Yel o‘z ko‘zlangan maqsadiga erishishi uchun unga a’zo davlatlar aholisiga milliy, etnik va diniy qadriyatlardan ham yuqori turuvchi qadriyat borligini, hozirgi vujudga kelgan vaziyatda Yevropa aholisi faqat birlashibgina farovon va baxtli kun kechirishini tushuntirishi lozim. Ushbu fikiarni Yevropa fuqarolariga etkazib berishda ommaviy axborot vositalaridan unumli foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Huddi shunday islohotlar amalga oshirilsa, fransuz yozuvchisi Viktor Gyugoning aytgan fikri hayotda o‘z aksini topadi.

Agarda, Yevropa integratsiyasining tarixda va hozirda tutgan o‘rnini haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, uning eng muhim vazifasi tinchlikni saqlash ekanligiga amin bo‘lamiz. Hozirda, Yevropa integratsiyasining nima maqsadda paydo bo‘lganligi unutilib, uning faoliyati faqatgina Yevropa aholisining faravon va baxtli hayot kechirishiga qaratilgan degan fikr paydo bo‘lgan. Bunday fikrning paydo bo‘lishiga dunyo aholisining Yelning ko‘zlagan asosiy maqsadlarini oxirigacha tushunib yetmasligi, uning tashkilotlarida qabo‘l qilinayotgan qaror va qonunlar Yevropa aholisining hammasining manfaatlarini o‘zida aks ettira olmaganligiida bo‘lsa kerak. Ammo, bu tashkilotning nafaqat Yevropa qit’asi uchun, balki butun jahon hamjamiyatida insoniyat hayot jabha-sining har bir sohasida muhim o‘rin tutishi hammaga ayon. Demak, Yevropa integratsiya jarayoni nafaqat Yevropa aholisini, balki butun dunyo aholisining bugungi va kelajakdagagi taqdirida muhim ahamiyat kasb etishini unutmaslik lozim.

Yevropadagi integrasjion jarayonlarning kengayishi mumkinligi va hattoki zarurligi 1957 yil Rim shartnomasida mutahkamlanga1. 1973 yilda Yevropa integratsiyasida dastlabki kengayish yuz berdi. Yevropa integratsiya jarayoniga Angliya, Irlandiya va Daniya qo‘sildi. Angliyaning YelHga qo‘shilish uchun 1961, 1965 va 1967 yillardagi harakatlari Fransiya prezidenti Sharl de Gollning tashabbusi bilan Fransiya tomonidan Angliyaning a’zoligiga veto qo‘ylganligi sababli omadsizlikga uchradi. Sharl de Go{l}ning bu harakatlarining ham o‘ziga yarasha sabablari bor edi. U Angliyani doimo Yevropadan geografik jihatdan ajralib turganligi va ko‘p holatlarda AQSh siyosatiga yon bosishini ro‘kach qilib, agarda YeHga a’zo bo‘lsa bu Yevropa integratsiyasiga putur etkazadi deb hisoblar edi.

Shuningdek, Fransiya ushbu ittifoq miqyosdagi yetakchilikni

boshqalar bilan bo'lishishni hohlamas edi, chunki Angliya unga Yevropa integratsiyasi miqiyosida xavfli raqibga aylanar edi. Fransiya prezidenti Sharl de Goll YeH va Fransiya endi o'zining mustaqil siyosatga ega ekanligini butun jahon hamjamiyatiga ko'rsatib qo'yish uchun 1966 yil NATO harbiy tashkilotidan chiqishini e'lon qildi. Aynan shu yili NATO tashkilotining shtab kvartirasi Parijdan Bryusselga ko'chirildi. 1981 yil Gresiya, 1986 yil Ispaniya va Portugaliya Ittifoqqa a'zo bo'lib kirdi.

Faqat istisno tariqasida Fransiya qarshi bo'lgan Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga faqat 70-yillarning o'rtalarida a'zo bo'lishga erishgan Buyuk Britaniya va YeIning boshqa a'zolari kabi Parij ham inson huquqlarining jiddiy buzilishi va mamlakat siyosatida armiyaning haddan tashqari kata roli tufayli qator yillar davomida YeIga kirishga tayyor emaya hisoblab keltingan Turkiyani kiritish mumkin.

Fransiya YeI kengayishiga qulay shart -- sharoit yaratishga solmoqli hissa qo'shmaqdida. Yevropa Kengashining Parij rahbarlik qilgan 2000 yil ikkinchi yarmida YeIning kengayishi va ayrim istitusional islohotlarni ko'zda tutuvchi Nissa shartnomasi imzolandi. Ushbu hujjatda nafaqat ittifoqning kengayishishi bilan bog'liq masalalar, shuningdek, har bir davlatning manfaatlari alohida ko'rsatib o'tilgan.

YeIning kelajakdagagi kurinishi borasida Yevropa federatsiyasini qo'llab - quvvatlayotgan Germaniyadan farqli ravishda Fransiya teng huuqqli davlatlar ittifoqi konfederatsiyani yoqlamoqda.

90-yillarning boshida sobiq SSSR parchalanishi va O'zaro Iqtisodiy "rdam Kengashining tarqalib ketishi bilan Yevropaning kelgusi rivojlanishi masalasi ko'tarildi.

80-yillarning oxirida yuz bergan geosiyosiy o'zgarishlar Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari oldiga o'zlarining ichki va tashqi integratsiya siyosiy rivojlanish yo'llini topishlari zarurligini ko'rsatdi. Bunday yo'nalishlar Yevropa Ittifoqi,

Respublikasining a'zoligi to'g'risidagi shartnoma 1985 yil 12 iyunda qabo'l qilingan va 1986 yil 1 yanvardan kuchga kirgan. (JOCE n L 302 du 15.10.1985)

shuningdek, Yevropa Kengashi, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkiloti va NATO kabi bir qator Yevropa tashkilotlari edi.

Bu tashkilotlarga a'zo bo'lish sobiq sovet rejimidagi davlatlarga Yevropa Ittifoqi bozorlariga chiqish va xorijiy investisiyalarni jalb qilish imkoniyatini yaratar edi.

O'tgan asrning 90-yillarida Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari hisobiga kengayish Yevropa Ittifoqining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lisl Sharqiy Yevropa, Boltiqbo'y, Mustaqil davlatlar Hamdustligi davlatlarining muhim maqsadlari sifatida ko'rila boshlandi.

Yevropa Hamjamiyati a'zo – davlatlari 90 – yillar boshlarida Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari bilan nafaqat iqtisodiy yordam, balki yanada faol siyosiy aloqalar olib borish zarurligini anglab yetishdi. Ko'plab bahs -- munozaralarga sabab bo'gan Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining YeI bilan birlashishi g'oyasi 80 – yillarning oxirida payda bo'ldi.

1990 yil yanvar Dublinda bo'lib o'tgan tashqi ishlar vazirlari uchrushuvida birlashishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqildi.

1992 yil iyunda Lissabonda Yevropa Kengashining sammitida MShE davlatlariga har tomonlama yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabo'l qilingan bo'lsada a'zolikning aniq tamoyil va kreteriyalari ishlab chiqilmadi. Lissabon sammitining asosiy yutug'i «integratsiyaning kengayishi va chuqurlashishi parallel olib borilishi, kengayish integratsiyaning chuqurlashishi darajasini pasaytirmasligi lozimligi1 » borasida qaror qabo'l qilindi.

O'sha davrdan boshlab, «o'n ikqilar» iqtisodiy jihatdan yuksalish pallasiga kirdi. 1993 yilga kelib ularning jahon savdo aylanmasidagi ulushi 20 foiz eksport va 19,2 foiz import bilan qayd etildi. 1994 yil Avstriya, Finlandiya, Shvetsiya YeIga teng huquqli a'zo bo'lib kirish iltimosnomalari bilan chiqishadilar va 1995 yil YeIning teng huquqli a'zolariga aylanishadi.

Integratsiyaning bu tahlit chuqurlashuvi uning muttasil kengayib borishiga zamin hozirladi. 1995 yil Avstriya, Shvetsiya va Finlandiya tashkilotga a'zo bo'lib kirdi3. Bu davrga kelib, 15 ta katta-kichik davlatlarni birlashtirgan Yevropa Ittifoqi tashkiloti 3.234 ming kv.km hududni qamrab olib, mazkur hududda 370.9 mln. aholi istiqomat qilardi. Uning jahon bozoridagi eksporti umumiy miqdorning 20.2 foizi, importi esa 17.9 foizini tashkil etdi.

1997 yilgi Lyuksemburg sammiti YeI ning bosqichma – bosqich kengayishi to'g'risida siyosiy qaror qabo'l qildi. Bundan tashqarii doimiy harakatdagi siyosiy tavsiyalar ishlab chiquvchi forum tashkil etildi. O'sha yili Yevropa integratsiysi jarayonida yana bir muhim qadam qo'yildi. Yelda boshqaruvni yangi vujudga kelgan shart -

sharoitlarga moslashtirish uchun Amsterdam shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnomalar natijasida Yevropa Parlamentidagi deputatlar soni 700 tadan oshib ketmasligiga kelishib olindi. Shuningdek, Yevropa pul birligini joriy qilishda ayrim yutuqlarga erishish uchun Yevropa Markaziy Bankiga normativ aktlar chiqarish vakolati berildi. Shuningdek, Amsterdam shartnomasida YeIga a'zo davlatlar zimmasiga birgalikda terrorizm, kontrabanda va jinoyatchilikga kurashda o'zaro hamkorlik munosabatlarni o'rnatish yuklangan. YeI ning islohotlari 2000 yilda yangi bosqichga qadam qo'yishdi. Aynan shu yili Fransiya shahri Nisada YeIga a'zo davlatlar orasida Nissa shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnoma asosan 3 ta asosiy masalaga qaratilgan bo'lib, Rim, Maastricht va Amsterdam shartnomalarining mantiqiy davomi edi. Dastlabki masala YeI miqiyosida ichki islohotlarni o'tkazishdan iborat bo'lsa, ikkinchi masala YeIga Sharqiylar va Markaziy Yevropa mamlakatlar qo'shilishini va ularga YeIning barcha tashkilotlaridan yangi joylar ajratish edi. So'nggi masala YeIga a'zo davlatlarning umumiy mudofaa tizimi va tashqi siyosatini yaratish edi.

YeI ning Sharqqa kengayishi siyosiy va iqtisodiy jihatdan muhim bo'lgan Lyuksemburg (1997) va Xelsinki (1999) sammiti qarorlari dorasida amalga oshirildi.

A'zolikka rasmiy nomzod davlatlar sifatida muzokaralar jarayoni 1998 yil 31 martda boshlangan Lyuksemburg guruhi davlatlari – Vengriya, Polsha, Estoniya, Chexiya, Sloveniya va Kipr, hamda muzokaralar jarayoni 2000 yil 15 fevralda boshlangan Xelsinki guruhi davlatlari – Bolgariya, Latviya, Litva, Malta, Ruminiya va Slovakiya e'lon qilindi.

YeIga a'zo bo'lish uchun nomzod davlatlar qo'yidagi talablarga javob berish lozim edi:

birinchidan, a'zo bo'lishni hohlayotgan davlatda demokratik tamoyillarga rivoja qilinishi va mamlakatda inson huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat hisoblanishi;

ikkinchidan, davlat iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo'lib, Yevropa umumiy bozorida vujudga kelgan raqobatga dosh berish qobiliyatiga ega bo'lishi;

uchinchidan, YeI tomonidan shu paytgacha qabo'l qilingan qonun va qarorlarni o'ziga majburiyat sifatida qabo'l qilishi lozim edi.

YeIning kengayishiga sabab ushbu integratsiya jarayoning vujudga kelishida asosiy tashabbuskorlardan bo'lgan Fransiya va Germaniya kabi davlatlarning ushbu ittifoqning taosir doirasini kengaytirish

hohishi mavjudligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ushbu yangi a'zo mam'lakatlardan arzon hom ashyo mavjudligi ularning Yevropa integratsiyasi jarayoniga kirishishiga yana bir sabab bo'lsa, ikkinchi bir sabab ularning geografik joylashuvidir.

XXI asrning birinchi o'n yilligida Ittifoq yana 13 nafar yangi a'zo davlatlarni o'z safiga qabo'l qiladi. 1998 yil 31 martda Kipr, Estoniya, Vengriya, Polsha, Chexiya, Sloveniyadan iborat dastlabki otilik bilan boshlangan muzokaralar doirasi 2000 yil 15 fevraldan Bolgariya, Latviya, Litva, Malta, Ruminiya, Slovakiya hisobiga kengaydi. 1999 yil 11 dekabr Yevropa Ittifoqi Xelsinki Kengashi a'zolikka nomzodlar qatoridan Turkiyaga ham o'rin berdi. Ana shu holatda kelgusi o'n yillikda Hamjamiyat a'zolari 28 nafarni tashkil etib, hududi yana 2 mln. km\* ga, aholisi esa 160 mln. ga ko'payadi. 2002 yil 13 dekabr kuni Kopengagen shahrida Yevropa Kengashi yig'ilishida Yelga a'zo bo'lishga intilayotgan 10 ta Markaziy va Sharqiylar Yevropa davlatlariga 2004 yil 1 may kunidan ular Yel a'zosi bo'lishi e'lon qilindi. Shuningdek, ushbu yig'ilishda Bolgariya va Ruminiya 2007 yilda Yel ga a'zo bo'lishi mumkinligi, Turkiya bu tashkilotga a'zo bo'lish masalasi esa 2004 yil bo'lib o'tadigan Yevropa Kengashi yig'ilishlarida o'z javobini topadigan bo'ldi. 2003 yil 16 aprelda esa 10 ta yangi a'zo davlatning Yelga a'zolikga kirishi to'g'risida shartnoma imzolandi. 2004 yil 1 may kuni Sloveniya, Slovakiya, Latviya, Litva, Estoniya, Kipr, Malta, Polsha, Vengriya va Chexiya Yelga teng huquqli a'zo bo'lib kirishdi. Ushbu 10 ta davlatning Yevropa Ittofoqiga a'zo bo'lishining o'ziga yarasha sabablari bor edi. Ushbu 10 ta davlatning deyarli hammasi milliy iqtisodiyotning saviyasi past darajada bo'lganligi sababli ularning Yevropa integratsiyasi jarayoniga tortilishida ko'proq iqtisodiy maqsadlar, yaoni chet el invesisiyalar yordamida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, 389 million isteomolchiga ega bo'lgan Yevropa Umumiy Bozoriga chiqish va boshqalar. Yel ham ushbu yangi a'zolarni o'z qaramog'iga olar ekan, u o'z taosir doirasini deyarli butun Yevropaga yoyib, o'z tarkibiga dunyo davlatlarining 10 % ni tashkil qiluvchi davlatlarni jalb etdi va xalqaro munosabatlarda eng katta siyosiy, iqtisodiy tashkilotga aylandi.

Ammo, bu Yelning so'ngi kengayishi emas, chunki 2004 yil 13-16 dekabr kunlari agarda 2005 yil yakuniga qadar ayrim talablar bajarilgan taqdirda Xorvatiya va Turkiyaning ushbu tashkilotga a'zo bo'lib kirishi bo'yicha muzokaralarni boshlashga kelishib olindi.

Chunonchi, bundan hozirgi integrasion jarayonning muhim bir xususiyatini ilg'ab olish ham qiyin emas: o'z tarixida Hamjamiyat bu qadar tez suroatlар bilan kengaygan emas edi. O'tgan 45 yil ichida (1951-1995) uning a'zolari soni 15 taga ko'paygan holda, keyingi o'n yillikda ularning soni 28 taga yetmoqda. Bu tarzagi tezkor integratsiya bir qator muammolarni ham keltirib chiqarishi ehtimoldan uzoq emas. Jumladan, oldindan rejalashtirilgan bиринчи "o'nlik"ni a'zolikka qabo'l qilish 100 mlrd. yevro harajatni talab etadi. Qolaversa, ruhiy-psixologik tomonidan, Yevropa Ittifoqi aholisi orasida yangi "jamiatdoshlar"ga nisbatan ishonch hissi ham hali shakllanib ulgurmagan. Shuning uchun ham Hamjamiyat aholisining uchdan bir qismi Yevropa Ittifoqining keyingi istiqbollariga shubha va xavotir bilan qaramoqdalar. Agarda bo'lib o'tgan integratsiya jarayonlari va shu borada tuzilgan shartnomalarga nazar tashlasak, Yel federativ davlat shakllarni va xususiyatlarini o'zida aks ettirishga intilayotganligiga guvoh bo'lamiz. Nega aynan Yevropa integratsiya jarayoni konfederativ emas, balki federativ xususiyatlarni o'zida aks ettirayotganligi quyidagi muhokamada oydinlashadi.

Ma'lum bir MNR ga kiruvchi davlatlar iqtisodiy va geosiyosiy va periferiya markazlar sifatida xarakterlanadi. Shu tarika, AQSh va Yaponiya dunyodagi iqtisodiy buyuk derjava bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, quyidagilar ajratib ko'rsatiladi: «Shimol katta yettiligi»-AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Kanada; «Janub katta yettiligi»-Xitoy, Hindiston, Braziliya, Indoneziya, Meksika, Janubiy Koreya, Tailand. Bu bo'linish shartli hisoblanadi. Masalan, Xitoy to'laqonli huquq bilan «Shimol yettiligi» ga kirishga da'vo qilishi mumkin, bir vaqtning o'zida jahon moliyaviy inqirozidan sung Rossiya ramziy sifatda davlatlarning ushbu guruhibiga, Indoneziya va Tailan esa janubning yetakchi davlatlariga kirishi mumkin. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Rossiya XX asr so'nggida, hatto, "Janub yettiligi"ga ham yon berdi.

Garbnинг rivojlangan postindustrial davlatlari qatoriga AQSh, Yaponiya, Garbiy Yevropa, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Isroi kiradi. Iqtisodiy hamkorlik va tarakkiyot tashkiloti (GOSR) o'z qatoriga yukorida sanab utilgan davlatlardan tashkari, shuningdek Meksika, Vengriya va Polsha davlatlarini kushadi.

Rivojlanayotgan davlatlar orasida Sharqiy Osiyo yangi industrial davlatlari (YALD), Lotin Amerikasi va Yaqin Sharq davlatlari ajralib

turadi. Asosiy o'rinni ijtimoiy xaos hukm surayotgan Qora Afrika davlatlari egallaydi.

Sotsialistik tizim va SSSR parchalanganidan sung Markaziy-Sharqiy Yevropa va MDH davlatlari guruhi ayniqsa ajralib turadi. Bu-«demokratik tranzitlar» deb nomlanuvchi o'tish iqtisodiyotli davlatlardir.

XX asrning oxirgi 20 yili davomida G'arb mamlakatlari Jahan yalpi mahsulotida ham, sanoat ishlab chiqarish va xalqaro savdoda ham o'z ulushini ko'paytirmadi. Yaponiya mavjud bo'lgan barqarorligini yo'qotdi, AQSh esa usishning yukori bo'limgan sur'atlarini saqlab koldi. Nisbatan yukori dinamiklik sharqiy Osiyo mamlakatlari, ayniqsa Xitoy va YaID da ko'zda tutilgan edi.

Agar davlatlar guruhini XX asrning oxirgi 10 yilligi davomidagi jahon sanoat industriyasidagi ulushini qiyoslasak, rivojlangan davlatlarning ulushi 53% dan 46% gacha qisqarganini kurish mumkin. Ommaviy mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarish sekin-asta Shimoliy Atlantika mintaqasidan Osiyo-Tinch okeani Mintaqasiga (OTM) (Yaponiyadan tashkari), Hindiston va Lotin Amerikasiga kuchmokda.

Milliy davlatlarning bir-biriga bog'liqligi globalizatsiya sharoitlarda iqtisodiy, moliyaviy va texnologik sohalarda nisbatan tulik holda namoyon bo'lmoskda. Bu yerdan xalqaro munosabatlар subyektlarining o'zaro aloqasiga, eng avvalo davlatlar, ularning milliy manfaatlari, xavfsizlikka intilish, dunyodagi farovonlik va barqarorlikka yo'naliшgа ehtiyoj kelib chiqadi<sup>1</sup>.

Davlatlarning ikki tomonlama bog'liqligini kuchaytirgan holda, globalizatsiya bilan bir qatorda, mintaqlashuv (regionalizatsiya) ham tegishli siyosiy tuzilishga, ya'ni zamonaviy jarayonlarning talab va shart-sharoitlariga javob beruvchi xalqaro munosabatlarga ega bo'lishi lozim. Bu davlatlar o'z milliy manfaatlardan voz kechishi kerak degani emas. Hozirda mavjud bo'lgan davlatlarning 2/3 qismi XX asrda, eng avvalo, xalqaro munosabatlarning ikki qutbli tizimi va mustamlaka tizimning yemirilishi natijasida vujudga keldi. XXI asrda davlat jamiyat namoyondasi, uning suveren hokimiyatining amalga oshiruvchisi sifatida hali uzoq muddat xalqaro munosabatlarning tizimida ham uning asosiy namoyondasi sifatida chiqadi va ularning tartibga soluvchisini ikki tomonlama, mintaqaviy va global darajalarda ishlab chikishda ishtirok etadi.

<sup>1</sup> Petty Pain and Gilles Van Hamme. Changing urban and regional relations in a globalizing world. 2014. -P. 95.

Faol geostrategik faoliyat yurituvchi davlatlar ayniqsa ajralib turadi. Bunday davlatlar mavjud bo'lgan geosiyosiy holatni o'zgartirish uchun xokimiyatni amalga oshirish va o'z chegaralaridan tashkarida ta'sir ko'rsatish kobiliyati va milliy ixtiyoriga ega. Ular, geosiyosiy nuktai nazardan, o'zgaruvchanlik saloxiyati va/yoki moyilligiga ega. Qanday sabab bilan bo'lmasin-milliy buyuklikka, mafkuraviy amalga oshirilganlik, diniy mesiyanlik yoki iqtisodiy yuksalishga intilish-ba'zi davlatlar Mintaqaviy xukmronlik yoki butun dunyo mashtabida o'rinni egallashga harakat qilishadi. Mashxur amerikalik siyosatchi Z. Bjezinskiy shunday o'ylaydi. Uning bergan xarakteristikasiga kura, davlatlar orasida geosiyosiy markazlar ajralib turadi. Bu shunday davlatlarki, ularning ahamiyati ularning kuchi va motivatsiyasidan emas, balki ularning muhim joylashuvi va geostrategik jihatdan harakat qilayotgan davlatlar tomonidan harakat qilish uchun ularning saloxiyat jihatdan nozikligi oqibatlaridan kelib chiqadi.

Ko'pincha geosiyosiy markazlar o'zlarining geografik joylashuvi bilan shartlanadi, bunday joylashuv ularga muhim rayonlar ustidan nazorat qilishga yo'l ochadi, yoki muhim geosiyosiy faoliyat yurituvchi davatlarga resurslarni kulga kiritishda rad javobini berish imkoniyati borasida o'ziga xos o'r'in beradi. Boshqa hollarda geosiyosiy markazlar geosiyosiy maydonda hayotiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlatlar va hatto Mintaqalar uchun qalqon sifatida xizmat qilishi mumkin<sup>1</sup>.

Z.Bjezinskiyning fikriga kura, hozirgi kunda kamida 5 ta asosiy geostrategik faoliyat olib boruvchi va 5 ta yangi Yevrosiyo siyosiy xaritasida harakat qiluvchi tomonlar mavjud. Fransiya, Germaniya, Rossiya, Xitoy va Hindiston yirik va faol figuralar hisoblanadi, juda muhim davlatlar deb tan olingan Buyuk Britaniya, Yaponiya va Indoneziya esa bu guruhga kirmaydi.

Ukraina, Ozarbayjon, Janubiy Koreya, Turkiya va Eron davlatlari prinsipial muhim geosiyosiy markazlar rolini uynaydi, garchi Turkiya ham, Eron ham qandaydir darajada-tobora chegaralangan o'z imkoniyatlari doirasida-geosiyosiy jihatdan faol davlatlar bo'lib hisoblanadi.

O'z masshtablari bo'yicha o'rta va kichik bo'lgan, hamda ko'pchiligi NATO va/yoki Yel ning a'zolari bo'lgan Yevropa mamlakatlari, yoki AQShning yetakchiligidagi amal qiladi, yoki Germaniya yoki

<sup>1</sup> Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. –T.: O'qituvchi, 2008. – Б. 68.

Fransiya ketidan turadi. Ular na geostrategik jihatdan faoliyat yurituvchi, na geosiyosiy markazlar bo'lib hisoblanadi. Milliy davlatlar bilan bir qatorda, MNR tarkibiga MNK, mega polislar, davlatlararo xalqaro tashkilotlar kiradi. Bunday tashkilotlar mintaqaviy integratsiya, xavfsizlikni ta'mintash, ekologik va boshqalar kabi bir davlatning kuchi bilangina xal qilinishi mumkin bo'limgan muammolarni hal etish uchun yaratiladi.

#### **Seminar savollari:**

1. Juhon siyosatida xalqaro tashkilotlarning roli qanday?
2. Juhon siyosatida mintaqaviy tashkilotlarning tutgan o'rni qanday baho bering.
3. Juhon siyosatida harbiy bloklarni o'rni qanday?

#### **Mustaqil ishlar topshriqlari:**

1. "Katta yettilik" va "G 20"ga a'zo davlatlarining jahon siyosatidagi roliga bag'islangan taqdimot tayyorang.
2. Juhon siyosatida Yevropa davlatlarining ahamiyatini yoritishga bag'islangan davra suhbatini tayyorlang.
3. Juhon siyosatida BMTning roli qanday bo'lmoqda?

### **Ma'ruza № 8. ZAMONAVIY DUNYODA INTEGRATSION JARAYONLAR**

#### **Reja:**

1. Zamnaviy dunyoda mintaqaviy integratsiya hodisasi
2. Integratsion jarayonning asosiy qonuniyatları
3. Integratsiya nazariyasining asosiy maktablari
4. Mintaqaviy integratsiya

**O'quv mashg'ulotning maqsadi:** Zamnaviy dunyoda integratsion jarayonlarning kechishi va jahon siyosatiga ta'siri xususida ma'lumot berib o'tishdan iborat.

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

- Mintaqaviy tashkilotlar
- Hududiyliz nizolar
- Urush
- Nizo
- ittifoqlar

## *Zamonaviy dunyoda mintaqaviy integratsiya hodisasi*

Integratsiya (lot. integratio - tiklash, to'ldirish, integer - butun so'zidan):

- 1) sistema yoki organizmning ayrim qismilari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shuday holatga olib boruvchi jaryonni ifodalaydigan tushuncha;
- 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differensiatсиya bilan birga kechadi;
- 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish

Zamonaviy dunyoda mintaqaviy integratsiya hodisasi. Integratsion jarayonning asosiy qonuniyatları. Integratsiya nazariyasining asosiy maktablari. Mintaqaviy integratsiya misollari.

Iqtisodiy integratsiya - turli korxona va tarmoqlarning, shuningdek, mamlakatlarning ishlab chiqarish sohasida bir-biriga yaqinlashuvi, ular o'rtasida uzviy iqtisodiy aloqalar o'natalishi, mamlakatlararo yagona umumiyo xo'jalikning shakllanishi jarayoni. Iqtisodiy integratsiya butun bir mamlakatlar milliy xo'jaliklari darajasida, shuningdek, korxonalar, firmalar, kompaniyalar, korporatsiyalar darajasida ham kuzatiladi. Iqtisodiy integratsiya ishlab chiqarish-texnologik aloqalarning kengayishi va chuqurlashuvida, resurslardan hamkorlikda foydalananish, kapitallarni birlashtirishda hamda iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida bir-biriga qulay sharoitlarni yaratishda, o'zaro to'siqlarni olib tashlashda namoyon bo'ladi. Mehnat taqsimoti tusayli ayrim mahsulotlar emas, balki detallar ham ixtisoslashgan korxona va tarmoqlarda ishlab chiqariladi. Shu tariqa korxona va tarmoqlar o'zaro yaqin va muntazam iqtisodiy aloqa bog'laydi. Avvalo, korxonalar o'rtasida iqtisodiy integratsiya yuz beradi va ularning birlashmasi vujudga keladi, so'ngra iqtisodiy integratsiya tarmoqlararo miqyosda yuz berib, yirik ishlab chiqarish majmualari paydo bo'ladi. Bir tarmoq doirasida gorizontal integratsiya, tarmoqlararo esa vertikal iqtisodiy integratsiya yuz beradi. Vertikal iqtisodiy integratsiyaga agrosanoat majmui misol bo'ladi, u qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati va boshqalarni o'z ichiga oladi. Mehnat taqsimoti xalqaro miqyosda amalga oshishi bilan xo'jalik hayoti baynalmilallahadi, moddiy mahsulot yaratishda turli mamlakatlarda korxona va tarmoqlar qatnasha boradi, binobarin, mamlakatlararo iqtisodiy integratsiya yuzaga keladi, buning natijasida mamlakatlar

iqtisodiyotida ixtisoslashish yuz beradi va mamlakatlar bir-birlariga mahsulotlar va xizmatlar yetkazib beradi. Shu sababli hozirgi davrda xalqaro Iqtisodiy integratsiya eng yuqori darajadagi va yetakchi integratsiya ko'rnishi hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya uzoq davom etadigan ko'p bosqichli jarayon bo'lib, turli shakllarda yuz beradi. Birinchi bosqichda turli mamlakatlar o'rtaida erkin savdo-sotiq olib boriladigan, bojxona to'lovlari, eksport kvotalari bekor qilingan erkin savdo zonalari tashqil etiladi. Natijada davlatlararo tovar ayirboshlashda integratsiyalashuv yuz beradi. Ikkinci bosqichda erkin iqtisodiy zonalar shakllanib, bu yerda ham bir necha mamlakatlar birlashadi. Bu bosqichda institutegratsion aloqalar savdo-sotiq bilan cheklanmasdan sanoat, bank, sug'urta ishi va texnologiya sohasida ham yuz beradi. Bu zonalar ochiq iqtisodiy hududlar hisoblanadi, iqtisodiy aloqalar erkin va ko'p qirrali bo'lib, barcha iqtisodiyot sub'yektlari imtiyozlarga ega bo'ladir.

Uchinchi bosqichda umumiy bozor shakllanadi. Umumiy bozorni tashqil etgan mamlakatlarning milliy bozorlari bir-biri uchun ochiq bo'ladi, amalda milliy bozorlar birlashib, mamlakatlararo umumiy bozor vujudga keladi. Bu bozorda barcha tovarlar erkin, hech bir cheklovgarsiz ko'chib yuradi. Ish kuchi, kapital va tovarlar bir mamlakatdan boshqasiga o'tadi, qaysi mamlakatda resursni ishlatalish qulay bo'lsa, u shu yerga borib joylasha oladi. Umumiy bozorda iqtisodiy chegaralar amalda bekor qilinadi, bojxona to'lovlari, eksport kvotalari, tovar sifatiga talab minimal darajaga keltiriladi. Umumiy bozor dastlab 1957 y.dan Yevropada shakllangan (q. Yevropa Ittifoqi). To'rinchi bosqichda iqtisodiy va valyuta ittifoqi doirasida integratsiya yuz beradi. Bu yerda institutegratsion aloqalar savdo-sotiq va ishlab chiqarish bilan cheklanmay, moliya, pul muomalasi va bank tizimiga ham kirib boradi. Yevropa Ittifoqiga kirgan mamlakatlardan 12 tasida 2000-2001 yillarda umumiy pul - yevro muomalaga kiritildi, milliy pullar muomaladan asta-sekin chiqarildi, yagona soliq tizimi joriy etildi, milliy byudjetlar saqlangan holda yagona, umumiy byudjet ham tuziladigan bo'ldi. XXI asr boshlaridagi integratsiyaning eng yuqori shakli bo'lган Iqtisodiy va valyuta ittifoqi mamlakatlar iqtisodiyotini yuksak darajada birlashtiradi, iqtisodiy umumiyligka ustuvorlik beradi, ammo ayrim mamlakatlar mustaqilligini ma'lum darajada cheklaydi (milliy parlamentlar va hukumatlarning bir qator vakolatlari Yevropa Ittifoqining umumiy organlariga berilgan).

Hozirgi davrda jahoning boshqa mintaqalarida ham integratsiya jarayonlar jadal bormoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, AQSh, Kanada va Meksikani birlashtirgan Shimoliy Amerika uyushmasi, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (ASEAN), Tinch okean regional uyushmasi (ATES), Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar o'rtaSIDA integratsion hamkorlik kuchayib bormoqda. 1991-2002 yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy integratsiyasini chuqurlashtirish yo'lida jiddiy ishlar amalga oshirildi: zaruriy huquqiy va tashqiliy shartsharoitlar yaratildi, davlatlararo kengash tuzildi, ijroiya qo'mita, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashqil etildi.

Suveren davlatlar o'rtaSIDagi alohida turdag'i o'zaro munosabatlarni aks ettiruvchi integratsion jarayonlarni o'rganishga xalqaro huquq doirasida, shuningdek boshqa ilmiy fanlar doirasida ham (xalqaro munosabatlar, jahon iqtisodiyoti va boshqalar), olim va mutaxassislarining bir qancha ishlari bag'ishlangan.

Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiya jarayonlari ham bundan mustasno bo'Imadi. Ular ko'p sonli turli hil integratsion qarashlar va nazariyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu hol ajablanarli emas, chunki aynan nazariy modellarning tahlili orqali nafaqat integratsion dinamikani, balki integratsion jarayonning oxirgi natijasini ham oldindan aytish mumkin bo'ladi. Nazariy asoslarni bilish ko'r-ko'rona harakat qilishdan saqlashi bilan birga, har bir qo'yilayotgan qadamni tahlil qiliш va baholash imkonini yaratadi. Shu narsani aytib o'tish joizki, hozirgi paytda sobiq SSSR hududida kechayotgan turli shakldagi iqtisodiy va siyosiy - huquqiy jarayonlarga nisbatan bildirilayotgan tanqidiy fikrlardan shu narsani tushunish mumkinki, ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun yetarlicha nazariy baza yaratilmagan.

Endi "integratsiya" tushunchasining lug'aviy ma'nosi va bir qator tadqiqotchilarning bu boradagi mulohazalariga to'xtalsak. Mazmun va mohiyatiga ko'ra "integratsiya" tushunchasi ko'p qirralidir. Shu boisdan uni amaliyotda qo'llanilayotgan sohasiga qarab talqin qilishga ehtiyoj seziladi. Jumladan, u davlatlararo aloqalarga nisbatan qo'llanilganda, mustaqil subyektlarning (muayyan maqsadlarni ko'zlab) ixtiyoriy ravishda hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishini yoki shu maqsadda tegishli chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishlarini nazarida tutadi. Aytish joizki, bunday birlik (davlatlar hamkorligi) amaliyotda ishtirok etuvchilarning guruh munosabatlari majmuasinigina

o‘zida aks ettirmaydi. Negaki, har qanday integratsion jarayon unda ishtirok etuvchilarning arifmetik yigindisigina bo‘lmasdan, u o‘zining namoyon bo‘lishi va qamroviga ko‘ra ko‘lami kengdir.

Mavjud ijtimoiy-siyosiy fanlarga doir ensiklopedik lug‘atlarda “integratsiya” tushunchasiga turlicha izoh berilgan. Bir tomondan, ularning aksariyatida tushunchaning lug‘aviy ma’nosи bir xil bo‘lsada, ikkinchi tomondan, “integratsiya” tushunchasi mazmun va mohiyat jihatidan turlicha (siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, huquqiy va b.) talqin qiladilar. Masalan, “Slovar inostrannix slov” nomli lug‘atda “Integratsiya - bir xil ijtimoiy tuzumga ega bo‘lgan ikki yoki undan ortiq davlatlar milliy xo‘jaliklarining o‘zaro moslashuvi yoki birlashish jarayonidir”, -deyiladi.

Konovalova V.N. tahriri ostida chiqqan lug‘atda tushunchaga siyosiy tomondan izoh berishga harakat qilingan, ya’ni: “Integratsiya - siyosiy institutlar, davlat yoki davlatlararo doirada ma’lum bir siyosiy umumiylamma, davlat va jamiyat rivojlanishida barqarorlikka erishish maqsadida turli xil siyosiy kuchlarning o‘zaro qo‘shilishi yoki birlashishidir”.

A.Gromiko rahbarligida chop etilgan “Diplomaticheskiy slovar” lug‘atida ushbu tushunchani ham siyosiy, ham iqtisodiy tomondan tizimli yondashib, izoh berishga harakat qilingan, ya’ni: “Integratsiya - siyosiy va iqtisodiy tomondan jamiyat yoki davlatning ichki holatini xarakterlovchi tushuncha sifatida talqin etilgan. Integratsion jarayonlar obyektiv asosga ega bo‘lib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va jamiyatda mavjud ilmiy-texnik revolyutsiya natijalari bilan belgilava jamiyatda mavjud ilmiy-texnik revolyutsiya natijalari bilan belgilana, shuningdek xalqaro mehnat taqsimotining kuchayishi va xo‘jaliklarning internatsionallashuvini aks ettiradi...”. Professor V.Bobkov esa, integratsiya unda ishtirok etuvchi subyektlarga shunday moddiy, intellektual va boshqa vositalarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratib beradiki, bunday imkoniyatlarga alohida olingan hech bir davlat umuman erisha olmaydi.

Integratsiya atamasi G‘arbiy Yevropa mamlakatlari davlatlararo institutlarni yaratib boshlaganda, shuningdek iqtisodiy siyosatni koordinatsiyalash va savdo erkinligini ta’minlash maqsadida iqtisodiy birlashmalarni tuzish paytida xalqaro munosabatlarda ishlatila boshlandi. Shunisi qiziqarlikki, Yevropa integratsiyasini tahlil qiluvchi olimlar orasida ushbu mintaqaga doirasidagi davlatlar integratsiyasiga nisbatan shu kungacha yagona bir nuqtai nazar ishlab chiqilmagan. Lekin shu

bilan birga, ularning hammasi integratsiya ijobiy hodisa ekanligini, shuningdek bu “ishtirok etuvchi barcha tomonlar uchun bir qator ustunliklarga ega bo‘lishga qaratilgan jarayon” sifatida e’tirof etilmoqda. Aynan Yevropa mintaqasidagi davlatlarga nisbatan Jan Monne quyidagicha fikr bildirgan:

“Agar mintaqadavlatlari o‘z milliy suverenitetlarini ustivor yo‘nalish sifatida qarab rivojlanadigan bo‘lsalar, Yevropada hech qachon tinchlik bo‘lmaydi. Chunki bunday rivojlanish davlatlarning ustunlik qilish siyosatiga va milliy iqtisodiy proteksionizmga olib keladi. Yevropa davlatlari yolg‘iz holda o‘z xalqlari uchun yetarli darajadagi turmush sharoitini yaratib bera olmaydilar. Zaruriy rivojlanish dinamikasiga faqat shu narsa bilan erishish mumkinki, bunda mintaqadavlatlari federatsiya yoki boshqa bir “Yevropa konfiguratsiyasiga” birlashadilar, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy yagonalikni keltirib chiqaradi”<sup>3</sup>. Aynan shu fikrni Markaziy Osiyoda hozirgi paytda kechayotgan hamkorlik jarayonlariga nisbatan ham qo‘llash mumkin.

Albatta, akademik B.N.Toporinning so‘zlariga qo‘shilmasdan ilojimiz yo‘q. Uning ta’kidlashicha, bugungi kunda Yevropa hamjamiyatiga kiruvchi davlatlarga “Xalqaro hamkorlik” yoki “Yevropa hamkorligi” kabi eski tushunchalarini qo‘llash va ishlatish ancha qiyin bo‘lib qoldi, chunki ular hozirgi vaqtida sodir bo‘layotgan hodisalarining tub mohiyatini ochib bermaydigan bo‘lib qolgan. Eng avvalo, integratsiya shunday hamkorlik chegaralaridan tashqariga chiqib ketish sifatida tushuniladi....»<sup>4</sup>. Shunga o‘xhash nuqtai nazar professor Yu.M. Yumashov tomonidan bildirilgan: “Hamjamiyat shunga misol bo‘la oladiki, bunda vujudga kelayotgan yangi sharoitda a’zo davlatlar “davlatlararo hamkorlik” tushunchasiga ancha keng ma’noni berib qo‘yishadi va bu narsa ular tomonidan yaratilgan tashkilot bilan o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi”.

Bunda “hamjamiyat” o‘zi uchun yetarli integratsion mexanizmiga ega bo‘lgan umumiylilik yoki tizim tarzida ko‘rsatiladi, “integratsiya” esa, ham tashqi, ham ichki o‘zgarishlarning ta’siri ostida sistemaning o‘zini-o‘zi saqlab qolish va ushlab turish imkoniyatiga ega bo‘lishi”, deb qaraladi.

A.Etzonining fikricha, “integratsiya” tushunchasi bir qator kerakli va katta ahamiyatga ega bo‘lgan elementlarni o‘z ichiga oladi:

◆ ta’sir qilishning “majburlash” jarayoni ustidan effektiv nazoratning mavjudligi;

❖ qarorlarni qabul qilish va ularni ijro etish bo'yicha javobgar bo'la o'ladigan yagona markazning mavjudligi;

❖ siyosiy faol xalq qatlaming asosiy qismiga tegishli bo'lgan siyosiy birlashish markazining yetakchilik qilishi<sup>5</sup>.

K.Doych integratsiyani davlatlarning tinch yashashini ta'minlashi mumkin bo'lgan real imkoniyat deb qaraydi. Uning fikricha, savdoni kengaytirish, odamlarning erkin harakati, madaniy almashinuvning rivojlanishi, siyosiy konsultatsiyalarning aktiv o'tkazilishi va shunga o'xshash boshqa chora-tadbirlar orqali integratsiyaga erishish mumkin<sup>6</sup>. E.Xaas integratsiyani milliy masshtabda harakat qiluvchi asosiy shaxslarni o'ziga torta oladigan yangi siyosiy ta'sir markazlarning paydo bo'lish jarayoni deb bilgan<sup>7</sup>.

"Integratsiya" tushunchasini tahlil qilishda va o'rganishda zamonaviy yondashuv shu narsa bilan xarakterlanadiki, bunda integratsiya "umumiy manfaatlarni realizatsiya qilish va hisobini olib borish maqsadida davlatlar o'zlarini yaratayotgan va hammasi uchun yagona bo'lgan yangi institutsional strukturaga o'z suverenitelarining bir hismini berish jarayoni" sifatida qaraladi<sup>8</sup>.

Integratsion jarayonlarning oxirgi natijalari to'g'risidagi savollar ham integratsion amaliyatga kuchli ta'sir qila boshladi. Integratsion jarayonning subyektlari integratsiyaning yakuniy bosqichlarini turlicha talqin qilishadi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, integratsiya tushunchasi ostida ushbu jarayon natijasida unda ishtirot etuvchi davlatlar orasida chegaralarning yo'qolib ketishi tushiniladi. Boshqa talqinga ko'ra, integratsiya tushunchasi ostida ushbu jarayon natijasida unda ishtirot etuvchi davlatlarning yagona iqtisodiy - siyosiy borliqqa birlashishi tushuniladi. Oxirgi yondashuv mintaqaviy integratsiyaga tegishli bo'lgan funksionalizm nazariyasiga xosdir<sup>1</sup>. Yana bir talqinga ko'ra, integratsiya - bu unda ishtirot etuvchi aktorlarning o'zarो iqtisodiy va siyosiy aloqalarini mustaxkamlashga qaratilgan jarayon, lekin shu bilan birga har bir davlatning davlat suvereniteti saqlanib qolishi, deb qaraladi.

Bizning fikrimizcha, ayni paytda, qayd qilingan oxirgi yo'nalish turli integratsion birlashmalarda ustинlik qilmoqda. Shu jumladan, bugungi kunda eng progressiv birlashma - Yevropa Ittifoqini ham bunga misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu struktura subyektlari qarashlarida yuqorida ko'rsatilgan barcha yo'nalish ham mavjud. Asosiy qarama-qarshiliklar milliy manfaatlar va birlashma manfaat-

larini taqqoslaganda va muvofiqlashtirish ishlarini olib borganda vujudga keladi. Odatda milliy manfaatlar birlashma manfaatlaridan ustun keladi.

Shuni esda tutish kerakki, integratsion birlashmalarda vujudga kela-yotgan turli muammolar yuzasidan munozaralar yillar mobaynida davom etishi mumkin. (Masalan, Buyuk Britaniyaning YeIga bo‘lgan munosabati). Ammo, integratsiyada ishtirok etishdan kelajakda olinadigan dividentlar hisobi unda barcha davlatlarni ishtirok etishga majbur qiladi.

Xullas, yuqoridagi fikrlar asosida quyidagi umumiy xulosalarni bildirish mumkin, ya’ni “integratsiya” so‘zi bugungi kunda nafaqat Yevropa, balki butun dunyo xalqlari leksikonida ham odatiy so‘zga aylanib bormoqda. Chunki “integratsiya”ga bo‘layotgan tabiiy ehtiyojning ortib borishini hayotning vaqt nisbatdagi ijtimoiy fenomeni sifatida baholash mumkin. Shuningdek, shakllanayotgan yangicha dunyoviy tartibotda ham integratsiyaga davlatlararo hamkorlik yo‘llarining eng maqbul varianti sifatida qaraladi.

Odatda, tadqiqotchilar integratsiya to‘g’risida fikr yuritganda, bu jarayonlarni faqat Yevropa mintaqasiga xos bo‘lgan hodisa deb hisoblashadi. To‘g’ri, Yevrpada kechayotgan integratsion jarayonlar ancha progressiv va boshqalardan bir mucha samaraligi bilan ajralib turadi. Lekin shu bilan birga shuni unutmasligimiz kerakki, integratsion jarayonlarni boshqa mintaqalarda va turli rasmiyarda uchratishimiz mumkin. Shuningdek, ba’zi hollarda integratsion jarayonlarning boshlanishini II-jahon urushi tugashi bilan bog‘lab qo‘yiladi. Bu fikr ham bir mucha munozaralidir. To‘g’riroq qilib aytadigan bo‘lsak, aynan II-jahon urushining tugashi bilan, integratsion jarayonlar borasida davlatlar tomonidan olib boriladigan hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu borada E.Deytonning bildirgan fikrlari e’tiborli, ya’ni tadqiqotchi “Yevropa integratsiyasi tarixi” asarida dunyodagi hamkorliklar tabiatи haqida to‘xtalib, “...davlatlar, xalqlar, millatlar, mintaqalar, korporatsiyalar, cherkov va hattoki byurokratik apparat - bularning bari o‘z vaqtida u yoki bu shakldagi integratsion jarayonlar ishtirokchisi bo‘lgan. Tabiiyki, jarayonlar dinamikasi nafaqat taraqqiyot mezonlariga, balki dezintegratsiyani yuzaga keltirgan muayyan omillarga ham bog‘liq bo‘ladi”, - deydi<sup>1</sup>. Minatqaviy integratsion birlashmalarning faoliyati va natijalari ham turlicha bo‘lishi ham tabiiy holdir. Ular orasida ko‘pgina muammolarni hal qilishga erishgan tashkilotlar bilan bir qatorda, deyarli hech qanday ijobji natijalarga erisha olmagan

birlashmalar ham mavjud. Masalan, regional miqyosda davlatlararo birlashma sifatida faoliyat ko'rsatuvchi subyektga Yevroittifoq tashkiloti yaqqol misol bo'la oladi. O'tgan qisqa davr mobayinida u "Yevropaviy g'oya" deb nom olgan maskura asosida G'arbiy Yevropaning 25 ta davlatini birlashtirdi, tegishli hamkorlik institutlarini tashkil qildi va ularning ish faoliyatini nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va xavfsizlik masalalarini ham xal qilishga bog'lab qo'ydi. Boshqa tomondan esa MDH, And pakti, G'arbiy Afrika davlatlarining Iqtisodiy hamkorligi va shunga o'xshash boshqa birlashmalar integratsiya yo'lida deyarli hech qanday progressiv natijalarga erisha olmadilar. Shu ikkita qutb orasida joylashgan va aralash natijalarga ega bo'lgan integratsion birlashmalarga misollar keitirish mumkin. Masalan, Shimoliy Amerika erkin savdo zonasasi (NAFTA) tashkiloti. Bu strukturna doirasida barcha davlatlar - ishtirokchilar uchun savdo chegaralari olib tashlangan. Shu jumladan, bartaraf qilingan to'siqlar orasida eng birinchisi bu - bojxona bojlaridir. Bu esa qit'adagi davlatlarning iqtisodiy integratsiyasida muhim qadamlardan biri bo'lib hisoblanishi bilan bir qatorda, NAFTA davlatlarining suverenitetiga hech qanday tajovuz ko'rsatmaydi. Ye'dan farqli ravishda NAFTA keng huquqli davlatlararo institutlarga ega emas. Bunga asosiy sabab sifatida shuni ko'rsatishimiz mumkinki, Shimoliy Amerika birlashmasida ishtirok etuvchi davlatlar orasida siyosiy tomondan qarama-qarshiliklar deyarli mayjud emas edi. Ekspertlarning e'tirof etishicha, ushbu birlashma doirasidagi tovar va xizmatlarning aylanish dinamikasi kundan-kunga o'sib bormoqda. Shuningdek, bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha, NAFTA YeIga yetib olish ehtimolidan holi emas<sup>1</sup>. Integratsiya natijalari turlicha bo'lishiga qaramasdan, milliy va davlatlararo, davlat suvereniteti va unda shakllangan (yoki shakllangan) davlat hokimiyyati tushunchalari o'rtasida vujudga keladigan bir muncha nomutanosiblik va qarama - qarshilik deyarli barcha ishtirokchilar uchun xos bo'lgan holatdir.

Umumiyligi holda xalqaro integratsiya milliy institutlar o'rnini davlatlararo institutlar egallaydigan, shuningdek davlat suvereniteti milliy miqyosdan mintaqaviy yoki global darajaga o'tishi jarayonlarga mansubligi bilan xarakterlanadi. Shuni ham nazarda tutmoq kerakki, BMT, NATO, YeI yoki MDH kabi rasmiy xalqaro tashkilotlarning yaratilishi davlatlararo birlashmalar rivojlanishining yagona yo'li emas. Yuqorida bayon qilinganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki,

bugungi kunga kelib siyosiy realizm asoslari - davlat suvereniteti va hududiy yaxlitlik - tushunchalarining, o'zining klassik ma'nosiga nisbatan, nazariy va amaliy tomondan bir munkha buzilishi sodir bo'lmoida.

Umuman olib qaraganda, integratsion nazariyaning shakllanishi va rivojlanishida katta rol o'ynagan, shuningdek ijtimoiy - siyosiy fanlar doirasida ma'lum mashhurlikka erishgan bir qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Ularda integratsiya jarayonlarini nazariy va amaliy tomondan tahlil qilish va o'rganishda qo'llanilgan asosiy yondashuvlarni belgilab olishimiz mumkin. O'z mohiyatiga ko'ra, bu nazariyalar xalqaro integratsiyaning turli shaklariiga nisbatan bo'lgan har xil yondashuv va nuhtai nazardir. Ammo ularning orasida bir qator umumiyl jihatlari ham mavjuddir. Masalan, deyarli barcha integratsion jarayonlarni o'rganuvchi yondashuvlar tarkibida (ayniqsa siyosiy integratsiya jarayonlariga taaluqli bo'lganda) Yevropada kechayotgan integratsion jarayonining keyingi rivojlanish yo'llari to'g'risida gipotezalar mavjuddir, shuningdek uning oxirgi natijasi to'g'risida fikr-mulohazalar bildirilgan (bugungi kunda yigirma yetti suveren davlatni birlashtirgan Yevroittifoq siyosati har doim kompromisslar siyosati bo'lib qoladi. Shunday ekan, integratsiya siyosiy reallik va ishtirokchi davlatlarning shaxsiy manfaatlari bilan ilojsiz ravishda chegaralangan bo'ladi). Endi bevosita integratsion jarayonlarni kuzatish va o'rganishda, shuningdek tizimli tahlil qilishda qo'llaniladigan yondashuvlarga to'xtalsak.

Federalizm - integratsion jarayonlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan eng birinchi va shu bilan birga nisbatan siyosiyashgan yondashuv. A.Spinellining (mashxur italiyalik federalist, Yevropa federal harakatining yetakchisi) fikricha, "davlatlararo integratsion birlashmani yaratishda faqat federativ model tomonga keskin burilish butun Yevropani birlashtirishda ijobiy natijalarni berishi mumkin"<sup>1</sup>. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu yondashuv ayrim siyosiy birliklarni bitta yagona strukturaga birlashtirish asosida yotgan jarayonlarning qonuniyatlarini va ahamiyatga molik aloqalarini tushuntirib berishga harakat qilsa ham, o'z mohiyatiga ko'ra nazariya bo'la olmaydi. Yevropa integratsion jarayoniga nisbatan federalistlar o'zlarining nazariy modelini ishlab chiqdilar va tegishli tezislarni olg'a surdilar. Unga ko'ra mintaqada maxsus (federal) institutsional tuzilma (ya'ni, integratsion guruh) vujudga kelishi kerak. Ushbu tuzilma integratsiyalashayotgan birliklar orasidagi munosabatni va har birining

vakolatini belgilab berish bilan birga, “yagona markaz”ni yaratishga ham sabab bo‘ladi. Spinellining ta’kidlashicha, bunda tegishli darajadagi boshqaruv birliklarining hech biri boshqasining ustidan ustunlikka ega bo‘lmasligi, shu bilan birga milliy va mintaqaviy organlar, shuningdek mintaqqa masshtabidagi organlarning vakolati bir-biriga mos keladigan va bir-birini to‘ldirib turadigan bo‘lishi kerak<sup>3</sup>. Boshqa so‘z bilan aytganda, integratsiya natijasida hosil bo‘lgan birlashmaning organlari, ayrim olingen har bir davlatning vakolatiga nisbatan juda katta vakolatga ega bo‘lmasligi kerak.

Federalizm yondashuvining yana bir vakili E.Ustrichning fikricha, “federalizmning mohiyati shundaki, bunda hokimiyatning demarkazlashuvi bunga ehtiyoj tug‘ilgan barcha joyda amalgा oshirilishi kerak bo‘ladi...”<sup>4</sup>. Bu yerda shunga e’tibor berish lozimki, ushbu fikr, o‘z mohiyatiga ko‘ra, Yevropa ittifoqi haqidagi Maastricht shartnomasining asosiy prinsiplaridan biri - subsidiarlik prinsipining mazmunini beradi<sup>5</sup>. Siyosiy integratsiyani o‘rganuvchi boshqa nazariyalarga nisbatan, boshqa qadimgi Antik davr va o‘rta asr Yevropa siyosiy bilimlariga borib taqaladigan “federalizm” chucur falsafiy ildizlarga ega. Xalqaro integratsiya nazariyasi sifatida, “federalizm” shu narsani ta’kidlaydiki, integratsiyada ishtirok etuvchi davlatlarning o‘zaro munosbati asosida ittifoq davlatning modeli yotishi kerak, shuningdek ushbu model oxirgi natijaviy mahsulot sifatida ham qaralishi lozim bo‘ladi. Federalistlarning fikricha, federatsiyaning tuzilishi davlatlar orasida yuzaga keladigan nizolarni hal qilishda tinch yo‘llarni qo‘llashga olib keladi, chunki tichlik va xavfsizlik federatsiyaning asosiy qadriyatlaridan biridir. Shuningdek, ushbu yo‘nalish vakillarining ta’kidlashicha, aynan federatsiya “maqsadli, demokratik va yetarli darajada effektiv” tashkilot sifatida faoliyat ko‘rsata oladi.

Funktionalizm - umuman olib qaraganda, xalqaro munosabatlarni o‘rganishda mavjud an‘anaviy yondashuvlarning nomukammalligi XX asrning birinchi choragidayoq namoyon bo‘ldi. D.Mitrani izdoshlari biian Vulf g‘oyalalarini tadtqiq qilishni davom ettirdilar va tarixiy o‘zgarish xalqaro munosabatlarning yanada rivojlanishiga olib kelganligini, shuningdek sahnaga keng ommaviy harakatlarning chiqqanligini va turli davlatlar fuqarolari orasidagi aloqalarning ko‘payganligini ko‘rsatib berishdi<sup>6</sup>. Vaqt o‘tishi bilan, eski tizimning turg‘unligi astasekin yo‘qola boshladи. Lekin xalqaro aloqalarning betartib rivoji, ularni ma’lum bir tartibga tushishini talab qildi. Ayni shu davrda,

xalqaro tashkilotlarning rivojlanish tarixini tushuntirib beruvchi ustivor yo'nalish funksionalizm hisoblanar edi. Xalqaro tashkilotlarning tarixini tahlil qilarkan, Mitrani xalqaro hamjamiyat ideal ravishda rivojlanishi uchun xalqaro tashkilotlar qanday funksiyalarni bajarish kerakligi to'g'risida savol qo'ydi. Xalqaro tashkilotlarning asosiy vazifasi sifatida u hamjamiyat a'zolarining qonun oldida tengligini ta'minlash va ijtimoiyadolatni kafolatlashda deb bilgan. Bunda hech qanday yangilik yo'q edi, lekin bu ishlarni amalga oshirish uchun Mitrani bir qator yangiliklarni amalga kiritishni taklif qiladi. Birinchidan, Millatlar Ligasida yirik davlatlarning to'g'ri vakilligini "tenglashtirish" maqsadida o'rta davlatlar guruhiga birlashib vakillik qilishi, kichik davlatlar esa bir blokga birlashishini taklif qilgan. Shu tartibda, ideal variantda barchaning tengligi ta'minlangan bo'lar edi. Ikkinchidan, tug'ilayotgan muammolarni qisqa vaqt mobaynida hal qilish uchun ikkinchi darajali institutlarni bevosita mintaqalarda - davlatlarni birlashtirish maqsadida - tashkil qilmoq zarur deb hisoblagan. Ushbu institutlar Millatlar Ligasining markaziy organlariga bo'ysunishi kerak edi. Uchinchi yangilik sifatida Mitrani e'tiborni nafaqat davlatlarning haq-huquqlariga, balki ularning vazifalariga ham qaratadi. U davlatlarga xalqaro ishlarda faolroq ishtirot qilishni taklif qiladi. Xalqaro munosabatlarning dolzarb muammolariga nisbatan o'zining funksional yondashunini qo'llab, Mitrani kontinental miqyosda temir yo'l transporti tizimini, global miqyosda esa suv transporti va aviasiya faoliyatini mukammalashtirish g'oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, faqat xavfsizlik sohasida statik institutlar faoliyatini oqlash mumkin. O'z oldida ma'lum maqsad va vazifalarni qo'ygan, shuningdek ularni bajarish uchun yetarlicha resurslarga ega bo'lgan ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishini Mitrani bashorat qilgan edi. Mitranning tasavvurida ijtimoiy hayotning kundalik funksiyalari -- sog'liqni saqlash, transport, qishloq xo'jaligi va hokazolar - nafaqat davlat miqyosida, balki mintaqaviy, hattoki global miqyosda ham olib borilishi kerak bo'lgan. Ushbu faoliyat xalqaro tashkilotlarning nazorati ostida bajarilishi lozim edi. Shuni aytish joizki, bugungi kunda BMTning bir qancha ixtisoslashgan tashkilotlari ushbu yo'nalishda ish olib bormoqda, shu jumladan bir qator xalqaro nodavlat tashkilotlar ham ( Qizil Xoch, Umumjahon sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqalar). Mitranning xalqaro tashkilotlarga yondashuvining yana bir e'tiborli tomoni shundan ibrat ediki, u bu tashkilotlarning ish

faoliyati samaradorligini oshirishning o‘zga xos yo‘lini taklif qildi. Uning fikricha, har qanday tashkilotning faoliyat ko‘rsatish samaradorligini ichki menejmentni yaxshilash hisobiga erishish mumkin bo‘ladi. (hozirgi kunda har qanday korxona yoki tashkilotning ish samarasini oshirishning eng samarali yo‘li aynan shundan iboratdir degan xulosaga keligan).

Funksional yondashuv hukumatlararo xalqaro tashkilotlar ish faoliyatini tahlil qilish va ularning samaradorligini oshirish yo‘llarini izlash bilangina chegaralanib qolmaydi. Aksincha, bu yo‘nalish nodavlat ixtisoslashgan tashkilotlar tarmog‘ini tuzishni nazarda tutadi. Funksionalistlarning fikricha, vaqt o‘tishi bilan oddiy odamlar orasidagi bog‘liqlik, ular bajarayotgan professional vazifasi tufayli, oshib boradi va ular xalqaro munosabatlar tizimiga asta-sekin kirib boradilar. Buning natijasida esa, dunyo va individuumlar orasidagi masofa vaqt o‘tishi bilan qisqarib boradi. Bu bilan esa, davlatlararo munosabatlarga oriyentatsiyalangan an‘anaviy yondashuvni funksionalistlar qattiq tanqid ostiga oladilar. Lekin shu bilan birga, funksional yondashuv bir qator zaif tomonlariga ham ega.

Birinchidan, funksionalistlar u yoki bu ixtisoslashgan tashkilot doirasida hamkorlikning siyosiy aspektiga uncha e’tibor berishmadi. Ularning fikricha, barcha kechayotgan faoliyatning koordinatsiyasi o‘z-o‘zidan amalga oshishi lozim edi. Haqiqatda esa, xalqaro maydonda ko‘pgina (barchasi desa ham bo‘ladi) iqtisodiy sohalarning hamkorligi u yoki bu darajda siyosiy ko‘makka muhtoj. Iqtisodiy o‘sish davrida qabul qilinayotgan qarorlarning siyosiy xarakteri deyarli bilinmaydi, ammo iqtisodiy inqiroz yoki resurslar taqchilligi davrida bu yaqqol ko‘zga tashlanib qoladi. Funksionalistlarning bir muncha idealizmi shundan iborat ediki, ular dunyoni cheklanmagan resurslar dunyosidan tashkil topgan deb bilishar edi (Maklaren).

Ikkinchidan, funksionalistlarning fikricha, odamlarning turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan xalqaro tashkilotlarning faoliyati oxir-oqibatda harbiy xavfning kamayishiga olib keldi. Lekin shunday bo‘lsada, “boylar urishmaydi”, degan fikr ancha shubhalidir. Talabning o‘sishi doimo “ishtaha”ning ham o‘sishiga olib keladi. Ba’zida, qandaydir sabablarga ko‘ra qondirilmagan “ishtaha” ortida nizolar yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, rasmiy darajaga ega bo‘limgan nodavlat tashkilotlar doirasida xalqlar orasidagi aloqalar xavfsizlikni ta’minlash yuzasidan hech qanday kafolatlarni bera olmaydi. Xalq

diplomatiyasi yadro urushi xavfi muammosini yo‘qota olmaydi, lekin shu bilan birga odamlar orasidagi o‘zaro munosabatlarini yuqori pog‘onaga ko‘tarib qo‘yadi. II-jahon urushi tugashi bilan funksional nazariya Yevropa va Atlantika institutlarining faoliyatini tahlil qilishda qo‘llanila boshladи, bu esa mutaxassislarga funksionalizmni nafaqat nazariya, balki amaliyot sifatida ham vujudga kelganligi to‘g‘risida fikr yuritishiga asos bo‘ldi.

Neofunksionalizm - yo‘nalishining rivojiga amerikalik olimlar Xaas, Lindberg va Naylar katta hissa qo‘shganlar. Neofunksionalizm vakillarining o‘zga xos tomoni shunda ediki, ularning izlanishlari faqat G‘arbiy Yevropada yoki ayrim olingan bir mintaqa miqyosida kechayotgan jarayonlar bilan cheklangan edi (asosan Yevropa hamjamiyatining rivojlanishi bilan), bu bilan esa ular funksionalistlarning global yondashuvidan farq qilar ediар.

Neofunksionalizmning ikkinchi o‘ziga xos tomoni shunda ediki, unda funksionalizmning eng asosiy kamchiliklaridan biri - xalqaro maydonda ko‘pchilik qarorlarni qabul qilishda, siyosatga asos sifatida qaramaslik omilini yengib o‘tishga harakat qilindi. Ushbu yo‘nalish tarafdarlari shuni ta‘kidlar ediki, subkontinental miqyosda nafaqai ayrim turdagи faoliyat (masalan, ko‘mir va po‘lat ishlab chiqarish sohasidagi boshqaruv) amalga oshiriladi, balki ushbu faoliyat yuzasidan tegishli siyosiy qarorlar ham qabul qilinishi kerak bo‘jadi. Boshqa sohalarni (masalan transport, qishloq xo‘jaligi va hokazo) boshqarib turish uchun qo‘shimcha koordinatsion institutlarning paydo bo‘lishi yangi turdagи Yevropani qurish tomon tashlangan qadamlardan biri bo‘lishi kerak edi. Ushbu jarayonning natijasi sifatida iqtisodiy va siyosiy tomondan integratsiyalangan Yevropa, ya’ni federativ davlat paydo bo‘lishi lozim (Monne).

Yuqorida qayd qilingan strategiya Ernst Xaasning Yevropa ko‘mir va po‘lat hamjamiyati to‘g‘risidagi ishida tahlil qilingan<sup>1</sup>. Xaas dunyoda kechayotgan mintaqaviy hamkorlik jarayonlarini tahlil qilar ekan, u siyosiy integratsiyaga uning ideal ko‘rinishida ta‘rif berishga uringan:

“Bir nechta davlatlarda faoliyat ko‘rsatuvchi siyosiy kuchlar o‘zlarining siyosiy faoliyatini, qarashlarini va istaklarini yangi markaz tomon oriyentatsiyalashga rozi bo‘ladilar, bu markazning organlari esa o‘zlarining vakillik davlatlariga nisbatan ma’lum bir yurisdiksiyaga ega bo‘ladilar yoki shunday vakolatga da‘vogardirlar”.

Xaasning fikricha, ushbu “yangi markaz” funksional (soha

bo'yicha) hamkorlikning siyosiy muammolari bilan shug'ullanmog'i lozim edi. "Siyosiy kuch" sifatida esa, Xaas davlat miqyosidagi qarorlarni qabul qila oladigan siyosiy partiya va guruhlarning rahbarlari, kasaba uyushma va biznes vakillari, yuqori mansabдор shaxslar va siyosatchilarni bilgan. Siyosiy elita vakillari yangi siyosiy markazni yaratishga ehtiyoj tug'ilganligini tushungan payti, ular ushbu hamjamiyat a'zolari ma'lum bir sohada oldiga qo'yilgan barcha masalalarni to'laqonli hal qilinishi mumkinligini anglab yetadilar. Uning fikricha, bunga faqat hamjamiyat faoliyatining takomillashuvi va bir sohadan boshqa sohaga "og'ib o'tish" orqali kengayish hisobiga erishish mumkin bo'ladi<sup>1</sup>.

Oxir-oqibatda davlatlar hamjamiyatga (markaziy institutga) barcha asosiy sohalardagi masalalarni yechish vakolatini berib qo'yadilar. Bu esa har bir alohida olingen davlatning boshqaruв apparatiga nisbatan ancha katta kuchga ega bo'lgan yangi markazning paydo bo'lishiga olib keladi.

Yevropa integratsiyasi rivojining bunday istiqbollari Yevropa ko'mir va po'lat tashkiloti faoliyatining keyingi bosqichlari to'g'risida yoki yangi federativ davlatning paydo bo'lishi haqidagi savollarga javob izlashga majbur qildi.

Xaas "Umumiy bozorni kundalik boshqarishga doir sohada davlatlararo institutlarning davlatlarga nisbatan mustaqilligi muqarradir va hamjamiyatda davlatlararo institutlarning strukturaviy tuzilishi, o'tmishdagi boshqa hollarga nisbatan olib qaraganda, federativ arxitekturaga ega bo'ladi, degan xulosaga keldi. Lekin shu bilan birga, Xaas shuni ta'kidlaydiki, amaliyotda bunday institutlarning rivojlanishi o'ziga xos ravishda kechayapti, ya'ni ularning rivojlanish tendensiyasi federativ ham, davlatlararo ham emas.

Yuqorida aytilganlarga xulosa qilar ekanmiz, Mitrani va uning izdoshlari xalqaro hamjamiyat tarixini birlashish, federatsiya tuzish tomon harakati sifatida qaraganlar. Neofunksionalistlar uchun bunday harakat obyektiv jarayon bo'lib, uni hech bir davlat to'xtatib qola olmaydi deb bilishadi. Lekin shu bilan birga, ular jahon federalizmiga bo'lgan yo'l revolyutsiya orqali emas, balki evolyutsiya jarayoni orqali erishiladi, deya ta'kidlashadi. Dunyoni birlashtirishga qaratilgan bunday jarayonda asosiy rol xalqaro tashkilotlarga tegishli bo'ladi. Neofunksionalistlar ba'zi hollarda xalqaro tashkilotlar o'z hukmini davlatlarga ham o'tkazishlari mumkinligini (masalan, BMT Ustavini, yoki Rim shartnomasini imzolash) ham tan oladilar. Shu sababli ular,

*“xalqaro tashkilotlarga vakolat berish asta-sekin va bosqichma-bosqich uzoq muddat davomida olib borilishi kerak”ligini e’tirof etadilar. Neofunksionalistlarning fikricha, xalqaro tashkilotlar o’z nizomlarini yangidan interpretatsiya qilish, strukturasini yaxshilash, byurekratiyani oshirish yoki budgetini ko’paytirish orqali o’z vakolat doirasini kengaytirmoqdalar. Ushbu tendensiyaga bo’lgan qarshilikni a’zo davlatlar tomonidan yengib o’tish integratsiyaning real yoki abstrakt afzalliklarini namoyon qilish orqali erishish mumkin.*

#### **Seminar savollari:**

1. Zamnaviy dunyoda mintaqaviy integratsiya hodisasi nima ekanligini izohlang.
2. NAFTAning integratsion uyushma sifatidagi roli qanday?
3. ASEANning Janubi-sharqiy Osiyodagi integratsiyadagi o’mi qanday?
4. Arab Davlatlari Ligasining integratsion uyushma sifatidagi roli qanday?

#### **Mustaqil ishlar topshriqlari:**

1. Integratsion jarayonning asosiy qonuniyatları.
2. Integratsiya nazariyasining asosiy maktablari.
3. Yevropa ittifoqi integratsion uyushma sifatida.

### **Ma’ruza № 9. ZAMONAVIY GEOSIYOSIY JARAYONLAR**

#### **Reja:**

1. Geosiyosatning asosiy qonunlari
2. Asosiy geosiyosiy kategoriylar
3. “Sovuq urush” tugaganidan so’ng “kuchlar muvozanati” geosiyosiy kontseptsiyaning qayta ko’rib chiqilishi.

**O’quv mashg’ulotning maqsadi:** Zamnaviy geoşiyosiy jarayonlarning kechishi haqida ma’lumot berishdan iborat.

#### **Tayanch so’z va iboralar:**

- |                 |                     |
|-----------------|---------------------|
| •Tellurokratiya | •Kuchlar muvozanati |
| •Telassokratiya | •Bufer zona         |
| •Rimland        | •Geosiyosat         |

### ***Geosiyosatning asosiy qonunlari***

Siyosiy munosabatiarda azal-azaldan hududiy masala muhim o'rinni egallaganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, har bir davlat o'z hududiy birligini saqlab qolish, uni imkon qadar kengaytirishga intilishimi ko'rshimiz mumkin. Mazkur holat bugungi kunda ham o'z kuchini yo'qotmagan, ya'ni ma'lum bir kuch davlat mexanizmlari nazdida ma'lum bir hudud ustidan nazorat o'rnatish, uni mustahkamlash va saqlab qolishga qaratilgan faoliyat olib boradi.

Har bir davlat ma'lum hudud ustidan ma'lum mezonlarga tayangan holda o'z nazoratini o'rnatadi. Mazkur jarayon hukumatning muayyan ijtimoiy qatlama tayangan holda faoliyat olib borishni talab etadi. Zero, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti ishtirokchilarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqe'likka munosabatlarini tadqiq qilish bugungi kunda muhim masalalar sirasidan o'rin olmoqda. Zero, har bir shaxsning, individning ijtimoiy-siyosiy masalalarni psixologik jihatdan qabul etishi masalasi yuritilayotgan siyosat masalasi bilan bevosita bog'liq.

Davlatning asosiy vazifalaridan biri ma'lum bir hudud ustidan o'z nazoratini (qonun, kuch yoki jinoiy yo'l orqali) o'rnatish bo'lib, asosan milliy-madaniy, diniy va boshqa asoslarga tayanadi. Shuningdek, davlat ma'lum bir hududdagi ma'lum bir qatlam yoki qatlamlar (diniy, milliy, etnik, madaniy jihatdan) manfaatlarini xalqaro maydonda ifoda etib, ularni himoya qiladi.

Geosiyosat tadqiqotining asosini hududlar tashqil etar ekan uning turlari, hududlar ustidan qay yo'sinda nazorat o'rnatish masalasi oldinga chiqadi. Zero, har bir davlat siyosatining ustivor vazifalar sirasiga hududlar turlaridan kelib chiqqan holda ular ustidan nazorat o'rnatish kiradi.

Z.Bjezinskiy "Buyuk shahmat taxtasi" nomli asarda davlatlarga nisbatan "geosiyosiy markazlar" va "geostrategik ishtirokchilar" iboralarini kiritadi. Ushbu asarda mazkur atamalar quyidagicha ta'riflanadi:

"Geosiyosiy markazlar" - bu shunday davlatlarki, ularning ahamiyati ularning salohiyati yoki mazmunidan emas, balki ularning joylashishlari va tabiiy jihatdan yuzaga keladigan potensial zaiflik oqibatida geostrategik ishtirokchilarga imkoniyat tug'dirib beradigan omillar bilan belgilanadi. Ko'pincha geosiyosiy markazlar o'zlarining geografik holatlariga bog'liq bo'lib, muhim mintaqalarga eltuvchi yo'l ustidan nazorat o'rnatish, yoinki geostrategik ishtirokchilarga resurs-

larga ega bo‘lishlarida to‘sqinlik qilish imkoniyati bilan belgilanadi. O‘zga hollarda esa geosiyosiy markazlar geosiyosiy doirada muhim ahamiyat kasb etuvchi mintaqqa yoki davlat uchun “qalqon” (bufer) bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ba’zi hollarda esa geosiyosiy markazlar mayjudligining o‘zi ham atrofdagi faol geostrategik ishtirokchilarga siyosiy va madaniy jihatdan sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, geostrategik ishtirokchilarning aksariyat qismi qudratli davlatlar hisoblanadilar. Biroq qudratli davatlarning hammasi ham geostrategik ishtirokchilar qatoridan o‘rin ololmaydi.

“Faol geostrategik ishtirokchilar” - o‘z chegaralaridan tashqarida hukmronlik qiluvchi yoki mayjud geosiyosiy holatni o‘zgartira olish yo‘lida qobiliyat va milliy irodaga ega bo‘lgan davlatlar kiradi. Ular salohiyat yoki geosiyosiy jihatdan beqarorlikka moyilliklari bilan ajralib turadilar. Ya’ni milliy buyuklik, mafkuraviy tatbiqlik, dinini yoyishi yoinki iqtisodiy buyuklik orqali mintaqada yetakchi kuchga aylanishi yoki dunyo miqyosida o‘z mavqeini yanada oshirishga intiladilar. Bu yo‘l bilan har bir davlat o‘zga davlat salohiyatiga tanqidiy yondoshish orqali o‘z manfaatlarining Shu davlat manfaatlari bilan qay mezonlarda mos keiishi yoki kelmasligini e’tiborga olgan holda ishlab chiqadi.

### *Asosiy geosiyosiy kategoriyalar*

Ma’lum bir makon ustidan nazorat o‘rnatishda, avvalo, shu makon xususiyatlardan kelib chiquvchi turlariga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Chunki har bir makon o‘ziga xos bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy salohiyatlarining o‘sishi va tarraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq.

Qalqon hudud (asosan davlat) - yirik davlatlar ta’sir doiralari yoki hududlari o‘rtasida joylashgan, odatda hududi kichik, siyosiy va harbiy jihatdan esa kuchsiz mamlakat.

Amerikalik olim qalqon davlatlarga quyidagicha ta’rif beradi: “Davatlarning o‘zi qalqon (bufer) bo‘lish yoki bo‘lmaslikni tanlamaydilar. Ularning bu holati o‘zları nazorat eta olmaydigan dushmanona atrof-muhitdan kelib chiqadi. Qalqon davlatlar - ancha qudratliroq, ambsioz va asosan agressiv tashkilotlar (davlatlar) o‘rtasida joylashgan ojiz o‘yinchilardir. Qalqon davatlarning vazifalari mazkur tashqi raqiblar tarafidan belgilab beriladi. Ular mohiyatan katta raqobatning qurbanlik elementlaridir. Qalqon davlatlar xalqaro huquqning emas, balki kuchlar mutanosibligi tizimining qismi hisoblanadilar. Biroq, ma’lum sharoilarda, ya’ni mintaqaviy munosabatlar modeli keskin o‘zgargan chog‘da,

qalqon davlatlar yirik davlatlar o‘rtasida vaqtinchalik muvozanatni saqlaganliklari uchun birinchi qurbonga aylanadilar».

Endemik hudud(gr. endemos - mahalliy) - bu hududda biror-bir xalq azal-azaldan istiqomat qilgan bo‘lib, Shu hudud ularning nazorati ostida bo‘lganligi, Shuningdek, o‘zga xalqlar ham bu hudud aynan Shu xalqning hududi deb tan olingen makonga aytildi.

Chegaradosh hudud - bu hudud biror-bir davlatga tegishli, lekin unda iqtisodiy tomondan aloqa tizimining tiklanmaganligi va boshqa shu kabi sabablar orqali mustahkam o‘rnashib ololmagan bo‘lishi, qolaversa bu hududda istiqomat qiluvchi kamsonli millatlar o‘z da‘volarini ko‘tarib chiqishlari mumkin bo‘lgan makon. Chet davlatlarning bu hududga hech qanday da‘volari bo‘lmaydi. Lekin chegaradosh hududda nazoratning sustligi chet davlatlarning unga bo‘lgan qiziqishini oshirishi va bu hudud ustidan qay yo‘sinda bo‘lmasin, nazorat o‘rnatishga intilishlarini keltirib chiqaradi.

Kesishgan manfaatlar hududi - bunday hududga ikki yoki undan ortiq davlatlar da‘vo qiladilar. Bu hudud ham yaxshi o‘zlashtirilmaganligi sababli, endemik tushunchasiga yaqin, shunga qaramay chegaradosh hududdan: birinchidan, ushbu davlatga yaqin emasligi, balki o‘zga davlatning endemik qismida, ya’ni o‘zga davlat hududida joylashgan bo‘lishi, va, ikkinchidan, ikki va undan ortiq davlatlar tarixiy, milliy, diniy jihatlariga asoslangan holda shu hududga da‘vogarlik qilishlari bilan farqlanadi.

Tasarrufiy hudud - biror-bir davlat yoki millat tomonidan to‘liq nazorat qilinadigan va shu davlat yoki millat tasarrufidagi bir-biriga tutash bo‘lgan hududga deyiladi. Tasarrufiy hududni faqat barcha aloqa yo‘llarini egallash orqali to‘liq nazorat qilish mumkin.

Agar shu davlat yoki millat tomonidan nazorat qilinadigan hudud tasarrufiy hududdan chetda joylashgan bo‘lsa va aloqa yo‘llari yoki tizimlari o‘zga davlatlar tomonidan nazorat qilib turilsa, bunday hudud geosiyosiy tayanch nuqtasi deyiladi. Bu hudud nazorati tasarrufiy hududga nisbatan biroz sust, ya’ni erkin bo‘ladi. Geosiyosiy tayanch nuqtasi davlatlar tomonidan asosan raqibiga qarshi ta’sir qilish maqsadida foydalaniladi. Asosiy qarama-qarshi turish esa tasarrufiy hududiar tutashgan yerda kuzatiladi.

XX asr so‘ngida geosiyosatda yangi hududiy tushuncha – metapole (gr. meta... - shakl o‘zgartirish) tushunchasi paydo bo‘ldi. Metapole, ya’ni markazlashgan hudud bo‘lib, bir necha davlatlarning birlashishi,

yoki siyosiy, iqtisodiy, harbiy jihatdan keiishilgan holda yagona hududni nazorat qilishlari tushuniladi.

Hududiy nazorat turlari

Qit'aviy nazorat turi - quruqlik ustidan nazorat qilish. Bu nazorat turi an'anaviy bo'lib, hozirgi kunda ham o'z mavqeini yo'qotmagan. Yerning quruqlik qismi ustidan faol va uzviy nazorat qilish boshqa nazorat turlari bilan charnbarchas bog'liq.

Okean-dengiz nazorat turi - bu nazorat turining shakllanishi natijasida dunyo xalqlarini yanada yaqinlashtirdi. Hozirgi davrda ham bu nazorat turi harbiy, iqtisodiy yoki madaniy o'lchamlarda kuchayib bormoqda. Hozirda okean va dengiz tubidagi xom ashyoni qazib olish va qayta ishslash masalasi okean - dengiz nazorat turiga katta mas'uliyat yuklaydi. Harbiy nuqtai-nazardan suv osti yadro kemalari okean - dengiz nazorat turining kuchayishiga olib keladi.

Havo nazorati turi - XX asrda geosiyosiyosat nazariyasiga katta o'zgarishlar kiritdi. Havo nazorati turlaridan biri raketalar bo'lib, xoh yadro raketasi, xoh yadrosiz raketalar bo'lsin, yerning turli nuqtasini nazorat qilinishini kuchaytirib berdi. Harbiy nuqtai-nazardan esa aviatsiya jang natijasi yoki ma'lum bir harbiy dasturlarni amaiga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutilmoida.

Koinot jihatdan nazorat turiga - bugungi kunda asosan harbiy nuqtai-nazardan yondoshilib, yer ustidan to'liq nazorat qilishga qaratilgandir.

**“Sovuq urush” tugaganidan so'ng “kuchlar muvozanati” geosiyosiy kontseptsiyaning qayta ko'rib chiqilishi**

Geosiyosatdagi asosiy qida yer yuzasining jug'rofiy tuzilishi hamda sivilizatsiyalarning tarixiy tiplarga bo'linishida ifodalangan fundamental dualizmni tasdiqlashdan iboratdir. Mazkur dualizm kuchining bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishida tasvirlanadi. Bunday qarama-qarshilikning mohiyati tarixda savdo sivilizatsiyasi (Karfagen, Afina) bilan harbiy-avtoritar sivilizatsiyasi (Rim, Sparta)ning o'zaro munosabatlarida ifoda etiladi. Boshqacha aytganda bu "demokratiya" va "ideokratiya" o'rtasidagi dualizmdir.

Garchi davr taqozosiga ko'ra o'zgarib turgan bo'lsada, dastlabki paytlardan boshlab mazkur dualizm o'zaro dushmanlik yoki boshqacha aytganda uni tashkil qilgan qutblarning qarama-qarshiligi xususiyatiga ega. Shunday qilib, jamiyatlarning butun tarixi ikki unsur, ya'ni "suv" ("suyuq", "oquvchi") va "quruqlik" ("qattiq", "doimiy") atrofida ro'y bergen jarayonlardan iborat. "Tellurokratiya", ya'ni "quruqlik kuchi"

makonning muqimligi va undagi asosiy xususiyatlarning barqarorligi bilan xarakterlanadi. Sivilizatsion darajada u (ya'ni tellurokratiya) insonlarning yirik uyushmalari, xalqlar, davlatlar, imperiyalar bo'yusunadigan o'troqlik, konservativizm, qat'iy yuridik me'yordarda namoyon bo'ladi. Quruqlikning qattiqligi xalqlarning madaniy hayotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi, jumladan ijtimoiy an'analarning barqarorligi va axloqiy qoidalarning mustahkamligi ana shu xususiyat ostida shakllanadi. Quruqlikda, ya'ni asosan o'troq hayot kechiruvchi xalqlarga individualizm, ishbilarmonlik ruhi yot bo'lib, ularda ijtimoiylik ruhi-yati va ierarxiyaning mayjudligi xosdir.

“Talassokratiya” (dengiz kuchi) esa bunga teskari qoidalarga asoslangan sivilizatsiya bo'lib, u dinamik, harakatchan va texnik rivojlanishlar tarafdiridir. Uning ustuvor yo'nalishlari ko'chmanchilik (asosan dengizda suzish nazarda tutilmoqda), savdo, individual ishbilarmonlik ruhidan iborat. Shaxs jamoaning harakatchan vakili bo'lganligi tufayli oliy qadriyat hisoblanadi. Bunda ma'naviy va huquqiy me'yorlar bir-biri bilan aralashib, nisbiy va harakatchan bo'lib qoladi. Sivilizatsiyaning bu turi tez rivojlanadi, tashqi madaniy xususiyatlariini oson o'zgartiradi, lekin ichki o'zligini o'zgartirmasdan saqlaydi. Insoniyat tarixining asosiy qismi har ikkala yo'nalishning ma'lum cheklangan hududlar sharoitida, ammo “tellurokratiya”ning umumjahon miyosidagi ustunligi sharoitida rivojlangan. Yer (quruqlik) unsuri butun sivilizatsiyaga o'z ta'sirini o'tkazadi, “suv” (dengiz, okean) unsuri esa ayrim paytlarda va hududlardagina namoyon bo'ladi. quruqlik va suv dualizmi ma'lum bir vaqtgacha jug'rofiy jihatdan dengiz qirg'oqlari, daryo havzalarida va boshqa hududlar doirasida qolishi mumkin. Qarama-qarshilik sayyoraning turli joylarida, turli shakllarda rivojlanadi.

Yer yuzasidagi xalqlarning tarixi siyosiy tuzumlarning sekinlik bilan o'sib keng qamrovga ega bo'lganligini namoyon etadi. Davlat va imperiyalar shu tarzda paydo bo'ladi. Ushbu jarayon geosiyosiy darajada insoniyat tarixida makon omilining kuchayganligini anglatadi. Davlatlar va imperiyalarning yirik siyosiy birlashmalari universal sivilizatsiyalar darajasiga chiqqani sayin yer va suv unsurlarining birligi va raqobatini yanada yorqinroq ifoda etadi. Ma'lum bir paytga kelib (antik davrda) “Makinder xaritasida” ifodalangan yetarlicha barqaror manzara shakllanadi. Tellurokratiyaning chegarasi shimoliy-sharqiy Yevrosiyoning (umumiy chegarasi Rusiya imperiyasi yoki sobiq SSSR hududiga mos bo'lgan) ichki mintaqaviy qismini o'z ichiga oladi.

Talassokratiya Yevrosiyo qit'asining qirg'oqlari, O'rta yer dengizi, Atlantika okeani va Yevrosiyoni janub va g'arbdan yuvib turuvchi dengizlarni o'z ichiga olgan.

Dunyo xaritasi shunday geosiyosiy mohiyatlarga ega:

1. Ichki mintaqaviy hududlar tellurokratik sivilizatsiya mohiyatini barqaror saqlab turadigan "harakatlanmaydigan platforma" yoki heart-land ("Yerning yuragi")ga, boshqacha aytganda tarixning jug'rofiy o'qiga aylanadi.

2."Ichki yoki mintaqaviy yarim oy"ni ifoda etuvchi "qirg'oq hududlari", ya'ni rimland bo'lsa muntazam madaniy rivojlanishni namoyon etadi. Bu yerda "talassokratiya"ning xususiyatlari ustunlik qiladi. Shu bilan birga bu xususiyatlar "tellurokratik" vositalar bilan muvozanatlashtirilib turiladi.

3."Tashqi yarim oy yoki orol yarim oy", "ko'rinnmaydigan yerlar"dan iborat bo'lib ular bilan faqat dengiz orqali aloqa qilish mumkin. Ular dastlab Yevropaning "Ichki yarim oy"iga tashqaridan ta'sirini o'tkazgan holda Karfagen va Finikiya savdo sivilizatsiyalarida o'zlarini namoyon etganlar.

Talassokratiya va tellurokratiya mutanosibligining bunday geosiyosiy manzarasi (posle Punicheskix voyn) majusiylikning dastlabki davrlaridan boshlangan. Biroq, bu raqobat Angliya XVII-XIX asrlarda kuchli dengiz davlatiga aylangan paytda o'zining haqiqiy ma'nosiga ega bo'lган. Buyuk jug'rofiy kashfiyotlar natijasida XV asrning oxiridan boshlab talassokratiya to'lig'icha Yevrosiyo va uning qirg'oqlaridan ajralib, anglosakson dunyosi (Angliya, Amerika) va unga qaram mustamlaka hududlar tarafga yo'naldi. Anglosakson sanoat taraqqiyoti va kapitalizmi natijasida shakllangan "Yangi Karfagen" yagona butunlik shakliga ega bo'lгach aniq mafkuraviy va siyosiy mohiyat qozondi.

Angliyaning Avstriya-Vengriya imperiyasi, Germaniya va Rossiya kurashi kabi mintaqaviy davlatlar bilan olib borgan pozitsion kurashi XVIII – XIX asr (XX asrning ikkinchi yarmi) geosiyosatining mazmunini tashkil etgan bo'lsa, XX asr o'rtalariga kelib AQSh talassokratiyaning asosiy tayanchi bo'lib qoldi.

Geosiyosiy dualizm 1946-1991 yillar orasidagi Sovuq urush davrida o'zining eng yuqori proporsiyasiga erishdi, AQSh – talassokratiya, SSSR bo'lsa tellurokratiya timsolida namoyon bo'ldi. Ushbu ikki umumbashariy sivilizatsiyalar madaniyatni va mafkurasi to'laqonli geosiyosiy bichimga ega bo'lган holda, so'z yuritilayotgan geosiyosiy

unsurlar ziddiyatining butun tarixini xulosalab berdi. Shu bilan birga, hayratlanarlisi shundaki, bu ikki geosiyosiy qolipga mafkuraviy jihatdan huddi shunday ikki sintetik majmua - marksizm mafkurasi va liberal-kapitalizm mafkurasi to‘g‘ri kelar edi.

Mazkur holatda “reduksionizm” ning ikki turini amaliyatga tadbiq etish haqida gapirish mumkin. Iqtisodiy reduksionizmda Smit va Marks g‘oyalari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilsa, geosiyosiy reduksionizmda sayyoraning barcha hududlarini talassokratiya (Yangi Karfagen, AQSh) va tellurokratiya (Yangi Rim, Sovet Ittifoqi) nazorati ostida bo‘lishiga olib kelindi.

Tarixning geosiyosiy mushohadasi sayyoraviy dualizm taraqqiyotining maksimal proporsiyalarga yetishini o‘zida aks ettiradi. quruqlik va dengizning ilk davrlardan boshlangan qarama-qarshiligi bugungi kunda butun dunyoni qamrab olgan. Insoniyat tarixi ushbu kurashning ifodasi va uni mutlaqlashtirish yo‘lidan o‘zga ko‘rinishdagi mohiyatdir. Geosiyosatning asosiy qonuni bo‘lmish unsurlar dualizmining (quruqlikning Dengizga qarshiligi) eng umumiy ifodasi ana shundan iborat.

### **Seminar savollari:**

1. Hozirda geosiyosiy jarayonlarda qanday muhim hodisalar ro‘y bermoqda?
2. Globallashuv sharoitida hudud ustidan nazorat qilish muammosi haqida fikr yuriting.
3. Harbiy sohada inqilobiy o‘zgarishlar geosiyosiy jarayonlardagi ahamiyati qanday?
4. Demokratik geosiyosat nima?

### **Mustaqil ishlar topshiriqlari:**

1. Geosiyosiy jarayonlardagi rangli inqiloblar.
2. “Kuchlar muvozanati” geosiyosiy kontseptsiyaning jahon siyosatida tutgan o‘rni.
3. Geosiyosiy jarayonlarda geosiyosiy konepsiylar.

## **Ma’ruza № 10. XALQARO TERRORIZMGA QARSHI KURASH VA JAHON SIYOSATI**

### **Reja:**

1. Terrorizm va terroorchi faoliyat tushunchalari
2. Yirik terrorchi tashkilotlar
3. Terrorizmga qarshi kurash sohasida xalqaro konvensiyalar
4. Xalqaro terrorizmning geosiyosiy o’lchami
5. Markaziy Osiyoda terrorizmga qarshi kurash

**O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:** Xalqaro terrorizmga qarshi kurash borasidagi yondashuvlar va ularning jahon siyosatiga ta’siri haqida ma’lumot berishdan iborat.

### **Tayanch so‘z va iboralar:**

- |             |                         |
|-------------|-------------------------|
| •Xavfsizlik | •rezolyusiya            |
| •terrorizm  | •manfaat                |
| •terrorizm  | •Mintaqaviy aksilterror |
|             | tuzilma                 |

### ***Terrorizm va terrorchi faoliyat tushunchalari***

Bugungi globallashuv sharoitida milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, yangi ko‘rinishdagi va shakldagi tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish davlat tashqi siyosatida ustivor yo‘nalishlardan sanaladi. “Sovuq urush”ning barham topishi bilan ikki qaramaqarshi qutbning raqobati yemirilgan bo‘lsada, global xavfsizlikni ta'minlash masalasi dolzarbligini yo‘qtogani yo‘q. Xalqaro terrorizm mazkur transmilliy tahdidlarning yangi shakli bo‘lib, geosiyosiy jarayonlarda XX asr so‘ngidan boshlab faollasha boshladi.

“Terror” atamasi lotincha “terror” - daxshat, qo‘rquv so‘zidan kelib chiqqan; umumiy ma’noda u siyosiy muammolarni hamda ziddiyatlarni zo‘ravonlik yordamida hal etish metodini anglatadi. Bundan kelib chiqishicha, terror – ommaviy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo‘ravonlikdan hamda zo‘ravonlik qilish bilan tahdid solishdan mutnazam foydalanishdir. Lekin bu terrorni o‘ta umumlashtirib tushunishdir. Nisbatan tor ma’noda terror deganda diktatorlik tipidagi davlat o‘z fuqarolari va siyosiy oppozitsiyaga nisbatan amalga oshiradigan zo‘ravonlik nazarda tutiladi (fashistlar Germaniyasi, Franko Nero

davridagi Ispaniya, Pinochet davridagi Chili).

Shu sababdan ham terrorizm mohiyatini anglash, uning maqsadni tadqiq etishda, dastavval, uning vujudga keiish tarixini o'rganish talab etiladi. "Terrorizm" atamasiga 200ga yaqin ta'riflar mavjud bo'lib, biroq hali ularning birortasi tan olinmagan. Bu boradagi bahs-munozaralar 30 yildan buyon davom etmoqda. Buning sababi terrorizm madaniy an'analar, ijtimoiy tuzilish va terrorizmga umumiy ta'rif berishni ancha qiyinlashtiruvchi boshqa ko'plab omillarga bog'liq ravishda turli mainlakatlarda turlicha namoyon bo'luvchi, mohiyatan juda murakkab hodisi ekanligidadir.

"Terrorizm siyosiy maqsadda amalga oshirishga asoslangan zo'ravonlikdir" (B.Kroze, Buyuk Britaniya). "Terrorizm – siyosiy, mafkuraviy yoki ijtimoiy-inqilobi maqsadlar hamda intilishlarga erishish uchun hukumatlarni, aholi doiralarini muntazam qo'rqtib turish" (G.Deniker, Shveysariya). "Terrorizm – bu qo'rqtish, majburlash yoki cho'chitish vositasida siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlikni ishlatish bilan tahdid solish, yoki uni ishga solish" (I.Aleksander tahrir ostidagi to'plam, AQSh). Xalqaro huquqshunos olim, professor Richard Falk terrorizmga ikki xil ta'rif beradi: "Siyosiyo zo'ravonlikning, uni kim –inqilobiy guruhmi yoki hukumatmi – hukumatmi ishga solishdan qat'iy nazar, monand ravishdagi axloqiy va yuridik vajkorsoni bo'limgan har qanday turidir"; "tanlab o'tirmasdan yoki aybsiz shaxslarga qarshi zo'ravonlikni ishga soladigan siyosiy ekstremizm".

Shunday qilib, "terror" dushmani jismoniy zo'ravonlik yo'li bilan qo'rqtish, xatto uni jismonan yo'q qilish, demak. "Terrorizm" esa, terror amaliyotidir. Bu ikki tushunchani shu tarzda chegaralash maqbul bo'lsa, u holda terrordan kelib chiqqan terrorizm aslo yangi hodisa bo'lmay, bizgacha asrlar qo'ynidan yetib kelgan, deb xisoblash mumkin. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida "Terrorizm"ga quyidagicha ta'rif berilgan:

"Terrorizm – xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlat suvenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqtish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki molmulkka xavf tug'diruvchi boshqa qilmishlar yohud ularni amalga

oshirish tahdidi, shuningdek terrorchilik tashkilotining mayjud bo'lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishni ta'minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yohud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalar va resurslar berish yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat".

Terrorizmning vujudga kelganligi borasida ham olimlar o'rtasida muayyan yagona qarash mayjud bo'lmay bir-biridan farq qiladi. Ayrim olimlarning fikricha, terrorizm yuzaga keiishi ikki yuz yillik tarixga ega. Masalan, V.Jarinov terrorizm kamida bir yarim asrlik tarixga ega, deb hisoblaydi. Boshqalar esa, terrorizmning tarixi uzoq o'tmishta borib taqlishini ta'kidlaganlar. Ular yondashuviga ko'ra har qanday siyosiy qotillikni terrorizmga tenglashtiriladi va terrorizm ildizini deyarli antik davrda yuzaga kelagan deb hisoblaydilar.

Chunonchi, terrorizmni tadqiq qilish sohasidagi mutaxassis E.I.Stepanov bu masalada quyidagi fikrlarni bildiradi: "Olimlar va siyosatchilarning katta qismi orasida terrorizmnинг kelib chiqishi haqidagi fikr tarqalganini maxsus ta'kidlab o'tish zarur. Uning boshlanishini, odatda, XVIII asrdagi fransuz inqilobiga hamda 1917 yilda Rossiyada sodir bo'lgan inqilobga borib taqaydilar. Aslida terrorizm juda qadim zamonda boshlangan, amaliyoti esa turli shakllarda xilma-xil tarixiy davrlarga va ko'plab siyosiy oqimlarga xosdir".

Lekin terrorizmning yuzaga kelishi borasida boshqa fikrlar ham mayjud. Masalan, fransuz tarixchisi M.Ferro terrorizmni XI-XII asrlardagi xos hoshshoshiylarning o'ziga xos islomiy an'anasi, deb hisoblaydi. Olim N.Neymark esa, o'z navbatida, hozirgi ko'rinishdagi terrorizmning kelib chiqishini Napoleondan keyingi tiklanish (restavratsiya) davri bilan bog'laydi.

Terrorizm tarixini shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

1. Antik terrorizm yoki prototerrorizm.
2. Klassik terrorizm.
3. An'anaviy terrorizm.
4. Zamonaviy terrorizm.

Antik terrorizm yoki prototerrorizm. Juda qadimgi sivilizatsiyalarda hokimiyat tomonidan xalqlarga qarshi hamda hokimiyat va boylik uchun kurash jarayonida hukmdor shaxslarga nisbatan amalga

oshirilgan terrorizmga misollar ko‘p. Tadqiqotchilardan A.V.Dmitriev va I.Yu.Zalisin: “Insoniyatning siyosiy tarixida zo‘ravonlik keng yoyilgan. Bu hodisa eng qadimgi zamonlardan boshlab, siyosat sub'ektlari tomonidan maqsadga erishishning asosiy vositalaridan biri sifatida qarab kelingan va hozirgi davrda ham shunday qarab kelinmoqda”, - deb haqli ravishda qayd etadilar.

Rim sivilizatsiyasi o‘zining “terorchilik an'analariga” ega bo‘lgan, bu haqda tarixda aniq-tiniq ma'lumotlar saqlanib qolgan. Rimlik tarixchi va yozuvchi Gay Svetoniy Trankvilning “O’n ikki qaysar hayoti” nomli mashhur asarida Rimning ikki yuz yillik tarixini qamrab oluvchi voqealar aks ettirilgan. Yilnomachining ma'lumotlariga ko‘ra, hayoti kitobda tavsiflangan o‘n ikki qaysardan sakkiztasi terrorchilik harakatining qurbanini bo‘lishgan.

### ***Yirik terrorchi tashkilotlar***

Dastlabki terrorchilik tashkiloti bo‘lgan sikariylar sektasining paydo bo‘lishi ham o‘sha davrdagi Rim imperiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu sekte milodiy I asrda rimliklar istilo etgan Falastinda yuzaga kelgan. O‘shanda bosqinchilarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo‘lgan kishilar guruhi tuzgan maxfiy hamjamiyat a’zolari rimliklar bilan sulh uchun yon bosgan, bosqinchilarning boshqaruv apparatida lavozim egallagan yahudiy aslzodalar vakillarini qirganlar.

O‘rta asrlardagi eng mashhur terrorchilar tashkiloti deb ismoiliylar firqasini hisoblash mumkin. Bu sekte VIII asr o‘rtalarida yuzaga kelgan hamda hozirgi Eron, Afg‘oniston hududlarida va Yaqin Sharqdagi ayrim boshqa mamlakatlarda ish olib borgan.

Xashshoshiylar tashkiloti a’zolari g‘oya yo‘lida azob tortish va qurban bo‘lishni afzal ko‘rganlar. Ismoiliylar firqasi hozirgi terrorchilarning yashash ishtiyoqiga emas, balki qurban bo‘lish istagiga asoslangan mafkurasi manbalaridan biri. Bu sirli tashkilot mo‘g‘ullar 1256 yilda uning uyasi bo‘lgan Alamut qal‘asini zabit etgach tugatilgan.

Klassik terrorizm. Sikariylar, ismoil-xashshoshiylar va boshqa qadimgi sektalarning faoliyati siyosiy terrorizmning umumiyl kontekstida, albatta, juda soddadir. Shu bois ham, ularning davri prototerrorizm, ya’ni terrorizmga o‘xshash yoki hozirgi terrorizmning prototipi, proformasi, deb atalgan. Keyinchalik, buyuk inqiloblar davridagi Fransiyada terrorizm siyosiy kurashning jiddiy quroliga, to‘laqonli vositasiga aylandi.

Yevropada siyosiy qotillik avvaldan alohida shaxslar tomonidan

ham, tashkilotlar tomonidan ham amalga oshirilib kelganini aytib o'tish darkor. Fransuz inqilobiga qadar alohida-alohida ro'y bergani holda, muntazam harakat tusini olmagan edi. Fransuz inqilobi maskurachilari gina terrorni xalq ommasi qo'zg'olonini tayyorlash hamda hokimi-yani egallash maqsadida qo'llay boshladilar. Terrorizm rivojlanishi tarixining ushbu davriga muvofiq keluvchi ikkinchi bosqich klassik terrorizm bosqichi deb atala boshlandi.

An'anaviy terrorizm. Texnikaviy taraqqiyot – dinamitning ixtiro etilishi, shuningdek ommaviy axborot vositalarining va uni tuzatish usullarining, jumladan, telegrafning rivojlanishi yangi tipdagi terrorizmning yuzaga kelishiga ko'maklashadi. Terrorchilar qo'lida bomba kabi qudratli quroq paydo bo'lishi bilan ularning harakat ko'lami kengaydi, vayronkor, hunkor xususiyat kasb etdi. Terrorchilik harakatining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi esa, targ'ibot ta'sirchanligini ko'p marotaba oshirib yubordi.

XIX asrning oxiri Yevropa va AQSHda anarchistlarning uzlusiz terrori, Rossiyada terrorchilik kurashi va Irlandiya, Polsha, Bolqon hamda Hindistonda terrordan foydalangan holda milliy ozodlik uchun kurash davri bo'lib qoldi. Anarchistlar olg'a surgan doktrina mohiyatiga ko'ra so'z emas, balki terrorchilik harakatlarigina ommani hukumatga tazyiq o'tkazishga undashi mumkin.

XX asrning 30-40 yillari terrorizm tarixida u davlat darajasiga olib chiqilgan yangi davr bo'ldi. Misol tariqasida, fashistlar Germaniyasi keltiriladi, zero uning rahbariyati terrorizmni to'sqinlik qiluvchi muhim figuralarni bartaraf etish yo'li bilan siyosatni amalga oshirish vositasi sifatida ishga slogan edi.

Zamonaviy terrorizm. Terrorizmning mojarolarni keltirib chiqaradigan hodisa sifatidagi salohiyati, XX asrning 60-yillardan boshlab, ikki qutbli dunyoning qarama-qarshi turishi natijasida, butun-butun mintaqalar yo'nalishi turlicha bo'lgan terrorchi tashkilotlar va guruhiylar faoliyat ko'rsatgan joylarga aylanib qoldi.

Terrorchilik harakatining ko'lamigina emas, balki metodlari ham o'zgardi. Agar XIX asrda va XX asrning birinchi yarmida terrorga qurbanlar bilan qo'poruvchilik harakati ijrochilar o'rtaсиda aniq aloqa mayjudligi xos bo'lgan, ya'ni terrorchilar qurban sifatida muayyan davlat yoki jamoat arboblarini tanlashgan bo'lsa, XX asrning ikkinchi yarmida qurbanlar sifatida "aybli" hisoblangan tinch aholiga qarshi qaratilmoqda. Terrorchilar kishilar qalbiga sarosima va qo'rquv solish-

ga umid bog'lashmoqda va shunga intilmoqdalar. Lekin bu birdan-bir maqsad emas, balki muayyan siyosiy maqsadlarga erishish vositasidir.

Bir qator ob'ektiv omillar va holatlar hozirgi zamon terrorizmi hodisasi uzoq vaqt mavjud bo'lishiga ko'maklashadi:

1. Ayrim nufuzli siyosiy doiralar hamda davlatlarning terrorizmning mavjudligidan manfaatdorligi.

2. Terrorchilar faoliyatining maskuraviy (shu jumladan diniy mutaassiblik) va siyosiy jihatdan kuchli ta'minlanishi.

3. Terrorizmning Yevropa va Shimoliy Amerika bozorlarini ko'zda tutgan holda narkobiznes bilan tobora aniq qo'shilib borishi.

4. Terrorchi tashilotlarning yetakchi xalqaro korporatsiyalar, jahonning yetakchi mamlakatlarning moliyaviy-sanoat guruhlari hamda maxsus xizmatlari bilan uncha aniq bo'Imasa-da, so'zsiz o'zaro munosabatda bo'lishi.

5. Yuqorida tilga olingen terrorchilarning "ozini-o'zi moliyalash-tirish" jumladan, qurol-aslaha bilan savdo qilish, qimor va alkogol biznesi singari serdaromad sohalardan izchillik bilan siqib chiqarish bilan to'ldirilishi mumkin.

6. Hozircha juda kam hisobga olinadigan alohida omil – bu har qanday terrorchilik harakatining muqarrar alomathariga aylangan ommaviylik, ko'ngilocharlik va OAVning albatta ishtirokidir.

Terrorchilik tuzilishi ham maqsadiga qarab o'zgardi. Hozirgi zamon terrorizmi ko'lamiga monand jihozlangan qudratli tuzilmadir. Qachonlardir parokanda bo'lgan terrorchi tashkilotlar bugungi kunda umumiy masjuraviy-konfessial, harbiy, tijoriy va boshqa asoslarda o'zaro jips aloqa o'rnatishgan. Terrorchi guruhlar, ayniqsa, ularning rahbarlari qurol-aslaha sotib olish, bir-birini yashirish, keng ko'lami (masalan, Afg'oniston yoki Livandagi singari) operatsiyalarni amalga oshirishda funksiya va vazifalarni taqsimlash masalalarida ko'p hollerda jips aloqada ish olib boradilar. Xalqaro terrorchilar hamjamiyati kuch va vositalar bilan manyovr qilishni, ko'plab qurol-aslaha hamda jangarilarni nolegal yo'llar bilan bir joydan boshqasiga tashlashni o'rganib olganini ta'kidlash mumkin. Ayni paytda xalqaro terrorizmga qarshi kurashda foydalilaniladigan mavjud siyosiy va huquqiy mexanizmlarning nuqsoni ko'rinish qoldi. Bular: kuch ishlaturvchi idoralar ning davlat ichidagi va xalqaro ko'lamdagagi ishi lozim darajada muvofiqlashtirilmaganligi, turli mamlakatlardagi har-xil ijtimoiy-siyosiy kuchlarning zamonaviy terrorizmning kelib chiqishi va unga

qarshi kurash masalalariga munosabati xilma-xilligidir.

Xulosa qilib aytganda, terrorizm hozirgi bosqichda xalqaro, global xususiyat kasb etdi. U XX asrning 80-90 yillardan boshlab murakkab hodisaga aylandi. Terrorizmning globallashuvi va tobora kengroq bay-nalmillashib borayotgani bugungi kunda baxs talab qilmaydigan fakt bo‘lib qoldi. Shu bois, bir qator tadqiqotlarda terrorizm, uning xavfsizlikka ta’siri borasidagi turli qarashlar shakllanmoqda.

### *Xalqaro terrorizmning mintaqavly rivojlanish bosqichlari*

Qadimda yuzaga kelgan terrorizm bizning kunlarga qadar har jihatdan muntazam o‘zgarib, evolyutsiyaga uchrab, rivojlanib keldi va XX asrning ikkinchi yarmida o‘zining yuqori darajasiga etdi. Aynan o‘tgan asrning 50-yillardan boshlab jahon haritasida ko‘plab keskinlik o‘choqlari yuzaga keldi. Ayni vaqtida insoniyatning Irlandiya muammosi, AQShdagi irqchilik, Yaqin Sharqdagi nizolar, Shimoliy Afrikadagi mustamlakachilikka qarshi harakat singari va boshqa ko‘plab muammolar bir vaqtning o‘zida kuchaydi.

Shu bois, terrorizmning rivojlanish bosqichlari har bir minaqada sodir bo‘lmoqda va faoliyat yuritmoqda. Mazkur voqelikni hisobga olgan holada terrorizmning mintaqavly rivojlanish bosqichini aniqlashda uni quyidagi mintaqalarga ajratgan holda bayon etish maqsadga muvofiq sanaladi:

1. Osiyo mintaqasi. Tabiiyki, Osiyoda terrorizmning rivolanish bosqichlar borasida fikr yuritganda dastavval musulmon davlatlaridan faoliyat yuritayotgan bir qator terroristik tashkilotlar va oqimlar faoliyatiga e’tibor qaratishadi. Biroq, o‘z diniga e’tiqod qiluvchi mamlakatlarda ham terroristik guruhlar faoliyati inkor etib bo‘lmaydigan hodisadir. Shunday ekan, XX asrning 60-yillari oxirida nafaqat G‘arbiy Yevropa terrorchilik tashkilotlari, balki Osiyodagi so‘l terrorchilar ham faollahshdi. Bunday harakat, ayniqsa, Yaponiyada keng yoyildi. Bu turdagи ko‘zga ko‘ringan tashkilotlardan biri “Yaponiya Qizil Armiyasi” – “Nippon Sekigun” bo‘ldi. U talabalarning “Zengakuren” tashkiloti negizida tuzilgan bo‘lib, 1968 yilda Tokiodagi talabalar tartibsizliklarni uyushtirgan edi.

Janubiy Osiyo mintaqasi ham bugungi kunda Osiyoning bir qismi sifatida yirik terroristik tashkilotlar ildiz otgan mintaqa sanaladi. Masalan, XX asrning ikkinchi yarmida Shri-Lanka Osiyodagi keskinlik va beqarorlik manbalaridan biriga aylandi. Juda ko‘plab har xil qonuniy, yarim qonuniy va noqonuniy tashkilotlar ayni shu erda

tuzilgan bo‘lib, ulardan eng mashhuri va keng ko‘lamlisi “Tamil Ilamni ozod qiluvchi yo‘lbarslar” (“Liberation Tigers of Tamil Eelam” - LTTE) guruhi edi. Bu guruh 1976 yilda Shri-Lanka hududida Tamil davlatini tuzish maqsadida tashkil qilingan edi .

TIOY dastlabki yillarda qo‘poruvchilik ishi bo‘yicha tajriba orttiridi, kuch va zahira to‘pladi, 1983 yildagina Shri-Lanka hukumati bilan qurolli to‘qnashuvga kirishdi va shu jarayonda, harbiy hamda fuqaro infratuzilmalari ob‘ektlarni yo‘q qilish, hukumatga psixologik hamda siyosiy tazyiq o‘tkazish uchun, terrorizm taktikasini qo‘llagan holda, urush olib borishning partizanlarga xos strategiyasidan foydalanandi.

Biroq, bugungi kunda ekstremistlarning g‘oyalari musulmon jamoalar mavjud bo‘lgan hamma joyda, shu jumladan Janubi-Sharqiy Osiyoda ham yoyilgan.

Pokistondagi eng rivojlangan va uyushgan terrorchilik tashkilotlaridan biri “Harakat ul-Mujoxiddin” (“Din uchun kurashchilar harakati”), “Al-Hadid”, “Al-Faran”dir. Zotan, ayrim ma'lumotlarga ko‘ra, “Al-Faran” - bu “Harakat ul-Mujohiddin” bilan jips hamkorlikda ish olib borayotgan boshqa bir tashkilot yoki uning bo‘linmalaridan biri.

“Harakat ul-Mujohiddin” XX asrning 80-yillari boshida Panjobda radikal islom faollari tomonidan tuzilgan edi. Guruhning dastlabki maqsadi Afg'onistonidagi sovet qo‘sishinlariga qarshi kurashish va afg'on qochoqlariga ko‘maklashish bo‘lgan. Afg'on – sovet urushi tugagach, “Harakat ul-Mujohiddin”ning ko‘psoni otryadlari ishsiz qolib, tashkilotning umuman mintaqada G‘arbning ta'siriga qarshi va musulmon mamlakatlarida, shu jumladan Pokistonning o‘zida ham dunyoviy hukumatlarga qarshi kurash yo‘lini tutdi. Ishning bu tariqa o‘zgarishi Pokiston hukumatini aslo qoniqtirmasdi, binobarin, ayrim ma'lumotlarga ko‘ra, Pokiston maxsus xizmatlari ayni shu paytda Kashmirning Pokistonga qo‘shilishi uchun kurashayotgan terrorchilik guruhlarini qo‘llab-quvvatlay boshlaganliklari bois “Harakat ul-Mujohiddin”ning ishsiz qolgan jangarilaridan foydalanishga qulay imkoniyatlar tug‘ildi.

Tashkilot yetakchisi mavlono Saodatullo Xon bir necha bor bayon etganidek, uning asosiy vazifasi islomga qarshi kuchlar bilangina emas, balki Kashmirning Pokistonga qo‘shilishi uchun ham kurashishdir. Shu munosabat bilan “Harakat ul-Mujohiddin” Kashmir masalasini hal etishda Hindiston bilan Pokistonning qanday bo‘lmasin, tinch muloqot qilishiga keskin qarshi chiqar edi. Tashkilot, bundan tashqari. Pokiston

hududida islom boshqaruvini o'tkazishga intilib, mamlakat hukumati dan raketa texnologiyalarini boshqa musulmon mamlakatlarga berishni bir necha bor talab qilgan edi.

"Harakat ul-Mujahiddin"ning deyarli barcha lagerlari, Afg'oniston hududining 1998 yilda va 2001-2002 yillarda Amerika tomonidan bombardimon qilinishi natijasida, hozirgi paytda analda to'liq vayron qilingan. Bu holat guruhning kuchini ancha qirqdi va uni faol terrorchilik faoliyatidan chekinishga majbur etdi.

Yaqin Sharq mintaqasida ham hozirda bir qator terrorchilik va ayrimachilik faoliyat yuritayotgan guruhlar maqjud. Jumladan, Turkiyada 1974 yilda shu mojaro ta'sirida markscha-leninchha qo'zg'onlonchilar guruhi – "Kurdiston Ishchi partiyasi" (KIP) tuzilgandi. Dastlabki kunlardanoq uning asosiy maqsadi Janubi-Sharqi Turkiyada mustaqil qurd davlatini tuzishdan iborat bo'ldi. KIP a'zolari qo'yilgan maqsadga tinch, siyosiy vositalar bilan erishish mumkin emasligiga ishonch hosil qilishganidan keyin, 90-yillar boshida turk hukumatiga shaharda partizanlar urushini e'lon qilishdi. Bu paytga kelib KIP jangarilari soni 5 ming kishiga etib qolgandi. Bundan tashqari, butun Turkiya bo'ylab, hatto, Yevropada ham minglab qurdlarga xayrixohlar bor edi.

KIP jangarilari Turkiya sayyoqlik biznesi rivojlanishiga to'sqinlik qilishga urinib, mehmonlarni portlatishar va chet ellik turistlarni o'g'irlashardi.

Suriya hukumati 1998 yilda KIP rahbari Abdulla O'jallani hibsga olib, Turkiyaga topshirdi. Shundan so'ng KIP tinch qarama-qarshi turish to'g'risida rasman bayonot berdi. Biroq, turk maxsus xizmatlari ma'lumotlariga ko'ra, kurd terrorchilari tinch qarama-qarshi turishga hech intilishmayapti. KIP, shuningdek, dunyoning turli qismlarida kurdлarning o'zini-o'zi yoqib yuborishini uyuştiruvchi tashkilot sifatida ham ma'lum .

2. Afrika qit'asi. Barcha qit'alarda va dunyoning barcha joylarida avj olib ketgan qonli voqealar oldida Shimoliy Afrika yaqin-yaqingacha nisbatan barqaror bo'lib keldi. XX asrning 90-yillaridan boshlab mintaqa mamlakatlari, eng avvalo, Jazoир, Sudan, Liviya, Marokash aqidaparastlarning Shimoliy Afrikada yirik diniy davlatni tuzish uchun kurashi maydoniga aylanib qoldi.

Shuni aytish kerakki, Shimoliy Afrika mamlakatlari XX asrning ikkinchi yarmi boshlaridayoq diniy yo'nalishdagi turli guruhlar tuzilib, ish olib borishgan edi. Masalan, shu davrda Jazoirda "Al-Qiyam"

(“Islom qadriyatlari”) guruhi yuzaga kelgan edi. Bu tashkilot rahbarlari mamlakat hukumatining sotsialistik yo‘nalishi islomga yot hodisa sifatida oshkora qoralangan edi. 60-yillarda “Al-Qiyam” faollari “gunoh manbalari” - kabare, kafe, spirt-aroq zavodiga qarshi bir qator terroristik harakatlarni amalga oshirganlar.

Lekin Jazoirda terrorchi guruhlar faoliyati murakkabroq, 1979 yildan, mamlakat prezidenti Xuari Bumeden vafotidan keyin faollasha boshladi. Shu vaqtadan boshlab, arablashtirish jarayoni jadallahdi, u amalda, bir tomondan, kitob bozorida tegishli adabiyotlar soni haddan tashqari ko‘payib ketgani va ularning bepul tarqatilishida, ikkinchi tomonidan, mamlakatda Misrda radikal islomizmning tiklanishi jarayonini o‘tgan arab tili o‘qtuvchilari ko‘payib ketganidan namoyon bo‘ldi. Taklif etilgan o‘qituvchilarning ko‘pchiligi “Musulmon birodarlar” tashkiloti a‘zolari bo‘lib, ekstremistik ko‘rsatmalarni faol yoyishar edi.

Keyinchalik Jazoirda mamlakatda dunyoviy hukumatni ag‘darib, islomiy rejimni o‘rnatishga intilayotgan boshqa bir diniy guruh tashqil qilindi. U “Qurolli islom guruhi” (QIG) deb nomlanib, yetakchisi Xasan Xattob (Chechenistondagi voqealardan ma'lum bo‘lgan Xattob bilan chalkashtirmaslik kerak) tashkilot tuzilgan dastlabki kunlardanoq uning maqsadini: “Noislomiy tashkilotlarni terror qilish va Yevropada yashovchi musulmonlarning kayfiyatini keskinlashtirish”, - deb belgiladi.

Biroq, 80-yillar oxiriga kelib Jazoirda ko‘pchilikning nazarida o‘z tarixining qonli sahifasi yopilgandek bo‘ldi – terrorizm va zo‘ravonlik to‘lqini pasayib, yo‘qqa chiqa bordi. Qurolni yig‘ishtirib qo‘ygandek ko‘ringan mamlakat ekstremistik guruhlari 1992 yildan boshlab o‘z maqsadlariga erishish uchun qaytadan terrorni qurol qilib olishdi. Odatda, xavfsizlik organlari agentlari, hukumat amaldorlari, dunyoviy rejimni qo‘llab-quvvatlayotgan jurnalistlar, o‘qituvchilar hujumga duchor bo‘ldilar. QIG jangarilari otishmalardan, portlatishlardan, shu jumladan avtomobilarni portlatishlardan, o‘g‘irliklardan, samolyotni olib qochishdan foydalanishar edi. 1993 yil sentyabrda tashkilot yetakchilari chet elliklarga qarshi kampaniyani boshlaganliklarini e‘lon qildilar. Ushbu jarayonda 100dan ziyod odam o‘ldirildi. Fransiya ob‘ektlari ayniqsa ko‘p hujumga duchor bo‘ldi. Air Frans samolyoti olib qochildi (1994 dekabr), Fransiya hududida bir qator qo‘poruvchilik harakatlari sodir etildi (1995).

QIG rahbari o‘zining odamlari ibodat qilishdan yoki zakot to‘lashdan bosh tortgan kishi borki, barchasini o‘ldirishlarini bayon qildi. Dunyoviy

sudga murojaat qilganlarni ham o'lim kutadi. Ko'chaga noshar'iy kiyimda chiqqan ayollarning ham taqdiri shunday bo'ladi. Jazoitliklar barcha masalalarini hal qilishda shariat huquqi bo'yicha mutaxassislar mayjud bo'lgan QIGga murojat qilishlari lozim, degan edi u.

"Qurolli islam guruhi"ning boshqa terrorchi tashkilotlardan farqli xususiyati shunda ediki, u ierarxiyalashgan tuzilmaga ega bo'lмаган edi va hozir ham ega emas, katta bo'lмаган mustaqil yacheykalar tarzida ish olib brogan edi. Shunga qaramay, tashkilot jangarilari soni bir necha ming kishiga yetgan edi.

3. Yevropa mintaqasi. Yevropa mintaqasida terrorchi tashkilotlarning asosiy jihatlari nisbatan ayirmachilik va millatchilikka asoslangan. ETA terrorchi tashkiloti. Milliy ayirmachilik yo'nalishdagi bu terrorchi guruh o'tgan asrning 50-yillari o'rtasida radikal kayfiyatdagi bask so'l millatchilari tomonidan tuzilgandi. Biroq uning eng yangi tarixi ildizi fuqarolar urushi, diktator Fransisko Franko tomonidan amalga oshirilgan Gernika bombardimoni yillariga va 1937 yilda Basklar mamlakati muxtoriyatining tugatilishi davriga borib taqaldi.

Frankochilar davrida basklar kamshitilgandi – ularning tili taqiqlangan, madaniyati yashirin holatda edi. Ayni shu vaziyat bu paytgacha ispanlar bilan tinch-totuv yashab kelgan basklarning "urush e'lon qilishiga" asosiy sabab bo'lgan edi.

ETA 1894 yilda tuzilgan Bask Milliy Partiyasidan ajralib, 1950-yillarda tor-mor qilingan partizanlar harakati o'rniga kelgandi. ETAning asosiy maqsadi Shimoliy Ispaniya va Janubiy Fransiya hududida bask davlatini tuzishdan iborat edi. ETA a'zolari 1979 yilda o'z tarixlarida birinchi marta sotsialist – German Gonsalesni o'ldirishgach, ular marks-chilar jumlasidan chiqarilib, terrorchilar sifatida atala boshlandi.

Tashkilot ichida qat'iy tartib-intizom saqlanar – hiyonatkor juda shafqatsizlik bilan jazolanar edi.

Dastavval ETA yakka-yakka siyosiy qotillik yo'lidan bordi. Biroq keyinchalik basklar yalpi qirg'inga olib keladigan teraktlarni uyushtira boshlashdi. Chunonchi, 1980 yilda ETAning xilma-xil ko'lamdagi aksiyalari oqibatida bir yil ichida turli joylarda 118 kishi halok bo'ldi. 1987 yilda esa, Madriddagi supermarketda sodir etilgan portlatish tinch aholidayan 21 nafar kishining umriga zomin bo'ldi.

So'l terroni qurol qilib olgan boshqa bir tashkilot – Italiya "Qizil Brigadalari"ning faoliyati "Qizil Armiya Fraksiyasi"ning jinoyatiga qiyoslasa bo'ladi. Ushbu ikki tashkilotning faqat nomi emas, balki

jinoiy harakatlari xususiyati, ularni amalga oshirish metodlari hamda moliyalashtirish manbalari ham yaqin edi .

“Qizil Brigadalar” yoki “Brigade rossi” (BR)ni Trent universite-tining radikal kayfiyatdagi bitiruvchilari Renato Kurcho, Alberto Francheski va Margarita Kagollar tashqil etgan. “Qizil Brigadalar” tashkiloti tuzilgani haqidagi dastlabki xabar 1970 yil oktyabrda Italiya matbuotida ko‘rindi, noyabr oyiga kelib esa “Pirelli” firmasi zavod-larida dastlabki portflashlar sodir bo‘ldi .

4. Shimoliy Amerika: AQSh. Hozirgi kunda AQSh, XX asrning ikkinchi yarmi nafaqat Yevropa, Osiyo yoki Yaqin Sharqda, balki AQShda ham terrorizm avjiga chiqqan vaqt bo‘lganini unutgandek, xalqaro maydonda o‘zini terrorizmga qarshi asosiy kurashchi sifatida ko‘rsatishga harakat qilmoqda. Mashhur “Ku-kuks-klan” faoliyati avj olgan davr 20-yillarga to‘g‘ri kelgan bo‘lsada, AQShda amerikaliklar ko‘z o‘ngida negrlarni vaxshiy o‘ldirish Ikkinchiji jahon urushidan keyin ham davom etdi. Bu esa AQShda oq tanli irqchilarni bundan qolish-maydigan vaishiylilik bilan o‘ldirgan “Qora qoplonlar”ning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Bu harakat mamlakat bo‘ylab tez tarqaldi. 1988 yil yoziga kelib “Qora qoplonlar” soni 2 ming kishiga etdi, Nyu-Yorkda, Bruklinda, bir necha oydan keyin esa Garlemda ham uning bo‘limlari tashqil qilindi.

«Qoplonlar»ning shov-shuvga sabab bo‘lgan ajralishi shundan keyin ro‘y berdi. Sobiq faollarning bir qismi qonuniy siyosatga «kitishib ketdi». Ular uchun «Qora qoplonlar»ning asl maqsadlari Amerikada umum qabul qilingan normalarga aylangani, endi bu maqsadlar uchun qo‘lda qurob bilan kurashish zarurati qolmagani asosiy bahona bo‘ldi. “Qoplonlar”ning boshqa bir qismi radikalizm va zo‘ravonlikdan holdan toygan edi. Avvaliga “Qoplonlar”ni qolishga intilish bo‘lgan esa-da, bir necha yildan keyin ularning harakati yo‘qqo chiqdi va tashkilot tugatildi.

Biroq “Qora qoplonlar”ning eng murosasiz jangarilari jahondagi turli so‘l radikal terrorchi tuzilmalar tarkibiga singib, kurashni davom ettirdilar.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etib o‘tish joizki xalqaro terrorizmning mintaqaviy rivojlanish bosqichlari xalqaro terroristik tashkilotlarda o‘z aksini ko‘rsatgan va ularning soni kundan-kunga ortib bormoqda. Terrorchilar faol bo‘lgan markaz muntazam o‘zgarib turmoqda. Agar XX asrning 40-50 yillarda terrorizm G‘arbiy Yevropada yuksalgan

bo‘lsa, 60-70 yillarda yetakchilik Lotin Amerikasi ko‘chdi. 80-yillarda ularning o‘rnini Osiyodagi millatchilik guruhlari egallahashdi. Bugungi kunda esa, Yaqin Sharq mojaroni yuzaga keltiruvchi eng katta salohiyatga ega. U yerda yuzaga kelgan aqidaparastlik Yaqin Sharqqa qo‘sni bo‘lgan ko‘plab mintaqalarni qamrab oldi va butun dunyonи egallahsga erishdi.

### ***Terrorizmga qarshi kurash sohasida xalqaro konventsiyalar***

Global xavfsizlikka asosiy tahididlardan biri zamonaviy davrda turli shakl va ko‘rinishdagi xalqaro terrorizm bo‘lib, mazkur tahdidiga qarshi birgalikda kurash bir qator tashkilotlarning vazifalari sifatida belgilangan. Jumladan, Markaziy Osiyo va unga chegaradosh mintaqalardagi mazkur tahdidning faollik darajasi yuqori bo‘lib, xalqaro terrorizmga qarshi kurash milliy va mintaqaviy xavfsizlikning asosiy sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonlik olim Markaziy Osiyoda bunday tashkilotlarga nisbatan “aksilterror bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi bozor” sifatida ta’rif berib, ular qatorida Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tadi. ShHT bugungi kunda xalqaro terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashda faol siyosat olib borayotgan tashkilotlardan biri hisoblanadi.

Geosiyosiy jihatdan baholaganda, ShHTning hududi 30 mln.189 ming kv. km, Yevroсиyo mintaqasining 3/5 (60%) qismini tashqil etadi. Aholisi 1.5 mlrd. atrofida bo‘lib, butun jahon aholining  $\frac{1}{4}$  qismini tashqil etadi. Bundan tashqari, ShHT BMT Xavfsizlik Kengashining ikki doimiy a’zosi - Rossiya va Xitoyni o‘zida birlashtirgan.

ShHT 2001 yil 15 iyunda tashqil topgan, hukumatlararo xalqaro tashkilot hisoblanadi. ShHTning ikkita doimiy organi mavjud bo‘lib, birinchisi Pekin shahrida joylashgan tashkilot Kotibiysi, hozirda Bosh kotib – Qиргизистон vakili M.S.Imanaliev (2010 yil yanvar); ikkinchisi Toshkent shahrida tashqil etilgan Mintaqaviy aksilterror boshqarmasi, Ijrochi direktori – Qozog‘iston vakili D.M.Djumanbekov (2010 yil yanvar).

ShHTning asos hujjatlari hisoblangan Xartiya (yil) va Deklaratsiyasiga (2002 yil 7 iyun) muvofiq tashkilotning asosiy maqsadlari quyidagicha belgilandi:

- a’zo-davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, do‘stlik va yaxshi qo‘sning nichilikni mustahkamlash;

- siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ta’lim, energetika, transport, ekologiya va boshqa sohalarda samarali hamkorlikni

rivojlantirish;

- birgalikda sa'y-harakatlar bilan mintaqaviy tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash;

- demokratik,adolatli va ratsional siyosiy va iqtisodiy xalqaro tartibni qo'llab-quvvatlash;

Ma'lumki, Shanhay hamkorlik tashkilotining asosiy maqsadlaridan biri “uch yovuz kuch” – terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashdir. Tashkilotning mazkur sohadagi faoliyatini ikki davrga ajratish mumkin:

Birinchi davr – “Shanxay beshligi” (1996-2001 y.). Mazkur davr asosan tashkilotning shakllanishi va mintaqada xavfsizlikni ta'minlash bog'liq masalalarda hamkorlikni chuqurlashtirish zarurligini ilgari surilganligi bilan xarakterlanadi.

Ikkinci davri – “ShHT” (2001-hozirgi kunga qadar). Bu davrda tashkilotning tashqil topishi huqqiy va amaliy jihatdan to'liq yakunlandi va xalqaro terrorizmga qarshi birgalikda kurashning samarali mexanizmlari va kuchli huquqiy asoslari shakkantirildi. 2001 yilgi Shanhay shahridagi tashkilotning navbatdagi sammitida O'zbekiston hisobiga kengaytirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

ShHTning hozirga qadar xalqaro terrorizmga qarshi kurashidagi faoliyatini tahlil etganda quyidagi o'ziga xos jihatlar va yutuqlarni kuzatish mumkin:

Birinchidan, xalqaro terrorizmga qarshi kurashda a'zo davlatlar o'radsida 2001 yil 15 iyunda yagona bitim – Shanxay konvensiyasi ishlab chiqildi. Ushbu konvensiya 21 moddadan iborat bo'lib, xalqaro terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashda a'zo davlatlar hamkorligini tamoyillari va yo'nalishlarini belgilab bergen.

Ikkinchidan, ShHT doirasida doimiy organ sifatida 2004 yillan o'z faoliyatini boshlagan Toshkent shahrida Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT -RATS)ning tashkil etilganligi hisoblanadi. Mintaqaviy aksilterror tuzilmasining funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash masalalari bilan shug'ullanuvchi davlatlar va xalqaro tashkilotlar organlari o'rta-sidagi ishechi muloqotlarni qo'llab-quvvatlash;

2. a'zo-davlatlarga aksilterror mashg'ulotlarni tayyorlash va amalga oshirishga yordam berish, terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashda tezkor qidiruv va boshqa tadbirlarni tashkillashtirish va amalga oshirishga ko'maklashish;

3. terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash masalalariiga oid xalqaro huquqiy hujjatlarni tayyorlashda ishtirok etish;

4. MATTga taqdim etilgan ma'lumotlarni yig'ish va tahlil etish, tuzilmaning ma'lumotlar bazasini shakllantirish va to'ldirib borish;

5. Global tahdid va chaqiriqlarga qarshi tura oladigan samarali tizimni tashkil etishda ishtirok etish;

6. Terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash masalalri bo'yicha ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar tashkil etish va o'tkazish, tajriba almashishga ko'maklashish;

Aytish numkinki, hozirda tuzilma xalqaro terrorizmga qarshi qurashda bir qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. Masalan, MATM (RATS) doirasida 2006 yil yozda ShHT davlat va hukumat rahbarlarining "Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo-davlatlarning 2007-2009 yillarda terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi hamkorlik dasturi" qabul qilinishi shular jumlasidandir.

Uchinchidan, ShHT tashkiloti endilikda terrorizmga qarshi kurash faoliyatini kengaytirib, mazkur muammoning o'chog'i hisoblangan Afg'oniston humumati bilan yaqindan hamkorlikni amalga oshirish siyosatini yuritmoqda. Shu bois 2004 yil ilk bor Afg'oniston Prezidenti X.Karzay O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan taklif etilgan edi. 2005 yildan boshlab tashkilot doirasida "ShHT-Afg'oniston" muloqot guruhi tashqil etildi. Shanxay 2006 yil va Bishkek 2007 yilgi sammitlarida Afg'oniston vektori mustahkamlanib bordi. Endilikda tashkilotning sammitlarida Afg'oniston rahbariyati muntazam taklif etilmoqda, xususan, 2010 yil Toshkentdagi ShHT a'zo davlatlarning davlat va hukumat rahbarlari sammitida ushbu holatni kuzatish mumkin.

To'rtinchidan, ShHT xalqaro terrorizmga qarshi kurashda mazkur tahdidning moliyaviy manbai hisoblangan narokobiznesga qarshi kurashni o'z faoliyatini ustivor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Xususan, 2006 yil 21 aprelda ShHT jahonda terrorizmning moliyaviy manbai asosi hisoblangan xalqaro narkomasiyaga qarshi kurash rejasini e'lon qildi. 2007 yil 1 oktyabrda ShHT sobiq bosh kotibi B.Nurgaliev a'zo davlatlarni afg'on yo'nalishida narkotik tahdidga qarshi birgalikda kurashni jadallashtirishga chaqirdi .

Beshinchidan, ShHT doirasida a'zo davlatlar aksilterror mashg'u-lotlarini amalga oshirish va qo'shma harbiy operatsiyalarni tashqil etish va olib borish bo'yicha kelishuvga erishdi. Dastlab, 2005 yil avgustda

Xitoy va Rossiya birgalikda “Tinchlik missiyasi - 2005” nomli aksilterror mashg‘ulotlarini amalga oshirdilar. Keyinchalik mazkur mashg‘ulotlar har yili amalga oshirilishi rejalashtirildi. ShHT doirasida keyinchalik amalga oshirilga “Sharq aksilterror-2006”, “Tinchlik missiyasi-2007”, “Volgarad-aksilterror - 2008”, “Tinchlik missiyasi-2009” kabilar bunga misol bo‘la oladi.

Oltinchidan, ShHT hozirda xalqaro maydonda o‘z maqomini mustahkamlash, global tahdidlarga qarshi samarali kurashda bir qator xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘moqda va bu borada bir qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. ShHT ayni vaqtida, MDH va ASEAN tashkilotlari bilan o‘zaro bir-birini tushunish to‘g‘risida Memorandum imzolagan. 2009 yil 18 dekabrda BMT Assemblyasi 64-sessiyasida “BMT va Shanxay hamkorlik tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlik to‘g‘risida”gi rezolyutsiya (Rezolyutsiya A/64/183) qabul qilindi. O‘zbekistonning tashkilotga raisligi davrida Toshkentda 2010 yil 5 aprelda BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning mamlakatimizga tashrifi chog‘ida mazkur hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolangan edi. Bu esa O‘zbekistonning ShHTga rahbarligidagi katta yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Ta‘kidlash joizki, ShHT faoliyati va uning xalqaro terrorizmga qarshi kurashda O‘zbekiston Respublikasi faol ishtirok etib kelmoqda. Aynan Toshkent shahrida tashkilotning MATT tashqil etilganligi buni isbotlaydi. Xususan, O‘zbekiston 2009-2010 yil davomida ShHTga raislikni amalga oshirdi. Mazkur davrda bir qator xalqaro ekspertlar O‘zkiston raislik faoliyatiga ijobiy baho bergenligini kuzatish mumkin. F.Ebert nomidagi jamg‘arma vakili R.Shubert, O‘zbekistonning ushbu tashkilotdagi muvaffaqiyatli raisligi Markaziy Osiyoda haqiqiy mintaqaviy integratsiyalashuvning kuchayishiga xizmat qilishini ta‘kidlab o‘tgani.

2010 yil 10-11 iyunda Toshkentda ShHT a’zo davlatlarining davlat va hukumat rahbarlari sammiti bo‘lib o‘tdi. Ushbu sammit tashkilotning bir yillik faoliyatiga, O‘zbekiston raisligining topshirilishi munosabati bilan tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy jihatlarini quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchidan, sammitning bosh hujjati sifatida yakuniy Deklaratsiya qabul qilindi. Unda ShHTning rivojlanish masalalari, Markaziy Osiyon va Markaziy Osiyodagi faoliyati baholangan.

Ikkinchidan, ShHTga yangi a’zolarni qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom imzolandи. U darhol birorta yangi davlatga tashkilotga qabul qilinish majburiyatini yuklamaydi, ushbu yo‘nalishdagi huquqiy

bazalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ShHT protsedura qoidalari imzolandi. Ushbu qoidalari tashkilotga demokratik, ochiqlik imkoniyatlarini beradi va a'zo davlatlarning teng huquqligini ta'minlaydi. Muayyan qaror qabul qilinishida birorta davlat qarshi chiqsa, qaror qabul qilinmaydi.

To'rtinchidan, "Qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlik to'g'risida", "Jinoyatchilikka qarshi kurash borasida hamkorlik to'g'risida"gi hukumatlararo shartnomaga qabul qilindi.

Beshinchidan, mazkur yil uchun davlat rahbarlari Bosh kotibning ShHT faoliyati to'g'risidagi dokladini va MATT kengashining mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ishi to'g'risidagi dokladini maqulladilar.

ShHTning xalqaro terrorizmga qarshi qurash va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi onil sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. ShHT maqomi borasida a'zo yetakchi davlatlar o'rtaida bir yoqlama yondashuvning mayjudligi. ShHTning o'ziga xos jihatlaridan biri NATO singari harbiy blok hisoblanmaydi, shu bilan birga xavfsizlik masalalari bo'yicha ASEAN Mintaqaviy Forumi singari doimiy ochiq tashkilotlar sirasiga ham kirmaydi. Bundan tashqari, Xitoy tashkilotning hamkorlik yo'nalishlari aksilterror faoliyati va iqtisodiy hamkorlik o'rtaida teng bo'linishi kerak, istiqbolli iqtisodiy strategiyalar tashkilotning kelgusi faoliyatida yetakchi o'rinni egallashi zarur deb hisoblaydi. Rossiya, aksincha, ShHTning an'anaviy yo'nalishdagi faoliyatini saqlab turish, "uch yovuz kuch"ga qarshi kurash yo'nalishini saqlab qolish tarafdori.

2. ShHTning terrorizmga qarshi kurashdagi huquqiy bazasi mukammal emasligi. Tashkilot tomonidan 2001 yildayoq "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Shanxay konvensiyasi qabul qilingani ijobjiy jihat hisoblanadi. Biroq siyosatshunos olim Ch.Ko'charov ta'kidlaganidek, konvensiyada bir qator kamchiliklarni kuzatish mumkin. Terroristik aktlarni sodir etishda qatnashadigan shaxslarning mablag'lari va boshqa moliyaviy manbalari yoki iqtisodiy resurslarni to'sib qo'yishga qaratilgan BMT Xavfsizlik Kengashining 1373 sonli Rezolyutsiya qoidalari Qonvensiyada aniq qilib belgilab berilmagan.

3. Xavfsizlik sohasida ShHT va KXShT (ODKB) hamkorligini kengaytirishning ayrim a'zo davlatlar tomonidan maqbul ko'rilmasligi. Bugungi kunda ShHTning terrorizmga qarshi kurashda salohiyatini

yuksaltirish maqsadida KXShT bilan yaqindan aloqalarini amalga oshirish borasida qarashlar kuchayib bormoqda. KXShT ham bevosita transmilliy tashdidlarga qarshi kurash maqsadida tashkil etilgan tashkilot hisoblanib, ikki tashkilotni asosan hamkorligi chuqurlashtirish Rossiya tomoni tashabbusi bilan ilgari surilmoqda. Ammo tashkilotda nisbatan kichik ta'sirga ega a'zo davlatlar ushbu siyosatni geosiyosiy qaramlik shakli sifatida baholab va ShHTning harbiy blokka aylanishi olib keiishi ehtimoli mavjudligi sababli qo'llab-quvvatlashmayapti. O'zbekistonning ShHTdagi raisligi borasida fikr bildirgan Dehli universiteti professori Xolid Alvining hisoblashicha, O'zbekiston ShHTda raisligi davridagi o'z faoliyatining asosiy yo'naliishlarini aniq belgilab oldi: "ShHT tashkil topgan vaqtdan boshlab, Toshkent ushbu tashkilot doirasidagi hamkorlikni faqat barqarorlik va xavfsizlik masalalari bilan chegarab qo'ymasdan, balki, savdo-iqtisodiy, yangi transport yo'lagini tashkil etish kabi sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish tarafdori bo'lgan", deya fikr bildirgan.

4. ShHTning kengayish masalalari va bu boradagi mavjud muammolar. Mazkur omil ham hozirda tashkilotning halqaro terrorizmga qarshi kurashdagi faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda.

5. ShHTning jahondagi turli tashkilotlar bilan aloqalari mayjud bo'lishiga qaramay, ular bilan keng hamkorlikni amalga oshirishda samarasiz faoliyat yuritishi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda xalqaro terrorizmga qarshi kurash jahondagi ko'plab xalqaro va mintqaviy tashkilotlarning faoliyat yo'naliishiga aylangan bo'lib, ular ushbu xavfini bartaraf etishda samarali vosita hisoblanadi. ShHT ham mazkur xavfqa qarshi faol kurashni amalga oshirmoqda. Garchi hozirda ShHTning samaradorligini ta'minlashda muammolar bo'lishiga qaramay, tashkilotning xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi: Birinchidan, tashkilot xalqaro terrorizm tahdidi ildiz otgan Afg'oniston chegarasidagi mintaqqa davlatlari birgalikda kurashni amalga oshirish yo'lida birlashtira oldi; Ikkinchidan, BMT, MDH, ASEAN singari tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatish orqali terrorizmga qarshi kurashda xalqaro tashkilotlar tajribasi va salohiyatidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa ShHT nafaqat O'zbekistonning, balki barcha a'zo davlatlarning tashqi siyosatida o'rni va ahamiyati oshib borayotganini ko'rsatadi.

#### *Xalqaro terrorizmga qarshi kurashishda BMT ning roli*

BMTning bosh maqsadi global xavfsizlikni ta'minlash va ushbu

yo‘nalishda tashkilot nizomiga ko‘ra BMT xalqlar va millatlar harakatlarini muvofiqlashtirish markazi hisoblanadi. Shu bois, global barqarorlikka asosiy tahdid - terrorizmga qarshi kurashda xalqaro javobgarlik bevosita BMT zimmasidagi vazifa sanaladi.

BMT Ustavida tashkilotning bosh maqsadi “xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo‘llab-quvvatlash” deya belgilangan va ushbu maqsadga erishish yo‘li ham ko‘rsatilgan: “tinchlikka bo‘lgan tahdidning oldini olish va tugatish, agressiya aktlarini va tinchlikning buzilishini bosh-qacha ko‘rinishlarini bostirish uchun kollektiv choralarни samarali qo‘llash”. Shuningdek, BMT Ustavining muqaddimasida xalqaro tinchlikning quyidagi asoslari ko‘rsatib berildi: urushga barham berish; asosiy inson huquqlarini ishonchli mustahkamlash; xalqaro huquqning ahamiyatini oshirish; ijtimoiy taraqqiyotga yordam berish va erkin hayot shart-sharoitlarini yaxshilash hamda shu maqsadda uchta asosiy shartni bajarish: birgalikda, yaxshi qo‘sniichilik munosabatlarida tinch-totuv yashash; xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash uchun kuchlarni birlashtirish; qabul qilingan prinsiplar va usullarni o‘rnatish orqali qurolli kuchlardan umumiy manfaatlarda foydalanish kabilar shular jumlasidandir .

BMT tashkiloti 1945 yil 24 oktyabrda rasman o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lsada, tashkilotning xalqaro terrorizmga qarshi kurash faoliyatining tarixiy ildizlari 1937 yilga, uning o‘tmishdoshi Millatlar Ligasi tashabussi bilan o‘tkazilgan Jeneva konferensiyasi hujjatlarida uchraydi. O‘sha yilda terrorizmning butun dunyoga yoyilishi xavfi oldini olish maqsadida Millartlar Ligasi 11 davlat vakillaridan iborat maxsus ekspertlar qo‘mitasini tuzib, unga siyosiy terrorizmga oid jinoyatlarga qarshi xalqaro konvensiya loyihasini tuzishni topshirdi. Yigirma to‘rt davlat tomonidan imzolangan “Terrorizmning oldini olish va uning uchun javobgarlik to‘g‘risida”, “Xalqaro jinoyat sudini tuzish to‘g‘risida” kabi konvensiyalarda “terrorizm” tushunchasiga dastlabki siyosiy-huquqiy ta‘rif berilgan edi. Muayyan kamchiliklar bo‘lishiga qaramay terrorizm to‘g‘risida qabul qilingan ushbu ushbu konvensiyalar xulosalari 1956 yilgi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan yaratilgan “Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar kodeksi” loyihasini tayyorlashda asos bo‘lib xizmat qildi .

BMT tashkilotning xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi keng qamrovli siyosati 1963 yildan yangi davrga kirdi. Ta‘kidlash joizki, BMT xalqaro terrorizmga qarshi kurash borasidagi huquqiy bazasini

davlatlar ishtirokiga ko'ra ajratish mumkin:

Birinchisi, xalqaro hamkorlikni qamrab olgan huquqiy hujjatlar. Bugungi kunda BMT shafe'ligida xalqaro terrorizm, uning moliyaviy asoslari, turli ko'rinishlari va shakllariga qarshi 16 xalqaro me'yoriy hujjat qabul qilingan: 13 ta asosiy konvensiya va 3ta qo'shimcha protokol.

Ta'kidlash joizki, "Sovuq urush"ning barham topishi va 2001 yil 11 sentyabr voqealari BMTning xalqaro terrorizmga qarshi kurash strategiyasini qayta ko'rib chiqilishiga va ushbu yo'nalishdagi sayharakatlarni jadallashtirishiga turtki bo'ldi. 1994 yil dekabrda BMT Bosh Assambleyası "Xalqaro terrorizmni bartaraf etish bo'yicha choralar to'g'risida"gi Deklaratsiyani qabul qilib, asosiy e'tiborni mazkur muammoga qarshi qaratdi. Tashkilotning xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi faoliyatini takomillashtirish maqsadida 1996 yil BMT Bosh Assambleyası qoshida mazkur deklaratsiyaga qo'shimcha ravishda "Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha maxsus qo'mita" tashqil etildi. Shu bois, bugungi kunda Bosh Assambleya mazkur qo'mita doirasida muntazam asosda xalqaro terrorizmga qarshi, uning moliyaviy ta'minotini to'xtatish singari masalalarni muhokama qilib kelmoqda.

Shuningdek, XXI asr boshlarida BMTning turli sessiyalarida global muammolar va tahdidlar, xalqaro tinchlikka asosiy xatar sifatida terrorizmga qarshi kurashda bir qator muvafaqqiyatli amaliy xarakatlar amalga oshirilganligini kuzatish mumkin:

Birinchidan, mayjud huquqiy bazalarga tuzatish va qo'shimchalar kiritildi, xalqaro terrorizmga qarshi kurash samaradorligini oshirish maqsadida borasida yangi xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 2005 yilda xalqaro hamjamiyat tomonidan terrorizmga qarshi kurashga oid uchta universal konvensiyaga o'zgartirish va tuzatishlar kiritildi, jumladan, 2005 yil 8 iyulda "Yadroviy materiallarni jismoniy himoyasi to'g'risida"gi Konvensiyaga tuzatishlar kiritildi. 2005 yil 14 oktyabrdan "Dengiz kemalari xavfsizligiga qarshi qaratilgan noqonuniy aktlarga qarshi kurashish to'g'risida"gi Konvensiyaga va "Kontinental shelfda joylashgan statSIONAR platformalar xavfsizligiga qarshi qaratilgan noqonuniy aktlarga qarshi kurash to'g'risida"gi Protokolga qo'shimcha Protokol qo'shildi.

Ikkinchidan, BMT qoshida yordamchi aksilterror organlar tashqil etildi:

- BMT aksilterror tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha yo'naltirilgan guruh (rus tilida - SGOKM). Ushbu guruh 2005 yil iyul oyida

Bosh Kotib tomonidan BMT aksilterrorizm tizimlarini muvofiqlashish maqsadida tashkil etilgan. 2007 yil mazkur guruh o'zining aksilterror faoliyat borasidagi ma'lumotlarni hamda BMT tizimidagi mavjud aksilterror harakatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qamrab olgan elektron ma'lumotnomaga tashkil etdi.

- Terrorizmga qarshi kurash qo'mitasi (KTK). Mazkur qo'mita 2001 yil 28 sentyabrdagi BMT Xavfsizlik Kengashining 1373 sonli rezolyusiyasiga asosan terrorizmga qarshi kurashning huquqiy va institutsional imkoniyatlarini mustahkamlash maqsadida tashqil etilgan. Uning bosh organi - Aksilterror ijroya direktorligidir.

- 2004 yil BMT Xavfsizlik Kengashining 1566 sonli rezolyusiyasiga asosan tashqil etilgan Ishchi guruh. Guruh BMT Xavfsizlik Kengashiga terroristik ishlarni amalga oshiriyotgan alohida shaxslar, terroristik guruhlar yoki tashkilotlar oid amaliy choralar ko'rish borasida tavsiyalar beradi;

- "Al-Qaida" va "Tolibonlar"ga qarshi sanksiyalarni joriy etish bo'yicha qo'mita. 1999 yil Xavfsizlik Kengashining 1267 sonli rezolyutsiyasi asosida tashkil etilgan va har yili uning talablarini bajarish uchun yangi rezolyutsiya qabul qilinadi.

- Qo'mita 1540. 2004 yil Xavfsizlik Kengashi tomonidan ommaviy qirg'in qurollarning yoyilishi ustidan nazorat o'rnatish maqsadida tashkil etilgan.

Uchinchidan, BMT tomonidan Global aksilterror strategiyasi ishlab chiqildi.

Xususan, 2004 yil dekabrda BMT sobiq Bosh Kotibi Kofi Annan 16ta turli soha bo'yicha atoqli arboblardan iborat tahdidlar va chaqiriqlar bo'yicha yuqori darajadagi tashabbuskor guruhni tashqil etdi. Ushbu guruhning vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Tinchlik va xavfsizlikka nisbatan kelgusidagi tahdidlarni tahlil etish asosida samarali kollektiv faoliyatni ta'minlashga xizmat qiladigan amaliy va puxta choralar to'g'risida tavsiyalar kiritish;
2. Kollektiv faoliyat yuritish salohiyatini baholash;
3. BMT bosh organlarini qamrab olgan turli yondashuvlar, vosita va mexanizmlarni baholash.

2005 yilga kelib, mazkur guruh "Nisbatan xavfsizroq dunyo: bizning umumiyy mas'ulyatimiz" mavzusida doklad tayyorladi va unda xalqaro beqarorlikka sabab bo'luvchi, yolg'iz davlatning o'zi kurasha olmaydigan tahdidlarni olti blokka ajratadi. Ular orasida terrorizm ham

alohida blok sifatida ko'rsatiladi. Bundan tashqari, doklad xalqaro terrorizmga qarshi universal strategiya ishlab chiqilishi zarurligini bayon etadi. Bu esa BMT doirasida Global aksiterror strategiyasini shakllantirishining dastlabki bosqichi edi.

2005 yil 10 martda Madrid, Ispaniyadagi Demokratiya, terrorizm va xavfsizlik bo'yicha oliy darajadagi xalqaro sammitda sobiq Bosh Kotib yuqori darajadagi guruh tomonidan tayyorlangan doklad asosida tashkilotning kelgusidagi "Global aksiterror strategiyasi" besh tamoyilini (ingliz tilida ularni besh "D" atadi) taklif etdi:

1. norozi guruhlarning o'z maqsadlariga erishishi uchun taktik vosita sifatida terrorizmdan foydalanishiga yo'l qo'ymaslik;

2. hurujlarni amalga oshirishdagi zarur terroristik vositalarni bartaraf etish;

3. terroristlarni boshqa davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishini cheklash;

4. davlatlarning terrorizmga qarshi kurashda davlatlar salohiyatini yuksaltirish;

5. aksiterror faoliyat yuritishda inson huquqlarini himoya qilish.

Bosh Kotib tomonidan taklif etilgan tamoyillar asosida, BMT Bosh Assableyasi sessiyasida 2005 yil global strategiyani ishlab chiqish tasdiqlandi. 2006 yil 8 sentyabrda BMT Bosh Assableyasining 60 sessiyasida bir ovozdan Global aksiterror strategiya qabul qilindi. Mazkur strategiyani hayotga joriy etish uchun 60/288 sonli Rezolyusiyaga iloqa sifatida "Faoliyat rejasi" ("Plan deystviy") ishlab chiqildi. "Reja"da to'rtta asosiy choralar guruhi ajratildi:

1. terrorizmnинг yoyilishiga imkoniyat yaratayotgan sharoitni bartaraf etish bo'yicha choralar;

2. terrorizmga qarshi kurash va unga barham berish bo'yicha choralar;

3. davlatlarning terrorizmga qarshi kurash va unga barham berish salohiyatini mustahkamlash va BMTning mazkur sohadagi rolini mustakamlash bo'yicha choralar.

4. inson huquqlariga hurmatni ta'minlash va terrorizmga qarshi kurashda huquq ustivorligini fundamental asos sifatida ko'riliishi bo'yicha choralar.

Bundan tashqari, BMT Bosh Assableyasining 2008 yil 62 sessiyasida va 2010 yil 64 sessiyasida Global aksiterror strategiya bo'yicha rezolyutsiyalar qabul qilinib, tashkilotning ushbu yo'nalishdagi

faoliyatini samarali amalga oshirishiga kengroq imkoniyat yaratdi. 2012 yil 66 sessiyada strategiya qayta ko'rib chiqilib, zamon talablariga mos ravishda yangi tuzatish va qo'shimchalar kiritiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomenidan xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, inson huquqlarini ta'minlash, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish, xalqaro nizolarni tinch yo'llar bilan hal qilish bilan bog'liq chigal vaziyatlarda o'zining salohiyatini to'liq namoyish qilayotgani yo'q. Natijada universal va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash qoidalariga tamoman zid tashabbuslar vujudga kelib, ularning oqibatida terrorchilik faoliyati yanada jadallahashmoqda. Pokiston, Rossiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Markaziy Osiyo davlatlari, Afg'oniston va jahonning boshqa ko'plab mamlakatlarida amalga oshirilgan terroristik hurujlarning mavjudligi buni isbotlaydi. Mazkur holat BMTnnig terrorizmga qarshi kurashda ko'plab muammolarga to'qnash kelayotgani, ular tashkilotning samaradorligiga salbiy ta'sir o'tkazayotganini kuzatish mumkin:

Birinchidan, BMTni isloh etish zaruati. Mutaxassislar tomenidan Birlashgan Millatlar Tashkilotini isloh qilish, Xavfsizlik Kengashi tarkibini kengaytirish, uning qoshida faoliyat yuritayotgan terrorizmga qarshi kurash qo'mitasining vakolatlarini kengaytirish, mazkur qo'mita tomenidan jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlar hamkorligini muvo-fiqlashtirib boradigan organga aylantirish zarurligi qayd etilmoqda.

Ikkinchidan, Xavfsizlik Kengashi qoshidagi terrorizmga qarshi kurash qo'mitasi tegishli nazorat huquqiga ega emasligi, mustaqil ravishda qarorlarni qabul qila olmasligi, davlatlarga moddiy-moliyaviy ko'mak ko'rsatishga vakolatli emasligi, BMT doirasida terrorizmga qarshi kurash jarayonini birmuncha susaytimoqda.

Uchinchidan, BMT tashkil etilganidan keyingi salkam oltmis yil davomida uning tizimida xalqaro terrorizmga qarshi kurashning huquqiy negizini tashkil etuvchi yigirmaga yaqin xalqaro konvensiya qabul qilindi. Shunga qaramay, bugungi kunda BMT doirasida xalqaro terrorizm tushunchasi haqida keiishuvga erishilgan yagona hujjat ishlab chiqarilmagan .

To'rtinchidan, BMTning bir qator rezolyutsiyalar ijrosi ochiq qolmoqda.

Beshinchidan, terrorchilarining javobgarligini belgilashda yagona yondashuv mavjud emasligi, qator muammolarni vujudga keltirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, BMT xalqaro terrorizmga qarshi kurashda

jahon davlatlarining intilishlari, sa'y-harakatlarini uyg'unlashtiruvchi, ular o'rtasida hamkorlik mustahkamlovchi markaz bo'lib, mazkur transmilliy tahdidiga qarshi kurashda halqaro huquqiy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirishda yagona universal institut hisoblanadi. Xalqaro xavfsizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan BMTning global tahdidlarga qarshi kurashdagi rolini inkor etib bo'lmaydi. Biroq, tashkilotni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish, strukturaviy islohotlarni amalga oshirish, halqaro terrorzimga qarshi kurashda huquqiy va moddiy asoslarini yanada mustahkalash BMTning xalqaro munosabatlardagi kelgusi istiqbolini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, BMTga a'zo davlatlar ushbu masalaga kengroq e'tibor qaratsalar va tashkilot terrorizmga qarshi kurashda keng qamrovli hamkorlikni amalga oshirsa global barqarorlikni ta'minlash imkonini oshirishga erishadilar.

### ***Markaziy Osiyoda terrorizmga qarshi kurash***

Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy holatiga ko'ra, xalqaro munosabatlар tizimida o'ziga xos o'rин tutadi. Bu bir qator tashqi kuchlarning mintaqaga qiziqish va intilishlarining faollashuviga olib kelmoqda. XX asrning 90-yillardan boshlab mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan yangi, transmilliy xarakterdagi tahdidlar, jumladan, terrorizm, diniy ekstremizm va aqidaparastlikning jadallahuvi Markaziy Osiyo davlatlari barqarorligiga nisbatan assosiy xavfga aylandi.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki davridanoq, mamlakatda diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligiga keng yo'l ochildi. Diniy bag'rikenglik (tolerantlik) xilma-xil diniy e'tiqodda bo'lgan kishilarning oljanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamijihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyatni ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida vijdon erkinligi kafolatlangan bo'lib, unda shunday deyiladi: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinka e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi".

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida mamlakatda islam fundamentalizmi – aqidaparastlik tahdidi jamiyat hayotida qay holatda namoyon bo'layotganligini qo'yidagilar asosida ta'kidlab o'tgan:

Birinchidan, aqidaparastlikni yoyish orqali dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qqa chiqarishda ko'rinnmoqda;

Ikkinchidan, fundamentalistlarning adolat haqidagi olomonbop, jozibador, ammo baqiroq va asossiz da'vatlariga ko'r-ko'rona ergashuvchilar o'zgalar irodasining quli bo'lib qolishini anglashimiz lozim.

Uchinchidan, mamlakat mintaqalari aholisi va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida "haqiqiy" va soxta dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilik keltirib chiqarishda ko'rmoqda.

To'rtinchidan, O'zbekistonning janubiy chegaralaridagi qo'shni mamlakatlarda fuqarolar urushi to'xtamay, davom etib kelayotganligida namoyon bo'lmoqda.

Beshinchidan, musulmon va nomusulmon mamlakatlar, ularning jamoatchiligi orasida ham O'zbekiston haqida ko'ngilnisovutadigan fikr tug'dirishga urinislarda namoyon bo'lmoqda.

Oltinchidan, islam sivilizatsiyasi bilan islomiy bo'limgan sivilizatsiya o'rtasida yalpi qarama-qarshilikni shakllantirishda namoyon bo'lmoqda.

Yetinchidan, ommaning ongida din barcha iqtisodiy, siyosiy va xalqaro muammolar hamda ziddiyatlarni hal qilishning universal vositasi degan fikrni qaror toptirishda ko'rmoqda.

Shu bois, O'zbekistonda ham 1990 yillar boshlaridan diniy ekstremistik, terrorichilik ruhidagi guruhlar faollasha boshladi. 1989-1992 yillarda Namangan viloyatida diniy-terroristik harakatlar sodir etgan "Adolat", "Islam lashkarları", "Tavba" kabi vahhobiylik guruhlari fosh etildi va ularni konstitutsion tuzumga qarshi faoliyatiga chek qo'yildi. Shundan so'ng, O'zbekistonda jinoyatning bu turi keskin pasaygan bo'lsada, endilikda o'zlarini "Turkiston islam harakati" deb nomlagan jinoiy guruh o'z jinoiy maqsadlarini o'ta maxfiylashtirilgan tarzda amalga oshirishga kirishdi. Diniy-ekstremistik va terroristik guruhlar tomonidan 1999 yil 16 fevral kuni Toshkentda, 1999-2000 yillarda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarida, 2004 yilning 29-30 martida Buxoro viloyatining Romiton tumani va Toshkent shahrida, 2005 yilning 13 mayida Andijon shahrida amalga oshirilgan qo'poruvchilik harakatlari mamlakatimiz uchun jiddiy havf-xatarga aylandi.

Ta'kidlash joizki, mustaqil davlatimiz qonunchiligidagi terrorizmga qarshi kurashning asosiy prinsiplari bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, bu hujjatlarning asosiyları quyidagilardir:

1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi;

2. O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni (2000 yil 15 dekabr);

3. O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi;

4. O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni.

O'zbekiston hozirda terrorizmga qarshi-kurashda ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni amalga oshirib, bir qator halqaro shartnomalarga qo'shilgan va imzolagan.

Ko'p tomonlama darajada. O'zbekiston terrorizmning barcha ko'rinishlari va uning manbalariga qarshi kurashishga oid BMTning barcha xujjalari, jumladan, 11 ta konvensiya hamda ikkita protokolini imzoladi.

Ikki tomonlama darajada. O'zbekiston bir qator davlatlar bilan mazkur tahdidga qarshi shartnomalar imzoladi. Xususan, ulardan dastlabkilari - Turkiya bilan (1993 yil 5 aprel), Rossiya Federatsiyasi bilan (1995 yil 27 aprel), Germaniya Federativ Respublikasi bilan (1995 yil 16 noyabr) jinoyatchilikka terrorizmga va narkotik moddalarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik shartnomasi imzolandи. Keyinchalik esa, shunga o'xhash shartnoma Pokiston Islom Respublikasi bilan (1996 yil 19 oktyabr), Turkmaniston bilan (1996 yil), Chexiya Respublikasi bilan (1998 yil 17 iyun), Iron Islam Respublikasi bilan (2000 yil 11 iyun), Italiya Respublikasi bilan (2000 yil 21 noyabr), Moldova Respublikasi bilan (2000 yil 19 dekabr) imzolandi.

Endilikda O'zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash borasidagi xalqaro tashabbuslarini tahlil etganda, 1999 yil 18-19 noyabrida bo'lib o'tgan YeXHTning Istanbul sammitida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov so'zga chiqib, xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar xususida shunday fikr bildirdi: "Bugungi kunda xalqaro maydonda "Sovuq urush" ko'rinishlari o'rnini bir-biri bilan birlashib, tobora keng ko'lamli va hujumkor mohiyat kasb etayotgan ashaddiy milliy davlatchilik va separatizm, diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm kabi illatlar egallayotganini isbotlab o'tirishning hojati yo'q". Mazkur sammitda Prezidentimiz BMT tashkiloti qoshida Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz tashkil etish taklifini ilgari surdi va asosiy vazifasi quyidagilardan iborat bo'lishligi maqsadga muvofiq deb hisoblandi:

- xalqaro terrorizm va uning ko'rinishlariga qarshi kurash;

- xalqaro terrorizmnnig moliyaviy ta'minotiga bartaraf etish;
- qurol-yarog' bilan ta'minlab, kerakli joylarga etkazib berayotgan manbalarga qarshi kurash;
- ushbu yo'naliishlarda qabul qilingan qarorlarning so'zsiz bajarilishi bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish .

Terrorizmga qarshi kurash borasida xalqaro markazni tashkil etish tashabbussi 2000 yil 7-8 sentyabrda BMTning New-Yorkdagi ming yillik rivojlanish masalalariga bag'ishlangan sammitta ham yana bir bor ilgari surildi. 2001 yil 11 sentyabr fojeasidan BMT 1373 sonli rezolyutsiyasi asosida 2001 yil 28 sentyabrda Xavfsizlik Kengashi qoshida Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro qo'mita tashkil etildi. Ushbu holatni bevosita O'zbekiston tashabbusining hayotga joriy etilishi deya bahonlash mumkin.

O'sha paytda O'zbekiston Prezidenti global hodisa sifatida terrorizmga qarshi kurashda, uning ildizlarini va moliyaviy negizini yo'q qilishga yordam beruvchi, jahon hamjamiyatining harakatlarini aktivlashtiruvchi terrorizmga qarshi kurash bo'yicha BMT qoshida xalqaro markazni tashkil etish taklifini ilgari surdi. Bunda so'z, nafaqat terrorizmnинг paydo bo'lishiga qarshi kurash, balki uning koordinatsiyalarining va moliyaviy manbalarining barcha kanallarini to'xtatish haqida ham ketmoqda .

2001 yil dekabr va 2002 yil avgustda O'zbekiston BMT Xavfsizlik Kengashi qoshidagi Terrorizmga qarshi kurash qo'mitasiga yuqorida keltirilgan rezolyusiya ijrosini amalgalash oshirish maqsadida hisobotlar topshirdi. 2000 yil oktyabrda BMT, EXHT va O'zbekiston tomonidan Toshkentda "Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash: noqonuniy narkotik aylanmasi, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashga nisbatan kompleks yondashuv" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda 70 ortiq davlat va 40 ortiq tashkilotlardan ekspertlar taklif etildi.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi O'zbekiston faoliyatining muhim jihatni bevosita terrorchilar ildiz otgan va uning moliyaviy asosi hisoblangan narkotik moddalar ishlab chiqariladigan Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash hisoblanadi. Umuman olganda, Afg'on mojarosi tufayli yuzaga kelgan va Markaziy Osyo mamlakatlariga raxna solayotgan xavflarning barchasini quyidagilarga bog'lash mumkin:

Birinchi – urush yillarida Afg'onistonda yuzaga kelgan va o'z siyosiy maqsadlariga erishishning asosiy yo'li terrorizm bo'lgan katta

miqdordagi buzg'unchi kuchlarning yuzaga kelishi. Afg'onistonning 90-yillar o'rtalariga kelib turli xildagi xalqaro terrorichi tashkilotlar uchun sinov maydoni va bazasiga aylanib qolishi vaziyatni yanada og'irlashtiradi.

Ikkinchisi – Afg'on mojarosi, radikal shakllarni olgan, islom dinini siyosiylashtirish jarayonining buzg'unchisiga aylanib qolgandi. Markaziy Osiyo hududida faoliyat yurgizgan yuqorida aytib o'tilgan terrorichi tashkilotlarning mafkurasi diniy (islomiy) ekstremizm bo'lib qoldi. U o'z ichiga ochiqdan-ochiq hokimiyatga intilish va unga erishish yo'lida islomni noto'g'ri talqin qilgan holda, bir din vakillari yordamida qurolli kuch ishlatishda namoyon bo'lar edi.

Uchinchi – Afg'oniston hududi eng katta narkobiznes va narkotik moddalar ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylandi.

To'rtinchi – noqonumiylar qurol-aslaha savdosi. Urush yillarda Afg'oniston mintaqadagi asosiy qurol-aslaha arsenaliga aylanib qolgan.

1993 yil 28 sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-yig'ilishida ilk bor afg'on muammosi va unga xalqaro hamjamiyat e'tiborini qaratish to'g'risida nutq so'zлади va navbatdagi BMT Bosh Assambleyasining boshqa xalqaro, mintaqaviy tashkilotlar doirasida so'zlagan nutqlarida dolzab muammo sifatida o'z aksini topdi.

BMT Bosh Assambleyasining 1995 yil 24 oktyabr kungi 50-yig'ilishida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov Afg'oniston mojarosini hal etish bo'yicha bir qator tashabbuslarni ilgari surdi, asosiy jihatni sifatida Afg'onistonga qurol yetkazib berishga embargo kiritish to'g'risidagi taklifni kiritish mumkin.

Keyingi yillarda Afg'oniston muammosini hal etish bo'yicha O'zbekiston tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'ylab qilgan rasmiy tashrif'i chog'ida Laxdar Braximi 1997 yilning 16-17 avgust kunlari O'zbekistonga keldi va davlat rahbari bilan suhabatda bo'ldi. Suhbat chog'ida, O'zbekiston rahbari Afg'onistondagi mojarolarni hal etish va bu hududda tinchlikni qaror toptirish yo'lidagi butun harakatlarni birlashtirish maqsadida keyinchalik "6+2" nomi bilan tanilgan aloqa guruhini tashqil etish tashabbusi bilan chiqdi. Bu guruhga Afg'onistonning 6 ta qo'shnisi: Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, shu bilan birga Rossiya va AQSh kirdi.

Hamkorlik natijasida "6+2" guruhni a'zolari BMT bilan birgalikda

Afg'oniston bo'yicha 1999 yil 19-20 iyul kunlari tashqi ishlar vazirlari o'rnibosarlari o'rtasida Toshkent uchrashuvini o'tkazishga kelishib olindi. Afg'onistondagi ikki asosiy qarama-qarshi kuchlar bo'lgan "Tolibon" harakati va Birlashgan front yetakchilariga rasmiy, xalqaro hamjamiyat vakillari ishtirokida Toshkent uchrashuvida tashkil etildi va Toshkent Deklaratsiyasi qabul qilindi.

2001 yil 11 sentyabrdan so'ng vaziyat o'zgardi va 7 oktyabrdan Afg'onistonda xalqaro aksiterror koalitsiyasi o'z faoliyatini boshladi. Biroq, bugungi kunga qadar mazkur tashkilot afg'on zaminida barqarorlikni to'liq ta'minlashga erisha olmadi. Natijada, Afg'oniston tomonidan Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonga nisbatan tahdiddar ko'lami saqlanib qolmoqda. O'zbekiston rahbariyati mazkur sharoit talabidan kelib chiqqan holda, 2008 yil NATOning Buxarest sammitida Afg'onistdon muammosini hal etish bo'yicha "6+2" muloqot guruuhini NATO hisobiga kengaytirgan holda "6+3" muloqot guruuhiga aylan-tirishni taklif qildi. Ushbu tashabbus Prezidentimiz tomonidan 2010 yil 20 sentyabrdan BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqida ham ilgari surilgan va Afg'oniston borasida quyidagi fkirlar bildirilgan:

Birinchidan, Afg'onistonda faqat harbiy yo'llar bilan tinchlikni ta'-minlab bo'lmasligi, muttasili davom etayotgan urush xalqning ahvolini tobora og'irlashishiga va muammo yechimining murakkablashuviga olib kelmoqda;

Ikkinchidan, Afg'onistonda barqarorlikning sharti sifatida BMT shafe'ligida 6+3 muloqot guruuhini tashqil qilish dolzarb ahamiyat kasb etishi mumkin.

Bundan tashqari, 2010 yil 6 iyunda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ShHT Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida so'zlagan nutqi Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlash sharti sifatida afg'on muammosiga to'xtalib o'tdi. O'zbekistonning Afg'oniston muammosini hal qilish bo'yicha – "6+3" tinchlikparvar guruuhini shakllantirish tashabbusi deb nom olgan – takliflarining mohiyati mamlakatimiz Prezidenti quyidagicha izohlaydi:

Birinchidan, Afg'oniston muammosini harbiy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, Afg'oniston muammolarini hal etishda va u yerda barqarorlikni ta'minlashda birinchi navbatda jafokash afg'on xalqiga

maqsadli iqtisodiy yordam ko'rsatishga, mamlakatning transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini barpo etish va shakllantirishga, aholi bandligini ta'minlashga, qashshoqlikka qarshi kurashish bilan bog'liq o'tkir muammolarni echishga ustuvor ahamiyat berilishi kerak.

Uchinchidan, Afg'onistonning tarixiy, etnik va demografik xususiyatlarini, ushbu mamlakatning ko'p millatli va ko'p konfessiyali xalqi amal qiladigan qadimiy urf-odatlarni, islom dinining an'anaviy qadriyatlarini inobatga olish va hurmat qilish zarur.

To'rtinchidan, murosa jarayoniga Afg'oniston aholisi va istisnosiz barcha qarama-qarshi kuchlar, etnik va diniy guruhlar halb qilinmasa, ular o'rtaida konsensusga erishilmasa, Afg'onistonda urush hali uzoq davom etishi mumkin.

Beshinchidan, bu jarayonda uch yetakchi sub'ekt – AQSh, Rossiya va NATOning faol ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Qo'shni mamlakatlarga Afg'onistonga bevosita chegaradosh bo'lgan mamlakatlarga tayanish bu borada hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Afg'onistondagi etnik guruhlarga ta'sir ko'rsata oladigan ana shu mamlakatlarni halb etish bilangina ijobjiy natijaga umid qilish mumkin.

Eng muhimmi, bu vazifalarning barchasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining yetakchiligi va shafe'ligida amalga oshirilishi zarurligi mazkur nutqda alohida ta'kidlab o'tilgan .

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlik ta'minlashga qaratilgan, xalqaro terrorizmga qarshi kurash siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri – terrorizmning moliyaviy manbasi hisoblangan narkotik moddalar savdosiga qarshi kurashdir. BMT sobiq Bosh Kotibi K. Annanning 2002 yil oktyabrida O'zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida davlat rahbarimiz Toshkent shahridda giyohvand moddalarning noqonuniy savdosiga qarshi kurash bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot va muvoofiqlashtirish markazini (SARIKS) tashqil etish g'oyasini ilgari surdi.

Mazkur markaz faoliyati giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi va boshqa jinoyatlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va to'ldirib borishga qaratilgan. Ushbu baza maxsus elektron kanallar orqali giyohvand moddalarni nazorat qilish milliy agentliklari, shuningdek, huquq tartibot, chegara hamda bojxona idoralari tomonidan markazga taqdim etiladigan operativ ma'lumotlar asosida shakllanib borishi kerak. SARIKSda ishtirok etadigan har bir davlat istagan paytda mintaqqa va xalqaro miqyosda qidiruv tadbiralarini amalga oshirishda

tahliliy materiallar va axborotni so'rab olish mumkin. 2006 yil bahor va yoz oylarida o'tkazilgan yig'ilishlarida a'zo davlatlar tomonidan SARIKSning ta'sis hujjatlari loyihalari muhokama etildi. Mazkur markazning Olmaota shahrda o'z faoliyatini boshlagani mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda O'zbekistonning qo'shgan amaliy xissasi ifodasidir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish, mazkur tahdid ildiz otgan Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash O'zbekiston tashqi siyosatining ustivor yo'nalişlаридан бирини hisoblana-di. O'zbekiston xalqaro terrorizmga qarshi kurashni samarali faoliyat yuritayotganini quyidagi jihatlarda kuzatish mumkin:

Birinchidan, O'zbekiston xalqaro terrorizm, diniy ekstremizmga qarshi kurashda mintaqaga va jahondagi bir qator davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini o'rnatdi;

Ikkinchidan, mamlakatda ushbu xatarga qarshi kurashning mustahkam huquqiy bazasi yaratildi;

Uchinchidan, xalqaro tashkilotlar doirasida terrorizmga kurashga oid universal va mintaqaviy darajadagi turli me'reiy-huquqiy hujjatlar: BMT, ShHT, MDH konvensiya va protokollari, turli bitimlar shular jumlasidandir

To'rtinchidan, xalqaro terrorizm o'rashgan va moliyaviy manbasi hisoblangan narkotik moddalar yetishtirishga ixtisoslashib qolgan Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash, bu borada turli tashabbuslarni xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida muvafaqqiyatli olg'a surmoqda. Mazkur omillar shuni isbotlaydiki, O'zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagи faoliyati kelgusida Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### Seminar savollari:

1. Terrorizm va terrorchi faoliyat tushunchalarini izohlang.
2. Qanday yirik terrorchi tashkilotlarni bilasiz?
3. Terrorizmga qarshi kurash sohasida qanay xalqaro konvensiyalar bor?
4. Xalqaro terrorizmning geosiyosiy o'lchamini izohlang.

### Mustaqil ishlар topshiriqlari:

1. Terrorizmga qarshi kurash sohasida xalqaro tashkilotlarning roli
2. Terrorizm va diniy eksterimzning o'xshas va farqlari jihatlari
3. Markaziy Osiyoda terrorizmga qarshi kurash masalalari

## Ma’ruza № 11. JAHON SIYOSATI VA XALQARO XAVFSIZLIK

### **Reja:**

1. Xavfsizlik tushunchasi va mohiyati.
2. Xavfsizlik darajalari va sektorlari
3. Mintaqaviy xavfsizlikka doir zamonaviy konsepsiyalar
4. Xalqaro xavfsizlik tizimida yetakchi davlatlar (“kuch”) omili.

**O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:** Jahon siyosatida xalqaro xavfsizlik masalasining tutgan o‘rnini haqida ma’lumot berishdan iborat.

### **Tayanch so‘z va iboralar:**

- |                        |                |
|------------------------|----------------|
| •Xavfsizlik            | •rezolyusiya   |
| •Terrorizm             | •manfaat       |
| •Xavfsizlik sektorlari | •sekurizatsiya |

### ***Xavfsizlik tushunchasi va mohiyati***

Xavfsizlik borasidagi fikrlar turlicha: masalan g‘arbliklar fikricha xavfsizlik tushunchasi rivojlanish jarayonini turli hil bosqichlarni bosib o‘tgan. Bu boradagi fikrlarning dastlabki bosqichi taxminan qadimgi va o‘rta asrlarga to‘g‘ri keladi. Antik davr faylasuf va olimlari Demokrit, Suqrot, Sitseron, Arastu, Epikur kabilarning g‘oyalarida asosiy urg‘u individ xavfsizligiga qaratilgan bo‘lib, ularning falsafasi bo‘yicha shaxsga nisbatan suiqaasdga qarshi asosiy vazifa, inson xavfsizligi uchun kurash deb belgilangan.

“Xavfsizlik” tushunchasiga ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning ob‘ektiga aylanganiga qaramay, umum qabul qilingan ta‘rifga ega emas. Katta Oksford lug‘atida “xavfsizlik” (Security) o‘zida birinchidan, qo‘rquv, vahima va notinchlikdan himoyalananish, holi bo‘lish; ikkinchidan, mahkamlik, ishonch, kafolat; uchinchidan, ishonchlilik, barqarorlik, mustahkamlik kabi tushunchalarni mujassam etgan. “Xalqaro munosabatlar (geosiyosat, diplomatiya va xavfsizlik)” atamalar lug‘atida keltirilishicha, xavfsizlik: 1) o‘ziga nisbatan tajovuzlarga qarshi chiqish, xavf-xatar va tahdidlardan himoyalanganlik xolati; 2) ob‘ekt mavjudligining barqarorlik holati va unda tinchlikni ta‘minlashga bo‘lgan harakatlardan majmui; 3) xavf omilini keltirib chiqaruvchi har-

qanday harakat uchun sarf bo‘ladigan xarajatlarni chegaralash bilan bog‘liq tushuncha. Xavfsizlik tushunchasi ob‘ektiv holatda aniq xarakterga ega “tabiat–inson–jamiyat” tizimi bilan yaqin aloqadagi ijtimoiy voqeiy hisoblanadi. Shuningdek, mazkur asarda “xavfsizlik” tushunchasi “milliy manfaatlar” kategoriyasi bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlab o‘tilgan.

Xavfsizlik tushunchasini qayta ko‘rib chiqilish lozimligini ingliz olimi B.Buzan ishlarida ham o‘z aksini topgan. Olim “Xalq, davlat va qo‘rqinch” nomli asarida xavfsizlikning qator jihatlarini yoritishga harakat qilgan. U mavjud tahdidlarni tahlil etgan holda xavfsizlikning “yumshoq” va “qattiq” jihatlariga bo‘lishni taklif etgan. “Yumshoq” jihatlar majmuiga iqtisodiy, ma‘naviy va madaniy sohada mavjud bo‘lgan xavfsizlikni kiritgan holda, “qattiq” jihatlariga harbiy kuchlar yordamida ta‘minlanishi mumkin bo‘lgan xavfsizlikni kiritishni taklif etadi. Birlashgan Millatlarning maqsadlaridan biri sifatida e’lon qilinadi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining barcha a’zo davlatlar tomonidan 1975 yil 1 avgustda imzolangan xavfsizlik masalasi bo‘yicha “Yakunlov akt”da “xavfsizlikni ta‘minlash -- tahdid ostida goldiruvchi barcha harakatlardan saqlanishish” deya belgilab qo‘yilgan.

### *Xavfsizlik darajalari va sektorlari*

Xavfsizlik tizimi darajasiga uch guruhga bo‘linadi:

1. Milliy xavfsizlik – shaxs, jamiyat va davlatning muhim manfaatlar, xalqaro munosabatlarda teng huquqli va mustaqil ishtirokini ta‘minlash, suveren va progressiv rivojlanishi, ichki barqarorligiga tahdid solayotgan tashqi va ichki xavf xatarlardan ximoyalanish tizimi anglashiladi.

“Milliy xavfsizlik” atamasi AQShda kashf qilingan bo‘lib, amerikaliklar ushbu atamani birinchi bor ma’noli mazmun bilan to‘ldirishgan. Bu ikkinchi jahon urushidan so‘ng AQSh jahonda buyuk davlat bo‘lib qolgach, jahoning barcha burchaklarida, Yaponiyadan to Sovet Ittifoqining g‘arbiy chegaralarigacha ta’sir ko‘rsatuvchi ulkan imkoniyatlarga ega bo‘lgach boshlangan.

Rossiyalik siyosatshunos N.A.Kosolapovning aniqlashicha, milliy xavfsizlik – bu uzoq vaqt davomida ushlanib tura oladigan muvozanat, real mavjud xavf-xatarlardan yetarli mantiqiy dinamik himoyalangan holat, shuningdek shunday holatlarni aniqlash qobiliyati ularni bartaraf qilish uchun o‘z vaqtida kerakli chora- tadbirlarni qabul qilishdir.

Rus olimi Y.Fyodorovning fikricha: “...milliy xavfsizlik bizning nuqtai nazarimizda ushbu mamlakatning erkin, mustaqil va tinch

rivojlanishi uchun tashqi shart- sharoitlarni ta'minlashni bildiradi”.

Hozirgi zamon amaliyotining guvohlik berishicha, milliy o'zlikning uyg'onishi, milliy suverenlashuv, ko'p hollarda baynalminallashuv, hamkorlik va birlik munosabatlarining o'zaro boyishi bilan ziddiyatga kirishadi, bu esa uzluksiz (permanent) milliy to'qna-shuvlarga olib keladi.

Milliy xavfsizlikning uch darajasi ajratiladi:

- 1) shaxs xavfsizligi;
- 2) jamiyat xavfsizligi;
- 3) davlat xavfsizligi

Milliy xavfsizlikning nazariy shart-sharoitlaridagi yana bir muhim jihatni milliy maqsadlar va qadriyatlardir. Gap shundaki, ko'pchilik tadqiqotchilar milliy xavfsizlikni quyidagi asosiy elementlardan iborat tizim sifatida qaraydilar:

- a) shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari;
- b) ushbu manfaatlarga tahdidlar;
- v) milliy maqsad va qadriyatlar.

2. Mintaqaviy xavfsizlik – muayyan mintaqada yuzaga kelgan tahdidlarga qarshi birgalikda kurash, mintaqalar qarorligi uchun zarur choralar majmuasini ishlab chiqish va mintaqalar uchun salbiy bo'lgan tahdidlar oqibatini bartaraf etish tizimidir.

Mintaqaviy xavfsizlik – global, xalqaro xavfsizlikning tarkibiy qismi bo'lib, yer sharining ma'lum bir mintaqasiga qaratilgan xavfsizlikka nisbatan aytildi. Ya'ni bunda mintaqaning rivojlanishiga, barqarorligiga, undagi davlatlar guruhlari o'rtaсидаги aloqalarga urush, beqarorlik tahdidini solayotgan omillardan himoyalanish holati tushuniladi. Xalqaro tadqiqot markazlari nashrlariga ko'ra, mintaqaviy xavfsizlik konsepsiysi nisbatan rivojlanayotgan davlatlarda ustun ahamiyat kasb etadi va ular o'z imkoniyatlari cheklanganigi sababl muayyan mintaqaviy bloklarga birlashadilar. Jahonning rivojlangan davlatlari joylashgan mintqalarda mintaqaviy bloklarning tashqil etilish darajasi kamroq bo'lib, ular o'zlarinig mustaqil xavfsizlik tizimlari va ular o'rtaсидаги munosabatlarga asoslanadilar .

“Theorising the Rise of Regionness” asari mualliflari B.Xettne va F.Sonderbaumlarning e'tiroficha, mintaqalar - muayyan geografik hudud doirasidagi o'zaro yaqin bo'lgan davlatlar guruhi. Shuningdek, bu yerda faqatgina geografik yaqinlik emas, balki madaniy qadriyatlardan, ijtimoiy rishtalar va tarixiy meros to'plami aholi va davlatlarni bir

biriga bog'lab turadigan bo'lishi kerak.

AQShlik olim Robert Jervis fikricha, mintaqaga o'zaro bir-biriga bog'langan davlatlar guruhi bo'lib, u yerdagi har bir o'zgarish boshqa davlatlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, ayrim mintaqalar muayyan kontinentning bir qismini masalan, Osiyo qit'asida Janubiy Osiyo, Markaziy Osiyo mintaqasi singari; ayrimlari butun mintaqalarni qamrab oladi, masalan: Yaqin Sharq mintaqasi Shimoliy Afrika va Janubiy-g'arbiy Osiyoning bir qismini qamrab olgan.

Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash uchun respublikalar quyidagi shartlarga rioya qilishlari zarurligini ta'kidlash mumkin:

- birinchidan, tashqi kuchlarga chegaraoldi hududlarda mavjud ko'p etnik omildan foydalanishga yo'l qo'ymaslik;
- ikkinchidan, jamiyatning polietnik jihatlaridan kelib chiqqan holda, o'z milliy dasturlarini olib borishlari va uning tamoyillarini informatsion ta'minlashlari zarur;
- uchinchidan, millatchilikni targ'ib qiluvchi omillardan o'z fuqarolarini himoyalash;
- to'rtinchidan, etnik va hududiy barqarorlikka olib keladigan shartshroit, ya'ni davlat chegaralarining delimitatsiya jaryonini yakunlash zarur;
- beshinchidan, etnoslararo munosabatlarni saqlashga yordam beradigan, yengillashtirilgan variantii chegaradan o'tish tartibini ta'minlash zarur;
- oltinchidan, transportlarning tranzit o'tish xavfsizligini ta'minlash.

3. Xalqaro xavfsizlik – xalqaro munosabatlardagi kafolatlangan barqarorlik, dunyo hamjamiyatining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy sohalaridagi adovat, harbiy nizo va urushlarni oldini olish sharoitlarining shakllangan holatidir.

Olim R.Alimov ta'kidlaganidek, yangi dunyo tartiboti shakllanishining asosiy tamoyillaridan biri xavfsizlikning bo'linmasligi hisoblanaadi. Global xavfsizlik konsepsiysi davlat xavfsizligi bilan chambarchas bog'liq holda ko'riliishi lozim.

#### *Xalqaro xavfsizlik tizimida yetakchi davlatlar ("kuch") omili.*

Xalqaro siyosatda kuchlarni tasniflash va ulari ierarxiyasini ko'rsatib beruvchi bir qator nazariyalar mavjud. Ulardan biri A.F.K.Organiski tomonidan shakllantirilgan "Power Transition Theory" bo'lib, mazkur nazariya siyosiy realist oqim vakillarining "kuchlar muvo-

zanati” nazariyasiga qarshi ravishda xalqaro siyosatda kuchlar ierarxiyasini aniqlab berishga qaratilgan va unda dominant kuchga xizmat qiluvchi siyosiy va iqtisodiy manbalar taqsimoti ham aks ettirilgan.

“Power Transition Theory” doirasida olim D.Lemke ko‘p sonli ierarxiya modelini rivojlantirdi. Uning ko‘rsatishicha, xalqaro tizimning ham, undan keyingi o‘rinda turuvchi subtizimlarning ham o‘z ierarxiyasi va dominant kuchi mavjud. Har bir dominant kuch o‘z tizimini doirasidagi turli muammolarni hal etishda asosiy rolni o‘ynaydi.

A.F.K.Organiski tomonidan “Pover tranzishn nazariyasi” shakllantirilgan bo‘lib, u xalqaro siyosatda kuchlar ierarxiyasini yechishga tahliliy yondashuv haqida fikr yuritilgan. Realistlarning kuchlar muvozanati nazariyalariga qarshi ravishda, P,T,N xalqaro tizim ierarxiyasi tuzib, eng tepasiga dominant powers, grit powers, middle powers, small powers, ierarxiya kuchlar manbalari taqsimotini ham aks ettirib, u dominant powerga xizmat qiluvchi siyosiy va iqtisodiy manbalar taqsimotiga asoslangan.

R.P.T.ni doirasida Lemke (2002) ko‘p sonli ierarxiya modelini rivojlantirdi. Kuchlar yagona xalqaro ierarxiyasi o‘rniga, xalqaro kuchlar ierarxiyasi parallel kuchlar ierarxiyalari turkimidan iborat. Uning ko‘rsatishicha, xalqaro tizim ierarxiyasiidan sub tizimlarning ham o‘z ierarxiyasi ham bor. Mintaqaviy tizimda o‘z dominant kuchi bo‘lsa, submintaqaviy tizimning ham piramida tepasida kuchi, shuningdek, mintaqaviy kuchlar ham sub tizimlarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Harb bir dominant kuch o‘z tizimini doirasidagi turli muammolarni hal etadi.

Buzan/Vaever ham o‘zlarining RSST nazariyasida mintaqaviy kuchlar ierarxiyasiga alohida e’tibor qaratadilar. U global darajada ta’sir kuchiga ega va faoliyat olib boruvchi superpowerga va grit powerlar bilan mintaqaviy darajada katta ta’sirga ega mintaqaviy kuchlarni bir-biridan ajratadi.

### *Mintaqaviy xavfsizlikka doir zamonaviy konsepsiylar.*

Regional powers har qanday mintaqaviy xavfsizlik kompleksining strukturasi (qutbini) aniqlab beradi: ularning kuch qobiliyati ahamiyatli bo‘lib, ammo ular mintaqaga doirasidagina cheklangan. Germaniya global va hududiy tadqiqotlar instituti (GIGA) eksperti Datlef Nolte mintaqaviy yetakchi davlat (regional power) va uning mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rniga baho berib, asosiy jihatlarini ko‘rsatib o‘tadi:

- geografiq, iqtisodiy, siyosiy-g‘oyaviy jihatdan cheklanmagan va

mintaqaning muhim qismi hisoblanadi;

- mintaqada yetakchi maqomiga da'vo qila oladi;
- mintaqaning siyosiy-g'oyaviy qurilishi va geosiyosiy delimitatsiyasiga katta ta'sir o'tkaza oladi;
- mintaqaga bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan uzviy bog'liq bo'ladi;
- mintaqaviy jarayonlarda katta ta'sirga ega;
- mintaqaviy xavfsizlik holatini aniqlashda muhim o'rinn tutadi;
- mintaqaga ichkarisida, global forumlarga, institutlarga integratsiyalashgan bo'lib, mazkur tashkilotlar doirasida nafaqat o'z manfaatlarini mintaqaviy kuch loyihalari uchun moddiy (harbiy, iqtisodiy, demokratik) tashkiliy va g'oyaviy manbalarini taqdim etadi;
- mintaqaviy jarayonlarda katta ta'sirga ega;
- mintaqaviy hukumat strukturasida ham katta ta'sirga ega;
- mintaqaviy xavfsizlikni aniqlashda muhim o'rinn tutadi;
- uning mintaqadagi yetakchilik holati mintaqaning ichi va tashqarisidagi davlatlar tomonidan e'tirof etiladi, ayniqsa, boshqa mintaqaviy kuchlar tomonidan;
- mintaqaga ichkarisida va global forumlarda, institutlarga integratsiyalashgan bo'lib, mazkur tashkilotlar doirasidagi nafaqat o'z manfaatlarini ta'minlaydi, balki hech bo'Imaganda mintaqaga mamlakatlari ning namoyondasi sifatida samarali faoliyat olib boradi.

### **Xavfsizlik muhit**

Xafsizlik muhitini aniqlash. 1) geografik to'siq; 2) davlat-davlat o'zaro ta'siri; 3) xalqaro struktura (kuchlarning nisbiy taqsimoti sifatida tarif beriladi.); 4) harbiy texnologiya.

Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti davlatlarning o'z xavfsizlik muhitini anglash hisoblanadi. Siyosatshunos G.I.Yuldasheva tahviliga ko'ra, bugungi kunda xavfsizlik muhitida quyidagi o'zgarishlar yuz bergenini kuzatish mumkin :

- siyosatda faoliyat ko'rsatuvchi yangi aktorlar soni ortib bormoqda;
- ichki va tashqi, davlat va jamoat manfaatlari o'rtasida chegara yemirilishda davom etmoqda.
- deyarli barcha xalqaro institutlar (BMT, EXHT, NATO) yangi siyosiy voqe'lklarga nisbatan moslasha olmayotganligi ayon bo'lmoqda.

"Xalqaro xavfsizlik" kitobida "yangi avlod mojarolari"ning xususiyatlari keltirilgan bo'lib, unda bevosita zamonaviy xavfsizlik

muhitiga nisbatan bo'lgan asosiy tahdidlarning o'ziga xos jihatlarini ajratib ko'rsatilgan:

Birinchidan, XXI asr bo'sag'asida mojarolarning sabab va o'choqlari o'zgardi. O'choqlar ko'pincha etnik va diniy asosda vujudga keladi. Iqtisodiy va moliyaviy ziddiyatlar tobora ortib bormoqda, bozor va resurslar uchun kurash keskinlashmoqda.

Ikkinchidan, nizo qatnashchilari tarkibi o'zgarmoqda.

Uchinchidan, mojarolarning xususiyati va mazmuni ham o'zgarmoqda.

To'rtinchidan, xalqaro tashkilotlarning faoliyatidagi o'zgarishlarni ham ta'kidlab o'tish lozim.

### **Seminar savollari:**

1. Xalqaro xavfsizlik tushunchasini izohlang.
2. "Sovuq urush" tugaganidan so'ng xalqaro xavfsizlikka qanday noan'anaviy tahidlar paydo bo'ldi?
3. Keng qamrovli xalqaro xavfsizlik kontsepsiysi qabul qilinishining ahamiyati haqida fikr yuriting.
4. Xavfsizlikning bo'linmasligi haqida fikr yuriting.
5. Qurolsizlantirish masalalari qanday hal etilmoqda?

### **Mustaqil ishlar topshiriqlari:**

1. Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda qudratli xalqaro tashkilotlarning roli qanday?
2. Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda qudratli davlatlar roli qanday bo'lmoqda?

## **Ma'ruba № 12. JAHON SIYOSATI VA MARKAZIY OSIYO**

### **Reja:**

1. Markaziy Osiyoning jahon siyosatida tutgan o'rni va ahamiyati
2. Tashqi kuchlarning Markaziy Osiyodagi manfaatlari
3. Eron Islom Respublikasining Markaziy Osiyodagi manfaatlari
4. Turkiyaning Markaziy Osiyodagi manfaatlari
5. Hindistonning Markaziy Osiyodagi manfaatlari
6. Pokiston Markaziy Osiyodagi manfaatlari
7. Xitoyning Markaziy Osiyodagi strategik manfaatlari

**O‘quv masbg‘ulotning maqsadi:** Markaziy Osiyo mintaqasining jahon siyosatida tutgan o‘rniga doir ma‘lumot berishdan iborat.

### Tayanch so‘z va iboralar:

- Tashqi siyosat
- Mintaqaviy xavfsizlik
- Yangi dunyoviy tartibot
- Integratsiya
- Mintaqaviy aksilterror tuzilma
- Manfaat

### *Markaziy Osiyoning jahon siyosatida tutgan o‘rni va ahamiyati*

Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy koordinatalar tizimida muhim o‘rin tutadi. Qo‘shni mintaqqa va davlatlardagi tinchlik-osoyishtalik ko‘p jihatdan ushbu mintaqaning siyosiy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishga bog‘liqdir.

Bu hol, birinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari tarixiy rivojlanishining o‘ziga xosligi, chunonchi, bunga nisbatan munosabatda keskin yondashuvlarni qabul qilmasligi xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizmning nafaqat mintaqada, balki qo‘shni davlatlar hududida tarqalishiga to‘sqinlik qiladigan muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchidan, mintaqada narkotrafikka qarshi kurashish, yadro xavfsizligini (mintaqani yadrodan xoli xudud deb e’lon qilish tashabbusi orqali) ta’minalashda birgalikda harakat qilish zarurati anglab etilgan. Mintaqqa xavfsizligini ta’minalashga qaratilgan integratsion jarayonlar kelgusida global xavfsizlik tizimiga ijobjiy ta’sir etishi shubhasizdir. Chunki mintaqqa jiddiy harbiy-siyosiy omil bo‘lishi bilan bir qatoda Rossiya va Xitoy singari yirik davlatlar bilan harbiy, siyosiy va iqtisodiy sohada yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda.

Uchinchidan, energetika zahiralarining global inqirozi kutilayotgan bir paytda, mintaqqa ushbu zaxiralar nuqtai nazaridan katta imkoniyatlarga ega.

To‘rtinchidan, mintaqadagi qator davlatlar iqtisodiyotining jadal rivojlanib, ular o‘rtasidagi integratsion jarayonlarning mustahkamlanib borayotgani kelgusida bu xudduda globallashuv tahdidlariga dosh bera oladigan yoki uning imkoniyatlaridan samarali foydalana oladigan iqtisodiy jihatdan o‘ta rivojlangan markaz vujudga kelishi mumkinligidan dalolat beradi.

Beshinchidan, mintaqqa davlatlarida demokratiya tamoyillarining milliy-madaniy xususiyatlar bilan uyg'unlashtirilgan siyosiy taraqqiyotning o'ziga xos modellari shakllantirilmoqda. Markaziy Osiyoda barqaror siyosiy tizimning vujudga keltirilishi esa mintaqqa manfaatlari global xalqaro munosabatlar darajasida e'tirof etilishiga shart-sharoit yaratadi.

Kelgusida, afg'on zaminida tinchlik o'rnatilishi, ijtimoiy soha va iqtisodiyotning tiklanishi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etilishi bilan u Markaziy Osiyo xalqlari oilasiga qabul qilinishi va tegishli geosiyosiy maqomga ega bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Binobarin, yangi Afg'onistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan integratsiyalashuvni natijasida shakllangan taqdirdagina u shunday imkoniyat va maqomga ega bo'lishi mumkin. Chunki u energetika va transport kommunikatsiyalari o'tgan tranzit davlatgina emas, global-lashuv sharoitida izchil va samarali rivojlanib borayotgan davlatlararo iqtisodiy hamjamiyatning tarkibiy qismiga aylanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasining uyg'un va muvafaqqiyatli taraqqiyotining omili hisoblangan hududiy va tarixiy mushtaraklikdan tashqari davlatlararo munosabatlardagi xalqaro-huquqiy tartibning shakllangani bilan ham ajralib turadi. Bu munosabatlar xalqaro huquqning umum-e'tirof etiladigan va me'yordagi talablariga javob beradigan integratsiyalashuvning yangi shart-sharoitlarda amalga oshirilayotgani bilan belgilanadi. Ammo, Turkmaniston bu jarayonlardan chetraqda turibdi. Bizningcha bu vaqtinchalik hol bo'lsa kerak. Chunki, ertami kechmi, ushbu davlat Markaziy Osiyo integratsiyasi jarayoniga uyg'unlashuvni zarur. Zero, mintaqqa transport-energetika tizimi, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishi, yalpi xavfsizlik shart-sharoitlarining paydo bo'lishi Turkmaniston milliy manfaatlariaga mos bo'lgan davlatlararo munosabatlarning samarali mintaqaviy tizimiga qo'shilishiga undaydi. Bu tizim milliy manfaatlarning to'liq hisobga olinishi negizida mintaqaviy manfaatlarni belgilab olish, shuningdek, mehnat taqsimoti tizimi, yagona bozor va yaxlit iqtisodiy makoniga xizmat qilmog'i zarur.

"Markaziy Osiyo" atamasi mintaqaga nisbatan g'arbda XX asrning 80-yillari oxirlaridan boshlab qo'llanila boshlagan. 1991 yildan keyingi, ya'ni mintaqqa davlatlarining siyosiy mustaqillikni qo'rga kiritganlaridan keyingi davrda ushbu hududni "Markaziy Osiyo" atamasi orqali atash keng tarqala boshladi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining

1993 yilda Olma-ota shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvida ular mintaqaga nisbatan bundan buyon Markaziy Osiyo atamasini qo'llash to'g'risida kelishib oldilar<sup>1</sup>.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov bo'lib o'tgan press-konferensiyada shunday degan edi: "Toshkentda yanvar oyida paydo bo'lgan "Markaziy Osiyo davlati" tushunchasiga kelsak, bu ob'ektiv, qonuniy jarayon. Shu mintaqada yashovchi xalqlarni ularning tarixi, madaniyati, tili, dirlari birlashtirib turadi. Xalqlarimizning tarixiy ildizlari bir-biri bilan shunday chatishib ketgan va ularning hozirgi kundagi voqeliklari bir-biri bilan shunchalar o'xshashki, biz faqat o'zaro hamkorlikda, birgalikdagina yuzaga kelgan inqirozdan chiqish yo'llarini izlaymiz".

F.Tolipovning fikriga ko'ra, 2002 yilda Markaziy Osiyo mintaqasi ko'p jihatli va ob'ektiv integratsiyalangan tushuncha, yadro qurolidan xoli hudud, yagona bozor, tarixiy bog'liqlik, umumiylik, xavfsizlikning bo'linmas tizimi, yagona ekosistema, mustaqil geosiyosiy birlik (bufer, Kartlend, kuch markazi), nihoyat madaniyatlararo sintez markazi bo'lib ko'ringan edi. Bu tavsiflar mintaqaning alohida maqomini belgilab beradi: u bir vaqtning o'zida ham mahsulot, ham Markaziy Osiyo davatlari o'zaro faoliyatining alohida manbaidir<sup>2</sup>.

Markaziy Osiyo tarkibiga shimoldan Tyan-Shan, Janubdan Hisor tog'lari bilan o'rالgan yirik submintqa - Farg'onan vodiysi kiradi. Hududiy jihatdan, uning tarkibiga O'zbekiston, Tojikiston hamda Qирг'изистон kiradi. Uzunligi 300 km., kengligi 170 km., balandligi 330-1000 m.gacha.

Markaziy Osiyo davlatlarining deyarli barchasida islohotlar dastlab mahsulotlar va xizmatlar hajmining qisqarishi, keyinchalik esa bu boradagi taqchillikka barham bergan - narxlarning erkinlashtirilishi; savdo, xizmatlar sohasi, qishloq xo'jaligi, sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi kichik, o'rta hamda qisman yirik korxonalarining xususiylashtirilishidan boshlandi. Natijada yollanma va oilaviy mehnatdan foydalanadigan xususiy korxonalar, hissadorlik kompaniyalar, birjalar paydo bo'ldi. Bundan tashqari, ikki darajali bank tizimi

<sup>1</sup> С.Кушкумбаев. Центральноазиатская интеграция в контексте истории и geopolитики. // www.caapr.kz

<sup>2</sup> Толипов Ф.Ф. Теория и практика региональной интеграции в Центральной Азии // Центральная Азия и Кавказ .№2, 2002.- С. 20.

shakllantirila boshlandi. Bu tizimda davlatning markaziy bankidan tashqari, tijorat banklarining keng tarmoqli tizimi ham tuzilib, faoliyat yurita boshlaydi. Milliy valyutalar joriy etilib, ularning konvertatsiyasi, valyuta nazoratini kuchaytirish, chet el kapitalini jalb etish uchun zarur shart-sharoit yaratildi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish milliy tizimi vujudga keltirildi, mahsulotlar, ishchi kuchi, kapital va xizmatlar bozorining normal faoliyat yuritishi uchun shart-sharoit hozirlandi. Hozirgi kunda Markaziy Osiyo mintaqasiga O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston kiradi.

### *Tashqi kuchlarning Markaziy Osiyodagi manfaatlari*

"Katta o'yin" nazariyasiga uning hozirgi ko'rinishlari. Bu konsepsiya shunday bir qoidaga asoslanadiki, unga muvofiq Markaziy Osiyo Yevrosiyoning bir nechta katta davlatlariga geografik jihatdan yaqin joylashganligi uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bois, "Katta o'yin" nazariyasiga binoan, Markaziy Osiyo tashqi kuchlar uchun talash ob'ekti bo'lib, ko'p marta bo'lingan, qo'shib olingen, xalqaro siyosat maydonidan g'oyib bo'lgan va yana vujudga kelgan. "Katta o'yin" atamasini ilk bor Artur Konnoli tomonidan Britaniya va Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoda gegemonlik uchun strategik raqobatiga nisbatan qo'llagan edi. Keyinchalik u Buyuk Britaniyaning Osiyoga mustamlakachilik yurishlarini tasvirlagan ingliz adibi va sayyohi Redyard Kiplingning yozuvchilik mahorati ta'sirida keng tarqaldi.

"Katta o'yin"ning bиринчи, klassik davri qariyb 100 yil davom etdi va 1907 yilda Angliya-Rossiya Konvensiyasining imzolanishi bilan yakunlandi. Markaziy Osiyo o'sha davrning ikki eng qudratli imperiyasi o'rtaida joylashgan edi. Ikkala davlat bu yerda qarshi tarafning paydo bo'lishini o'z manfaatlariga tahdid deb qarab va bunga yo'l qo'ymaslikka intilib, mintaqani intensiv ravishda o'rgandi va razvedka qildi. Bu strategik o'yinni hozirgi davr ta'biri bilan "Kabuki geosiyosiy raqsi" deb nomlash mumkin: raqobat ayovsiz tus oldi, lekin tomonlar biri-biridan masofani saqlab, hech qachon bevosita qurolli to'qnashuvga yo'l qo'ymadilar. Angliya Rossiyaning asta-sekin janubga siljib, Markaziy Osiyo xonliklarini birin-ketin bosib olib, oxir-oqibatda Hindiston chegaralariga chiqishidan qo'rqrar edi. Bu holda orqada bo'yundirilgan erlarga va Rossiya imperiyasining markazi bilan quruqlik bo'ylab aloqaga ega rus qo'shini ingliz ekspeditsion qo'shinlari oldida ustunlikka ega bo'lar edi. "Britaniya tojining durdonasi" bo'lgan

Hindiston xavf ostida qolar edi.

Mayjud sharoitda London zudlik bilan buning oldini olish choralar ko'rdi: 1838 yilda Afg'onistonni egallash maqsadida birinchi ingliz-afg'on urushi boshlandi. Lekin 1842 yilda Britaniya qo'shnlari Qobulni tashlab, chekinishga majbur bo'ldi. 1865 yil ruslarning Toshketi va Samarqandni bosib olishi, Amudaryo qirg'oqlariga chiqishi va Qobuldagi diplomatik faolligi britaniyaliklarni sharmandali mag'lubiyat haqida unutib, 1878 yilda ikkinchi afg'on kampaniyasini boshlashga majbur qildi. Ammo bu safar ham ularning 40 ming kishilik qo'shini muvafqaqiyatsizlikka uchradi va 1881 yilda chekinishga majbur bo'ldi. Rossiya esa janubga yurishini davom ettirdi. Bu 1884 yil mashhur Panjex voqeasi ro'y bergunga qadar davom etdi. O'shanda rus qo'shnlari Marvni bosib olgach, birinchi marta afg'on qurolli kuchlari bilan to'qnashdi. Ikki buyuk davlat o'rtasida bevosita to'qnashuvning oldini olish uchun zudlik bilan Ingliz-Rus Chegara Komissiyasi ta'sis etildi. Bu Komissiya Amudaryo bo'ylab chegara chizig'ini qayd etdi. Keyinchalik, 1907 yilda taraflar Afg'oniston Buyuk Britaniya nazorati ostidagi hudud ekanligi, u mavjud chegaralarni tan olishi va Rossiyaning Markaziy Osiyodagi ishlariga aralashmasligi haqidagi Konvensiyani imzoladilar. "Katta o'yin"ning klassik davri shu tariqa yakunlandi.

Bolshevistik inqilob chor Rossiyasining barcha shartnomalarini, shu jumladan 1907 yilgi Angliya-Rossiya Konvensiyasini ham bekor qildi. Bu mintaqada geostrategik raqobatning yangi bosqichi boshlanishiga sabab bo'ldi. Uchinchi ingliz-afg'on urushi 1919 yilda, Omonulloxon mamlakatni Buyuk Britaniyadan to'liq mustaqil deb e'lon qilganidan so'ng boshlandi. Natijada Ravalpindi bitimi tuzildi va unga ko'ra Afg'oniston tashqi siyosatda o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini qo'lga kiritdi. Ko'p o'tmay SSRI va Afg'oniston o'rtasida Do'stlik haqida shartnomasi imzolandi. U taraflarni uncha qanoatlantirmasa-da, asosiy natijaga erishildi – Afg'oniston Britaniya ta'siridan xalos bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng geostrategik raqobatda Buyuk Britaniya o'rnini AQSh egalladi. Ikki qutbli qarama-qarshilik taraflari jahonning eng muhim mintaqalaridan bir-birini siqib chiqarish va bu erda o'z ta'sirini o'rnatishga harakat qildilar. Tabiiyki, bu ziddiyat Yaqin va O'rta Sharqning uglevodorodli xom ashyoga boy va strategik jihatdan muhim hududlarini, shuningdek ularga qo'shni mintaqalarni ham chetlab o'tmadi. 1979-1989 yillarda Afg'oniston uchun kurash "Katta o'yin" ikkinchi bosqichining cho'qqisi bo'ldi. Bu kurashga

ikkala blok ham juda resurslarni tashladi.

Sovet Ittifoqining mag'lubiyati va oradan ko'p o'tmay parchalanib ketishi Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi geosiyosiy vaziyatni yuzaga keltirdi. Shu zahoti yangi "Katta o'yin" ssenariylari yozila boshladи. Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqilligining dastlabki bosqichida ko'pgina siyosatshunoslar mintaqada o'z ta'sirini o'rnatish uchun geosiyosiy raqobat asosan Turkiya va Eron o'rtasida bo'lishini taxmin qilgan edilar. Jahonda Xitoy mavqeい mustahkamlanishi bilan unga Markaziy Osiyodagi mavqeい va ta'siri baland kuch sifatida qarala boshlandi. Global markazlar mintaqaning muhimligini qayd etgan holda, amalda bu yerda ro'y berayotgan jarayonlarga uncha aralashmadilar. 2001 yil 11 sentyabrdan so'ng vaziyat butunlay o'zgardi. Markaziy Osiyo xalqaro terrorizmga qarshi kurashning istehkomiga aylandi. Bu erda NATO harbiy-siyosiy kuchlari hozirligi pretsedenti vujudga keldi.

Afg'onistondagi antiterroristik operatsiyaning dastlabki bosqichida ko'pchilik Markaziy Osiyo o'z tarixida birinchi marta raqobat ob'ektiga emas, ko'p taraflama, balki uzoq ruuddatli hamkorlik maydoniga aylanmoqda, degan fikrni ilgari surdi. "Katta o'yin" tugagandek va bir tomonning g'alabasi ikkinchi tomon manfaatiga zid kelmaydigan holat, ya'ni "non-zero-sum-game" davri boshlangandek bo'lib tuyuldi. Biroq, terrorizmga qarshi urush cho'zilgani sari ayrim mamlakatlarning manfaatlari o'rtasida ziddiyatlar namoyon bo'la boshladи. Ular Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini o'rnatish uchun o'zaro kurash olib borayotgani ayon bo'lib qoldi.

Oldingi davrlardan farqli o'laroq, mintaqqa uchun geosiyosiy kurashning hozirgi bosqichi bir qancha o'ziga xos fundamental xususiyatlarga ega.

Bu kurashga oldingidan ancha ko'proq davlatlar qo'shilganki, shuning o'ziyoq qarama-qarshilikning murakkab, ko'p yo'naliшли shakl-shamoyilini namoyon etadi. Bunda o'xshash yondashuvli mamlakatlarning guruhlari, masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi bir tomonidan va Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari ikkinchi tomonidan kuzatilmogda. Bu Markaziy Osiyo tevaragida bloklar qarama-qarshiliги vujudga kelishiga zamin hozirlaydiki, bu mintaqqa uchun juda xavfli. Mintaqqa o'z tarixida birinchi marta har xil mo'ljallli mamlakatlarning harbiy kuchlari bir-biridan xavfli yaqinlikda joylashgan zonaga aylandi.

Markaziy Osiyodagi yangi "Katta o'yin" ishtirokchilari orasida o'ta tajovuzkor kuchlar – diniy radikalizm, xalqaro terrorizm va narko-

biznes paydo bo'ldi. Ular havoyi fantom, virtual xavf va shunchaki yovuzlik timsoli emas. Bu kuchlar aniq kun tartibi, tarmoqlangan tashkiliy tuzilmaga va uncha-muncha davlat bellasha olmaydigan qudratli moliyaviy qudratga ega. Ular Markaziy Osiyodagi jarayonlarda ishtirok etayotgan davlatlar orasida ziddiyat mumkin qadar kuchayishidan manfaatdordirlar.

Geoqtisodiy manfaatlar Markaziy Osiyo tevaragidagi raqobatning muhim yo'naliishiga aylandi. Energetika, transport infratuzilmasi sohaisidagi mintaqaviy loyihalarining amalga oshirilishi yoki, aksinchasi, muvaffaqiyatsizlikka uchrashi yirik davlatlar taqdiriga va jahon iqtisadiyotining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Nihoyat, ilgari Markaziy Osiyo xalqlari davlatlar o'rtasidagi geosiyosiy bellashuvning o'ziga xos «sovritini», passiv sub'ektlari hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda ular strategik jarayonlarning faol ishtirokchilariga aylanmoqda.

### ***Eron Islom Respublikasining Markaziy Osiyodagi manfaatlari***

Eron noyob geostrategik joylashuvga ega. U muhim mintaqalar – Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz, Yaqin Sharq va Hindiston subkontinentini bog'lovchi chorrahada joylashgan. Eron 15 mamlakat bilan dengiz yoki quruqlik bo'ylab umumi yechegalariga ega bo'lgan jahondagi yagona davlatdir. Aholi soniga ko'ra Eron jahonda 17-o'rinda turadi (70 million kishi). Eron jamiyati ko'p millatli bo'lib, aholining yarmidan ko'prog'ini mayda millatlar: ozarbayjonlar, kurdlar, arablar, turkmanlar va boshqalar tashkil etadi. Diniy nuqtai nazardan Eron aholisi nisbatan turdosh – aholining 90% ga yaqinini shia mazhabiga mansub musulmonlar tashkil etadi. Yer yuzidagi eng qadimgi sivilizatsiyalardan birining vatani bo'lgan Eron boy va nihoyatda qiziqarli madaniyatga ega. Bu mamlakat islom dunyosining muhim markazlaridan biri hamdir.

O'tmishda, ayniqsa, o'rta asrlarda Eron qo'shni mintaqalarning va hatto Yevropaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Biroq keyinchalik savdo marshrutlarining o'zgarishi va permanent beqarorlik uning roli asta-sekin pasayishiga olib keldi. Buning ustiga, Eronqa Britaniya va Rossiya imperiyasi o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirishga urinishlar, shu jumladan 1905-1911 yillarda ro'y bergen Osiyodagi birinchilardan bo'lgan Konstitutsiyaviy Inqilob ham vaziyatni tubdan o'zgartira olmadi. Mamlakat neftga juda boy va, boz ustiga, jahonning

muhim mintaqasida strategik mavqega ega bo'lib, tashqi kuchlarning Eronga o'z ta'sirini o'tkazishga qaratilgan siyosatining sub'ekti bo'lishda davom etdi. 1953 yilda AQSh va Angliya maxsus xizmatlari o'tkazgan operatsiya natijasida bosh vazir Masodiq lavozimidan chetlatildi va hokimiyatga shoh Rizo Pahlaviy keltirildi. Uning hukmronligi davri iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, turmush tarziga g'arb unsurlarini olib kirishga urinish, inson va fuqaro huquq va erkinliklari tamoman toptalishining mudhish qorishmasi bo'ldi. Tabiiyki, bu jamiyatda norozilikning kuchayishiga olib keldi. 1979 yil Ayatulla Humayniy rahbarligida amalga oshirilgan islom inqilobi natijasida monarxiya tugatildi.

Yangi davlatga avvalidanoq "ichki duallik", ya'ni bir vaqtning o'zida ham konstitutsiyaviy, ham islom respublikasi bo'lish xos edi. Vaholanki, klassik islomizm davlat va jamiyat qurilishining shariatdan boshqa hech qanday huquqiy normalarini tan olmaydi. Davlat boshlig'i – Maslahatchilar Kengashi tomonidan saylanadigan Rahbar. U umumxalq saylovida to'rt yilga saylanadigan Prezidentdan ko'proq vakolatga ega. 290 deputatdan iborat bir palatali parlament jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi.

Eron jamiyatiga ma'lumot darajasining yuqoriligi, axborot texnologiyalari nisbatan rivojlanganligi xosdir. Aholining 70% dan ko'proq'ini 30 yoshdan kichik fuqarolar tashkil etadi. Bu xususiyatlar aholining, ayniqsa, talabalar va ziyolilarning ijtimoiy va siyosiy faoliyatini belgilaydi.

Xorijlik siyosatshunos olimlar Eron siyosiy isteblishmentini to'rt guruhga ajratadilar. Birinchi guruhga nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy tizimni ham jiddiy o'zgartirishni talab qiluvchi radikal reformatorlar kiradi. Ikkinci guruh iqtisodiy o'sishni ta'minlash "sivilizatsiyalar aloqasi"ga nisbatan ko'proq ochiqlikni, xalqaro aloqalarni kengaytirishni va mamlakatdagi ahvolni isloh qilishni taqozo etadi, deb hisoblaydigan mo'tadil reformatorlardan iborat. Uchinchi guruh – pragmatiklar, Erondag'i siyosiy-mafkuraviy tizim iqtisodiy modernizatsiyaga monelik qilmaydi, deb hisoblaydi. Nihoyat, ichki va tashqi siyosat masalalariga konservatorlar yondashuvi Ayatulla Humayniyning fundamental prinsiplari va g'oyalariga asoslanadi. Ushbu siyosatshunos olimlarning fikricha, so'nggi yillarda ijtimoiy hayot radikal-lashishi va izdan chiqishidan tashvishianayotgan mo'tadil reformatorlarning konservativ yo'naliш tarafga og'ishi ro'y bermoqda.

Mintaqadagi geosiyosiy vaziyatning keskin o'zgarishiga konservativ kuchlar birlashishiga turki beruvchi ikkinchi omil sifatida qaralmoqda. Qisqa vaqt ichida Eronning ikki tarafida – Afg'oniston va Iroq chegaralarida uning asosiy raqibi – AQShning harbiy kuchlari paydo bo'ldi. Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyoda AQShning doimiy harbiy bazalari tashkil etilishi xavfi tug'ildi. AQSh ma'muriyatini demokratiya va g'arb qadriyatlarini ilgari surish, ya'ni mintaqaga mafkuraviy hujum qilish maqsadini ko'zlovchi "Katta Yaqin Sharq» dasturini amalga oshirish niyatida ekanligini e'lon qildi. Bularning barchasi Tehronni tashvishga solib qo'ydi. Bundan tashqari, xalqaro hamjamiyat AQShning tazyiqi ostida Erondan yadro dasturini to'xtatishni qat'iy talab qila boshladi. Bu ham Eron jamiyatida g'arbgan qarshi munosabatning kuchayishiga olib keldi.

Eron ancha yirik iqtisodiyotga ega – xarid qobiliyati nisbatiga ko'ra hisoblangan YAIMning yillik hajmi taxminan 480 milliard dollarni tashkil etadi (2003 yil). Eron iqtisodiyoti davlat mulki (avvalo, strategik tarmoqlarda) bilan savdo va xizmatlar sohasida xususiy tadbirkorlikning uyg'unligidan iborat. Neft va gaz sanoatinining salmog'i ayniqsa katta – Eron jahonning tekshirilgan neft zaxiralarning o'ndan biriga ega, gaz zaxiralari hajmiga ko'ra esa Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. So'nggi yillarda uglevodorodli xom ashyo narxlarining keskin ko'tarilishi mamlakat valyuta tushumlari ko'payishiga olib keldi. Eronning oltin-valyuta zaxirasi 22 mlrd. dollardan oshib ketdi (2003 yil). Ayni vaqtida, odatdagidek, iqtisodiyotda davlat mulki ulushining kattaligi, mamlakatda ishsizlik va inflyasiya darajasi ancha yuqori bo'lishiga olib kelmoqda va byudjet taqchilligi kuzatilyapti. Hukumat neftdan olingen daromadlarni yangi tarmoqlarni shakllantirishga yo'naltirish yo'li bilan iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga urinmoqda. Bundan tashqari, Eronning iqtisodiy strategiyasi energetika sektoriga chet el investitsiyalarini jalb qilish va xorijda yangi bozorlarni egallashni o'z ichiga oladi. "Ozodegan" yirik neft konini birgalikda qazish yuzasidan Yaponiya bilan muzokara olib borilmoqda. Erondan Pokiston va Hindistonga quvur yo'li o'tkazish g'oyasi faol muhokama qilinmoqda.

Eron tashqi siyosati va tashqi iqtisodiy strategiyasida Markaziy Osiyo tarixan muhim o'rinni egallaydi. 90-yillarning boshida g'arbiy tadqiqotchilar tomonidan Markaziy Osiyo bilan yaqin tarixiy, madaniy aloqalarga ega bo'lgan Eron yaqinligi va o'z iqtisodiy salohiyati tufayli mintaqada gegemoni rolini o'ynash va bu erda islom inqilobi

g'oyalarini tarqatishga harakat qiladi, degan fikrlar ilgari surilgan edi. Biroq Eron tashqi siyosati ancha uzoqni ko'zlab ish tutdi. Diniy omil asosan sunniylar yashaydigan va dunyoviy demokratiya qurishga intilish kuchli bo'lган Markaziy Osiyo jamiyatlarini Eron bilan bog'-lashdan ham ko'ra ko'proq undan uzoqlashtirishini yaxshi tushungan Tehron o'zining mintaqadagi tashqi siyosatida iqtisodiy, madaniy aloqalarni, gumanitar muloqotni birinchi o'ringa qo'ydi, tarixiy, aloqliq masalalardagi mushtaraklikka urg'u berdi.

Eron Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan transport va savdo-iqtisodiy aloqlar sohasida hamkorlikni rivojlantirishga ustuvor ahamiyatga ega bo'lган soha sifatida qarab keldi va bu erda Tehron strategiyasining pragmatik xarakteri yaqqol namoyon bo'ldi. Markaziy Osiyoga va Markaziy Osiyodan yuklarni tranzit qilish uchun Eron hududidan foydalanishga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi – haydovchilar uchun viza rejimi va yuklarni bojxonda rasmiylashtirish taomili soddalashtirildi, yo'llar rekonstruksiya qilindi. Afg'oniston orqali o'tadigan transport yo'lagi dasturini amalga oshirishga Eron katta mablag'larni yo'naltirmoqda. Bugungi kunda yuklarni transportda tashishning Eron yo'nalishi Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan eng faol foydalanilayotgan yo'nalishlardan biridir. Biroq Eron o'zini faqat tranzit mamlakati sifatida ko'rayotgani yo'q. U Markaziy Osiyoga keng qamrovli tovar va xizmatlar bozori deb ham qaramoqda. Zotan, Eron biznesi hududiy yaqinlik tufayli bu erda raqiblar oldida muayyan ustunlikka ega.

O'z-o'zidan ravshanki, Eron, jahon energetika bozorida baland mavqega ega mamlakatlardan biri sifatida, bu bozorda Markaziy Osiyo segmenti vujudga kelishiga befarq qarab turolmaydi. Bu avvalo Kaspiy muammosiga tegishlidir. Bu erda faqat Kaspiy qirg'oqlarida joylashgan mamlakatlarning emas, balki boshqa davlatlarning ham manfaatlari to'qnashmoqda. Dengizni o'rtadan milliy sektorlarga bo'lishga Eron rozi bo'lmayapti. Bu holda Kaspiyning tuzilishiga ko'ra Eron ga akvatoriyaning eng kichkina qismi o'tadi. Shu bois, Tehron Kaspiy uchun birgalikda javob berish, dengiz ekotizimini saqlagan holda, uning zaxiralardan foydalanish g'oyasini ilgari surmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni muttasil rivojlantirish Tehron uchun AQSh olib borayotgan Eronni yakkalab qo'yish, ya'ni uni xalqaro nuqtai nazardan izolyasiya qilish siyosatiga qarshi xattiharakat, mamlakatni xalqaro hamjamiyatdan ajratib qo'yishga urinish-

larning oldini olish vositalaridan biri sifatida ham qaradi. Xalqaro hayotning Markaziy Osiyo yo'nalishiga faol qo'shilish Eronning yirik regional davlat sifatidagi maqomi o'z tasdig'ini topishini ham anglatishi inobatga olinmog'i lozim. Forsiyzabon aholi va shia mazhabiga mansub musulmonlar yashaydigan hududlarda Eron ta'siri azaldan kuchli bo'lib, bunga Tehron geosiyosatining qudratli dastagi deb qaraladi. Eron Afg'oniston mojarosini tartibga solish va bu mamlakat iqtisodiyotini tiklashda ham faol rol o'yynamoqda.

Hozirgi sharoitda transchegaraviy, xalqaro miqyosdagi xavf manbalariga, avvalo giyohvandlik moddalari bilan g'ayriqonuniy muomala qilishga qarshi kurash sohasida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik Eron tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolayotir. Eronda giyohvandlik moddalari iste'mol qilish jiddiy muammoga aylangan va hukumat unga juda katta e'tibor bermoqda.

Eron – mintaqadagi nufuzli davlat. Markaziy Osiyoning ko'pgina muammolari, chunonchi: transport-kommunikatsiya, yangi xavflarga qarshi kurash va hokazolarni Eron bilan yaqin hamkorliksiz hal qilib bo'lmaydi. Har qanday holatda Eron bilan munosabatlar Markaziy Osiyo mamlakatlari rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

### *Turkiyaning Markaziy Osiyodagi manfaatlari*

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari vujudga kelganidan keyingi davrda mintaqaning rivojlanish variantlarini tahlil qilgan siyosatshunoslar bu erda o'z ta'sirini o'tkazish uchun geosiyosiy raqobat avvalo Eron va Turkiya o'rtasida bo'lishini taxmin qilgan edilar. Va bu raqobat nafaqat Markaziy Osiyoda ta'siri chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan ikki yirik davlat orasidagi kurash, balki ikki g'oya, ikki rivojlanish konsepsiysi, sekulyarizm va islomizm orasidagi qarama-qarshilik deb tan olingen edi. Bunda Turkiya asosan musulmon aholi yashaydigan mamlakatda dunyoviy demokratiya konsepsiyasining tarqatuvchisi, shuningdek g'arb mamlakatlari bilan yaqin sherikchilik aloqalari o'rнata olgan davlat sifatida ko'rilgan edi. Ammo uning Markaziy Osiyodagi ta'siri faqat shu holat bilan belgilanmaydi. U Turkiya hozirgi dunyoda o'ynayotgan muhim rolga asoslanadi.

Turkiyaning dunyo miqyosidagi taraqqiyot uchun ahamiyati zamirida uning Osiyo va Yevropani, ikki qit'a, ikki sivilizatsiya, ikki dunyonи bog'lovchi va ajratuvchi ko'priк sifatidagi strategik o'rni yotadi. Rim, Vizantiya va Usmon imperiyalarining vorisi bo'lgan Turkiya jamiyatni tomirida g'arb, Vizantiya va islom sivilizatsiyalari

shakllanishida ulkan rol o'ynagan madaniyatlar qoni oqmoqda. Boshqacha aytganda, u o'z ildizlari bilan Markaziy Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharq bilan bog'langan. Asrlar davomida Turkiya islom dunyosida yetakchi kuch bo'lib keldi, uning eng muhim ziyyaratgohlarini nazorat qildi. Ayni vaqtida, Bolqon yarim oroli, Sharqiy Yevropaning bir qismi, Qrim va Kavkazni istilo qilib, bu erda uzoq vaqt geosiyosiy ta'sirga ega bo'ldi. Bu ta'sir hozir ham ba'zi holatlarda sezilib turibdi.

O'rta asrlarda boshqa davlatlarni hayratda qoldirib "Yorqin Porta" (Blistatelnaya Porta) deb nom olgan Usmon imperiyasi keyinchalik "Yevropaning kasal odami"ga aylanib qoldi. Turklar o'tmishdagi buyuklik qo'ldan boy berilganidan katta tashvishga tushdilar va mamlakatni modernizatsiya qilishga bir necha bor urindilar. Bu urinishlarning eng mashhuri "yosh turklar" harakati deb nom qozongan. Lekin ularning birontasi ham muvaffaqiyatli bo'lmadi. Turkiya Birinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchradi, hatto qisqa vaqtga o'z mustaqilligini ham yo'qotdi. Lekin turklar bu tendensiyaga barham berish uchun kuchlarni safarbar etishga muvaffaq bo'ldilar. Mustaqillik uchun kurashda turklarga yangi Turkiyaning bo'lajak asoschisi, keyinchalik Otaturk nomini olgan Mustafo Kamol Posho rahbarlik qildi. 1916 yilgi Dardanella uchun jang qahramoni, 35 yoshida general unvonini olgan Mustafo Kamol xalqni mamlakat yaxlitligini tiklash uchun kurashga otlantirdi. Uning tashabbusi bilan 1923 yilda Turkiya respublika deb e'lon qilindi. Mustafo Kamol Otaturk keyingi 15 yil davomida, to o'limiga qadar mamlakat Prezidenti bo'ldi. U ajdodlarga dunyoviy demokratiya institutlari va an'analariga ega mamlakatni qoldirdi. Uning ta'limoti Turkiyada otaturkchilik, G'arbda esa kamolizm deb baholangan. Bu ta'limot asosan dinni davlat va maorifdan ajratish, xotinqizlarga erkaklar bilan teng huquqlar berish, grigoriancha yil hisobi va lotin alifbosi joriy etish, xalifalik va shariat huquqini tugatishni o'z ichiga oladi. Turkiya tashqi siyosatiga g'arb mamlakatlari bilan harbiy-siyosiy hamkorlik xosdir. U 1952 yildan beri NATOning faol va obro'li a'zolaridan biri hisoblanadi. Turk generallari mamlakatda kamolizm siyosati saqlanishining kafolatchilaridir. Bu 90-yillarning o'rtalarida Anqarada hokimiyatga Erdogan boshchiligidagi islomchilar kelganida ayniqsa yorqin namoyon bo'ldi.

Turkiyada demokratiya qaror topishi oson bo'lgani yo'q. Mamlakat bir necha harbiy to'ntarishni boshdan kechirdi. Nihoyat, 80-yillarda prezident Turg'ut O'zal rahbarligida iqtisodiy erkinlashtirish dasturi

muvaffaqiyatlari amalga oshirildi va bu Turkiya jamiyatining rivojlanishiga yangi turtki berdi. 2004 yil dekabrda Yevropa Ittifoqi Turkiyani Yevropa hamjamiatiga qabul qilish bo'yicha muzokara jarayonini boshlash haqida qaror qabul qildi.

Turkiya muhim geoiqitsodiy ahamiyatga ega. U ikki strategik bo'g'oz – Bosfor va Dardanellani nazorat qiladi, uch dengizda portlarga ega. Bu eksportga mahsulot ishlab chiqaradigan sanoatning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Turkiya iqtisodiyotining eng jo'shqin rivojlanayotgan sektori to'qimachilik sanoati bo'lib, u to'liq xususiy-lashtirilgan. Turkiyadan G'arbiy Yevropa mamlakatlari, asosan Germaniyaga mehnat resurslari migratsiyasining kuchliligi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlardan biridir. 60-yillardan boshlab millionlab turklar horijda mehnat qilmoqda. Ular mamlakat xorijiy valyuta tushumining bosh manbalaridan biri hisoblanadi.

Tukriya Markaziy Osiyoga nisbatan 90-yillarning boshidanoq faol tashqi siyosat olib bormoqda. Anqara mintaqasi mamlakatlarining mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan oldi va ularning poytaxtlarida o'z elechixonalarini ochdi. SSRI parchalanishidan oldinoq u Markaziy Osijo davlatlarining rahbarlari bilan aloqalar o'rnatgan edi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan zahoti Anqara 1991 yil dekabrda Prezident I.Karimovning Turkiyaga rasmiy tashrifini tashkil qildi. Mintaqaning barcha mamlakatlari o'z mustaqilligining dastlabki oyлarida oziq-ovqat mahsulotlari va dori-darmonlarni shoshilinch etkazib berishga Turkiya Eksimbankidan imtiyozli kreditlar oldi. Xalqaro tashkilotlarda ishlayotgan turk diplomatlari Markaziy Osiyolik hamkasblariga o'z faoliyatini yo'lga ko'yishda yaqindan yordam berdilar. Turkiyzabon dunyo bilan aloqalarni jadal rivojlantirish Turkiyaning nafaqat tashqi, balki ichki siyosatining ham muhim yo'naliшhlaridan biri bo'lib kelgan, chunki Turkiya jamiyatida panturkizm g'oyalari va kayfiyatlar azaldan kuchlidir. Anqara Turksoy madaniy hamkorlik dasturi tashabbusi bilan chiqdi va turkiyzabon davlatlar sammitini muntazam ravishda o'tkazish g'oyasini ilgari surdi.

Tabiiyki, emotsiyalar bilan bir qatorda, Turkiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan siyosati mamlakatning xalqaro ishlardagi strategik maqsadlariga erishishga ham qaratilgan edi. Geosiyosiy nuqtai nazardan, Markaziy Osijo bilan faol hamkorlik Turkiyaning sivilizatsiyalar o'rtaсидagi ko'priк, G'arbnинг muslimmon dunyosidagi avangardi sifatidagi rolini oshirishi lozim edi. Markaziy Osijo mamlakatlariga esa

Turkiya o‘zini ularning manfaatlarini Yevropada ilgari surish va himoya qilishga qodir kuch sifatida taqdim etdi. Bu bilan Turkiya o‘zining nufuzli mintaqaviy davlat ekanligini namoyon qildi. Bu uni Yevropa Ittifoqiga qabul qilish uchun kuchli dalil va uning NATOdagi mavqeい kuchayishi omili bo‘lishi kerak edi. Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga qabul qilinishi uning Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalardagi obro‘siv ta’sirini oshirishga olib kelishi shubhasiz.

Ushbu strategik maqsadlar bilan bir qatorda, sof pragmatik vazifalar, chunonchi: Turkiya biznesiga yo‘l ochish va unga yangi bozoriarni o‘zlashtirishda yordam berish vazifasi ham qo‘yildi. Mintaqal mahsulotni sotish uchun bozor sifatida ham, Turkiya to‘qimachilik sanoati uchun noyob xom ashyo – paxtaning ishonchli manbai sifatida ham muhim ahamiyatga ega edi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo yo‘nalishi Kaspiy dengizi havzasining energetik salohiyatidan foydalananish nuqtai nazaridan ham Turkiya uchun muhim ahamiyat kasb etardi. Markaziy Osiyodan uglevodorodli xom ashyo olib kelish Turkiyaga nafaqat o‘zining o‘sib borayotgan sanoatini energiya manbalari bilan ta’minlash, balki neft va gazning boshqa manbalari – Fors ko‘rfazi mamlakatlari va Rossiyaga qaramlikdan ozod bo‘lish imkonini ham berar edi. Eng muhimi, Turkiya quvur yo‘llari marshrutlarini o‘z hududida tutashtirib, jahoning asosiy iqtisodiy markazlariga muhim strategik resurs etkazib beruvchi tranzit davlati sifatidagi rolini yanada kuchaytirishi mumkin edi.

Quvur yo‘llari o‘tkazishga ko‘maklashish va mintaqal bilan bevosita aloqa o‘rnatish Turkiyaga uning Markaziy Osiyo siyosatidagi “zaif bo‘g‘in” – geografik jihatdan ajralganlik va uzoqlikni muayyan darajada bartaraf etish imkonini beradi.

Afg‘onistondagi voqealarning rivojlanishi Markaziy Osiyoda bevosita harbiy-siyosiy va iqtisodiy hozirlik uchun qulay imkoniyat yaratdi. Tinchlikni saqlash bo‘yicha kollektiv kuchlar – ISAF tashkil etilganidan so‘ng Turkiya ularning faoliyatiga rahbarlik qilish bo‘yicha olti oylik mandatni ikki marta o‘z zimmasiga olgan yagona mamlakat bo‘ldi. Turkiya kompaniyalari Afg‘oniston iqtisodiyotini tiklash loyihalarini amalga oshirishda faol ishtirot etmoqda.

Turkiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida «tarixiy aloqalarni tiklash» dastlabki bosqichi entuziazmi va romantizmi asta-sekin ikkala tarafning puxta o‘ylangan, oqilona yondashuviga o‘rin bo‘shatdi. Bugungi kunda ular o‘z imkoniyatlari va o‘zaro manfaatlarini yaxshi

tushunadilar.

### *Hindistonning Markaziy Osiyodagi manfaatlari*

Markaziy Osiyoda o‘z ta’sirini o‘rnatish uchun mintaqaviy mamlakatlar o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat variantlarini ko‘rib chiqishda siyosatshunoslar “Eron – Turkiya” variantini birinchi o‘ringa qo‘ydilar. “Hindiston – Pokiston” varianti esa kam muhokama qilindi. Bu mamlakatlar subkontinentning bosh muammosi – Kashmir bilan band va undan uzoq vaqt qutula olmaydilar, deb taxmin qilindi. Lekin muammolar yechimi va ikkala mamlakatning ham kelajakdan umidlari Markaziy Osiyoning rivojlanishi bilan bog‘liq ekanligi ayon bo‘lib bordi. Buning anglab yetilishiga qarab, mamlakatlarning mintaqadagi strategik manfaatlari ham ravshanlasha boshladi. Boshda Markaziy Osijo yo‘nalishida tashabbus Pokiston qo‘lida bo‘ladi, deb taxmin qilingan edi. Lekin voqealarning rivojlanishi buni tasdiqlamadi. Bir milliard aholi yashaydigan davlat, “hozirgi dunyoning eng yirik demokratiyasi” - Hindistonning qudratli sivilizatsion va geosiyosiy salohiyati namoyon bo‘la boshladi.

Hindiston Respublikasi aholi soni jihatidan jahonda ikkinchi o‘rinda turadi. Demograflarning prognoziga ko‘ra, u tez orada Xitoydan o‘zib, birinchi o‘ringa chiqishi mumkin. So‘nggi o‘nyilliklarda Hindistonning nafaqat demografik salmog‘i, balki uning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati ham oshdi. Aholi jon boshiga olinadigan daromadlarga ko‘ra Hindiston hamon jahon mamlakatlarining ikkinchi yuzligida, mamlakat aholisining to‘rtadan bir qismi qashshoq bo‘lsa-da, xarid qobiliyati nisbati asosida hisoblangan YAIM hajmiga ko‘ra u hozir jahonda 4-o‘rinni egallab turibdi. Mamlakatning qiyofasi ham butunlay o‘zgardi. Iqtisodiyoti tubdan isloh qilingani va erkinlashtirilganidan so‘ng unga jo‘shqin rivojlanayotgan mamlakatlardan biri, axborot texnologiyalari sohasida etakchi davlat sifatida qaralmoqda. Hindistonning yadro quroliga va jahondagi eng yirik qurolli kuchlardan biriga ega regional davlat sifatidagi roli umumiy e’tirof etilgan.

Hindistonning Markaziy Osiyodagi manfaatlari bir qancha muhim fundamental omillar bilan belgilanadi.

Hindiston jahonda etakchi va nufuzli siyosiy, iqtisodiy va harbiy kuchga aylanib borayotir. U BMT Xavfsizlik Kengashiga doimiy a’zo bo‘lishga qattiq va faol harakat qilmoqda. Tabiiyki, Hindiston jahoning muhim mintaqasi – Markaziy Osiyodagi jarayonlarda ishtiroy etishi, shuningdek mintaqqa davlatlari uni qo‘llab-quvvatlashi uning

BMTdagि mavqeini oshirish uchun muhimdir. Bundan tashqari, Hindiston o'zining azaliy geosiyosiyo raqiblari – Pokiston, Xitoy va Eron Markaziy Osiyoda o'z ustunligini o'rnatishini xohlamaydi. Bu esa, o'z navbatida, Hindiston mazkur mintaqaning muhimligini tan olishi va bu erda o'z manfaatlarini izchil amalga oshirishini taqazo qiladi.

Qariyb 150 million musulmon aholi yashaydigan Hindiston islomga e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan jahonda Indoneziyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Shu bois, u Markaziy Osiyoda siyosiy, radikal islom kuchayishidan manfaatdor emas. Boz ustiga, islom dini Hindiston subkontinentiga Markaziy Osiyodan kelgan. Shu nuqtai nazardan Hindiston va Markaziy Osiyo tarixiy rishtalar bilan o'zaro bog'langan. Binobarin, mintaqada islomning siyosiylashuvi Hindiston muslimmlari radikallashuviga olib keladi, degan tashvishlar asossiz emas.

Jadal rivojlanayotgan hind iqtisodiyoti qo'shimcha energiya manbariga muhtojligini Dehli yaxshi tushunadi. Shusiz hozirgi rivojlanish sur'atlarini saqlab bo'lmaydi. Markaziy Osiyoning energiya resurslari ga uglevodorodli xom ashyoning eng real manbai deb qaralmoqda. Undan foydalanish imkoniyatini ta'minlash Hindiston tashqi siyosating muhim strategik maqsadidir. Markaziy Osiyo bozori hind biznesi tomonidan ham faol o'zlashtirilmoqda. Hindistonlik biznesmenlar bu erda axborot texnologiyalari, farmatsevtika, to'qimachilik sanoati va boshqa sohalarda o'z tovar va xizmatlarini taklif qilmoqdalar. Bevosita chegaralarning yo'qligi, geografik jihatdan uzoqda joylashganlik aloqalarning kengayishi va mintaqaga rivojlanishida Hindiston yanada faolroq ishtirok etishiga monelik qilib turibdi. O'tmishda Hindikush tizma tog'lari, so'nggi o'nyilliklarda – Afg'onistonning urush va Kashmirdagi keskin vaziyat bunga to'sqinlik qilgan edi. Endilikda, uzoq yillarda davomida birinchi marta Markaziy Osiyo va subkontinent o'rtaida barqaror transport aloqasi o'rnatish imkoniyati tug'ilди. Bu ikkala tarafning qarshisida keng istiqbollar ochadi.

Buni tushunib etgan Hindiston Afg'oniston iqtisodiyoti va transport infratuzilmasini tiklashga katta mablag'larni yo'naltirmoqda. U Afg'oniston orqali o'tadigan transport yo'lagining muhim qismi bo'lgan Dilorom – Milak yo'li qurilishini mablag' bilan ta'minlamoqda. Bu magistralning pirovard manzili jahon dengiz yo'llarining muhim tuguni – Hindistonning Mo'mbay (sobiq Bo'mbay) portidir.

Yo'llar tizimining qurilishi Markaziy Osiyodan Janubi-Sharqiy Osiyoga quvur yo'llari o'tkazishning muhim texnologik shartidir.

Ushbu loyihaning amalga oshirilishi global geoiqtisodiy va geosiyosiy ahamiyatga ega. Quvur yo'llari o'tkazish g'oyasini amalga oshirishga monelik qilayotgan moddiy va texnikaviy muammolar bilan bir qatorda, Hindiston va Pokiston o'rtaqidagi munosabatlar masalasi ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Bir-biriga ishonchszizlik bilan qarash, bir-biriga bog'liq bo'lib qolishdan qo'rqish bu loyihadagi hamkorlikning afzalliklaridan kuchlilik qilayotir. Vaholanki, Hindiston va Pokistonning bir-biriga ijobiy bog'liqligi ular o'rtaqidagi mojaroni hal qilishning eng ta'sirchan omili bo'lishi mumkin. Markaziy Osiyodan Pokiston orqali Hindistonga energiya olib keladigan quvur yo'llarini o'tkazish ikkala mamlakat ham bir-birining barqaror rivojlanishidan manfaatdor bo'lishini belgilab beradi. Shu tariqa Markaziy Osiyo global ahamiyatga molik mintqa – Hindiston subkontinentining geosiyosiy rivojlanishida burilish yasashi mumkin.

### ***Pokiston Markaziy Osiyodagi manfaatlari***

Hindiston, Afg'oniston, Eron va Xitoy bilan chegaradosh, Ummon ko'rfazida portlarga ega bo'lgan Pokiston Janubiy Osiyoda strategik o'rinnegallaydi. U aholi soni jihatidan (160 million) jahonda oltinchi o'rinda turadi. Pokiston Islom Konferensiyasi Tashkilotining Indoneziyadan keyingi ikkinchi yirik a'zosidir. Demograflarning prognoziga ko'ra, aholi o'shining hozirgi sur'ati saqlanib qolsa, 2050 yilga borib Pokiston aholi soni jihatidan jahonda uchinchi o'ringa chiqishi mumkin.

Hindiston, Eron va Markaziy Osiyo bilan Pokistonni tarixiy rishtalar bog'laydi. 1947 yil avgustda Hindiston subkontinenti Britaniya mustamlakasidan ozod bo'lgach, bu erda ikki davlat vujudga keldi. Subkontinentning asosan musulmonlar yashaydigan qismini Pokiston deb nomlashga qaror qilindi. Bu akronimni 1933 yilda Kembrij talabasi Rahmat Ali o'ylab topgan edi. Unda "P" harfi "Panjob", "A" – "Afg'on", "K" – "Kashmir", "S" – "Singh" va "ton" – "Belujiston"ning bir qismini anglatadi. Bundan tashqari, "Pok" so'zi, o'zbek tilida bo'lganidek, forsiyida ham "toza", "iston" esa – yurt deganidir.

Yosh davlat qisqa vaqt ichida juda ko'p sinovlardan o'tdi. Demokratik taraqqiyot davri harbiy boshqaruv bilan bo'linib turdi. Kashmir muammosi vaqt-i-vaqt bilan tanglikka aylanib, qo'shni davlat – Hindiston bilan harbiy to'qnashuvlarga sabab bo'ldi. Afg'onistonidagi urush va beqarorlik bu mamlakat bilan qondoshlik rishtalari bilan bog'langan Pokistonga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Afg'onistonidagi eng yirik etnik guruh – pushtularning yarmi Pokiston hududida yashaydi va

ikki davlatni ajratib turgan bahsli Durand chizig'i bo'ylab muttasil ko'chib yuradi. "Sovuq urush" davrida Pokiston AQShning mintaqadagi eng yaqin hamkori edi. Afg'onistonda sovet bosqinchilariga qarshi urush boshlangach, Pokiston front yaqinidagi davlatga va afg'on mujohidlarini qurol-aslaha bilan ta'minlash bazasiga aylandi. O'sha davrda millionlab afg'on qochoqlari Pokistonning chegara oldi hududlarida panoh topdilarki, bu hozirgacha mamlakat uchun og'ir oqibatlarga sabab bo'lmoqda.

1998 yil Pokiston yadro qurolini muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazganini e'lon qildi. SHu tariqa u yadro quroliga ega birinchi musulmon davlatiga aylandi. Bunga javoban Pokistonga sanksiyalar belgilandi. Bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan bir vaqtida mamlakatda siyosiy tanglik yuzaga keldi. Buning natijasida Pokiston bosh vaziri Sharif lavozimidan chetlatildi va hokimiyatni general Parvez Musharraf egalladi. 2002 yil oktyabrda bo'lib o'tgan umumxalq parlament saylovida Musharraf va uning tarafdarlari g'alaba qozondilar. Lekin shu vaqtga kelib Afg'onistondagi voqealar hamda 90-yillarda Islomobod va Pokiston armiyasi tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlangan toliblar tuzumiga qarshi antiterroristik kampaniya munosabati bilan mamlakatda vaziyat keskinlashdi. Musharraf mamlakat pozitsiyasini tubdan o'zgartirishga qaror qildi va "Tolibon" harakatiga qarshi urushda AQShni qo'llab-quvvatladи. Bu mamlakatdagi islom aqidaparastlarining qattiq noroziligiga sabab bo'ldi. Musharrafga qarshi surunkasiga bir necha marta suiqasd uyushitirildi. Ayni vaqtida, Pokiston rahbariyatining bu harakati o'z samarasini berdi. Mamlakatning juda ko'p miqdordagi tashqi qarzi restrukturizatsiya qilindi, bir qismining esa bahridan o'tildi. Pokiston katta moddiy yordam oldi. Bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga o'zining ijebiy ta'sirini ko'rsatdi. O'z geosiyosiy raqiblari – qo'shni mamlakatlardan iqtisodiy taraqqiyotda orqada qolmaslik Pokiston hukumatining bosh vazifasidir.

Pokistonning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosiy strategiyasi yuqorida zikr etilgan muammolar majmui bilan belgilanadi.

Islomobod Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqilligini paysalga solmasdan, o'sha zahoti tan oldi. Tabiiyki, u mazkur davlatlar siyomsida o'z geosiyosiy ittifoqchilarini topishga umid qilar edi. Asosiy raqibi – Hindistonning yaqin hamkori bo'lgan Rossiya 90-yillar boshida Markaziy Osiyodan "strategik chiqib ketish" imkoniyati Pokistonni

bunga qattiq ruhlantirdi. Islomobod hali SSRI parchalanmay turib Markaziy Osiyo mamlakatlari suverenitetini qo'llab-quvvatlash va BMTga a'zo bo'lislida ularga yordam qo'lini cho'zishga tayyorligini bilvosita bildirgan edi. Mustaqillikning dastlabki yillarda Pokiston rahbariyatining mintaqadagi siyosiy aloqalari ancha faol bo'ldi. iqtisodiy hamkorlikka katta umid bilan qaraldi. Biroq keyin oradagi munosabatlarda uzoq tanaffus ro'y berdi.

Avvalo, mamlakatlarni bevosita bog'lovchi transport tarmoqlari yo'qligi, ularning o'rtaida joylashgan Afg'onistondagi urush savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga imkon bermasligi ayon bo'lib qoldi. Qolaversa, Pokiston Markaziy Osiyoning dunyoviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan Markaziy Osiyo mamlakatlari, avvalo O'zbekistonga yov ko'zi bilan qaraydigan "Tolibon" harakatini qo'llab-quvvatlagani, ayrim ma'lumotlarga ko'ra esa, uning tashkil topishida bevosita ishtirok etgani mintaqada davlatlarini Pokistondan uzoqlashtirdi. Nihoyat, Markaziy Osiyo mamlakatlaridan qochgan ekstremistik harakatlar va terrorchilik guruhlarining a'zolari Pokistonda panoh topgani ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

2001 yil 11 sentyabr voqeasidan so'ng yuqorida zikr etilgan masalalarga Islomobod munosabatining tubdan o'zgarishi Markaziy Osiyoda Pokiston mavqeining tiklanishiga imkoniyat tug'dirdi. Prezident Musharraf 2005 yil martda o'zining Toshkentga tashrifi chog'ida mamlakatlar va xalqlar o'rtaсидаги munosabatlarda "yangi davr" boshlanganini qayd etdi. U tinchlik va barqarorlikka qarshi xavflarga birgalikda kurash olib borishga, mintaqada mamlakatlari duch kelayotgan muammolarni hal qilishda yordam berishga tayyorligini tasdiqladi.

Pokiston mintaqadagi nufuzli kuch ekanligi shubhasiz. U Afg'oniston mojarosini tartibga solish jarayonlarida muhim rol o'ynadi. Shu bois mintaqada muammolarini hal qilishga Pokistonning faol aralashishi juda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Boz ustiga, Pokistonning kelajagi va iqtisodiy ambitsiyalarining ro'yobga chiqishi Markaziy Osiyodagi vaziyatga bevosita bog'liqligi ayon bo'lib bormoqda.

Bu erda avvalo Pokiston iqtisodiyoti ehtiyojlari uchun mintaqada energiya resurslaridan foydalanish istiqbollari nazarda tutilmoxda. Bugungi kunda Pokistonning o'rta sinfi 30 mln. kishidan oshib ketdi. Ularning iqtisodiy faolligi ancha yuqori bo'lib, energiya bilan ta'minlashni taqozo etadi. Pokiston Markaziy Osiyodan keladigan quvur yo'llari bu yerdan o'tib Hindistonga borishi va bu mazkur

mamlakat bilan til topish imkoniyatini tug'dirishiga umid qilmoqda. Pokiston biznesi mintaqasi bozorini o'zlashtirmoqda, bu erda o'z mahsulotlarini sotishga harakat qilmoqda. SSRI va Afg'oniston o'rtasidagi urush yillarda afg'on mujohidlariga yordam ko'rsatish bo'yicha faol harakatlar barham topganidan so'ng Pokiston portlaridan to'laqonli foydalanimay qo'yildi. Ularning rivojlangan port infratuzilmasi yuklanmay qolayotir. Islomobod Markaziy Osiyo mamlakatlari o'z transport strategiyasini Karachi va Gvadar portlariga qaratishidan manfaatdor ekanligini yashirmayapti. Agar Markaziy Osiyodan asosiy marshrutlar shu portlar bilan tutashsa, Pokistonning obro'li regional davlat sifatidagi ahamiyati yanada oshadi.

### **Xitoyning Markaziy Osiyodagi strategik manfaatlari**

Yevrosiyoning ikki qo'shni mintaqasi o'rtasidagi munosabatlar tarixi qiziqarli faktlar, sanalar va ajoyib shaxslarga to'la. XV asr boshida nomi tarix sahifalarida xitoycha ko'rinishda qolgan Markaziy Osiyolik musulmon – admiral Chjen Xe, Min sulolasiga oid Xitoy imperatori Chju Dini misli ko'rilmagan dengiz safarlariga mablag' ajratishga ko'ndirdi. Admiral Chjen Xe ixtiyoriga 300 kema va 20 mingga yaqin kishidan iborat ulkan flot berildi. 1405-1433 yillarda u etti marta safarga chiqdi, Janubi-Sharqiy Osiyoni aylanib o'tib, avval Hindiston, so'ngra – Afrika sohillariga (hozirgi Efiopiya hududida) etdi. Admiral Chjen Xe Afrika qirg'oqlarini tadqiq qilib, evropaliklardan yuz yil oldin Yaxshi Umid burunigacha suzib bordi. Markaziy Osiyoning yana bir vakili, buxorolik musulmon o'rta asrlarda Xitoyning yagona moliya tizimi tarkib topishiga ulkan hissa qo'shgani ma'lum.

Aloqalarning uzoq tarixini umumlashtirib, Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanish dialektikasini belgilab kelgan ikki muhim omilni qayd etish mumkin.

Savdo-sotiq, uning ko'lami va xususiyati yuqorida zikr etilgan munosabatlarning o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan birinchi va asosiy omildir. Buyuk ipak yo'lining Xitoyni Yevropa bilan bog'lagan quruqlikdagi barcha marshrutlari Markaziy Osiyo orqali o'tgan. Bu Yevropa va Uzoq Sharq o'rtasidagi tabiiy, eng qulay va yaqin yo'l aynan shu yo'lining marshruti ekanligini isbotlaydi.

Lekin keyinchalik siyosiy va iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi savdo-sotiqning kamayishiga olib keldi. XV asrdan boshlab Yevropa bilan Osiyo orqali quruqlik bo'ylab aloqalarning barham topishi Markaziy Osiyo va Xitoy munosabatlariga ta'sir ko'rsatgan muhim

holat bo'ldi. Iqlim o'zgarishi va mintaqadagi urushlar bilan bog'liq bo'lган bu holat 200 yil davom etdi. Ayni vaqtida, Rossiya XVI asrdan Osiyo yo'nalishida faol harakat qila boshladi. XVII asr o'rtalarida u Tinch okeaniga chiqdi va Xitoyning eng faol va yirik qo'shnisiga aylandi. 1689 yil Rossiya va Xitoy o'rtasida Nerchinsk shartnomasi tuzildi. Bu shartnomada chegaralar hamda savdo-sotiq shartlari belgilandi. Karvon savdosi yana yo'lga qo'yildi, lekin unda Rossiya salmoqliroq rol o'ynay boshladi.

Etnik jarayonlar Xitoy va Markaziy Osiyo munosabatlari tarixida muhim rol o'ynagan ikkinchi omildir. Bu jarayonlar Xalqlarning buyuk ko'chishi mohiyatini tashkil etgan. Xitoy bir necha marta qabilalar Sharqdan Markaziy Osiyoga va u erdan G'arbga ko'chishining manbai yoki sababchisi bo'lgan. Ba'zan bu Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlarining yangi, urushqoq davlat tuzilmalariga qarshi manfaatlarining mos kelishiga sabab bo'lgan. Mohiyat e'tibori bilan, bu Xitoy, Sharqiy Turkiston va Mavarounnahr o'troq sivilizatsiyalari ko'chmanchi qabilalarning ittifoqlariga qarshi bevosita yoki bilvosita kelishilgan kurash olib borishlariga olib kelgan. Masalan, Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari V asrda Turk hoqonligi ko'chmarchilariga, VII-VIII asrlarda – arablarga, XIII asrda – Chingizzon boshchiligidagi mo'g'ullar qo'shinga qarshi harbiy ittifoqlar tuzganlar. 1368-1373 yillarda Sohibqiron Temur mo'g'ullar o'r dasiga qarshi birga kurashish maqsadida Min sulolasini bilan ittifoq tuzdi va XIV asr oxirida bu kurash muvaffaqiyat bilan yakunlandi.

Lekin keyinchalik Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy asta-sekin zaiflasha boshladi. Markaziy Osiyoda bu uzuksiz o'zaro urushlar, shuningdek qit'alararo savdo yo'llari magistral yo'nalishlarining o'zgarishi natijasi bo'ldi. Xitoyda imperiyani saqlab qolish, chet viloyatlarini bo'ysundirishga urinishlar davlatning sillasini quritdi. Xalqaro maydonda Xitoy obro'sining pasayishi boshqa buyuk davlatlarga Osiyoda o'z mavqeini mustahkamlash imkonini tug'dirdi.

XIX asrda Markaziy Osiyo mintaqasida avvalo Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasida "Katta o'yin" boshlandi. Qo'shni Xitoy unda ishtirok etmadidi. 1885 yilda Xitoy Qoshg'arda Angliya qo'llab-quvvatlagan YOqubbek qo'zg'olonini bostirishga muvaffaq bo'ldi. Bu vaqtga kelib Rossiya Markaziy Osiyoni to'liq bosib olgan edi. Natijada to 1990-yillar boshiga qadar mintaqaning Xitoy bilan munosabatlari to'liq Xitoy-Rossiya, so'ngra – Xitoy-SSRI munosabatlarining mazmuni

bilan belgilanib keldi.

2002 yilda Xitoy jalb qilingan chet el investitsiyalari hajmi bo'yicha birinchi marta AQShdan o'zib ketdi (53 mlrd. dollar). Xitoyning butun jahon bo'ylab moliyaviy ekspansiyasi sifat jihatidan yangi hodisa bo'ldi. Xitoy kompaniyalari 2004 yilning o'zida faqatgina AQSh biznesiga 2,3 mlrd. dollar joylashtirdilar. Xitoy – ilg'or texnologiya-larni faol o'zlashtirayotgan mamlakat. Buyuk Britaniyaning o'zida 38 ming xitoylik talaba tahsil olmoqda. AQShda xitoylik talabalar soni bundan ham ko'p. Mamlakat statsionar va uyali telefonlarning umumiyligi soniga ko'ra jahonda birinchi o'rinni egallaydi (240 mln. abonent). Internetdan foydalanuvchilar soniga ko'ra xitoyliklar uchinchi o'rinda. 90-yillarda hukumat xalqaro iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlash-tirish dasturini qabul qildi va «to'rt yo'nalish bo'yicha rivojlanish» strategiyasini ilgari surdi. Shulardan biri Markaziy Osiyoga yondosh hududlar – Sinszyan va Ichki Mo'g'ulistonni rivojlantirish.

#### **Seminar savollari:**

1. Markaziy Osiyoning jahon siyosatida tutgan o'rni va ahamiyati
2. Tashqi kuchlarning Markaziy Osiyodagi manfaatlari
3. Eron Islom Respublikasining Markaziy Osiyodagi manfaatlari

#### **Mustaqil ishlar topshiriqlari:**

1. Turkiyaning Markaziy Osiyodagi manfaatlari
2. Hindistonning Markaziy Osiyodagi manfaatlari
3. Pokiston Markaziy Osiyodagi manfaatlari
4. Xitoyning Markaziy Osiyodagi strategik manfaatlari

## XULOSA

Qo'llanmadan o'rin egallagan masalalar ko'lamidan ko'riniň turibdiki, hozirgi kunda dunyo sahnasida yuz berayotgan siyosiy o'zgarishlar sayyoramizning qay nuqtasida sodir bo'lishidan qat'iy nazar, davlatlarning iqtisodiy-siyosiy taraqqiyotida aks etmay qolmaydi. Xalqaro munosabatlar bu davlat tizimlari va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, huquqiy, diplomatik va boshqa aloqalar hamda munosabatlar, shuningdek jahon maydonida harakatlanuvchi asosiy sinflar, asosiy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy kuchlar, tashkilotlar va jamoatchilik harakatlari, umuman, keng ma'noda xalqlar o'rtasidagi munosabatlar majmuidir.

Xalqaro siyosatning asosiy ustuvorliklari insoniyat va uning subyektlari oldida turgan umumiy muammolarni hal etish zarurati bilan bog'liq. Xalqaro siyosat ikki yoqlamalik xususiyatiga ega: xalqaro munosabatlarning har qanday subyekti o'z manfaatlarini himoya qilar va amalga oshirar ekan, u yoki bu darajada boshqa davlatlarning, jahon hamjamiyatining ham manfaatlarini hisobga olishi kerak. Shunga ko'ra, xalqaro siyosat uning subyektlarining o'z (milliy) manfaatlari hamda butun insoniyat oldida turgan dolzarb vazifalar va umumiy maqsadlar uchun kurashning hosisasi sifatida namoyon bo'ladi. Uning asosida jahon hamjamiyatida hokimiyatga va ta'sir doirasiga ega bo'lish uchun kurash yotadi.

Tashqi siyosat – bu davlatning xalqaro ishlardagi tutgan urnumiy yo'lidir. Davlatning tashqi siyosiy faoliyati bu uning muayyan tashqi shart-sharoitlarga moslashuvi vositasi hisoblanadi. Bu sharoitlar alohi-da bir davlatning ixtiyori, xohish-irodasi va maqsadlariga bog'liq bo'lmay, doimo ham uning manfaatlariga to'g'ri kelavermaydi. Shuning uchun har bir davlat o'zining tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshirishda uning ichki rivojlanishidan kelib chiquvchi chtiyojlari, maqsad va manfaatlarini tizimdagi obyektiv sharoitlar bilan muvofiqlashtirishga to'g'ri keladi. Tashqi siyosat muayyan bir davlatning hududidan tashqaridagi davlatlar bilan yoki davlatlardagi faoliyatini nazarda tutadi. Davlatning tashqi siyosati uning ichki siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro munosabatlarda amal qilayotgan tamoyiliarga bo'lgan munosabati, maqsadi va vazifalari bilan belgilanadi.

Shu boisdan, jahon siyosatiga oid nazariy va amaliy bilimlar oqilonaga siyosat yuritish, haqqoniy siyosiy qaror qabul qilish va mavjud muammolarga to'g'ri yechim toppish, davlat idoralari bilan fuqarolar

muloqetini tashkil etish, ijtimoiy-siyosiy islohotlar sifatini oshirish, siyosiy kuchlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish va shu orqali jamiyat taraqqiyotiga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni uy-g'un kechishini ta'minlash, siyosat sub'ektlari faoliyatining mahsuldarligini oshirish hokimiyat vakillari bilan fuqarolarning muloqotini samarali tashkil etish uchun ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga to'g'ri ta'sir ko'rsatish va ularni samarali boshqarishni o'rganish talab etiladi. Shunga ko'ra, jahon siyosati yo'nalishida tahsil olayotgan kadrlarning kelgusidagi amaliy faoliyati davomida siyosiy bilimlarni qo'llay bilishi O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh qilishning asosiy shartlaridan biriga aylanmog'i lozim.

## GLOSSARIY

“Jahon siyosati” fani bo‘yicha atamalar lug‘ati( glossariy)

**AD REFERENDUM (LOT. AD REFERENDUM)** - shartnomani shartli ravishda imzolash yoki hujjat matniga davlatning vakolatli organi yoki shaxsi tomonidan tasdiqlanishigacha rozilik bildirish.

**ADAPTATSIYA** - davlatning amaldagi ichki huquqiy normalari va qonunlariiga biror o‘zgartirish kiritmay turib, ularni xalqaro shartnomalarga moslashtirish.

**ADYUDIKATSIYA** - xalqaro arbitraj yoki sud qarori vositasida hududni qo‘lga kiritish. Hududiy nizoni tinch yo'l bilan hal etish vositalaridan biri.

**AGREGATSIYA** – siyosiy tizim funksiyasi bo‘lib, u xilma-xil talablar va manfaatlarni umumlashtirish, umumiy talablarni ishlab chiqish va ularning dolzarbligi, muhimligi nuqtai nazaridan pog‘ona-lashtirish bilan bog‘liq.

**AGREMAN (FR. AGREER MA'QULLAMOQ)** - biror davlatning aniq bir shaxsini boshqa davlatda diplomatik vakolatxonaning boshlig‘i sifatida qabul qilishga rozilik.

**AGRESSIYA (LOT. AGRESSIO, AGGREDIOR - HUJUM QILMOQ)** - xalqaro huquqda bir davlatning BMT Ustavini buzgan holda boshqa davlat yoki ma’lum bir davlatlarning hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch ishlatalishi.

**Akklamatsiya** – ovoz berishsiz, muhokamada ishtiroy etayotgan vakillarning qarsaklar, tovush chiqarish va shu kabilar orqali qaror qabul qilish usuli.

**AKKREDITATSIYA (LOT. ACCREDERE - ISHONMOQ)** – xalqaro tashkilotda biror davlat vakolatxonasi boshlig‘i yoki davlat vakilini tayinlash jarayoni.

**AKKRETSIYA** - davlat hududining yangi paydo bo‘lgan quruqlik hisobiga tabiiy ravishda kengayishi.

**AKTOR** – siyosiy hayotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita ishtiroy etuvchi siyosiy sub’ekt.

**ALTERNAT PRINSIPI** - shunday qoida bo‘lib, unga ko‘ra xalqaro shartnomanining nusxasida mazkur shartlashayotgan tomon uchun ushbu tomon nomini, uning vakolatli shaxslarining imzosini, muhrini, shuningdek, mazkur tomon tilidagi shartnomaga matnini tomonlarning umumiy ro‘yxatida birinchi o‘ringa qo ‘yish va bunda imzo uchun chap

tomondan joy qoldirish.

**ANALOGIYA** – (gr. o'xshash, monand) umuman, turli-tuman predmet va hodisalarining muayyan ma'noda o'xshashligi, bir-biriga monandligi.

**ANGARIYA** - urushayotgan tomonlardan birining hududida joylashgan betaraf (neytral) davlatlarning kemalari va boshqa transport, temir yo'l vositalaridan ushbu tomorning harbiy maqsadlarda foy-dalanishi.

**ANKLAV** - atrofi boshqa davlat xududi,quruqlik bilan o'ralgan mifikon (davlat)

**ANKLAV (LOT. INCLAVO - QULFLAYMAN)** - bir davlat hududining boshqa bir davlat hududining butun qismi (yohud bir qismi)ni zo'rlik ishlatib qo'shib yoki bosib olinishi.

**ANNEKSIYA (LOT. ANNEXIO - QO'SHIB OLİSH)** - bir davlat tomonidan boshqa bir davlat hududining butun qismi (yohud bir qismi)ni zo'rlik ishlatib qo'shib yoki bosib olinishi.

**ANTINOMIYA** – (fr. qonunga qarshi) bir xil darajadagi to‘g‘ri deb e‘tirof etilgan, lekin bir-biriga qarama-qarshi hukmlar to‘qashuv.

**APARTEID (AFRIKA BURLARI TILIDAN APARTHEID - ALOHIDA YASHASH)** - davlat aholisini irqiy belgilari bo'yieha ajratishga yo'naltirilgan irqiy siyosat.

**APATRID (YUNON. A - INKOR + PATRIS (PATRIDOS) - VATAN)** - fuqaroligi bo'limgan shaxs, ya'ni biror davlat bilan doimiy va barqaror siyosiy-huquqiy aloqaga ega bo'limgan shaxs.

**ARTIKULYATSIYA** – (lot. bo‘g‘in, tushunarli so‘zlash) siyosiy tizim funksiyasi bo‘lib, u qaror qabul qiluvchi tashkilotlarga talablarni bayon etish vazifasini bajaradi. Demokratik siyosiy tizimlarda bu vazifani manfaat gurulari, siyosiy partiyalar, parlament, avtoritar siyosiy tizimlarda esa korporativ institutlar bajaradi

**ASSIMILYATSIYA** - (lot. o‘xshab ketmoq) singib ketish, qo‘silib ketish.

**AUTENTIK MATN (YUNON. AUTHENTIKOS - HAQIQIY, DASTLABKI MANBA ASOSIDA)** - xalqaro shartnomanining asl, barcha rasmiyatchiliklarga amal qilib tuzilgan matni.

**AYB** - xalqaro huquqda huquqqa zid qilmish sodir etilishining aniqlangan fakti.

**BIPATRID (LOT. BI - IKKI + YUNON. PATRIS (PATRIDOS) - VATAN)** - ikki yoki undan ortiq fuqarolikka ega bo'lgan shaxs.

Xalqaro huquq tomonidan ma'qullanmaydi.

**BIXEVORIZM** – insonning xulq-atvor motivlarini, javob reaksiyalarini o'rganish zarurligi, shu tariqa ijtimoiy fanlar o'zlarining "gumanitar cheklanganligini" yengib o'tishi, hamda isbotlanganligi va aniqlik darajasiga ko'ra tabiiy fanlarga yaqinlashuvini asoslaydigan hozirgi zamon ijtimoiy fani yo'naliishi.

**BOSHHPANA** – biror shaxsga siyosiy, diniy yoki boshqa qarashlari natijasida bo'layotgm ta'qiblardan yashirinish uchun muayyan davlat hududi yoki ushbu davlatning diplomatik yohud konsullik muassasidan joy berish. Xalqaro huquqda hududiy va diplomatik boshpana, shuningdek, vaqtincha yashirish farqlanadi.

**BREYNSTORMING** – biror muammoni yechishda ekspertlar guruhining aqliy hujumini tashkil etish.

**CHAQIRIB OLISH YORLIG'I** – davlat boshlig'ining rasmiy xati bo'lib, shu davlat vakili akkreditatsiya qilingan davlat boshlig'i nomiga, elchi (vakil)ni muddati tugaganligi yoki boshqa sababga ko'ra chaqirib olishi to'g'risida yuboriladi va tashqi ishlar vazirining imzosi bilan mustahkamlanadi.

**CHEGARA** - quruqlik va suv hududlari, havo kengligi va yer osti boyliklari ustidan davlat suverenitetini belgilaydigan, quruqlik, havo yoki suv sathi bo'ylab amalda yohud tasavvuran o'tkazilgan chiziqlar.

**CHEGARALAR DELIMITASIYASI** – chegaradosh-davlatlar birgalikda, shartnomaviy asosda quruqlikdagi va suvdagi davlat chegaralari o'tishining umumiyligi y'o'nalishlarini jug'rofis yaritaga tushirishni amalga oshirish jarayoni.

**CHEGARALAR DEMARKATSIYASI (FR. DEMARKATION - CHEGARALASH)** - delimitatsiya qilingan chegaralarni joylarda aniq belgilash. Delimitatsiya yo'nalishlaridan birmuncha farq qilishi mumkin.

**DAVLAT SUVERENITETI (FR. SOUVERAIN - OLIY, YU-QORI, SOUVERAMETE - OLIY HOKIMIYAT)** - davlatning o'z ichki va tashqi huquq va majburiyatlarini to'laligicha, mustaqil ravishda amalga oshirishi.

**DEKLARATSIYA (LOT. DEKLARATIO - E'LON QILISH)** - ayrim xalqaro shartnomalarning nomlanishi bo'lib, shu sohaga oid asosiy prinsiplar va harakat dasturini belgilaydi.

**DELIKT (LOT. DELECTUM - BUZISH, GUNOH)** - xalqaro huquq subyekti tomonidan xalqaro-huquqiy normalar va prinsiplarni qasddan buzish bo'lib, u xalqaro-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

**DEMARSH (FR. DEMARCHE - CHIQISH, HARAKAT)** - horijiy davlatning munosabatlariga nisbatan diplomatik chiqish qilish.

**DENGIZDAGI QAROQCHILIK** - ochiq dengizda biror kema yoki uchish apparatiga yohud ularning bortidagi shaxslar yoki mulkka qarshi sodir etiladigan huquqqa zid zo'ravonlik harakati.

**DENONSAUTSIYA (LOT. DENUNTIATIO - BILDIRISH, XABAR BERISH)** - shartnomaning amal qilishini tugatish yoki shartnomaning o'zida ko'rsatilgan tartib va muddatlarda undan chiqish usuli.

**DEPONIRLAJSH** – xalqaro shartnomaning asl nusxasi, ratifikasiya yorlig'i, xalqaro shartnomaga qo'shilish va uni denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarni depozitariyga saqlash uchun topshirish.

**DEPORTATSIYA (LOT. DEPORTATIO - QUVG'IN, SUR-GUN)** - shaxsni boshqa davlatga majburan chiqarib yuborish (odatda soqchi kuzatuvi ostida amalga oshiriladi).

**DEPOZITARIY (LOT. DEPOSITUM - SAQLASHGA BERILGAN BUYUM)**

**DETERMINIZM** – geografik yoki siyosiy asosda barcha hodisalarning o'zaro ob'ektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bog'lanishi tug'risidagi ta'limot.

**DEZAVUIRLASH** – o'z diplomatik vakilining harakatlari yoki bildirgan fikrini hukumat yohud boshqa vakolathi davlat organi tomonidan rad etilishi.

**DINIY MODERNIZM** - diniy ta'limotlarni yangi zamon muhitiga moslashtirish, dinning turli muammolari oldini olish uchun dinda yangicha prinsip va yo'llarni ishlab chiqishni yoklovchilar harakati.

**DINIY TRADITSIONALIZM** - diniy ta'limotlarning har qanday tomonidan isloq qilinishiga qarshi chiqib, dinning fundamental prinsiplarini qayta tiklash tarafдорлари.

**DISPERSIYA** – (lot. tarqalgan, yoyilgan) siyosatda hokimiyating bir markazda to'planmay, butun jamiyatga yoyilishi ko'plab o'zaro bog'liq, uyg'un, hokimiyat markazlarining mayjudligi.

**DISPUT** – (lot. fikrlash, tahlil qilish, bahslashish) og'zaki ilmiy bahs, ommaviy ma'ruzadan so'ng avvaldan belgilangan opponentlar ishtirokidagi munozara.

**DISRAISL - (INGH DISMISSAL - BO'SHATISH)** - diplomatni xususry shaxs deb e'lon qilish.

**DIVERSIFIKATSIYA** – (lot. teng qilmoq) yalpi ko'p tarmoqli rivojlanishga qaratilgan davlat siyosati.

**DOGMATIZM** - ijtimoiy xayot o'zgarib borsa-da, uning har qanday yangi xususiyatlarini tan olmasdan muayyan tarixiy sharoitda yuzaga kelgan tushunchalar va qarashlarni qattiq turib yoqlovchilar.

**DUAYEN (DEKAN)** - diplomatik korpusning protokol bo'yicha boshlig'i (kattasi, oqsoqoli). Odatda duayen etib diplomatik korpus ichida eng uzoq muddat lavozimda bo'lgan elchi yoki vakil tayinlanadi.

**EKSPERT BAHOLASHNING BEVOSITA USLUBLARI** – shaxsiy muloqot asosida tashkil etilgan ekspert guruilarining taililiy faoliyati

**EKSPERT BAIOLASHNING BILVOSITA USLUBLARI** – bilvosita, noverbal o'zaro iarakat asosida tashkil etilgan ekspert guruilarining taililiy faoliyati.

**EKSTREMIZM** - ma'lum ma'noda terrorizmning sinonimi. Muayyan guruh va tashkilotlardagi o'ta mutaassib kishilar faoliyatining mafkurasi.

**EKSTREMIZM** - ma'lum ma'noda terrorizmning sinonimi. Muayyan guruh va tashkilotlardagi o'ta mutaassib kishilar faoliyatining mafkurasi.

**FANATIZM** - murosasiz; o'ta ketgan mutaassiblik.

**FRAKSIYA** - 1) parlamentdagi mavjud partiyalarning u yoki bunisining guruh. U doimo shu partiya a'zolari ilgari surayotgan g'oyalar asosida faoliyat olib boradi; 2) ma'lum bir ijtimoiy harakat yoki partiya ichidagi guruhlar. Ular ham o'z g'oyalarining bir butun harakat yoki partiya a'zolari tomonidan tan olinishi uchun ko'rashadi.

**FUNDAMENTALIZM** - asosga qaytish demakdir. Bu harakat amaliyotda qanday tus olishiga bog'lik. Agar u siyosiy tus olsa, qaysi soxada asosga qaytishni yoqlamasin, uning mohiyatii o'zgaradi.

**FUQAROLIK** - jismoniy shaxsning davlat bilan o'zaro huquq va majburiyatlar yig'indisida namoyon bo'ladigan barqaror siyosiy-huquqiy aloqasi.

**FUTUROLOGIYA** – (lat. kelajak to'jrisidagi ta'llimot) ijtimoiy jarayonlar, insoniyat tailil qiluvchi ilmiy nazariyalar.

**GEGEMONLIK (YUNON. HEGEMONIA - HUKMRONLIK, BOSHCHILIK)** - xalqaro munosabatlarda boshqalarga nisbatan ustunlik, yetakchilik, hukmronlik qilish (tarixiy hodisa)

**GENOTSID (YUNON. GENOS - NASH URUG<sup>4</sup> + LOT. CAEDERE - O'LDIRISH)** - biror milliy, irqiylar yoki diniy guruhni to'la yoki qisman yo'q qilish niyatida amalga oshiriladigan harakatlar, siyosat.

**GEOMAFKURA** - xalqaro munosabatlar nazariyasiga oid kategoriya bo'lib, u har tomonlama xususiyatlarga xamda muayyan qonuniyatlar va mezonlarga asoslanuvchi geosiyosag va masko'ra o'rtaсидиги ham o'zaro bog'lanish, ham o'zaro ta'sir etuvchi amaliy harakatlar yig'indisidan iboratdir.

**GEOSIYOSAT** - xalqaro munosabatlar nazariyasining eng asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, u ma'lum bir tarixiy sharoitda davlatning yoki davlatlar sistemasining xududiy joylashuvi asosida o'rganiladigan siyosiy bilimlar majmuasi. Qisqacha qilib aytganda, uni geografik o'lebovlar bilan insoniy munosabatlarning (siyosiy, iktisodiy, ijtimoiy, madaniy, harbiy) bir butunligi mujassamlashgan soxa deb aytish mumkin.

**GETEROGEN** – xilma-xil, sifat jihatidan turli negizlardan iborat.

**GLOBALIZM** - lotincha "globus" - shar demakdir. 1. Ilmiy jixatdan - yangi shakllangan fan bo'lib, uning atamasi ilmiy lugatda 60-70 yillarda paydo bo'lган. Mazkur atama bevosita Rim klubining ilk faoliyat damlari bilan bog'lik bo'lib, u klubning dastlabki tahliliy ma'ruzalar tuplami - "Birinchi global inqilob" da ilmiy-nazariy jixatdan talqin qilingan. 2. Siyosiy jixatdan - insoniyatga dahldor global muammolarni nafaqat nazariy jixatdan, balki amaliy jixatdan o'rganish, ularni bartaraf etish yo'llarini topish kabi masalalarni anglatadi.

**GOMOGEN** – asos e'tibori, kelib chiqishi hamda mohiyati jihatidan bir xil, bir turdag'i, yagona.

**GURUH** - o'z faoliyatlarida yoki munosabatlarida umumiylar, motiv va qoidalarga asoslanuvchi kishilar uyushmasi.

**GURUHBOZLIK** - ikki yoki undan ortiq individ yoki guruhlarning o'zaro kelishib yashirinchha yoki ochiqcha faoliyat olib borishi.

**HARBIY ASIRLAR** - urushayotgan davlat qurolli kuchlari tarkibiga kiruvchi, urushayotgan ikkinchi davlat tomonidan qo'lga olingan va shu davlat hokimiyyati ostida bo'lган shaxslar: Harbiy asirlar Jeneva konvensiyalari tomonidan himoya qilinadi.

**HUDUDIY NIZO** - hududning kimga tegishliligi yuzasidan davlatlar o'rtaсида vujudga keladigan nizo.

**HUDUDNI DEMILITARIZASIYA QILISH** - ilgari demilitarizatsiya qilingan hududga qurolli kuchlarni kiritish, unda qurilmalar, bazalar va boshqa harbiy obyektlarni qurish, bu hududga, ilgari taqiqlangan qurollarni joylashtirish.

**IDENTIFIKATSIYA** – u yoki bu siyosiy guruhga o'zini-o'zi boshqarishdan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilari, xususisi-

yatlar birligi.

**IDEOGRAFIK FANLAR** – hodisalarni, bo‘lib o‘tgan voqealarini, ya’ni xususiy holatlarni har tomonlama o‘rganadigan fanlar.

**IMMANENT** – biror voqeа, hodisa yoki jarayonga xos xususiyat.

**IMMIGRANT** – biror mamlakatga doimiy yoki uzoq muddatli yashash uchun ko‘chib kelayotgan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs.

**IMPLEMENTATSIYA (INGL. IMPLEMENTATION – AY-NAN AMALGA OSHIRISH, HAYOTGA TATBIQ ETISH)** - xalqaro-huquqiy normalarni asl holida ichki huquqqa tatbiq qilish, kiritish, amalga oshirish

**INDIGENAT** – “madaniylashgan” davlatlarning fuqarolari hisoblanib, shu bois imtiyozlardan foydalangan jismoniy shaxslar yig’indisi (tarixiy hodisa).

**INSTITUTSIONALLASHUV** – rasmiylashgan, barcha e’tirof etgan qoidalar, qonunlar, an’ana va marosimlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlar barqaror namunalaring shakllanishi.

**INSURREKSIYA** - diplomatning o‘z funksiyalarini bajarishdan bosh tortishi.

**INTERNIRLASH (QABUL QILIB OLISH)** – betaraф (neytral) davlat tomonidan, urushayotgan tomonlarga tegishli bo‘lgan shaxslarni qabul qilish.

**INTERNUNSIY** - Shahar-davlat muqaddas taxt Vatikanning diplomatik vakili, favqulodda va muxtor vakil maqomiga tenglashtiriladi.

**INTERPRETATSIYA** – talqin qilish, sharplash. Biror voqeа yoki hodisani muayyan nuqtai nazardan talqin qilish, tushuntirish, qarab chiqish.

**JO‘NATISH YORLIG‘I** - elchi (vakil) akkreditasiya qilinadigan davlat boshlig‘iga ushbu elchi (vakil)ni tayinlagan davlat boshlig‘i nomidan diplomatik kanallar orqali yuboriladigan rasmiy xati.

**KAPITULATSIYA** - dushman qurolli kuchlarining qarshilik ko‘rsatishni butunlay va so‘zsiz to‘xtatishi.

**KAUZALLIK** – sabab bilan belgilanganlik, sabab va faoliyatning qonuniy aloqasi. Tamoyil (yoki qonun) sifatida kauzallik quyidagilarni anglatadi: har bir voqeа yoki hodisa biror sababga ega (biror sabab bilan sodir bo‘lgan) va ayni vaqtda u yana boshqa bir voqeа yoki hodisaning ham sababchisidir; sababsiz hech narsa paydo bo‘lmaydi.

**KAZUS BELLİ (LOT. SASUS BELLİ)** - davlatlar o‘rtasida urush boshlanishining formal, yuzaki sababi.

**KAZUS FEDERIS (LOT. SASUS FOEDERIS)** - yuzaga kelishi xalqaro shartnomadagi tomonlarga ma'lum harakatlarni amalga oshirish huquqini beradigan sharoit yoki fakt.

**KLASSIFIKATSIYA** – predmet, hodisa va tushunchalarni sinflar, bo'limlar, darajalar bo'yicha, ularning umumiy belgilari, xususiyatlari, yagona asosiga ko'ra taqsimlash (tur, bo'limlarga kiritmoq). Klassifikatsiya bir xillik va o'xshashlikka quriladi.

**KLAUZULA (LOT. CLAUSULA - XULOSA)** - maxsus holatlarni beigilash uchun xalqaro shartnomalar yoki qonundagi alohida holat. Odatda xalqaro shartnomaning klauzula qismida tomonlar o'ttasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan prinsiplar (masalan, milliy rejirn, eng ko'p qulaylik yaratish prinsipi, preferensial rejim va boshq.) o'z izohini topadi.

**KOALITSIYA (LOT. COALITIO (COALITUS) – BIRLASHGAN)** - ikki yoki undan ortiq davlatlarning erkin ravishda umumiy maqsadlarga erishish, umumiy dushmanqa qarshi urush olib borish uchun tuzilgan birlashmasi, ittifoqi.

**KOLONIYA** – boshqa bir davlatga siyosiy yoki boshqa tomonдан qaram bo'lgan davlat yoki hudud.

**KOMBATANT** - urushayotgan tomonning muntazam qurolli kuchlari tarkibiga kiruvchi va harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etayotgan shaxs.

**KOMMUNIKE (LOT. SOMMUNICO, FR. COMMUNIQUE - XABAR QILAMAN)** - xalqaro shartnomalarning tuzilishi yoki natijalari, xalqaro konferensiylar va muzokalarlarning yohud harbiy harakatlarning borishi to'g'risidagi rasmiy xabar.

**KONDOMINIM (LOT. CONDOMINIIN "CON - BILAN, BIRGA + DOMINIUM - EGALIK QILISH)** – ma'lum hududni ikki yoki undan ortiq davlatning birgalikda tasarruf etishi.

**KONFRONTATSIYA** - qarama-qarshilik tufayli davlat ichida yoki xalqaro munosabatlarda vaziyatning keskinlashib, bir ijtimoiy guruhning ikkinchi ijtimoiy guruhga yoki bir davlatning ikkinchi bir davlatga muayyan masalalarda qarshi turgan davrini ko'rsatish uchun ishlatalidagan atama.

**KO'NGILLILAR** - urushayotgan tomonlardan birining qurolli kuchlari tarkibiga erkin ravishda qo'shilgan shaxslar.

**KONSENSUS** - ma'lum bir individlar, ijtimoiy guruhlar yoki davlatlar o'ttasida yuzaga kelgan u yoki bu darajadagi qarama-qarshiliklarga barham berish, murosaga kelish.

**KONSENSUS (LOT. CONSENSUS - KELISHUV, YAKDILLIK)** - xalqaro tashkilotlar (konferensiylar; organlarda qaror qabul qilish usuli bo'lib, ishtirokchi davlatlarning nuqtayi nazarlarini ovoz berishsiz, qaror qabul qilishda qarshiliklar bo'lmaganda qo'llaniladigan usul.

**KONSEPTUALLASHTIRISH** – ma'lumotlarni, har bir alohida holat, hoyta, voqealari hodaisaning uning orqasida turgan narsani, mazmunini nomlash.

**KONTRIBUTSIYA** - urush tugagandan so'ng yengilgan davlat yoki davlatlarning g'olib davlatga to'laydigan tovoni (tarixiy hodisa).

**KONVENSIYA** - xalqaro shartnomalarni nomlanishidan bira AQSHda konvensiyalar degan nomlanish ikki tomonlama shartnomalarni nomlash uchun, qolgan davlatlarda esa ko'p tomonlama shartnomalarni nomlash uchun qo'llanadi.

**KORPORATIVLIK** – jamiyatni tashkil etishning o'ziga xos modeli bo'lib, uning birlamchi elementlari sifatida individlar emas, iqtisodiy va funksional guruqlar turadi. Markaziy hokimiyat korporatsiyalarga birlashgan ana shu guruqlar vakillaridan tuziladi.

**KORRELYATSIYA** – faqat bir-biri bilan o'zaro taqqoslaganda biror mazmunga ega bo'lgan narsa va tushunchalar.

**KUMULYATIV VOTUM** – ko'p mandatli saylov okruglarida ovoz berish tartibi: unda saylovchi o'zida mavjud bo'lgan ovozning bir qismini yoki barchasini birlashtirib, uni nomzodlardan biriga berish iuquqiga ega bo'ladi.

**KVALIFIKATSION KO'PCHILIK** – eng muhim masalalar bo'yicha qaror qabul qilish uchun belgilanuvchi, ishtirokchilarning 2/3 yoki ¾ qismining bergan ovozlari.

**KVORUM (LOT. QUORUM (PRAESENTIA SUFFICIT) - QATNASHUVCHILAR (YETARLI))** - xalqaro tashkilotlar, konferensiylar va organlarda ishni boshlash va qaror qabul qilish uchun ularning reglamentlarida belgilab qo'yilgan ko'pchilik.

**LEGAT** - Rim katolik cherkovining boshqa davlatlardagi vakili

**LEGITIMLIK** – muayyan davlat xokimiyating qonuniyligi, a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi ni anglatuvchi qadriyatiy tushuncha. U tarixan an'anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda namoyon bo'ladi.

**LİBERTARİZM** – davlatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga aralashmasligi. Bu bozor munosabatlari sohasi ekanligi to'g'risidagi g'oyani targ'ib qiluvchi konsepsiya ("Chikago maktabi" – O.Fridman,

G.Bekker, A.Laffer).

**LOKALLASHTIRISH** – biror voqea, hodisa va xarakatlarni ma'lum joy bilan cheklash, uning muayyan xududdan, chetga chiqishiga yo'l qo'ymaslik.

**LONGITYUD TADQIQOT** – bir xil shaxslar, guruh yoki ob'ektlarni uzoq vaqt kuzatish va ma'lum bir vaqt o'tgach ular orasidagi o'tkazilgan so'rovni qayta tashkil etish, natijalarni avalgilari bilan qiyoslashga asoslangan tadqiqot usuli.

**MANFAAT GURUHLARI** – fuqarolarning davlat bilan munosabatlarda o'zgarishning xokimiyatga doir manfaatlarini bayon etish yoki ximoya qilishlari uchun ixtiyoriy tarzda birlashgan maxsus yoki moslashtirilgan tashkilotlar. Ular o'z oldilarga qo'ygan maqsadlari, faoliyat usullari, xokimiyatga ta'sir resurslari va boshqa belgilariga ko'ra siyosiy partiyalardan siyosiy partiyalardan farq qiladi.

**MAQOM** - xalqaro huquq sub'yektlari, alohida hududlar, shaxslar va inulk toifasining xalqaro huquq normalari bilan belgilab qo'yilgan holati.

**MATEMATIK MODELLASHTIRISH** – ijtimoiy borliq xususiyatlarini matematik tilda bayon etish imkonini beruvchi empirik tadqiqot usullaridan biri. Borliqning tadqiqoti uchun ahamiyatli tomonlarini lo'nda va abstrakt shaklda aks ettiradi, tadqiq qilinayotgan masalaning asosiy muammolarini aniq tassavur etish; sifatiy usullar yordamida olib bo'lmaydigan xulosalarga kelish imkonini beradi; tahlil uchun kompyuter texnologiyalaridan faol foydalanishga asoslanadi.

**MEMORANDUM** - bir yoki bir necha davlatlarning boshqa davlatga yozma murojaati. Unda xalqaro voqelikka oid holatlar o'z aksini topadi.

**MIQDOR USULLARI** – siyosiy ob'ektlar xususiyatlari va belgilarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita o‘lchashga, matematik formallashtirish va kvalifikatsiyaga asoslanuvchi usullar.

**MOBILLIK** – stratifikatsiya nazariyasida shaxs va gurug‘lar maqomining o'zgarishi bilan bog‘liq ko‘chishlar.

**MODUS PROSIDENDI (LOT. MODUS PROSIDENDI - HARAKAT TARZIJ** - u yoki bu harakat, yohud majburiyat qay tarzda va qanday tartibda bajarilishi kerakligini anglatadigan ibora.

**MODUS VIVENDI (LOT. MODUS VIVENDI - VAQTINCHALIK BITIM)** - mavjud holatlarda doimiy kelishuvga erishishning iloji bo'limganda hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar yuzasidan vaqtinchalik bitimga erishish.

**MONOTEIZM** - grekcha monos - bir, yagona, theos - xudo demakdir, ya'ni yagona xudolik.

**MORATORIY** - xalqaro huquq subyektlarining hudud va vaqt doirasida biror harakatdan o'zlarini tiyib turishlari yoki bu harakatlarni keyinga surish to'g'risida kelishib olishlari.

**MOTIV** - odamlarning biron bir ehtiyojini qondirish uchun harakatga kelishiga sabab bo'ladigan yondashuv yoki intilish.

**NATURALLASHISH** - manfaatdor shaxsning iltimosiga ko'ra biror davlat tomonidan uning fuqarolikka qabul qilinishi.

**NIZO (KOFLIKT, MOJARO)** - muayyan individlar, ijtimoiy guruhlar yoki davlatlar o'rtaida o'zaro ehtiyojlari qadriyatları, mafkuraları, manfaatlari va h.k. larning nomutanosibligidan kelib chiqqan qarama-qarshilik,ziddiyat, to'qnashuv.

**NOKOMBATANT** - qurolli kuchlar tarkibiga kiruvchi, qurolli kuchlarga yordam beruvchi, lekin o'zi bevosita harbiy harakatlarda ishtirok etmaydigan shaxs.

**NORMATIV BASHORAT**- cheklangan resurslar aniqlanganligi asosida kutilgan natijalarga erishish uslublari haqidagi prognoz

**NOTA (LOT. NOTE - BELGI, MULOHAZA, NUQTAYI NAZAR)** – diplomatik yozishmaga oid hujjatlarning bir turi (verbal va shaxsiy).

**NOTFFIKASIYA** - Tashqi ishlar vazirligi yoki diplomatik (konsullik) vakolatxona tomonidan nota yoki boshqa hujjat yuborish yo'li bilan biror xalqaro masala bo'yicha o'z davlatining nuqtayi nazarini bildirib biror fakt yoki hodisa bo'yicha rasmiy xabar berish.

**NUNSLY** – Shahar-davlat muqaddas taxt Vatikanning diplomatik vakili, favqulodda va muxtor elchi maqomiga tenglashtiriladi.

**OKKUPATSIYA (LOT OCCUPATIO, OCCUPO - EGALLAB OLAMAN, QO'LGA KIRITAMAN)** – 1) bir davlat qurolli kuchlari tomonidan boshqa davlat hududining bir qismini yoki butunlay, asosan, hujum qilish orqali vaqtincha egallab olish; 2) qadimgi Rimda egasi yo'q narsalarni, jumladan yerni egallab olish usuli.

**OPTATSIYA (LOT. OPTATIO - ISTAK, TANLASH, XOHISH, OPTO - TANLAYMAN)** - voyaga etgan shaxsning fuqarolikni ixtiyoriy ravishda tanlab olishi. Optatsiya huquqi bir davlatdan ikkinchi bir davlatga o'tayotgan hududning aholisiga taalluqli bo'ladi

**OROL** – suv bilan to'liq o'ralgan, tabiiy hosil bo'lgan quruqlik bo'lib, suv ko'tarilishida suv sathidan yuqorida bo'ladi.

**PARLAMENTYOR (FIR. PARPER - GAPIRMOQ)** - harbiy

qo'mondonlik tomonidan qarshi tomon bilan muzokara olib borishga vakil qilingan shaxs. Diplomatik daxlsizlik va imtiyozlardan foydalanadi.

**PAUPERIZM**- ommaviy qashshoqlanish, aholining kambag' alashuvi; yashash uchun zaruriy vositalardan maxrumlik

**PERMANENT** – doimiy, uzlusiz davom etadigan.

**PERSONA GRATA (LOT. PERSONA GRATA)** - maqbul shaxs.

Bitor bir davlat oldida alohida xizmatlar ko'rsatganligi uchun chet el fuqarolari maqbul shaxs deb e'lon qilinishlari mumkin. Bu holat ularga, bir qancha, bojxona, soliq va boshqa erkinliklarni beradi.

**PERSONA NON GRATA (LOT. PERSONA NON GRATA)** - nomaqbul shaxs. Ayrim diplomatlar va razvedkachilar shunday shaxs deb e'lon qilinishlari mumkin. Bu holda, ular 24 soat ichida ushbu davlatni tark etishlari lozim.

**PERSONA PREDILIKTA (LOT PERSONA PRAE DILECTA)** – eng maqbul shaxs. Xalqaro huquqda deyarli uchramaydigan holat

**PILOTAJ USLUBI** – muayyan metodikalarning (anketalar, rejalr, intervyu va x.k.) validligini aniqlash, tadqiqot tadbirlarini tekshirib olish maqsadida o'tkaziladigan sinov tadqiqoti.

**PLEBISSIT** – u yoki bu masala yuzasidan aholining fikrini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan umumxalq so'rovi. Odatda, hududiy o'zgarish yuzasidan o'tkaziladi

**POLITEIZM** - grekcha poly - ko'p, theos - xudo ma'nolarini anglatib, ko'p xudolilik ma'nosini anglatadi.

**POLITEIZM** - grekcha poly - ko'p, theos - xudo ma'nolarini anglatib, ko'p xudolilik ma'nosini anglatadi.

**POLYARIZATSIYA** - ijtimoiy guruhlar yoki muayyan bir jamiyatning ikkita asosiy qutbga bo'linib ketib, ular o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik xolatlarining yuzaga kelishi.

**POLYARIZATSIYA** - ijtimoiy guruhlar yoki muayyan bir jamiyatning ikkita asosiy qutbga bo'linib ketib, ular o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik xolatlarining yuzaga kelishi.

**POPULIZM** - lotincha populus - xalq, xalqparvalik, xalq manfaati va xuquqlari uchun ko'rash ma'nolarini anglatadi. Biroq bugungi kunda ko'prok "populizm" deganda, ma'lum bir arbob yoki siyosiy liderning xoqimiyat tepasiga kelishi uchun xalqning dolzarb muammosiga e'tiborini qaratib, ular olqishiga sazovor bo'lishi tushuniladi.

**POPULIZM** - lotincha populus - xalq, xalqparvalik, xalq manfaati va xuquqlari uchun ko'rash ma'nolarini anglatadi. Biroq bugungi kunda

ko‘prok “populizm” deganda, ma‘lum bir arbob yoki siyosiy liderning xoqimiyat tepasiga kelishi uchun xalqning dolzARB muammosiga e‘tiborini qaratib, ular olqishiga sazovor bo‘lishi tushuniladi.

**PRAKSEOLOGIYA** – sotsiologik tadqiqotlar yo‘nalishi. U faoliyat yoki faoliyatlar birligini ularning samaradorligi nuqtai nazaridan o‘rganadi.

**PREFERENSIYALAR** - bir davlat tomonidan boshqa davlat yoki davlatlar guruhiga o‘zaro savdoda beriladigan bojxona va soliq imtiyozlar.

**PRELIMINAR TINCHLIK SHARTNOMASI** - dastlabki, birlamchi bitim, unda urushayotgan tomonlar kelgusidagi tinchlik shartnomasining asosiy shartlarini belgilab oladilar.

**PROTEST** – qat’iy inkor qilish, bir davlat yoki davlatlar guruhining noto‘g’ri deb tasavvur qilinayotgan harakatlarga nisbatan qat’iy chiqishi.

**PROZELITIZM** - biror diniy yo‘nalish yoki konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar.

**PROZELITIZM** - biror diniy yo‘nalish yoki konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar.

**PROZELITIZM** - biror diniy yo‘nalish yoki konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar.

**QIDIRUV PROGNOZI** – iozirgi vaqtida mavjud tendensiyalarning kelajakda jam davom ettirilishi iaqidagi bashorat.

**QOCHOQLAR** – o‘zları doimiy yashab turgan davlatlarini, ta‘qib qilish harbiy harakatlar yoki tabiiy ofatlar yohud favqulodda vaziyatlar tufayli tashlab chiqib ketgan shaxslar.

**QULLIK** – o‘ziga nisbatan mulk huquqiga xos bo‘lgan ba’zi yoki barcha vakolatlar amalga oshirilayotgan shaxsning holati. Xalqaro huquqda qullik, qullikka olish, qullik siyosatini amalga oshirish konvensiyaviy tarzda taqiqlangan.

**RADIKALIZM** - ma‘lum bir guruh yoki jamoaning har qanday yo‘l bilan bo‘lsa, ham ko‘zlagan maqsadiga erishish uchun harakat qilishi.

**RATIFIKATSIYA LOT RATUS - HAL QILINGAN, TASDIQLANGAN + FACERE - QILMOQ** - davlatning oliv (vakillik) organi tomonidan xalqaro shartnomani tasdiqlash Odatda shundan keyin mazkur shartnomasi ushbu davlat uchun yuridik kuchga ega bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida Oliy Majlis xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qiladi.

**RATIFIKATSIYA YORLIGI** – xalqaro shartnomani davlatning vakolatli organi tomonidan ratifikatsiya qilinganligini tasdiqlovchi hujjat.

**REINTEGRATSIYA** - ilgari fuqarolikka ega bo'lgan va keyinchalik uni yo'qtgan shaxslarni o'sha davlat fuqaroligiga tiklanisfhi.

**REKVIZITSIYA (LOT. REQUISTIO - TALAB)** - mulkni haqini to'llash yo'li bilan majburiy ravishda dushman davlatning mulkiga yoki vaqtinchalik tasarrufiga o'tkazish.

**RELYATIV** – muayyan munosabatlardagina aiamiyatga ega, shu munosabatlar bilan belgilanuvchi, nisbiy.

**REPARATSIYA** – moddiy javobgarlikning bir turi bo'lib, yetkazilgan moddiy zararni, ziyon yetkazgan davlat tomonidan naturada yoki qat'iy summada qoplash.

**REPATRIATSIYA (LOT. REPATRIATIO - YANGIDAN, QAYTADAN + PATRIS (PATRIDOS) VATAN)** - boshqa davlat hududiga turli holat va sabablarga ko'ra kirib qolgan shaxslarni fuqaroligi, doimiy yashashi yohud kelib chiqishi davlatlariga qaytarish.

**REPRESSALIYLAR (QUROLLI BO'L MAGAN)** - biror davlat tomonidan sodir etilgan huquqbazarliklarga javob tariqasidagi huquqqa mos majburiy harakatlar.

**reprezentativlik** – tadqiq qilinayotgan birlikning xususiyatlarini aks ettiruvchi tanlov belgisi. (Reprezentatsiya-fr. vakillik).

**RES KOMMUNIS (LOT. RES COMMUNIS - UMUMIY MULK)** - Rim huquqi iborasi bo'lib, umumiyl foydalanishdagi buyumni anglatadi

**RES NUFLIUS (LOT. RES NULLIUS - HECH KIMNIKI BO'L MAGAN MULK)** – Rim huquqi iborasi bo'lib, biror shaxsnинг mulki bo'lmanan, kim birinchi bo'lib qo'lga kiritса, uning mulkiga aylanishi mumkin bo'lgan buyumni anglatadi

**RESEPSIYA (LOT. RECEPTIO)** – o'zlashtirish davlatning ichki normativ hujjatlarida xalqaro-huquqiy aktlarning aniq ifodasini berish.

**RESTITUTSIYA** - urushayotgan davlat tomonidan noqonuniy ravishda olib qo'yilgan va olib chiqib ketilgan mol-mulkni naturada qaytarish.

**RETORSIYA** - xalqaro huquq normalarin buzmaydigan, dushmanlik xatti- harakatlariga javoban amalga oshiriladigan huquqqa mos bo'lgan individual harakatlar.

**REZOLUTSIYA** - xalqaro tashkilot, konferensiya yoki organ tomonidan qabul qilinadigan hujjatning nomlanishi. Odatda rezolutsiyalar xalqaro huquqning manbasi sifatida tan olinmaydi.

**RUHIY PARADIGMA** – siyosatni tushuntirishdagi tabiiy paradigmalarning bir turi. U siyosat tabiatini ruhiy omillar orqali tushuntiradi, ya’ni inson ruhiyatni motivlar, dunyoni qabul qilish usuli va x.k. orqali.

**SATISFAKSIYA (INGL. SATISFACTION - QONIQISH)** - davlatlar siyosiy javobgarligining bir turi bo’lib, huquqbuzar-davlat tomonidan zarar ko’rgan davlatni qoniqtirishni anglatadi. Masalan, zarar ko’rgan davlatning bayrog’i, madhiyasiga mulozamatlar ko’rsatish, kechirim so’rash, ushbu davlat to’g’risida ko’rsatuva tayyorlash va efirda namoyish etish.

**SEGMENTATSIYA** - davlat yoki jamiyatda muayyan darajadagi qatlam va guruhlarning yuzaga kelishi, ularning biror konsensusga kelmasdan o’rtada nizolarning tobora avj olishi.

**SEKTA** - 1) diniy jixatdan - sekta, mazhab, tariqat; 2) umumiy olganda - ko’philikdan ajralgan guruh.

**SEKULYARIZATSIYA** - odamlarni ma’lum bir dindan chiqarish, diniy mulklarning musodara qilinishi.

**SEPARAT TINCHLIK** - koalitsiya yoki ittifoqdagi davlatlardan biri ushbu koalitsiya yoki ittifoqqa kirgan boshqa davatlarga bildirmay dashman tomoni bilan tinchlik shartnomasi tuzishi yoki yarashishi.

**SEPARATIZM** - ma’lum bir guruh ichidan ajralib chikib, o’z manfaatlari yo’lida harakatini davom ettirish; ma’lum bir davlat ichidagi millatlarning davlatdan ajralib chiqib o’z mustaqil davlatlarini tuzishga intilishi.

**SESSIYA** - xalqaro shartnomasi asosida davlat hududining bir qismini boshqa davlatga berish.

**SETTLEMENTLAR** - iqtisodiy qoloq mamlakatlarning shaharlari va mahalliy joylarida, xalqaro shartnomalarga binoan xorijiy fuqarolarga yashash va savdo-sanoat faoliyati uchun ijara berilgan va ekterritoriallikdan foydalanadigan hududlar (tarixiy hodisa).

**SIFAT USULLARI** – tadqiqotda individual tajriba, kuzatish, intuitsiya, tushunchalarining an’anaviy falsafiy va mantiqiy tailili usullari, tarixiy qiyoslash, shaxsiy va rasmiy hujjatlardan foydalanish, qaydlar, xulosa va tavsiyalarni publisistik asoslash usullaridan foydalanishga e’tibor qaratadi. Sifat usullari siyosiy iodisalar va jarayonlar, tizimlarning sifat jihatlarini tailil qiladi. Shuningdek, sifat usullari miqdor usullari bilan birgalikda qo’llanishi ham mumkin.

**SIYOSIY ADAPTATSIYA** – (lat. moslashish) siyosiy tizim,

siyosiy tuzilmalarning atrof-muhit talablariga moslashish jarayoni. U siyosiy tizim oldida turgan vazifalarning o‘zgarishi, yangi maqsadlar aniqlanishi, muammolarni hal qilish uchun yangicha yondoshuvlarning ishlab chiqilishida namoyon bo‘ladi.

**SIYOSIY ANTIPATIYA** - biror siyosiy lider, ijtimoiy guruhlar yoki davlatning davlat va jamiyatdagi faoliyatini xush ko‘rmaslik oqibatida u bilan murosasiz bo‘lishi.

**SIYOSIY BASHORAT** – 1) siyosiy jarayon kelajagi va oqibatlari to‘g‘risidagi siyosiy fikrlarning ishlab chiqilishi; 2) siyosiy hayot, uning jarayonlari, xodisalari rivojlanishining istiqbollari to‘g‘risidagi maxsus tadqiqot.

**SIYOSIY JARAYON** - jamiyat siyosiy tizimining shakllanishi, o‘zgarishi va faoliyat ko‘rsatishiga bevosita ta’sir etuvchi ijtimoiy sub’ektlar faoliyatining uyg‘unligi

**SIYOSIY MARKETING** - siyosatni siyosatchi va xalq, nomzod va saylovchi o‘rtasidagi ratsional munosabatlar tarzida tushunishdan kelib chiqib, yetakchilikka da‘vogar shaxsnинг sifatlari va fazilatlarini saylovchilarga (fuqarolarga) ma’qul tarzda ko‘rsatish.

**SIYOSIY ME’YOR** – siyosat sub’ekti e’tirof etgan va amalda rioya qiluvchi na’muna, qoida, faoliyat tamoyili. Ular: rasmiy-norasmiy, ojzaki-yozma, oshkora-yashirin; universal-xususiy bo‘lishi mumkin. Belgilangan tartibda qabul qilingan, qojozda qayd etilgan va siyosiy sub’ektlar uchun majburiy bo‘lgan siyosiy me’yorlar ayni vaqtida iuquqiy me’yorlar iamdir.

**SIYOSIY MENEJMENT** - davlat siyosatini samarali tashkil etish va samarali boshqaruvga oid fan.

**SIYOSIY MODEL** – siyosiy tizim yoki uning tarkibiy qismining ma’lum shakldagi originaldan farq etadigan siyosiy tasviri.

**SIYOSIY VAZIYAT** – siyosiy tizimning ma’lum bir davrdagi xolati.

**SIYOSIY VAZIYAT TAILILI** – jamiyat siyosiy tizimini tashkil qiluvchi barcha siyosiy aktorlarning xozirgi vaqtdagi o‘zaro xarakatini aniqlash va o‘rganish.

**SIYOSIY VAZIYATNING DIAGNOSTIK TAILILI** – har xil muammoli vaziyatlar chiqish ehtimollarini o‘rganish maqsadida siyosiy tizimning yoki uning ayrim tarkibiy qismlarining iozirgi holatini aniqlash va o‘rganish.

**SIYOSIY VAZIYATNING GORIZONTAL TAILILI** – siyosiy

jarayonlarda yaxlit aktor sifatida harakatlanuvchi noinstitutsional jamoalar va guruhlarning hozirgi holatini aniqlash va o'rganish.

**SIYOSIY VAZIYATNING VERTIKAL TAILILI** – siyosiy tizim ayrim institutlarining xolati va o'zaro xarakatini o'rganish.

**STATISTIK USULLAR** - tadbiqiy matematik statistikaga oid modellar va usullar birligi. Shartli ravishda ular ikkiga bo'linadi. 1-guruha, terma (tanslash) usuli, tavsiflovchi (ta'riflovchi) statistika, bojliqlik va aloqalar tahlili, statistik xulosalar, baiolar va mezonlar nazariyasi, tajribali rejalashtirish usullari kiradi. 2-guruiga darajalash, taksonomik tadbirlar, korrelyatsion, faktorli, sababiy tahlil va bir guruh statistik modellar kabi ko'p o'zgaruvchi usullar kiradi.

**STATUS-KVO (LOT STATUS QUO - ILGARIGI, BIRLAM-CHI HOLAT)** - ayni vaqtdagi yoki biror muddat oldin davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda yoki xalqaro maydonda mavjud bo'lgan holat.

**STATUT (INGL. STATUTE - QAROR QILAMAN, HAL ETAMAN)** - xalqaro organning faoliyatini tartibga soluvchi ko'p tomonlama xalqaro ta'sis hujjatining nomlanishi. Masalan, BMT Xalqaro Sudining Statuti, Xalqaro jinoyat sudining Statuti va boshq.

**SUNT SERVANDA PAKTI (LOT- PACTA SUNT SERVANDA)** - xalqaro majburiyatlarga qat'iy rioya qilinishi va ular vijdonan bajarilishi shartligi prinsipi

**TABULA RASA (LOT. TABULA RASA - TOZA, YOZIL-MAGAN DOSKA)** - boshqa davlatlar oldida o'tmishdosh-davlatning biror-bir majburiyatlarini olmagan, yangi paydo bo'lgan davlat.

**TAQVODOR** - arabcha so'z, xudodan qo'rqish; dinga o'ta e'tiqod qiluvchilarga nisbatan ishlatalidagan atama.

**TEGISHILLIK (TOBCLIK, PODDANNIY)** - juqarolikning o'zi, lekin monarxik boshqaruva shakliga ega davlatlarda qo'llaniladi. Tarixan, monarxga tegishli bo'lgan shaxslar fuqarolarga nisbatan huquq va erkinliklarning ko'pchiligidan foydalanishmagan.

**TERRORIZM** - jinoyatchilikka boshlovchi siyosat bo'lib, qo'r-qitish, vaximaga solish harakatlari, g'oyalari va h.k bildiradi, uning taktikasi va turlari juda ko'p.

**TRANSFERT (LOT TRANSFERRE – KO'CHIRMOQ, O'TKAZMOQ, JO'NATMOQ)** - bir davlatdan boshqa davlatga o'tayotgan hudud bilan birgalikda, unda yashovchi aholini, tegishlichcha boshqa davlat fuqaroligiga berish.

**TRANSFORMATSIYA** – siyosiy tizimlarning o'zgarish jarayoni

**TRANSFORMATSIYA** - xalqaro huquq normasini davlatning ichki huquq normasiga aylantirish.

**ULTIMATUM (LOT. ULTIMUS - ENG OXIRGI)** - biror davlatning, boshqa davlatga ultimatum yuborilgan muddat ichida talabiarni bajarmasa, muayyan choralar qabul qilish mumkinligi bilan tahdid qilgan holda qo'yilgan, kelgusida hech qanday bahslarga o'rin goldirmaydigan talabi.

**URUSH** - davlatlar o'rtasidagi, shuningdek, davlatlar va milliy-ozodlik harakatlari, qo'zg'olonchilik harakatlari o'rtasidagi tinch aloqalarni buzgan holda olib boriladigan harbiy harakatlar. Hozirgi zamон xalqaro huquqi urush iborasining o'rниga mojarо iborasini qo'llaydi, chunki Brian-Kellog paktiga (Parij pakti, 1928 y.) asosan, urush o'zaro muammolarni hal etish vositasi sifatida taqiqlangan.

**URUSH TEATRI (SAHNASI)** - urushayotgan davlatlarning harbiy operatsiyalar olib bora oladigan barcha hududlar (xalqaro rejimli hududlar bundan mustasno).

**VASSALLIK (LOT. VASSUS - XIZMATKOR)** - kolonial qaramlikning bir turi (tarixiy hodisa).

**VERBAL** - lot. og'zaki, so'zda ifodalangan.

**VERIFIKATSIYA** - respondent xabar beradigan ma'lumotlarning aniqligini o'chash uchun ziarat dalillarni toplash jarayoni.

**XALQARO NIZO** - fakt yoki huquq bo'yicha davlatlar o'rtasidagi bahs.

**XALQARO SHARTNOMAGA ISTISNO (OGOVORKA, CLAUSE)** - xalqaro ko'p tomonlama shartnoma qatnashchilaridan birining, shartnomaning biror qoidasini o'zi uchun majburiy emasligi haqida yoki shunday qoidani o'zgartirib qo'llash niyatida bir tomonlama rasmiy bayonoti.

**XALQARO SHARTNOMANI NOVATSIYA QILISH** - ishtirok-chilarning kelishuviga binoan, xalqaro shartnomadagi majburiyatlarni zamон talabidan kelib chiqib yangilanish.

**XALQARO SHARTNOMANI PARAFIRLASH** - vakolat berilgan shaxslarning ismi va otasining ismini qo'ygan holda xalqaro shartnomalarni umuman yoki bir qismini dastlabki imzoish.

**XALQARO SHARTNOMANI PROLONGATSIYA QILISH (LOT. PROLONGARE - UZAYTIRISH)** - xalqaro shartnomaning amalda bo'lishini, uning muddati tugagunicha shartnoma muntazamligini ta'minlash maqsadida uzaytirish.

**XALQARO SHARTNOMANI PROMULGATSIYA QILISH** - xalqaro shartnomani davlat ichida belgilangan tartibda e'lon qilish.

**XALQARO SHARTNOMANI QAYD ETISH, RO'YXATGA KIRITISH** - kuchga kirgan xalqaro shartnomani xalqaro tashkilotning maxsus registr (ro'yxat)iga kiritish. Bu holat, ushbu tashkilot organlarida, mazkur shartnomaga havolalar qilishga imkon beradi.

**XALQARO SHARTNOMANI REVIZIYA QILISH** - xalqaro shartnomaga tuzatishlar kiritish yoki uni o'zgartirish.

xalqaro shartnomaning asl nusxasi, ratifikasiya yorlig'i, xalqaro shartnomaga qo'shilish va uni denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlar saqlash uchun topshiriladigan organ yoki xalqaro mansabdar shaxs (odatda xalqaro tashkilotning Bosh kotibi).

**XALQARO SHARTNOMANING MUDDATI** - xalqaro shartnoma amalda bo'ladigan vaqt Xalqaro shartnomalar muddatli va muddasiz bo'ladi. Muddatli shartnomalar o'z navdatida aniq muddatli (masalan, 20 yilga) va nomuayyan muddatli (tomonlar kelishishiga bog'liq holda) bo'ladi.

**XALQARO VAZIYAT** - xalqaro kelishmovchiliklarning turlariidan biri bo'lib, ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasidagi keskinlik bilan tavsiflanadi

**ZARAR** - xalqaro huquq subyektlari faoliyati natijasida bosh-qalarga yetkazilgan moddiy yoki nomoddiy ziyon.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### Asosiy adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
3. Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. -Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бусагасида: ҳавфисизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистан, 1997.
6. Каримов И.А. Барқамол авлод орзуси. –Т.: Шарқ, 1999.
7. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Т.: Узбекистон, 1998.
8. И.Каримов. Ўз кёлажагимизни ўз қўлимиз билан қўрамиз. –“Туркестон” газетаси, 1999.
9. Н.Халипов. Коммуникативные технологии.-М: Мысль, 2000.
10. Римский клуб. История создания, избранные доклады и выступления, официальные материалы. Под редакцией академика РАН Д.М. Гвишиани. М., 1997.
11. Азизхўжаев А.А. Давлатчилик ва маънавият. – Т.: Шарқ.
12. Ёвқочев Ш.А. Исламский фактор в политической системе современного Египта. Монография.–Т.:ТИУ, 2008.
13. Ёвқочев Ш.А.Ислам и политика: Ўқув қўлланма. –Т.:ТИУ, 2011.
14. Ёвқочев Ш.А. Jahon siyosatida islom omili: Ўқув қўлланма. – Т.:ГДШИ,2016.
15. Жумаев Р.З. Давлат ва жамият: демократлаштириш йўлида.- Т.: Шарқ, 1998 й.
16. Жумаев Р.З. Политическая система Республики Ўзбекистан: становление и развитие Т.: Фан, 1996.
17. Наше глобальное соседство. Доклад комиссии по

- глобальному управлению и сотрудничеству. М.: Весь мир, 2011.
18. Поздняков Э.А. Философия политики. //Том-1,2 2-е изд., перераб. и доп. –М., 1994.
  19. Национализм: теория и практика. Сборник статей под редакцией проф. Позднякова Э.А. –М., 1994.
  20. Пугачев В.П., Соловьев А.И. Введение в политологию. 3-е изд, перераб. и доп. –М., 1996.
  21. Политология. Энциклопедический словарь. –М., 2009.
  22. Ўзбекистон Республикаси Миллий Энциклопедияси. – Т.:Энциклопедия, 1997-1017 й. 1-11 жиллар.
  23. Марказий Осие: хавфсизлик ва хамкорлик йўлида Маърузалар туплами, –Т.: 1995.
  24. Кременюк В.А. Проблемы переговоров в отношениях двух держав, США: Политика, экономика, идеология, 1991. № 3
  25. Иераэлян В.О. О дипломатических переговорах. Международная жизнь. 1998 г.

#### **Tavsiya qilinadigan adabiyotlar**

1. Хайруллаев М. Фаробийнинг фалсафий ва ижтимоий карашлари // Узбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан, –Т., Ўзбекистон, 1995.
2. Хайруллаев М. Фалсафа.(туплам) // Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. –Т.:Узбекистон,1998.
3. Социологический словарь. –Минск, 1991.
4. Российский социум: конфликтологическая экспертиза.–М., 1995.
5. Скаакунов Э.И. Чеченский конфликт. –М., 1996.
6. Чумиков А.Н. Управление конфликтом. –М., 1995.
7. Степанов Е.И. Методологическое обеспечение конфликтологических исследований // Социальные конфликты. – М., 1994. №7.
8. Общая теория права // Под ред. В.К.Бабаева. Нижний Новгород, 1993.
9. Общая теория права и государства. –М., 1996.
- 10.Лукич Р. Методология права. –М., 1981.
- 11.Сайдов А.Х. Введение в основные правовые системы современности. –Т., 1988.
- 12.Запрудский Ю.Г. Социальный конфликт (политологический анализ). Ростов, 1992.

13. Рубенштейн С.Л. Человек и мир, Методологические и теоретические проблемы психологии. –М., 1969.
14. Щепаньский Я. Элементарные понятия социологии. –М., 1969.
15. Философский энциклопедический словарь. –М., 1983.
16. Социальный конфликт. Современные исследования: Реферативный сборник. –М., 1991.
17. Вятр Е. Социология политических отношений. –М., 1979.
18. Социологические исследования. –М., 1992. №3.
19. конфликты и консенсус (сборник). –М., 1996. №3-4.
20. Szumski J. Konflikt sociologzny. –Kotowice, 1987.
21. Coser L.A. The Function of Social Conflict, Sociological Theory, L., 1957.
22. Бородкин Ф.М., Коряк Н.М. Внимание, конфликт! – Новосибирск, 1989.
23. Солововник С. “Центральная Азия. Геополитические контуры” - Международная жизнь, №9, 1993.
24. G.Fuller “Central Asia: the New Geopolitics”, 1992, №7.
25. Дипломатический вестник // №9, сентябрь, 1996.
26. А.Дж.Тойнби “Ислам, запад и будущее”. –С-Петербург,
27. Поляков Л.Е. Уруш баҳоси: демографик аспект. –М., 1985.
28. Соллснберг М., Валленштейн П. Кенг кўламдаги куролли мажаролар// Жаҳон иқтисоди ва халқаро муносабатлар, 1996. №1.
29. Кременюк В.А. Проблемы переговоров в отношениях двух держав.// США: Экономика. Политика. Идеология. №3,
30. Пряхин В. Новые средства в практике дипломатических переговоров// Международная жизнь, №12, 1987.
31. Кулиниченко В.А. О соотношении насилия и согласия в теории и на практике // Политические конфликты: от насилия к согласию. –М., 1996.
32. Израэлян В.О. О дипломатических переговорах // Международная жизнь, №12, 1998.
33. Мохонин В.А. Подходы к квалификации вооруженных конфликтов // Политические конфликты: от насилия к согласию. –М., 1996.
34. Санистебан Л.С. Основы политической науки. –М., 1992.
35. Психологический словарь. –М., 1990.
36. Лебедева М.М. Политическое урегулирование. –М., 1997.

37. Большая манипулятивная игра. Цуладзе А. М., 2001
38. Введение в паблик рилейшнз. Блэк С. Ростов-на-Дону, 1998.
39. Избирательная кампания «под ключ». Предложение, от которого можно отказаться и другие обидные вещи. Любашевский Ю.Я. М., 1999.
40. Избирательные технологии: история, теория, практика. С.Лисовский, В.Естафьев. М.,2000
41. Имидж и выборы. Почепцов Г.Г. Киев, 1997.
42. Имидж лидера. Психологическое пособие для политиков. Почепцов Г.Г. Киев, 1994.
43. Имидж: от фараона до президента. Почепцов Г.Г. Киев, 1997.
44. Имиджелогия. Секреты личного обаяния. Шепель В.М., 1994.
45. Имиджелогия: теория и практика. Почепцов Г.Г. Киев, 1998.
46. Имиджмейкер. Паблик рилейшнз для политиков и бизнесменов. Почепцов Г.Г. Киев, 1995.
47. Индустрия управляемой информации ("Паблик рилейшнз" — система пропаганды большого бизнеса США). Зяблюк Н.Г., 1971.
48. Информационные войны. Почепцов Г.Г. Москва, Киев, 2000.
49. Как победить на выборах. Жмыриков А.Д. Обнинск, 1995.
50. Как становятся президентами. Избирательные технологии двадцатого века. Почепцов Г.Г. Киев, 1999.
51. Коммуникативные технологии двадцатого века. Почепцов Г.Г. Москва, Киев, 2000.
52. Коммуникационный менеджмент. Рабочая книга менеджера по PR. Зверинцев А. СПб., 1997
53. Креативные технологии "паблик рилейшнз". Чумиков А.Н., 1998.
54. Основы паблик рилейшнз. Королько В.Киш., 1997.
55. Паблик рилейшнз, или как успешно управлять общественным мнением. Почепцов Г.Г. Москва, 1998.
56. Паблик рилейшнз. Лебедева Т.А. М., 1999.
57. Паблисити и паблик рилейшнз. Доти Д. М., 1996.

58. Политическая реклама. С.Лисовский. М.,2001
59. Политическая реклама: портрет лидера. Гринберг Г., 1995.
60. Политический брендинг. Активные избирательные технологии. Любашевский Ю.Я. , 1999.
61. Политическое консультирование. Под редакцией Е.Егоровой. М., 1999.
62. Приемы стратегии и тактики предвыборной борьбы. Фаер С. Спб., 1998.
63. Профессия: имиджмейкер. Почепцов Г.Г. Киев, 1998.
64. Психологические войны. Почепцов Г.Г. Москва, Киев, 2000.
65. Психологические проблемы массовых информационных процессов. Шерковин Ю.А. М., 1973.
66. Связи с общественностью. Чумиков А.И. М.,2000.
67. Технология популярности, или паблик рилейшнз. Соколов И. Минск, 1999.
68. Политические технологии.Учебный курс.// Ю.Я.Любашевский (рук. авт. коллектива) М., 2002.
69. Политология: политическая теория , политические технологии. А.И.Соловьев. –М.: МГУ, 2004.
70. Public Relations. Репутация, влияние, связи с прессой и общественностью, спонсорство. Тульчинский Г.Л.– СПб., 1994.
- Jurnallar**
1. Востоковедение (журнал ТашГИВ). – Ташкент.
  2. Маяк Востока (журнал ТашГИВ). – Ташкент.
  3. Международные отношения. –Ташкент.
  4. Полис. – Москва.
  5. Россия и мусульманский мир (бюллетень реферативно–аналитической информации). – Москва.
  6. Центральная Азия и Кавказ (общественно – политический журнал). Швеция. – Лулеа.
  7. The Foreign Affairs. – London.

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
Ma'ruza №1. JAHON SIYOSATI TARIXIGA UMUMIY SHARH. FANNING PREDMETI, OBY'EKTI VA PARADIGMASI .....	5
Ma'ruza №2. JAHON SIYOSATI SUB'EKLTLARI. JAHON SIYOSIY TIZIMINING TUZILMASI. JAHON RIVOJLANISHINING UMUMIY TENDENSIYALARI.....	23
Ma'ruza №3. GLOBALLASHUV ZAMONAVIY JAHON SIYOSIY RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI SIFATIDA .....	34
Ma'ruza №4. JAHON SIYOSATIDA SHAXS ROLI .....	55
Ma'ruza №5. JAHON HAMJAMIYATI VA JAHON SIYOSATI.....	67
Ma'ruza №6. JAHON SIYOSATIDA HOKIMIYAT UCHUN KURASH .....	86
Ma'ruza №7. JAHON SIYOSATIDA KO'P TOMONLAMA FORMATLAR .....	95
Ma'ruza №8. ZAMONAVIY DUNYODA INTEGRATSION JARAYONLAR .....	118
Ma'ruza № 9. ZAMONAVIY GEOSIYOSIY JARAYONLAR .....	133
Ma'ruza № 10. XALQARO TERRORIZMGA QARSHI KURASH VA JAHON SIYOSATI .....	141
Ma'ruza № 11. JAHON SIYOSATI VA XALQARO XAVFSIZLIK .....	172
Ma'ruza № 12. JAHON SIYOSATI VA MARKAZIY OSIYO.....	178
XULOSA.....	201
GLOSSARIY .....	203
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....	222

**Madaminova Durdona Iskandarovna**

**JAHON SIYOSATI**

*Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma*  
Tuzuvchi:

**Madaminova Durdona Iskandarovna**

Taqrizchilar:

**Sayfuddin Jo'rayev**

**Durbek Sayfullayev**

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta  
maxsus ta'lif vazirligining 2019 yil 2 maydagi  
394-sonli buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Bosishga ruxsat etildi: 10.12.2019

Bichimi 60x84 1/16 Shartli 14.25 b.t.

50 nusxada bosildi. Buyurtma № 4  
Toshkent davlat sharqshunoslik institutining  
kichik bosmaxonasi.

Toshkent, Shahrisabz ko'chasi, 25 uy.

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2019